

I.R. Asqarov, M.A. Bahodirova

# KIMYO

Savol-javoblar, masalalar, ularning yechilish usullari

(Oliy o‘quv yurtilariga kiruvchilar uchun qo‘llanma)

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent -2014

*Yerkeşuvchi bo'lgan o'zgarishlari haqida*

*Respublika ta'lif markazi huzuridagi kimyo fanlari bo'yicha ilmiy-metodik kengash tomonidan qo'llanma sifatida chop etishga tavsiya etilgan.*

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan ixtirochi, O'zbekiston xalq tabobati akademiyasi akademigi, kimyo fanlari doktori, professor I.R.Asqarovning umumiy tahriri ostida.

#### *Taqrizchilar:*

**I.S.Hakimjonova** — Toshkent shahar 112-sonli mактабning oliv toifali kimyo fani o'qituvchisi;


**G.S.Shoisayeva** — Respublika ta'lif markazining kimyo fanlari bo'yicha bosh metodisti;

**Yu.T.Isayev** — Andijon davlat universiteti, umumiy kimyo kafedrasи dotsenti, kimyo fanlari nomzodi.

#### **Asqarov I.R.**

Kimyo: savol-javoblar, masalalar, ularning yechilish usullari: oliv o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun qo'llanma /I.R.Asqarov, M.A. Bahodirova. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. — 380-b.

Ushbu risola oliv o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, qo'llanmada asosiy mavzular bo'yicha 2000 ta savollar va ularning javoblari keltirilgan. Shu bilan birga 100 dan ortiq masalalar ularning yechilish usullari hamda 1000 dan ortiq reaksiyalar keltirilgan.



10 42335  
3gi

UO'K: 54(075)  
KBK 24.Iya 729

© I.R. Asqarov, M.A.Bahodirova

© G'afur G'ulom nomidagi  
nashriyot matbaa-ijodiy uyi,  
2014

## SO'ZBOSHI

Butun borliq 118 ta kimyoviy element hosil qilgan noorganik va organik birikmalardan tashkil topgan bo'lib, odam organizmi 92 ta kimyoviy element hosil qilgan birikmalar mahsulidir. Kimyoviy birikmalarni fizikaviy, kimyoviy, biologik va boshqa xossalari o'rGANISH olam to'g'risidagi bilimlarni egallash imkonini beradi.

Har qanday mutaxassis olam haqidagi kundalik turmushda ishlatalayotgan narsalar, iste'mol qilinayotgan oziq-ovqatlar, foydalananayotgan kiyim-kechaklar, yoqilg'ilar, transport vositalari, boringki, har bir narsani mohiyatiga tushunish uchun kimyoga doir bilimlarni egallashi talab etiladi.

Demak, mukammal inson bo'lish uchun, atrof-muhitdagi sodir bo'layotgan jarayonlarni mohiyatiga tushunib yetish uchun kimyoga doir dastlabki bilimlarni bilib olish zarur. Mutaxassis esa o'z sohasini mukammal egallashi uchun o'zi ishlayotgan uskunadan tortib, har bir xomashyo va mahsulotning kimyoviy xossalari haqida ma'lum darajada bilimga ega bo'lishi zarur. Ana shundagina tafakkur qila oladigan va to'g'ri xulosa chiqara oladigan mutaxassis bo'lish mumkin.

Oshpazga ham, dorishunosga ham, fermerga ham, duradgorga ham, boringki barcha mutaxassis uchun dastlabki kimyoviy bilimlarni egallashi, o'z sohasini yetuk, barkamol mutaxassisini bo'lishda SUV va havodek zarurdir.

Kimyoga doir bilimlarni egallahsha kimyoning eng asosiy tushunchalarini bilib olish va ularni amaliyatga joriy etish asosiy omillardan biridir. Shuning uchun ham ko'pchilik mutaxassislar tayyorlashda kimyoviy bilimlarni egallashga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu risola oliy o'quv yurtlariga kirish maqsadida kimyoviy bilimlarni egallahsha bel bog'lagan bo'lg'usi talabalar uchun hamda kimyoga doir bilimlarni egallahni istagan keng kitobxon ommasiga mo'ljallangan bo'lib, hozirga qadar chop etilgan darslik va qo'llanmalardan farq qiladi. Ushbu qo'llanma kimyoning asosiy tushuncha va qonunlari, kislorod, vodorod, SUV va eritmalar, noorganik moddalarning eng muhim sinflari, davriy sistema va atom tuzilishi, kimyoviy bog'lanish va oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, elektrolitik dissotsiatsiya va eritma muhit ko'rsatkichi, kimyoviy kinetika, metallmaslar, metallar, organik birikmalar, ularning kislorodli va azotli birikmalari kabi boblardan iborat bo'lib, har bir bobda o'rGANILAYOTGAN mavzuning qisqacha mohiyati bayon qilingan.

Har bir mavzu bo'yicha aniq savollar va ularning javoblari berilgan. Shu bilan birga mavzular bo'yicha yuzdan ortiq masalalar berilib, ularning yechish usullari o'quvchilarga tushunarli tarzda bayon qilingan. Olingen bilimlarni mustahkamlash maqsadida noorganik va organik moddalarning eng muhim birikmalariga oid 1000 dan ortiq reaksiya tenglamalarining variantlari keltirilgan.

Ushbu qo'llanmani o'qib, o'zlarining qimmatli maslahatlarini bergenliklari uchun kimyo fanlari nomzodi Yu.T.Isayevga, Toshkent shahar 112-sonli maktabning oliy toifali kimyo fani o'qituvchisi I.S.Hakimjonovaga, Respublika ta'lim markazining kimyo fanlari bo'yicha bosh metodisti G.S.Shoisayevaga hamda ushbu risolani tayyorlashda amaliy yordam ko'satgan Andijon davlat tibbiyot oliygohi talabalari Jamshidbek Akbarov va Isomiddin Abumalikovga chuqur minnatdorchilik bildiramiz.

Qo'llanma haqida o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirgan barcha kitobxonlarga oldindan tashakkur izhor etamiz.

*Mualliflar*

## I BOB

### KIMYONING ASOSIY TUSHUNCHА VA QONUNLARI

*Har bir fanni o'zining asosiy atamalari, tushunchalari va qonunlari bo'lgani singari kimyo fanining ham o'ziga xos tushuncha va qonunlari mayjuddir. Dastlabki kimiyoiviy tushunchalarini hosil bo'lish, eramizdan avvalgi 640—546-yillarga to'g'ri kelib, hu davrda grek faylasufi Fales materiyani boshlang'ich moddasi suv, Anaksiman (eramizdan avvalgi 585—525-yillar) koinot asosini havo desa, Geraklit (eramizdan avvalgi 540—475-yillar) uni olov deh atadi. Grek elementlari deh atalgan bu horligni birliklarini grek faylasuflari ilgari surgan bo'lsa, keyinchalik buyuk ajododlarimiz Ahmad al-Farg'oniy, Abu Bakir ar-Roziy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi olimlar o'zlarining ilmiy asarlarida alkimyo va tibbiyotga doir qimmatli tushunchalar va ma'lumotlarni bergenlar.*

*XVIII asrga kelganda esa fanda yana-da jadal o'sishlar bo'lib, to'plangan tayanch bilimlar asosida kimiyoning asosiy qonunlari yaratildi va takomillashdi.*

*Ushbu hobda kimiyoning asosiy tushunchalariga doir 201 ta savollar va ularning javoblari hamda namunaviy masalalar va ularni yechish usullari keltirildi.*

#### **Kimyoning asosiy tushuncha va qonunlariga oid savollar va ularning javoblari**

1. O'zbekiston hududida yashovchi xalqlar qog'ozni nimadan olishgan?

- A) daraxt po'stlog'i, kanop;
- B) zig'ir, kanop;
- C) daraxt po'stlog'i, zig'ir.

2.  $H_2SO_4$ ,  $HNO_3$  va zar suvini ( $3HCl \cdot HNO_3$ ) olish usullarini kim yozib qoldirgan?

- A) Jobir ibn Hayyom (711—803);
- B) Abu Rayhon Beruniy (973—1048);
- C) Jobir ibn Hayyom (721—813).

3. Novshadil spirtini kim aniqlagan?

- A) Zakariyo ar-Roziy (958—1002);
- B) Al-Beruniy (1042—1074);
- C) Jobir ibn Hayyom (721—813).

4. Jobir ibn Hayyomning kimyo fani rivojiga qo'shgan hissasi qanday?

A) oq bo'yoq tayyorlash uslubini taklif qilgan,  $\text{CH}_3\text{COOH}$  ni haydash orqali tozalash usullarini o'rgangan;

B) yashil bo'yoq tayyorlash uslubini taklif qilgan,  $\text{CH}_3\text{COOH}$  ni haydash orqali tozalash usullarini o'rgangan;

C) oq bo'yoq tayyorlash uslubini taklif qilgan, smola olishni o'rgangan, kauchukni birinchi bo'lib ishlatgan.

5. «Yetmish kitob» muallifi kim va unda nima haqida yozilgan?

A) Al-Farg'oniy: zaharli gazlar va ulardan saqlanish haqida ma'lumotlar berilgan;

B) Jobir ibn Hayyom: unda metallar va minerallar haqida ko'p ma'lumotlar berilgan;

C) Al-Jomiy: inert gazlar hamda metallar haqida ma'lumotlar berilgan.

6. Minerallar, metallar va ular asosidagi ko'plab boshqa birikma, qotishmalar haqidagi asarlarni kim yozgan?

A) Abu Rayhon Beruniy (973—1048);

B) Ibn Sino (1074—1082);

C) At-Termiziy (958—975).

7. Ahmad al-Farg'oniy kimyoga oid qanday asar yaratgan?

A) «Kitob amal ar-jaholat»;

B) «Kitob amal ar-rahomat»;

C) «Saydana».

8. Kimyoviy moddalarni birinchi bo'lib sinflarga ajratgan olim?

A) Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy (855—935);

B) Abu Rayhon Beruniy (865—925);

C) Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy (865—925).

9. «Moddiy dunyo asosini birlamchi materiya tashkil etadi» Bu kimning fikri?

A) Abu Nasr Forobiy (873—950);

B) Abu Nasr Forobiy (863—940);

C) Ahmad al-Farg'oniy (873—950).

10. Abu Rayhon Beruniy qaysi asarida mineral dorilar haqida fikr yuritgan?

A) «Tib qonunlari»;

B) «Kitob as-saydana»;

C) «Hidayat».

11. «Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash» ixtisosligiga kimlar asos solgan?

A) I.R.Asqarov, O.S.Sodiqov. 1995-yil;

B) T.T.Risqiyev, S.Y.Yunusov. 1996-yil;

C) I.R.Asqarov, T.T. Risqiyevlari. 1997-yil.

12. Kimyo fani qanday fan?

A) moddalar, moddalarning agregat holati va ularning bir-biriga aylanishi to'g'risidagi fan;

B) moddalar, moddalarning fizik xossalari va ularning bir-biriga aylanishi to'g'risidagi fan;

C) moddalar, moddalarning xossalari va ularning bir-biriga aylanishi to'g'risidagi fan.

13. Kimyo fanining o'rganish predmeti nima?

A) barcha tabiiy va sintetik moddalar;

B) barcha tabiiy birikmalar;

C) barcha sintetik moddalar va qayta ishlangan birikmalar.

14. Abu Ali ibn Sino dorivor moddalarni ma'lum tartibda bo'lishini ta'riflash orqali qaysi qonunga asos soldi?

A) massaning saqlanish qonuniga;

B) tarkibning doimiylik qonuniga;

C) energiyaning saqlanish qonuniga.

15. Abu Ali ibn Sino dorivor moddalar sodda va murakkab dorilarga toifalash orqali nimaga asos soldi?

A) atom – molekular ta'lilotning dastlabki tushunchalarining shakllanishiga;

B) tarkibning doimiylik qonuniga;

C) atomlarning bo'linmas zarracha ekanligiga.

16. Flogiston nazariyasini kim yaratgan?

A) XVII asrda nemis olimi R. Boyl;

B) XVI asrda nemis olimi G. Shtal;

C) XVII asrda nemis olimi G. Shtal.

17. Element va korpuskulalar to'g'risida kimlar o'z fikrlarini bildirgan?

A) A. Laviuze (XVII asrda rus olimi);

B) M. Lomonosov (XVIII asrda rus olimi);

C) J. Prust (XVIII asrda ingлиз олими).

18. Lomonosov qaysi fikrlarini bayon qilish orqali atom-molekular ta'lomi to'g'risidagi tushunchalarini rivojlantirdi?

A) element va korpuskulalar to'g'risidagi;

B) karroziya va elektroliz to'g'risidagi;

C) gidroliz va sublimatlanish to'g'risidagi.

19. Yonish va oksidlanish jarayonlari haqidagi ilmiy nazariyalarni kim yaratgan?

A) nemis olimi K. Vinkler;

B) fransuz olimi P. Uillard;

C) fransuz olimi A. Laviuze.

20. Atomistik nazariyani kim yaratgan?
- A) skandinav olimi Nilsen;
  - B) ingliz olimi J. Dalton;
  - C) fransuz olimi L. Buabadron.
21. Davriy jadvalni kim yaratgan?
- A) 1869-yilda D.I. Mendeleyev;
  - B) 1879-yilda skandinav olimi Nilsen;
  - C) 1875-yilda fransuz olimi L. Buabadron.
22. Organik moddalarning tuzilish nazariyasining asoschisi kim?
- A) Ya.Berselius;
  - B) rus olimi A. Butlerov;
  - C) fransuz olimi P.Uilard.
23. O.S. Sodiqovning ilmiy maqolalari va ixtirolari soni nechtaga yetadi?
- A) 300 dan ortiq ilmiy maqola, 30 dan ortiq ixtirolari bor;
  - B) 275 dan ortiq ilmiy maqola, 78 dan ortiq ixtirolari bor;
  - C) 600 dan ortiq ilmiy maqola, 100 dan ortiq ixtirolari bor.
24. O.S. Sodiqovning g'o'zadan ajratib otingan moddalarni kompleks kimyoiy tekshirish natijalariga bag'ishlangan ishlari uchun qanday mukofot bilan taqdirlangan?
- A) D.I.Mendeleyev nomidagi oltin medal bilan (1985-y.);
  - B) Beruniy nomidagi davlat mukofotini (1982-y.);
  - C) fanlar akademiyasi akademigi unvoni bilan (1976-y.).
25. O'zFA Bioorganik kimyo institutiga kim asos solgan?
- A) S.Y.Yunusov;
  - B) O.S. Sodiqov;
  - C) N.A.Parpiyev.
26. Qaysi o'zbek olimi dunyoga mashhur bo'lgan kimyogar olimlar kitobiga kiritilgan?
- A) S.Y.Yunusov;
  - B) O. S. Sodiqov;
  - C) N.A.Parpiyev.
27. O'zFA o'simlik moddalarini kimyosi institutiga kim asos solgan?
- A) S.Y. Yunusov;
  - B) O.S.Sodiqov;
  - C) A.G'.Maxsumov.
28. S. Y. Yunusovning kimyo faniga qo'shgan hissasi?
- A) O'zbekistonda uchraydigan 360 dan ortiq o'simliklarda 200 dan ortiq alkaloidlarni aniqlagan;
  - B) O'zbekistonda uchraydigan 3500 dan ortiq o'simliklarda 2000 dan ortiq alkaloidlarni aniqlagan;

C) O'zbekistonda uchraydigan 3600 dan ortiq o'simliklarda 2000 dan ortiq alkaloidlarni aniqlagan.

29. N. A. Parpiyev qanday mavzuda ilmiy ishlar olib borgan?

A) geterosiklik birikmalar stereokimyosi, ularning tuzilishiga bag'ishlangan;  
B) koordinatsion birikmalar stereokimyosi, ularning tuzilishiga bag'ishlangan;

C) plastmassalar, sun'iy tolalar, o'tga chidamli kinofotoplyonkalar.

30. Mo, Re, W va Hg ni aniqlash usullarini kim o'rgangan?

A) N.A. Parpiyev;  
B) T.M. Mirkomilov;  
C) Y.T. Toshpo'latov.

31. Yuqori darajada toza molibden olishning termik usullarini kim ishlab chiqqan?

A) T.M. Mirkomilov;  
B) N.A. Parpiyev;  
C) Y.T. Toshpo'latov.

32. Oqsillar kimyoviy tuzilishi va ularning organizmga ta'siri to'g'risida kim ilmiy izlanishlar olib borgan?

A) A.A. Abduvahobov;  
B) N.R. Yusupbekov;  
C) Sh. I. Solihov.

33. «Logeden», «Timoptin», «Gazolidon» kabi preparatlarni kim yaratgan?

A) Sh. I. Solihov;  
B) H.U. Usmonov;  
C) N.A. Parpiyev.

34. Sh. I. Solihov zararkunandalarga qarshi qanday modda yaratgan?

A) timoptin ;  
B) feromon tutqichlari;  
C) gazolidon.

35. N.R. Yusupbekov qaysi sohada ilmiy ishlar olib borgan?

A) kimyoviy kibernetika;  
B) o'simlik moddalari kimyosi;  
C) elementorganik birikmalar kimyosi.

36. Ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirish tadqiqotlariga kim asos solgan?

A) T.M. Mirkomilov;  
B) A.A. Ibragimov;  
C) N.R. Yusupbekov.

37. Qaysi o'zbek olimi 1951-yili Respublikada I-bo'lib polimer moddalar laboratoriyasini tashkil etgan?

- A) A.A.Namozov;
- B) H.U. Usmonov;
- C) M.Y.Isaqov.

38. A.A.Abduvahobovning ilmiy ishlari qanday sohalarga mansub?

A) polimer moddalar kimyosi texnologiyasi, plastmassalar, sun'iy tolalar, o'tga chidamli kinofotoplyonkalar hamda fiziologik faol polimerlar sinteziga mansub;

B) propargil spirti hosilalari va geterosiklik birikmalar asosida yangi fiziologik faol moddalar sinteziga mansub;

C) elementar birikmalar kimyosi, nozik organik sintez muammolari, quyi molekulalar bioregulyatorlar ta'siri mexanizmining kimyoviy mohiyatini aniqlash, fazoviy kimyo sohalariga mansub.

39. Ilmiy ishlarini plastmassalar, sun'iy tolalar, o'tga chidamli kinofotoplyonkalar, fiziologik faol polimerlar sinteziga bag'ishlagan olim?

- A) T.M. Mirkomilov;
- B) SH.M. Mirkomilov;
- C) N.X. To'xtaboyev.

40. «K – I» preparatini kim yaratgan?

- A) M.A. Rahimjonov;
- B) Y.T. Toshpo'latov;
- C) G'.X. Hamroqulov.

41. «K – I» preparati nima maqsadda ishlatiladi?

A) fazoviy kimyo sohalariga mansub feramonlar sintez qilish va qishloq xo'jaligida keng ishlatilmogda;

B) kimyoviy tolalarni olish jarayonida ularning metallar yuzasi bilan ishqalanishi kamaytiruvchi modda sifatida to'qimachilik korxonalarini va kimyoviy tola zavodlarida keng ishlatilmogda;

C) molibden, reniy, volfram va simobni aniqlashda hamda yuqori darajada toza molibden olishda keng ishlatilmogda.

42. Qaysi olim ilmiy ishlarini propargil spirti hosilalari va geterosiklik birikmalar asosida yangi fiziologik faol moddalar sintez qilishga bag'ishlagan?

- A) M.P. Sirliboyev;
- B) I.I. Hakimov;
- C) A. G'. Maxsumov.

43. Qaysi olim kimyoviy tuzilish nazariyasining mikrozarracha asosida zamoniaviy talqinini taklif etgan?

- A) J.M. Azimov;
- B) A.G'. Maxsumov;
- C) Q.A. Ismoilov.

44. Moddalar qanday fizik xossalarga ega?

- A) rang, hid, zichlik, ta'm, qattiq, suyuq, gaz holatlari;
- B) o'tkazuvchanlik, oksidlovchilik, qaytaruvchilik;
- C) boig'alanish, plastiklik, qattiq, suyuq, gaz holatlari.

45. Hg to'kilgan joyga ...?

- A) ishqor (kul) sepish kerak;
- B) oltingugurt sepish kerak;
- C) simob qattiq holatda, chunki metall.

46. Kislotalarni suyultirishda kislota ustiga suv quyiladimi yoki suv ustiga kislota quyiladimi?

- A) suvni oz-ozdan idish devori bo'ylab kislotaga quyish kerak;
- B) kislotani oz-ozdan idish devori bo'ylab suvga quyish kerak;
- C) ikkala jarayonda ham kislota eritmasi hosil bo'ladi.

47. Konsentrangan kislota va ishqorlarning miqdori nima bilan o'chanadi?

A) faqat pipetka yordamida (kimyoviy tomizgich bilan o'chanash man etiladi);

B) faqat kolbada turgan holatda o'chanadi;

C) faqat tomizgich yordamida (kimyoviy pipetka bilan o'chanash man etiladi).

48. Atom haqidagi dastlabki fikrlar qachon paydo bo'lgan va kim tomonidan e'tirof etilgan?

- A) bundan 2500-yil oldin grek faylasufi Demokrit tomonidan;
- B) grek faylasufi Levkipp tomonidan 2500-yil oldin;
- C) o'zbek faylasufi Abu Rayhon Beruniy tomonidan 2500 yil oldin.

49. Kimyoviy element bu — ...?

- A) faqat bir elementdan tashkil topgan moddalar;
- B) atomlarning muayyan turi;
- C) molekular hamda nomolekular moddalar.

50. Element so'zining lug'aviy ma'nosi ?

- A) modda hosil qiluvchi;
- B) suvsizlantirilgan;
- C) tarkibiy qism.

51. Bugungi kunda fanga kimyoviy elementlarning nechta turi ma'lum?

- A) 118 ta;
- B) 109 ta;
- C) 117 ta.

52. Har bir kimyoviy element qanday ifodalanadi?

A) ruscha nomining bosh harfi, zarurat bo'lsa keyingi harflardan birini qo'shib yozish bilan;

B) lotincha nomining bosh harfi, zarurat bo'lsa valentligini qo'shib yozish bilan;

C) lotincha nomining bosh harfi, zarurat bo'lsa keyingi harflardan birini qo'shib yozish bilan.

53. «Tirik organizmlar kislorod bilan nafas oladi», «Aluminiy oksidi tarkibida kislorod bor». Bularning qaysi birida kislorod moddasi, qaysi birida kislorod elementi haqida gap boradi?

A) birinchi gapda kislorod elementi, ikkinchisida kislorod moddasi;

B) birinchi gapda kislorod moddasi, ikkinchisida kislorod elementi;

C) har ikkalasida ham kislorod elementi.

54. Nisbiy atom massa Ar dagi «r» nimani anglatadi?

A) «reaktiv» so'zining boshlang'ich harfi, u nisbiy degan ma'noni anglatadi;

B) «ridberg» so'zining boshlang'ich harfi, u nisbiy degan ma'noni anglatadi;

C) «relative» so'zining boshlang'ich harfi, u nisbiy degan ma'noni anglatadi.

55. Atom so'zining lug'aviy ma'nosi qanday?

A) yunoncha «atomos» — bo'linmas;

B) yunoncha «atomos» — harakatchan;

C) arabcha «atomos» — bo'linuvchan.

56. Atom va molekula tushunchalariga aniq izohlar qachon qabul qilindi?

A) 1850-yil bo'lib o'tgan kimyogarlarning xalqaro konferensiyasida;

B) 1860-yil bo'lib o'tgan kimyogarlarning xalqaro konferensiyasida;

C) 1870-yil bo'lib o'tgan kimyogarlarning xalqaro konferensiyasida.

57. Atomlar deb nimalarga aytildi?

A) kimyoviy hodisalarda moddaning bo'linuvchi eng kichik zarrachalari;

B) kimyoviy hodisalarda ishtirok etmaydigan eng kichik zarrachalari;

C) kimyoviy hodisalarda moddaning bo'linmaydigan eng kichik zarrachalari.

58. Hozirgi vaqtida atom-molekular ta'lilotining asosiy holatlari qanday izohlanadi?

1) moddalar ularning kimyoviy xossalari o'zida saqlovchi eng kichik zarralar bo'lgan molekulalardan tashkil topgan;

2) molekulalar atomlardan tashkil topgan;

3) atomlar murakkab tuzilishga ega bo'lib, e, p, n va boshqa mikrozarrachalardan tashkil topgan;

4) molekula va atomlar doimiy harakatda bo'ladi:

A) 1, 3, 4;      B) 1, 2, 4;      C) 1, 2, 3, 4.

59. Fizik hodisalarda molekulalar qanday o'zgaradi?

A) boshqa moddalarga aylanadi;

B) molekulalar o'zgarmaydi;

C) atomlarga parchalanadi.

60. Molekulalar qanday hodisalarda o'zgaradi?

- A) kimyoviy hodisalarda;
- B) fizik hodisalarda;
- C) hech qachon o'zgarmaydi.

61. Molekulalar asosida qanday kuchlar mavjud?

- A) magnit va paramagnit;
- B) tortishish va itarilish;
- C) ionlanish va aktivlanish.

62. Molekula uchun nimalar xos?

- A) zichlik, suyuqlanish, qaynash;
- B) massa, o'lcham, kimyoviy xossasiga ega;
- C) ionlanish, oksidlovchilik, qaytaruvchilik.

63. Suyuqlik molekulalari tartibsiz ravishda uzlusiz harakatda ekanligini kim aniqlagan?

- A) 1799-yil J. Prust-fransuz olimi;
- B) 1787-yil G. Kavendish-ingлиз олими;
- C) 1827-yilda ingлиз олими R. Broun.

64. Diffuziya nima?

- A) bir modda molekulalari boshqa modda molekulalari orasida tarqalishi;
- B) bir modda atomi boshqa modda atomi orasida tarqalishi;
- C) qattiq moddani suyuq modda ustida qalqib turishi.

65. Hidning havoda tarqalishini qanday hodisaga misol qilib keltirish mumkin?

- A) flotatsiya;
- B) diffuziya;
- C) sublimatlanish.

66. Molekulalar nima?

- A) moddalarning kimyoviy xossalari namoyon qiluvchi eng kichik bo'lagi;
- B) moddalarning fizik xossalari namoyon qiluvchi eng kichik bo'lagi;
- C) moddalarning kimyoviy xossalari namoyon qiluvchi eng katta bo'lagi.

67. Molekula bu ...?

- A) bir-biriga o'xshash atomlar guruhidan iborat zarrachalar;
- B) o'zaro bog'langan atomlar guruhidan iborat elementlar;
- C) o'zaro bog'langan atomlar guruhidan iborat zarrachalar.

68. Qachon molekulalar atomlarga parchalanadi yoki atomlardan iborat tarkibini o'zgartiradi?

- A) fizik jarayonlarda;
- B) kimyoviy reaksiyalarda;
- C) diffuziya hodisasida.

69. Kimning taklifiga ko'ra kimyoviy belgi, element lotincha nomining bosh harfi yoki bosh harfiga keyingi harflarning biri qo'shib yozilishi bilan ifodalanadi?

- A) 1799-yil J. Prust-fransuz olimi;
- B) 1813-yilda shved olimi Berselius;
- C) 1787-yil G. Kavendish-engliz olimi.

70. Atom molekular ta'lilot nuqtai nazaridan massaning saqlanish qonuni qanday izohlanadi?

- A) har qanday sof modda qayerda, qanday usulda va qancha olinishidan qat'iy nazar o'zgarmas massaga ega;
- B) kimyoviy reaksiya natijasida atomlar yo'qolmaydi va yo'qdan paydo ham bo'lmaydi, balki ular qayta gruppalanadi;
- C) kimyoviy reaksiya natijasida atomlar yo'qolmaydi va yo'qdan paydo ham bo'lmaydi, balki ular qayta gruppalanadi. Atomlar soni reaksiyadan oldin ham, keyin ham o'zgarmagani sababli ularning umumiy massasi ham o'zgarmaydi.

71. O'zgarmas tarkibli birikmalar qanday nomланади?

- A) daltonidlar (engliz olimi Dalton sharafiga);
- B) bertolidlar (fransuz olimi Bertole sharafiga);
- C) radonitlar (radioaktiv modda Radon nomiga).

72. O'zgaruvchan tarkibli birikmalar qanday nomланади?

- A) bertolidlar (fransuz kimyogari Bertole sharafiga);
- B) daltonidlar (engliz olimi Dalton sharafiga);
- C) radonitlar (radioaktiv modda Radon nomiga).

73. Moddalarni daltonidlar va bertolidlar deb nomlashni kim taklif etgan?

- A) Sheele;
- B) N. S. Kurnakov;
- C) Vinkler.

74. Qanday moddalar o'zgarmas tarkibli bo'ladi?

- A) molekular strukturali moddalar ( $H_2O$ ,  $CCl_4$ ,  $CO_2$ );
- B) atomlar strukturali moddalar (O, H, N);
- C) A va B.

75. Qanday moddalar o'zgaruvchan tarkibli bo'ladi?

- A) molekular strukturali moddalar ( $H_2O$ ,  $CCl_4$ ,  $CO_2$ );
- B) nomolekular strukturali moddalar (atomli, ionli va metall kristall panjaralari). Ularning tarkibi olinish sharoitiga bog'liq;
- C) A va B.

76. Oddiy gazlarning molekulalari qanday tuzilgan?

- A) ikki atomdan ( $H_2$ ,  $F_2$ ,  $O_2$ ,  $N_2$ ) iborat;
- B) ikki elementdan ( $N_2O$ ,  $CO_2$ ,  $SO_2$ );
- C) sharoitga qarab ikkalasi ham.

77. Nodir gazlarning molekulalari qanday tuzilgan?  
A) ikki atomdan ( $\text{He}_2$ ,  $\text{Ne}_2$ ,  $\text{Ar}_2$ ,  $\text{Kr}_2$ );  
B) ikki elementdan ( $\text{HeO}$ ,  $\text{XeF}_4$ ,  $\text{Kr}_4\text{N}$ );  
C) bir atomdan ( $\text{He}$ ,  $\text{Ne}$ ,  $\text{Ar}$ ,  $\text{Kr}$ ) iborat.
78. Hajmiy nisbatlar qonunining asoschisi kim?  
A) Gey-Lyussak;  
B) Lomonosov;  
C) Lavuazye.
79. Hajmiy nisbatlar qonunini ta'riflang?  
A) kimyoiy reaksiyaga kirishayotgan moddalarning umumiy massasi, reaksiya mahsulotlari umumiy massasiga teng;  
B) tabiatdagi har qanday o'zgarishlar izsiz yo'qolmaydi;  
C) o'zgarmas sharoitda reaksiyaga kirishayotgan va hosil bo'layotgan gazlarning hajmlari o'zaro kichik butun sonlar nisbatida bo'ladi.
80. Vodorod ( $\text{H}$ ) ning absolut massasi nechaga teng?  
A)  $0,01674$  g yoki  $1,674 \cdot 10^{-24}$  g;  
B)  $0,1674$  g yoki  $1,674 \cdot 10^{-24}$  g;  
C)  $0,01674$  g yoki  $16,74 \cdot 10^{-24}$  g.
81. Uglerod ( $\text{C}$ ) atomining absolut massasi nechaga teng?  
A)  $1,9993 \cdot 10^{-24}$  g;  
B)  $19,993 \cdot 10^{-24}$  g;  
C)  $19,993 \cdot 10^{-25}$  g.
82. Atomning nisbiy atom massasi deb nimaga aytildi?  
A) uglerod-12 ( $\text{C}^{12}$ ) izotopi atomi massasining  $1/12$  qismidan necha marta katta ekanligini bildiruvchi songa;  
B) kislород-16 ( $\text{O}^{16}$ ) izotopi atomi massasining  $1/12$  qismidan necha marta katta ekanligini bildiruvchi songa;  
C) oltingugurt-32 ( $\text{S}^{32}$ ) izotopi atomi massasining  $1/12$  qismidan necha marta katta ekanligini bildiruvchi songa.
83.  $^{12}\text{C}$  izotopi atomining  $1/12$  qismining massasi nechaga teng?  
A)  $16,6057 \cdot 10^{-24}$  g = 1 m.a.b.;  
B)  $1,66057 \cdot 10^{-25}$  g = 1 m.a.b.;  
C)  $1,66057 \cdot 10^{-24}$  g = 1 m.a.b.
84. Mol yoki g-mol deb qanday qiymatga aytildi?  
A) elementning nisbiy atom massasiga son jihatdan teng qilib grammlarda ifodalangan qiymatga;  
B) elementning mol massasiga son jihatdan teng qilib grammlarda ifodalangan qiymatga;  
C) elementning nisbiy atom massasiga zarrachalar jihatdan teng qilib gammlarda ifodalangan qiymatga.

85. Har qanday moddaning 1 molida qancha zarracha bor?

- A)  $60,2 \cdot 10^{23}$  ta zarracha (ion, molekula, atom) bor;
- B)  $6,02 \cdot 10^{24}$  ta zarracha (ion, molekula, atom) bor;
- C)  $6,02 \cdot 10^{23}$  ta zarracha (ion, molekula, atom) bor.

86. Kimyoviy formula nima?

- A) modda tarkibining kimyoviy belgilar va indekslar bilan ifodalanishi;
- B) davriy sistemadagi moddalarning muayyan turi;
- C) bir guruhda joylashgan elementlarning kimyoviy belgilar bilan ifodalanishi.

87. Kimyoviy formuladan nimalarni bilib olish mumkin?

- A) suyuqlanish va qaynash harorati;
- B) moddaning sifat va miqdor tarkibini;
- C) xossalari.

88. Molekulaning nisbiy molekular massasiga son jihatdan ifodalangan qiymati...?

- A) teng va grammlarda 1 mol;
- B) teng va grammlarda 22,4 mol;
- C) teng va grammlarda  $6,02 \cdot 10^{23}$  mol.

89. Modda miqdori nima bilan belgilanadi va qanday ifodalanadi?

- A) v (n) harfi bilan belgilanib, uning qiymati joul bilan ifodalangan;
- B) v (n) harfi bilan belgilanib, uning qiymati kulon bilan ifodalangan;
- C) v (n) harfi bilan belgilanib, uning qiymati mol bilan ifodalangan.

90. Moddaning molyar massasi nima bilan belgilanadi va qanday ifodalanadi?

- A) Ar harfi bilan belgilanib, g/mol bilan ifodalanadi;
- B) M harfi bilan belgilanib, g/mol bilan ifodalanadi;
- C) M harfi bilan belgilanib, g/l bilan ifodalanadi.

91. Valentlik nima?

A) element atomlarining boshqa elementning muayyan sondagi atomlarini biriktirib olish xususiyati;

B) 1 mol vodorod atomlari bilan birikadigan yoki kimyoviy reaksiyalarda shuncha vodorod atomlarining o'rnini oladigan miqdor;

- C) moddalarning bir-biri bilan proporsional miqdorda ta'sirlashishi.

92. Valentlikning o'lechov birligi qilib qaysi element valentligi olingan?

- A) kislород (O) ning (II);
- B) litiy (Li) ning (I);
- C) vodorod (H) ning (I).

93. Kislород atomining valentligi ...?

- A) ikki (II) (ba'zi birikmalarda I) ga teng;
- B) ikki (II) (ba'zi birikmalarda III) ga teng;
- C) o'zgarmas ikki (II).

94. Cl atomining diametri ( $\text{A}^\circ$ ) qancha?

- A)  $1,8 \text{ A}^\circ$  yoki  $0,18 \text{ nm}$ ;
- B)  $2,8 \text{ A}^\circ$  yoki  $0,28 \text{ nm}$ ;
- C)  $0,8 \text{ A}^\circ$  yoki  $0,08 \text{ nm}$ .

95. Massa atom birligi deb nimaga aytiladi?

$$\text{A)} {}^{12}_{\text{C}} \text{ izotopi absolyut massasining } 1/12 \text{ og'irlik qismi} \left( \frac{19,93 \cdot 10^{-27} \text{ kg}}{12} \right) = 1,667 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$$

ga teng bo'ladi, bu miqdor m.a.b. deyiladi;

- B)  $0,012 \text{ kg}$  ugleroddagi atomlar soniga teng zarrachalar tutuvchi miqdor;
- C)  $6,02 \cdot 10^{23}$  ta ion tutgan moddalar.

96. 31 m.a.b. nechaga teng?

- A)  $22,4 \text{ kg}$ ;
- B)  $1,667 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$ ;
- C)  $6,02 \cdot 10^{23} \text{ kg}$ .

97. Nisbiy atom massa bu ...?

- A) molni, hajmga nisbati;
- B) Avogadro soni;
- C) elementning miqdoriy ko'rsatkichi.

98. Moddalar ... tarkibga ega.

- A) aniq fizik;
- B) aniq miqdoriy;
- C) aniq kimyoziy.

99. Tabiatdagi barcha moddalar nimalardan tashkil topgan?

- A) kimyoziy elementlardan;
- B) kimyoziy birikmalardan;
- C) kimyoziy minerallardan.

100. Yer yuzasining foydali qazilmalar olinadigan qismi massasining 90 % ini qaysi moddalar tashkil etadi?


- A) asosan 4 ta:  $\text{O}_2$ , Si,  $\text{N}_2$ , Fe;
- B) asosan 5 ta:  $\text{O}_2$ , Si, Al, Fe, Ca;
- C) asosan 6 ta: Ca,  $\text{O}_2$ , Si, Fe, Al, Zn.

101. Inson tanasining asosiy qismini qaysi elementlar tashkil etadi?

- A) 3 ta: C, O, N;
- B) 3 ta: N, O, H;
- C) 3 ta: O, H, C.

102. Kimyoziy birikma deb nimaga aytiladi?

- A) 2 va undan ortiq har xil moddaga parchalaruvchi moddalar;
- B) 2 va undan ortiq bir xil moddaga parchalanuvchi moddalar;
- C) faqat 2 xil moddaga parchalanuvchi moddalar.



103. Moddalarni tashkil etuvchi zarrachalarning tabiatiga ko'ra moddalar nechaga bo'linadi?

- A) 2 ga: oddiy va murakkab;
- B) 2 ga: molekular va nomolekular;
- C) 2 ga: suvda eriydigan va erimaydigan.

104. «Molekula tuzilishidagi moddalar 1 xil molekulalardan tashkil topgan va shuning uchun bunday moddalar tarkibi o'zgarmas bo'ladi». Bu fikr muallifi kim?

- A) A.M. Butlerov;
- B) D.I. Mendeleyev;
- C) J. Dalton.

105. Qattiq holatdagi molekular kristall panjaraga ega bo'lgan moddalarni aytинг?

- A) muz, «quruq muz» –  $\text{CO}_2$ ,  $\text{J}_1$  naftafin;
- B) kvars  $\text{SiO}_2$ , kremniy Si;
- C) karborund  $\text{SiC}$ , kremniy Si.

106. Nomolekular tuzilishli moddalarning agregat holati qanday bo'ladi?

- A) asosan suyuq;
- B) asosan qattiq;
- C) yarim suyuq.

107. Tarkibi va xossalari butun hajmi bo'yicha bir xil modda qanday modda hisoblanadi.

- A) softoza modda;
- B) sof gaz modda;
- C) sof suyuq modda.

108. Barcha moddalar tarkibiga ko'ra nechaga bo'linadi?

- A) 3 ga: suyuq, gaz, qattiq;
- B) 2 ga: molekular va nomolekular;
- C) 2 ga: toza modda va aralashma.

109. Aralashmani tozalashning qanday usullari bor?

- A) tindirish, filtrlash, haydash, ekstraksiya qilish, magnit bilan ta'sir etish, sublimatlash, xromatografiya qilish, zinali suyuqlantirish;
- B) tindirish, filtrlash, haydash, magnit bilan ta'sir etish, sublimatlash, xromatografiya qilish, zinali suyuqlantirish;
- C) tindirish, filtrlash, haydash, ekstraksiya qilish, magnit bilan ta'sir etish, sublimatlash, xromatografiya qilish.

110. Butun hajmi bo'yicha 1 xil tarkib va xossaga ega bo'lgan modda nima deb ataladi?

- A) dag'al;
- B) kalloid;
- C) gomogen.

111. 1 stakan suvda 1 choy qoshiq tuz eritilsa suv necha C° da muzlaydi?

I osh qoshiqda-chi?

- A) – 4° C da; – 6° C da;
- B) – 2° C da; – 4° C da;
- C) doim 0° C da.

112. Moddalarning tozaligini ko'rsatish uchun qanday belgilashlar qo'llaniladi?

- A) gomogen (G), geterogen (Gt), kolloid (kd);
- B) toza (R), sof (S);
- C) texnik (t), sof toza (s), analiz uchun toza (a,u,t.), kimyoviy toza (k,t.) maxsus toza (m,t.).

113. Eng toza modda qanday helgilanadi?

- A) «chin modda»;
- B) «maxsus toza»;
- C) «konsentrangan modda».

114. Ifoslangan osh tuzini tozalash necha bosqichda amalga oshiriladi?

- A) ifoslangan osh tuzi → ifoslangan osh tuzini eritish → ifoslangan osh tuzining eritmasini filtrlash → filtratni bug'latish → toza osh tuzi;
- B) ifoslangan osh tuzi → ifoslangan osh tuzini konsentrash → ifoslangan osh tuzining eritmasini filtrlash → filtratni bug'latish → toza osh tuzi;
- C) ifoslangan osh tuzi → ifoslangan osh tuzini konsentrash → ifoslangan osh tuzining eritmasini filtrlash → toza osh tuzi.

115. Eritmani filtrlash uchun nimadan foydalaniladi?

- A) moylangan g'ovak qog'ozdan;
- B) yelimsiz, g'ovak qog'ozdan tayyorlangan filtdan;
- C) yelimlangan g'ovak qog'ozdan.

116. Filtrat nima?

- A) filtrlanishi kerak bo'lgan eritma;
- B) filtrlovchi qog'oz;
- C) filtdan o'tgan tiniq eritma.

117. Oddiy moddalarga qanday moddalar kiradi?

- A) bir element atomidan tashkil topgan moddalar;
- B) bir necha elementdan tashkil topgan moddalar;
- C) bir xil element atomlaridan tashkil topgan moddalar.

118. Murakkab moddalarga qanday moddalar kiradi?

- A) bir xil element atomidan tashkil topgan moddalar;
- B) turli element atomlaridan tashkil topgan moddalar;
- C) bir necha bir xil atomdan tashkil topgan moddalar.

119. Bir element atomlardan turli oddiy moddalar hosil bo'lishi nima deyiladi?

- A) allotropiya;
- B) diffuziya;
- C) reabsorbsiya.

120. Uglerodning allotropiyalarini ayting?

- A) olmos, marmar, grafit, fulleren;
- B) olmos, grafit, karbin, fulleren;
- C) olmos, silan, grafit, fulleren.

121. Oltingugurtning allotropiyalarini ayting?

- A) rombik, plastik, qizil va sariq;
- B) rombik va plastik, amorf va suyuq;
- C) rombik va plastik, kristallar va amorf.

122. Fosforning allotropiyalari qaysilar?

- A) qilzil va qora, och pushti;
- B) qizil, oq, och pushti;
- C) qizil, oq, qora.

123. Kislorodning allotropiyasini ayting?

- A)  $O_2$ ,  $O_4$ ;
- B)  $O_2$ ,  $O_3$ ;
- C)  $O_3$ ,  $O_4$ .

124. Moddaning tarkibini tekshirish uchun amalga oshiriladigan jarayon nima deyiladi?

- A) analiz;
- B) sintez;
- C) sifat analiz.

125. Modda hosil qilish jarayoni nima deyiladi?

- A) sintez;
- B) analiz;
- C) sifat analiz.

126. Birikma qanday tarkibiy qismlardan iborat ekanligini aniqlash nima deyiladi?

- A) analiz;
- B) sifat analiz;
- C) sintez.

127. Birikma tarkibiy qismlari qanchadan iborat ekanligini aniqlash nima deyiladi?

- A) tarkibiy analiz;
- B) sifat analiz;
- C) miqdoriy analiz.

128. Qanday agregat holat aniq bir hajmiy o'Icham va shaklga ega emas?

- A) gaz;
- B) suyuq;
- C) qattiq.

129. Qanday agregat holat o'z shakliga ega emas, lekin aniq hajmiy o'Ichamga ega bo'ladi?

- A) qattiq;
- B) gaz;
- C) suyuq.

130. Qattiq agregat holat uchun xos belgilar?

- A) mexanik mustahkamlikka, noaniq hajmiy o'Icham va shaklga ega;
- B) mexanik mustahkamlikka, aniq hajmiy o'Icham va shaklga ega;
- C) kimyoiy barqarorlikka, aniq hajmiy o'Icham va shaklga ega.

131. Moddaning holati nimaga bog'liq?

- A) temperatura va bosimga;
- B) harorat va bosimga;
- C) zichlik va hajmga.

132. Sublimatlanish nima?

- A) qattiq moddaning suyuq modda ustida qalqib turishi;
- B) modda yuzasiga boshqa bir moddaning shamilishi;
- C) qattiq holatdan (suyuqlanmasdan) to'g'ridan-to'g'ri gaz holatiga o'tish hodisasi.

133. Sublimatlanish xususiyatiga ega bo'lgan moddalarni aytинг?

- A) «quruq muz» –  $\text{CO}_2$ ,  $\text{J}_2$ , naftalin;
- B)  $\text{SiH}_4$  – silan, silvin –  $\text{KCl}$ ;
- C)  $\text{NaCl}$  – osh tuzi.

134. Kimyoiy formula nima?

- A) modda tarkibining kimyoiy belgilari bilan ifodalanishi;
- B) modda tarkibining kimyoiy belgilari va zarurat bo'lsa indekslar yordamida ifodalanishi;
- C) moddalarning muayyan turi.

135. Kimyoiy formula orqali nimalar ifodalanadi?

- A) modda qanday elementlardan tashkil topganligini (sifat tarkibi);
- B) moddaning 1 ta molekulasi tarkibiga har qaysi elementning nechtadan atomi kirishi (miqdor tarkibi), moddaning 1 ta molekulasini bildiradi;
- C) A va B.

136. Valentlik – bu ...?

- A) moddaning markaziy atomini bildiruvchi miqdor;
- B) bir element atomining boshqa element atomlarining aniq sonini biriktirib olish imkoniyati;
- C) moddaning bitta molekulasi massasini bildiruvchi miqdor.

137. Maddaning nisbiy molekular massasi bu ...?

A) modda molekulasi massasining  $O^{16}$  atomi massasining 1/12 qismiga nisbatan necha marta kattaligini ko'rsatuvchi qiymat;

B) 0,012 kg  $C^{12}$  dagi atomlar soniga teng zarrachalar tutuvchi miqdor;

C) modda molekulasi massasining  $C^{12}$  atomi massasining 1/12 qismiga nisbatan necha marta kattaligini ko'rsatuvchi qiymat.

138. Molekulani tashkil etuvchi atomlarning nisbiy atom massalari yig'indisiga teng kattalikni aytng.

A) nisbiy atom massa;

B) nisbiy molekular massa;

C) absolut massa.

139. Modda miqdori nima?

A) ushbu moddani tashkil qiluvchi zarralar soni;

B) massaning hajmga nisbati;

C) ushbu moddani tashkil qiluvchi nuklonlar soni.

140. Modda miqdori o'lchami nima?

A) litr;

B) kulon;

C) mol.

141. Mol nima?

A) 0,012 kg  $C^{12}$  dagi atomlar soniga teng zarralar (atom, molekula va boshqa zarralar) tutuvchi modda miqdori;

B) 22,4 kg  $C^{12}$  dagi atomlar soniga teng zarralar (atom, molekula va boshqa zarralar) tutuvchi modda miqdori;

C)  $6,02 \cdot 10^{23}$  ta atomlar soniga teng zarralar tutuvchi modda miqdori.

142. Avogadro soni nechaga teng?

A) 22,4;

B)  $1,667 \cdot 10^{-27}$ ;

C)  $6,02 \cdot 10^{23}$ .

143. Avogadro doimiyisini keltirib chiqaring?

A)  $N_A = \frac{0,012\text{kg/mol}}{19,93 \cdot 10^{-27}\text{kg}} = 6,02 \cdot 10^{23} \text{mol};$

B)  $\frac{12}{6}\text{C}$  izotopi absolut massasining 1/12 og'irlilik qismi

$$\left( \frac{19,93 \cdot 10^{-27}\text{kg}}{12} \right) = 1,667 \cdot 10^{-27}\text{kg};$$

C)  $N_A = \frac{1 \cdot 22,4}{273} = 0,082 \text{mol}.$

144. Molyar massa deb nimaga aytildi?

A)  $m = \frac{M}{n}$ ; n = mol; B)  $M = \frac{m}{n}$ ; n = mol; C)  $M = \frac{m}{p \cdot n}$ ; n = mol.

145. Hodisa bu — ...?

- A) moddalarning suvda erishi;  
B) faqat chirish jarayoni;  
C) tabiatdag'i har bir o'zgarish.

146. Fizik o'zgarishlarda qanday xossalalar o'zgaradi?

- A) moddaning tuzilishi, shakli, hajmi joylashish holati;  
B) moddaning agregat holati, shakli, hajmi joylashish holati;  
C) moddaning xossasi, shakli, hajmi joylashish holati.

147. Fizik hodisalarda ... hosil bo'lmaydi?

- A) suv;  
B) yangi moddalar;  
C) organik moddalar.

148. Kimyoviy o'zgarish (hodisa) nima?

- A) bir moddaning boshqa modda yoki moddalarga aylanish hodisasi;  
B) bir moddaning agregat holatining o'zgarishi;  
C) bir moddaning qaynash haroratining ortishi.

149. Kimyoviy hodisalar yana nima deyildi?

- A) flotatsiya;  
B) konstantalar;  
C) kimyoviy reaksiyalar.

150. Kimyoviy o'zgarishlarni qaysi o'zgarishlardan bilib olish mumkin?

- A) rang, hid, modda holatining o'zgarishi, cho'kma hosil bo'lishi;  
B) gaz hosil bo'lishi, issiqlik chiqishi yoki yutilishi;  
C) A va B.

151. Moddaning kimyoviy xossasi deb nimaga aytildi?

- A) moddaning boshqa modda bilan o'zaro ta'sirlashuvi;  
B) qattiq holdan suyuq holga o'tishi;  
C) moddalarning kristallanishi.

152. Moddalarni tavsiflovchi kimyoviy va fizik xossalari birgalikda nimani tashkil etadi?

- A) modda tarkibini;  
B) modda sifatini;  
C) agregat holatini.

153. Qanday o'zgarishlarda moddaning alohida xossalariqina emas, balki modda sifati o'zgaradi, yangi moddalar hosil bo'ladi?

- A) fizik o'zgarishlarda;
- B) biologik o'zgarishlarda;
- C) kimyoviy o'zgarishlarda.

154. Shakarni parchalanish reaksiyasining davomiyligini ta'minlash uchun nima qilish kerak?

- A) qizdirish;
- B) suyultirish;
- C) eritmadan shakarli suvni chiqarib turish.

155. Reaksiyani tezlatish uchun nima qilish kerak?

A) moddalarda bir-biriga tegib turadigan yuza sathi katta bo'lishi, qattiq moddalarning juda maydalanishi, imkonli boricha moddalarning eritmalaridan foydalanish, qizdirish kerak;

B) moddalarda bir-biriga tegib turadigan yuza sathi katta bo'lishi, qattiq moddalarning maydalanishi, imkonli boricha moddalarning eritmalaridan foydalanish, qizdirish kerak;

C) moddalarda bir-biriga tegib turadigan yuza sathi katta bo'lishi, qattiq moddalarning sathini kengaytirish, imkonli boricha moddalarning eritmalaridan foydalanish, qizdirish kerak.

156. Kimyoviy tenglama nima?

A) kimyoviy reaksiyalarning kimyoviy formulalar, zarur bo'lsa indekslar bilan ifodalanishi;

B) kimyoviy moddalarning belgilari bilan ifodalanishi;

C) kimyoviy reaksiyalarning kimyoviy formulalar, zarur bo'lsa koeffitsiyentlar bilan ifodalanishi.

157. Tarkibning doimiylik qonunini kim kashf qilgan?

- A) 1799-yilda J. Prust;
- B) 1900-yilda P. Uillard;
- C) 1878-yilda G. Kavendish.

158. Tarkibning doimiylik qonuning ta'rifi?

A) reaksiyaga kirishayotgan boshlang'ich moddalarning massasi reaksiya natijasida hosil bo'lgan mahsulot massasiga teng;

B) har qanday toza modda olinish usuli va joyidan qat'iy nazar doimiy tarkibga ega bo'ladi;

C) moddalar yo'qdan bor bo'lmaydi, bordan yo'q bo'lmaydi, faqat ular bir turdan, ikkinchi turga aylanib turadi.

159. Miqdor o'zgarishlari nimaga olib keladi?

- A) sifat o'zgarishlariga;
- B) miqdor o'zgarishlariga;
- C) tarkib o'zgarishlariga.

160. Birikmalar ikki yoki undan ortiq elementlarning aniq sondagi birikishidan hosil bo'ladi. Bu kimning fikri?

- A) F.J. Kyuri;
- B) A. Bekkerel;
- C) J. Dalton.

161. Karrali nisbatlar qonunini kim kashf etgan?

- A) 1803-yilda J. Dalton;
- B) 1869-yilda D.I. Mendeleyev;
- C) 1897-yilda E. Rezerford.

162. Karrali nisbatlar qonuning ta'rifini qanday?

A) bir mol vodorod atomlari bilan birikadigan yoki reaksiyalarda shuncha vodorod atomlarining o'rnnini oladigan miqdoriga aytildi;

B) har qanday toza modda olinish usuli va joyidan qat'iy nazar doimiy tarkibga ega bo'ladi;

C) agar ikki element o'zaro bir bo'lib bir necha kimyoviy birikma hosil qilsa, bu birikmada bir element massasiga to'g'ri keluvchi boshqa element massalari o'zaro kichik butun sonlar nisbatida bo'ladi.

163. Tarkibning doimiylik qonuni va karrali nisbatlar qonuni qaysi ta'limot asosida kelib chiqdi?

- A) flagiston ta'limot;
- B) atom-molekular ta'limot;
- C) organik birikmalar tuzilish nazariyasi.

164. Massaning saqlanish qonuniga ta'rif bering?

A) agar ikki element o'zaro bir bo'lib bir necha kimyoviy birikma hosil qilsa, bu birikmada bir element massasiga to'g'ri keluvchi boshqa element massalari o'zaro kichik butun sonlar nisbatida bo'ladi;

B) har qanday toza modda olinish usuli va joyidan qat'iy nazar doimiy tarkibga ega bo'ladi;

C) reaksiyaga kirishayotgan moddalarning umumiy massasi reaksiya mahsulotlari umumiy massasiga doimo teng.

165. Massaning saqlanish qonunini dastlab ajdodlarimizdan kimlar o'rgangan?

- A) At-Termizi, Al-Farg'oniy;
- B) Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino;
- C) Abdurahmon Jomiy, Najmuddin Kubro.

166. Massaning saqlanish qonunini kimlar kashf qilgan?

- A) 1748-yil M. V. Lomonosov, 1772—1778-yillarda A. Lavuazye;
- B) 1803-yil J. Dalton, 1811-yil A. Avogadro;
- C) 1799-yil J. Prust, 1878-yil G. Kavendish.

167. Massanining saqlanish qonuni qaysi qonunlarning xususiy ko'rinishi hisoblanadi?

- A) energiyaning saqlanish qonuni;
- B) tarkibning doimiylik qonuni;
- C) materiya va harakatning saqlanish qonuni.

168. Energiyaning saqlanish qonuniga ta'rif bering?

A) reaksiyaga kirishayotgan moddalarning umumiy massasi reaksiya mahsulotlari umumiy massasiga doimo teng;

B) energiya yo'qdan bor bo'lmaydi, bordan yo'q bo'lmaydi, faqat bir turdan ikkinchi turga aylanadi;

C) agar ikki element o'zaro bir bo'lib bir necha kimyoviy birikma hosil qilsa, bu birikmada bir element massasiga to'g'ri keluvchi boshqa element massalari o'zaro kichik butun sonlar nisbatida bo'ladi.

169. Ekvivalent so'zining ma'nosi nima?

- A) teng qiymatli teng kuch;
- B) kuch;
- C) biriktiraman.

170. Elementning ekvivalenti deb nimaga aytildi?

A) bir mol vodorod atomlari bilan birikadigan yoki kimyoviy reaksiyalarda shuncha vodorod atomlarining o'rnini oladigan miqdoriga aytildi;

B) kimyoviy reaksiyalarda har qanday modda o'z ekvivalentlariga proporsional miqdorda birikadi yoki almashinadi;

C) bir mol vodorod atomlari bilan birikadigan yoki kimyoviy reaksiyalarda shuncha kislorod atomlarining o'rnini oladigan miqdoriga aytildi.

171. Ekvivalent qonuniga ta'rif bering.

A) bir mol vodorod atomlari bilan birikadigan yoki kimyoviy reaksiyalarda shuncha vodorod atomlarining o'rnini oladigan miqdoriga aytildi;

B) energiya yo'qdan bor bo'lmaydi, bordan yo'q bo'lmaydi, faqat bir turdan ikkinchi turga aylanadi;

C) kimyoviy reaksiyalarda har qanday modda o'z ekvivalentlariga proporsional miqdorda birikadi yoki almashinadi.

172. Ekvivalent va ekvivalent massa qanday aniqlanadi?

A) odatda birikmalarning tarkibi o'rganilib, bir elementning o'rnini boshqa elementdan qanchasi egallashini tekshirib aniqlanadi;

B) odatda elementlarning tarkibi o'rganilib, bir atomning o'rnini boshqa atomdan qanchasi egallashini tekshirib aniqlanadi;

C) odatda moddalarning xossalari o'rganilib, bir elementning o'rnini boshqa elementdan qanchasi egallashini tekshirib aniqlanadi.

173. Ekvivalent hajm nima?

A) moddalarning bir ekvivalenti egallaydigan hajm bo'lib, gazsimon holat uchun qo'llaniladi ( $1 \text{ ekv hajm } H-11,2 \text{ l/mol}$ ,  $O-5,6 \text{ l/mol}$ );

B) moddalarning 1 ekvivalenti egallaydigan atomlar bo'lib, zarrachalar uchun qo'llaniladi ( $1 \text{ ekv atom soni } H-3,01 \cdot 10^{23} \text{ ta}$ ,  $O-6,02 \cdot 10^{23} \text{ ta}$ );

C) moddalarning bir ekvivalenti egallaydigan hajm bo'lib, gazsimon holat uchun qo'llaniladi (1 ekv hajm H-5,6 l/mol, O-11,2 l/mol).

174. Kimyoviy elementlarning ekvivalenti qanday topiladi?

A) atom massaning hajmga nisbati  $Ek_{\text{toddly medda}} = \frac{Ar}{V} = m.a.b$ ;

B) atom massaning valentlikka nisbati  $Ek_{\text{toddly nisbati}} = \frac{Ar}{Val} = m.a.b$ ;

C) atom massaning molga nisbati  $Ek_{\text{toddly nisbati}} = \frac{Ar}{n} = m.a.b$ .

175. Oksidlarning ekvivalentini topish formulasi qanday?

A)  $E(\text{oksid}) = \frac{Mr}{m}$ ; B)  $E(\text{oksid}) = \frac{Mr}{V \cdot p \cdot n}$ ; C)  $E(\text{oksid}) = \frac{Mr}{V \cdot n}$ .

176. Asoslarning ekvivalentini topish formulasi qanday?

A)  $E(\text{asos}) = \frac{Mr}{m(OH)}$ ; B)  $E(\text{asos}) = \frac{Mr}{n(OH)}$ ; C)  $E(\text{asos}) = \frac{Mr}{V(OH)}$ .

177. Kislotalarning ekvivalentini topish formulasi?

A)  $E(\text{kislota}) = \frac{Mr}{n(H)}$ ; B)  $E(\text{kislota}) = \frac{Mr}{m(H)}$ ; C)  $E(\text{kislota}) = \frac{Mr}{V(H)}$ .

178. Tuzlarning ekvivalentini topish formulasi?

A)  $E(\text{tuz}) = \frac{Mr}{V \cdot n}$ ; B)  $E(\text{tuz}) = \frac{Mr}{m \cdot n}$ ; C)  $E(\text{tuz}) = \frac{Mr}{p \cdot n}$ .

179. Avogadro qonuni nechanchi yilda kashf qilingan?

- A) 1810-yili;
- B) 1811-yili;
- C) 1812-yili.

180. Avogadro qonuniga ta'rif bering?

- A) o'zgarmas bosimda o'zaro teng hajmdagi gazlarda molekulalar soni teng;

B) bir xil sharoitda o'zaro teng hajmdagi gazlarda molekulalar soni teng;  
C) kimyoviy reaksiyaga kirishayotgan moddalarning umumiy massasi  
reaksiya mahsulotlari umumiy massasiga teng.

181. Ma'lum miqdordagi gazning hajmi o'zgarishi nimaga bog'liq?

- A) bosim (P) va harorat (T);  
B) hajm (V) va zichlik ( $\rho$ );  
C) konsentratsiya (K) va zichlik ( $\rho$ ).

182. Moddaning molyar hajmi qaysi formula bilan ifodalanadi?

A)  $V_M = \frac{M}{m}$ ;      B)  $V_M = \frac{m}{M}$ ;      C)  $V_M = \frac{V}{v}$ .

183. Gazlarning molyar hajmi qanday kattaliklar bilan ifodalanadi?

- A)  $m^3/mol$  yoki  $l/mol$ ;  
B)  $sm^3/mol$  yoki  $g/mol$ ;  
C)  $g/sm^3$  yoki  $l/mol$ .

184. Molyar hajm deb nimaga aytildi?

- A) har qanday moddaning va har qanday gazning n.sh dagi hajmi, ya'ni  
uning 1 moli=22,4 l;  
B) bug' holatidagi moddaning va har qanday gazning n.sh dagi hajmi,  
ya'ni uning 1 moli=22,4 l;  
C) bug' holatidagi moddaning va har qanday gazning zichligi n.sh da,  
ya'ni uning 1 moli=22,4 l.

185. Gazning zichligini topish formulasи?

A)  $\rho = \frac{M}{V}$ ;      B)  $\rho = \frac{m}{V}$ ;      C)  $\rho = \frac{M}{V}$ .

186. Kimyoviy reaksiyalar nimaga asoslanib sinflanadi?

- A) elementlarning xossalari va ionlanish energiyasiga qarab;  
B) mahsulotning agregat holatiga qarab;  
C) reaksiyaga kirishayotgan dastlabki moddalarni va reaksiya mahsulotlari  
sonining o'zgarishi asosida va energiya yutilishi yoki chiqishiga qarab.

187. Dastlabki reagentlar va mahsulotlar sonining o'zgarishi asosida  
reaksiyalar nechta tipga bo'linadi va ular qaysilar?

- A) o'rin olish, almashinish va yadro reaksiyalar;  
B) 4 ga: birikish, parchalanish, o'rin olish, almashinish;  
C) parchalanish, birikish.

188. Birikish reaksiyasiga ta'rif bering?

- A) ikki yoki undan ortiq moddalardan bitta yangi modda olinadi  
(A+B+...→C);

B) oddiy modda murakkab moddaning tarkibiy qismi o'mini oladi, natijada yangi oddiy va murakkab modda hosil bo'ladi ( $AB+C \rightarrow AC+B$ );

C) bir moddadan bir necha yangi modda hosil bo'ladi ( $C \rightarrow A+B+\dots$ ).

189. Parchalanish reaksiyasiga ta'rif bering?

A) ikki yoki undan ortiq moddalardan bitta yangi modda olinadi ( $A+B+\dots \rightarrow C$ );

B) oddiy modda murakkab moddaning tarkibiy qismi o'mini oladi, natijada yangi oddiy va murakkab modda hosil bo'ladi ( $AB+C \rightarrow AC+B$ );

C) bir moddadan bir necha yangi modda hosil bo'ladi ( $C \rightarrow A+B+\dots$ ).

190. O'rin olish reaksiyasiga ta'rif bering?

A) ikki yoki undan ortiq moddalardan bitta yangi modda olinadi ( $A+B+\dots \rightarrow C$ );

B) oddiy modda murakkab moddaning tarkibiy qismi o'mini oladi, natijada yangi oddiy va murakkab modda hosil bo'ladi ( $AB+C \rightarrow AC+B$ );

C) bir moddadan bir necha yangi modda hosil bo'ladi ( $C \rightarrow A+B+\dots$ ).

191. Almashinish reaksiyasiga ta'rif bering?

A) ikki yoki undan ortiq moddalardan bitta yangi modda olinadi ( $A+B+\dots \rightarrow C$ );

B) oddiy modda murakkab moddaning tarkibiy qismi o'mini oladi natijada yangi oddiy va murakkab modda hosil bo'ladi ( $AB+C \rightarrow AC+B$ );

C) murakkab moddalarning tarkibiy qismlari o'zaro o'rinn almashadi ( $AB+CD \rightarrow AD+BC$ ).

192. Issiqlik chiqishi va yutilishiga ko'ra reaksiyalar necha xil?

A) bir xil; yadro reaksiysi;

B) 2 xil; ekzotermik va endotermik;

C) 4 xil; birikish, almashinish, o'rinn olish, parchalanish.

193. Kimyoviy energiyani qanday energiyalarga aylantirish mumkin?

A) nur, mexanik, elektr, asosan issiqlik energiyasiga;

B) nur, ionlanish, elektr, asosan issiqlik energiyasiga;

C) nur, mexanik, elektronga moyillik, asosan issiqlik energiyasiga.

194. Reaksiyaning issiqlik effekti nima?

A) reaksiyaning yutiladigan energiya miqdori;

B) reaksiyaning ajraladigan energiya miqdori;

C) reaksiyaning ajraladigan yoki yutiladigan energiya miqdori.

195. Issiqlik effekti qanday aniqlanadi va nima bilan ifodalanadi?

A) parchalangan va birikkan bog'lar energiyasining farqi kulonlarda (KJ) ifodalanadi;

B) hosil bo'layotgan va uzilayotgan bog'lar energiyasining farqi kilojoullarda (kJ) ifodalanadi;

C) uzilayotgan bog'lar energiyasi joullarda (J) ifodalanadi.

**196. Barcha kimyoviy reaksiyalarda energiya ...**

- A) ajralib chiqadi yoki yutiladi;
- B) kimyoviy reaksiya vaqtida issiqlik chiqadigan reaksiya;
- C) reaksiya vaqtida issiqlik yutiladigan reaksiya.

**197. Ekzotermik reaksiyalar nima?**

- A) issiqlik ajralib chiqadi yoki yutiladi;
- B) kimyoviy reaksiya vaqtida issiqlik chiqadigan reaksiya;
- C) reaksiya vaqtida issiqlik yutiladigan reaksiya.

**198. Endotermik reaksiya nima?**

- A) issiqlik ajralib chiqadi yoki yutiladi;
- B) kimyoviy reaksiya vaqtida issiqlik chiqadigan reaksiya;
- C) reaksiya vaqtida issiqlik yutiladigan reaksiya.

**199. Moddaning hosil bo'lishi issiqligi deb nimaga aytildi?**

- A) bitta atomga elektron birikishida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlikka;
- B) oddiy moddalardan 1 mol murakkab modda hosil bo'lishida ajralib chiqadigan yoki yutiladigan issiqlikka;
- C) elektron ajratib chiqarish uchun ketadigan issiqlikka.

**200. Lavuaze + Laplas qonunining ta'rifi?**

- A) har qanday sof modda qanday usulda qay miqdorda olinishidan qat'iy nazar bir xil tarkibga ega;
- B) har qanday modda (murakkab) ning oddiy moddalarga qadar parchalanish issiqligi uning hosil bo'lishi issiqligiga teng bo'lib, ishorasi qarama-qarshi tarzda ifodalanadi;
- C) reaksiyaga kirishayotgan boshlang'ich moddalarning massasi hosil bo'lgan moddalar massasiga doimo teng.

**201. Gess qonunining ta'rifi – ?**


- A) reaksiyalarning issiqlik effekti boshlang'ich moddalar bilan hosil bo'lgan mahsulotlarning tabiatiga bog'liq bo'lib, reaksiyaning oraliq bosqichlariga taaluqli emas;
- B) energiya yo'qdan bor bo'lmaydi, bordan yo'q bo'lmaydi, doimo bir turdan ikkinchi turga aylanib turadi;
- C) reaksiyaga kirishayotgan boshlang'ich moddalarning massasi hosil bo'lgan moddalar massasiga doimo teng.

### **Kimyoning asosiy tushuncha va qonunlariga oid namunaviy masalalar va ularning yechilish usullari**

**1-masala:** Reaksiya uchun 4 g oltingugurt va 14 g temir olingan. Reaksiya natijasida necha gramm temir sulfid olinadi?

**Yechish:**

1) Masalani yechish uchun berilgan moddalarning reaksiya tenglamasi yozilib, reaksiyada mollar nisbati topib olinadi:



2) Mol miqdori kichik bo'lgan modda to'liq sarflangan hisoblanadi.

32 g S dan ----- 88 g FeS hosil bo'ladi;

4 g S dan ----- x g FeS hosil bo'ladi;  $x = 11g$

**FeS**

**Javoh:** 11g FeS hosil bo'ladi.

**2-masala:** 112 g magniy sulfid hosil qilish uchun oltingugurt va magniy kukunlaridan necha g dan olinishi kerak?

**Yechish:**

Bu masalani yechishda quyidagi reaksiya tenglamasidan foydalaniadi:



1. 24 g magniy ----- 56 g MgS hosil bo'ladi.

magniy x g ----- 112 g MgS

$$x = 48 \text{ g Mg}$$

2. 32 g oltingugurt ----- 56 g MgS hosil bo'ladi.

oltingugurt x g ----- 112 g MgS

$$x = 64 \text{ g S.}$$

**Javoh:** 48 g magniy va 64 g oltingugurt olish kerak.

**3-masala:** 9,2 g dolomit ( $\text{CaCO}_3 \cdot \text{MgCO}_3$ ) parchalanganda 2,8 g kalsiy oksid, 4,4 g karbonat angidrid hosil bo'lsa, reaksiya natijasida necha g MgO hosil bo'ladi?

**Yechish: I-usul:**

Moddalar massasining saqlanish qonuniga muvofiq reaksiyaga kirishuvchi dastlabki moddalarning massa yig'indisi reaksiya natijasida hosil bo'lgan mahsulotlar massasi yig'indisiga teng bo'ladi.

Shuning uchun quyidagicha hisoblanadi:


1) Reaksiyaga kirishuvchi dolomit 9,2 g. Reaksiya natijasida 2,8 g CaO va 4,4 g  $\text{CO}_2$  hosil bo'lsa, magniy oksidining massasi x ga teng.

$$9,2 \text{ g} = 2,8 \text{ g} + x + 4,4 \text{ g}$$

$$x = 9,2 - (2,8 + 4,4) \quad x = 2 \text{ g MgO}$$

**II — usul:**

Reaksiya tenglamasi asosida hisoblanadi:




184 g dolomitdan ----- 40 g MgO hosil bo'ladi.


9,2 g dolomitdan ----- x g MgO hosil bo'ladi,  $x = 2 \text{ g.}$

**Javoh:** 2g MgO hosil bo'ladi.

**4-masala.** Kalsiy karbonat va kaliy nitrat qattiq qizdirilganda to'la parchalandi va hosil bo'lgan 5,72 litr gazlar aralashmasi ishqor eritmasi orqali o'tkazilganda massasi 8,09 g ga ortGANI ma'lum bo'lsa, qizdirilgandan keyin hosil bo'lgan aralashma massasini aniqlang.



1) Tenglamaga muvofiq  $\text{CO}_2$  va  $\text{O}_2$  larning umumiy hajmi 5,72 litrga teng;



3) Eritma massasi 8,09 g ga ortGANligi  $\text{CO}_2$  massasi 8,09 g ekanligini bildiradi.

4)  $\text{CO}_2$  hajmi topiladi.

$$44 \quad \underline{\hspace{2cm}} \quad 22,4$$

$$8,09 \quad \underline{\hspace{2cm}} \quad x \quad x=4,12$$

5) Undan  $\text{O}_2$  hajmi topiladi:  $5,72l - 4,12 = 1,6 \text{ O}_2$

1) Umumiy gaz hajmidan foydalanib qizdirilgandan keyingi aralashma massasi aniqlanadi.

$$22,4 \quad \underline{\hspace{2cm}} \quad 56$$

$$4,2 \quad \underline{\hspace{2cm}} \quad x \quad x=10,3 \text{g CaO}$$

$$11,2 \quad \underline{\hspace{2cm}} \quad 85$$

$$1,6 \quad \underline{\hspace{2cm}} \quad x \quad x=12,14 \text{g KNO}_3$$

2) Umumiy aralashma massasi:

$$10,3 + 12,14 = 22,44 \text{ g}$$

**Javob:** 22,44 g.

**5-masala.** Magniy kuporosi  $\text{MgSO}_4 \cdot n\text{H}_2\text{O}$  tarkibida magniyning massa ulushi 11,42% ga teng.  $n$  ning qiymatini toping.

**Yechish:**



$$120 \quad 18n$$

$$24(\text{Mg}) \quad \underline{\hspace{2cm}} \quad 11,47\%$$

$$120 + 18n_{(\text{MgSO}_4 \cdot n\text{H}_2\text{O})} \quad \underline{\hspace{2cm}} \quad 100\%$$

$$n = 5$$

**Javob:**  $\text{MgSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ .

**6-masala.** Bir xil miqdordagi metall 0,4 g kislorodni yoki 0,95 g galogenni biriktirib olishi mumkin. Galogenning ekvivalenti nechaga teng?

**Yechish:**

$$\begin{array}{l} 0,4 \text{ g O}_2 \\ 8 \text{ ekv} \end{array} \xrightarrow{\quad} \begin{array}{l} 0,95 \text{ g galogen} \\ x \end{array}$$

$$x = 19 \text{ ekv}$$

**Javob:** 19 ekv.

**7-masala.** Teng hajmdagi geliy bilan kislorod aralashmasining havoga nisbatan zichligini toping.

**Yechish:**

1) Teng hajmda deganligi uchun gazlar bir xil hajmda olinadi.

$$\text{Ya'ni: } 22,4 \text{ litr He} \xrightarrow{\quad} 4 \text{ g}; \quad 22,4 \text{ litr O}_2 \xrightarrow{\quad} 32 \text{ g}$$

$$2) Mr(\text{o'rtacha}) = \frac{M_1 \cdot n_1 + M_2 \cdot n_2}{n_1 + n_2} = \frac{4 \cdot 1 + 32 \cdot 1}{1 + 1} = 18;$$

$$3) D = \frac{Mr}{Mr_{\text{(hevu)}}} = \frac{18}{29} = 0,62.$$

**Javob:** 0,62

## II BOB

### KISLOROD

*Atomi: O; nishiy atom massasi 16g/mol; radiusi 0,065nm.*

*Molekulasi: O<sub>2</sub>; bog' uzunligi 0,1202 nm; bog' energiyasi 493,6 kj/mol.*

*Valentligi: II va III; oksidlanish darajasi -2, -1, 0, +1,+2.*

*Ekvivalenti: 8, hajmiy ekvivalenti 5,6.*

*Izotoplari: 6 ta: 3 ta tabiiy  $\frac{16}{8}$  O,  $\frac{17}{8}$  O,  $\frac{18}{8}$  O; 3 ta sun'iy  $\frac{14}{8}$  O,  $\frac{15}{8}$  O,  $\frac{19}{8}$  O.*

*Allotropiyasi 2 ta: kislorod va ozon.*

*Kislorod davriy sistemaning VI gruppasi bosh gruppachasi elementi hisoblanib, havoda hajmiy jihatdan 21%, massa jihatdan 23%ni tashkil etsa, yer qobig'ini 47%ini tashkil qiladi.*

*Kislorod tirik organizmlar asosini tashkil qilgan biomolekulalarning barchasini tarkihiga kirishi bilan birga suvni ham 88,89% ini tashkil qiladi.*

*O'rtacha og'irlilikdagi (70 kg) odamning 45 kgini kislorod tashkil qiladi. Inson bir kunda 750 l kislorod yutib, 6571 CO<sub>2</sub> ajratib chiqaradi. Kislorodning yer qobig'idagi umumiy miqdori 10<sup>15</sup> tonnaga teng.*

#### Kislorod mavzusiga oid savollar va ularning javoblari

202. Kislorodni kimlar kashf qilgan?

- A) 1774-yili 1-avgustda J. Pristli, 1774-yil 30-sentabrda H. Sheele;
- B) 1764-yili 3-dekabrda L.Buabadron, 1765-yil 13-noyabrda K.Vinkler;
- C) 1779-yili 1-mayda E.Rezerford, 1780-yil 30-sentabrda I.Kyuri.

203. Kim kislorodni yangi modda sifatida izohlab bergen?

- A) A.Lavuazye;
- B) P.Uillard;
- C) A.Bekkerel.

204. Yer qobig'ining necha foizini kislorod tashkil qiladi?

- A) 50 %;
- B) 32 %;
- C) 47 %.

205. Molekular kislorod havoning qancha hajmiy ulushini tashkil etadi?

- A) 22,48 %;
- B) 20,94 %;
- C) 14,87 %.

206. Kislorodni litosfera va gidrosferadagi miqdorini ko'rsating?

- A) 28 %; 59 %;
- B) 24.6 %; 61 %;
- C) 44 %; 58 %.

207. Inson organizmida 50 dan ortiq kimyoviy element bo'lib, shulardan necha % ini O<sub>2</sub> tashkil qiladi?

- A) 65 %;
- B) 66 %;
- C) 67 %.

208. Suvning tarkibidagi kislorod qancha og'irlilik qismini tashkil etadi?

- A) 32 %;
- B) 88, 89 %;
- C) 16 %.

209. Laboratoriyada kislorod qanday usullarda olinadi?

- A) 2KMnO<sub>4</sub>  $\xrightarrow{\text{H}_2\text{O}} \text{X}$ ; 2KClO<sub>3</sub>  $\rightarrow \text{X}$ ;
- B) 2NaNO<sub>3</sub>  $\xrightarrow{\text{H}_2\text{O}} \text{X}$ ; 2CO  $\rightarrow \text{X}$ ;
- C) 2H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>  $\xrightarrow{\text{MnO}_2} \text{X}$ ; CaCO<sub>3</sub>  $\xrightarrow{\text{H}_2\text{O}} \text{X}$ .

210. Sanoatda kislorod qanday olinadi?

- A) vodorod peroksidni elektroliz qilib;
- B) marmartoshni termik parchalanishidan;
- C) suvni elektroliz qilib yoki suyuq havodan.

211. Kislorodning 3 valentlik birikmasini ko'rsating?

- A) H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>;
- B) F<sub>2</sub>O;
- C) CO.

212. Kislorodning valentligi va oksidlanish darajalarini ko'rsating?

- A) 2, 3; -2, 0, +2;
- B) 2, 3, 4; -2, -1, 0, +1, +2;
- C) o'zgarmas 2, -2, 0.

213. F<sub>2</sub>O<sub>2</sub> da kislorodning valentligi va oksidlanish darajalarini ko'rsating?

- A) 4; F—O=O—F;
- B) 2; F—O—O—F;
- C) 3; F—O=O—F.

214. Kislorodni paramagnit xususiyati qaysi nazariya orqali tushuntiriladi?

- A) flagiston nazariysi;
- B) atom molekular nazariyi;
- C) molekular orbitallar nazariysi.

215. Kislородни  $+1$  va  $-1$  birikmasini ko'rsating.

- A)  $\text{FO}_2$  va  $\text{H}_2\text{O}_2$ ;
- B)  $\text{F}_2\text{O}_2$  va  $\text{H}_2\text{O}_2$ ;
- C)  $\text{F}_2\text{O}$  va  $\text{H}_2\text{O}_2$ .

216. Kislородни paramagnit xususiyatining kelib chiqish sababi?

A) kislорod molekulasida bog'lovchi elektronlardan tashqari molekuladagi bog'ni bo'shashtiruvchi toq elektronlar hisobiga;

B) kislорod molekulasida bog'lovchi elektronlardan tashqari molekuladagi bog'ni mustahkamlashtiruvchi juft elektronlar hisobiga;

C) kislорod atomida bog'lovchi elektronlardan tashqari molekuladagi bog'ni bo'shashtiruvchi toq elektronlar hisobiga.

217. Katalizator nima?

- A) kimyoviy reaksiyalarda ishtirot etib, tezligini kamaytiradigan modda;
- B) kimyoviy reaksiyalarda ishtirot etib, tezlashtiradigan modda;
- C) kimyoviy reaksiyalarning tezligini o'zgartiradigan va o'zi o'zgarmaydigan modda.

218. Katalizator yordamida boradigan jarayonlar?

- A) kataliz;
- B) adsorbsiya;
- C) flotatsiya.

219. Kislорodning fizik xossalari?

A) suyuqlanishi  $-183^{\circ}\text{C}$ , 1 l suvda  $0^{\circ}\text{C}$  da 49 ml eriydi,  $1500^{\circ}\text{C}$  da atomlarga ajraladi;

B) suyuqlanishi  $-100^{\circ}\text{ C}$ , 1 l suvda  $0^{\circ}\text{ C}$  da 85 ml eriydi,  $2000^{\circ}\text{C}$  da atomlarga ajraladi;

C) suyuqlanishi  $-102^{\circ}\text{ C}$ , 1 l suvda  $0^{\circ}\text{ C}$  da 32 ml eriydi,  $1000^{\circ}\text{C}$  da atomlarga ajraladi.

220. Ozon qanday hosil bo'ladi?

A) issiq yerga suv sepganda yoki momaqaldiroqda, chaqmoq chaqqanda;

B) kislорod yoki havadan elektr uchquni o'tkazib yoki momaqaldiroqda, chaqmoq chaqqanda;

C) bertolle tuzini termik parchalaganda.

221. Stratosferada ozon qanday hosil bo'ladi?

A) ultrabinfsha nurlari ta'sirida, ninabargli o'simliklarda smolasimon moddalarning oksidlanishi natijasida;

B) ko'rindigan nurlari ta'sirida, ninabargli o'simliklarda smolasimon moddalarning oksidlanishi natijasida;

C) infraqizil nurlari ta'sirida, ninabargli o'simliklarda smolasimon moddalarning oksidlanishi natijasida.

222. Ozonning fizik xossalari?

A) 0°C da 11 suvda 450 ml eriydi, -100,28°C da qaynaydi. Havodagi miqdori  $10^{-7}$  % dan oshmasligi shart;

B) 0°C da 11 suvda 540 ml eriydi, -109,1°C da qaynaydi. Havodagi miqdori  $10^{-6}$  % dan oshmasligi shart;

C) 0°C da 11 suvda 490 ml eriydi, -111,9°C da qaynaydi. Havodagi miqdori  $10^{-5}$  % dan oshmasligi shart.

223. Stratosferadagi ozon qatlaming qaliligi qancha?

A) 3-4,25 mm;

B) 2-4,5 mm;

C) 3,5-4,75.

224. Kislorod bilan ozonning kumushga ta'siri qanday?

A) ozon ta'sir etmaydi; kislorod esa uni oksidiga aylantiradi;

B) kislorod ham, ozon ham ta'sir etmaydi;

C) kislorod ta'sir etmaydi; ozon esa uni oksidiga aylantiradi.

225. Kislorod qaysi metallar bilan ta'sirlashmaydi?

A) Au, Pt, Ag va Pt qatori metallar;

B) Ag, W, Pb va Pd qatori metallar;

C) Os, Ir, Ta va Re qatori metallar.

226. Kislorod faoliyk bo'yicha qaysi metallmasdan keyin turadi?

A) xlor;

B) ftor;

C) azot.

227. Kislorod qaysi gruppadan tashqari, barcha metallar bilan oksidlar hosil qiladi?

A) VIII gronna — inert gazlar;

B) VII gronna — galogenlar;

C) VI gronna — xalkogenlar.

228. O'simliklar quruqlik biomassasini necha foizini  $O_2$  tashkil etadi?

A) 45 %;

B) 50 %;

C) 55 %.

229. Kislorod litosferada asosan qanday shakllarda va qancha miqdorda uchraydi?

A) nitritlar, aluminofosfatlar, kislotalar,  $10^{17}$  tonna;

B) karbidlar, aluminokarbiddar, asoslar,  $10^{18}$  tonna;

C) silikatlar, aluminosilikatlar, oksidlar,  $10^{19}$  tonna.

230. Kislorod gidrosferada qanday shakllarda va qancha miqdorda uchraydi?

A) erkin holda  $1,5 \cdot 10^{18}$  tonna;

- B) suv  $1,5 \cdot 10^{18}$  tonna;  
C) karbidlar  $1,5 \cdot 10^{18}$  tonna.

231. Kislород biosferada qanday shakllarda va qancha miqdorda uchraydi?

- A) suv, karbon kislota, oqsil, nuklein kislotalar, karbidlar, aluminokarbidlar, asoslar ko'rinishida  $10^{18}$  tonna;  
B) uglevodlar, lipidlar, nitritlar, aluminofosfatlar, kislotalar ko'rinishida  $10^{14}$  tonna;  
C) suv, karbon kislota, oqsil, nuklein kislotalar, uglevodlar, lipidlar ko'rinishida  $10^{12}$  tonna.

232. Fotosintez reaksiyasida kislородning aylanishini ketma-ketlikda tushuntiring?

- A) fotosintez kislородни gidrosferadan litosferaga va undan biosferaga o'tishini ta'minlaydi;  
B) fotosintez kislородни gidrosferadan atmosferaga va undan biosferaga o'tishini ta'minlaydi;  
C) fotosintez kislородни biosferadan stratosferaga va undan gidrosferaga o'tishini ta'minlaydi.

233. Yer biomassasidagi kislород necha yilda to'liq almashinib bo'ladi?

- A) 10-20 yilda;  
B) 20-30 yilda;  
C) 30-40 yilda.

234. Havoning asosiy tarkibi qanday moddalardan tashkil topgan?

- A) azot, kislород va inert gazlar;  
B) karbonat angidrid, kislород va azot;  
C) ozon, kislород va vodorod.

235. Qachon havo tiniq suyuqlikka aylanadi?

- A)  $273^{\circ}\text{C}$  va  $101,65\text{ kPa}$  bosimda;  
B)  $102^{\circ}\text{C}$  va  $83,14\text{ kPa}$  bosimda;  
C)  $192^{\circ}\text{C}$  va  $101,33\text{ kPa}$  bosimda.

236. Havodagi  $\text{CO}_2$  va  $\text{H}_2\text{O}$  bug'larining qanday ahamiyati bor?

- A) ozon qatlamini yemiriflidan saqlaydi;  
B) o'simliklarni asosiy ozuqasi hisoblanadi;  
C) yer issiqligining koinotga tarqalib ketishining oldini oluvchi to'siq hisoblanadi.

237. O'zbekistonda ko'mir qayerlarda qazib olinadi?

- A) Angren, Sharg'un, Boysun konlari;  
B) Xo'jaikon, Angren, Qoraqat konlari;  
C) Boybichakon, Tubokat, Angren konlari.

238. O'zbekistonda ko'mir zahirasi qancha?

- A) 1 milliard tonnadan ortiq ( $1 \cdot 10^9$  tonna);  
B) 2 milliard tonnadan ortiq ( $2 \cdot 10^9$  tonna);

C) 3 milliard tonnadan ortiq ( $3 \cdot 10^9$  tonna).

239. Suyuq yonilg'i – neft qaysi mintaqalardan qazib olinadi?

A) Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubiy-g'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'ona mintaqalarida;

B) Qizilqum, Ohangaron, Zomin, Muborak, Qashqadaryo mintaqalarida;

C) Oloy, Guliston, Toshkent, Navoiy mintaqalarida.

### Kislorod mavzusiga oid namunaviy masalalar va ularning yechilish usullari

**1-masala.** 10 litr is gazi (CO) va 10 g kislorod ( $O_2$ ) aralashmasi yondirildi. Hosil bo'lgan karbonat angidrid ( $CO_2$ ) qancha hajmni (n.sh.da) egallaydi? Dastlabki gazlardan qaysi biri va qancha miqdorda ortib qoladi?


**Yechish:**

Masalani yechish uchun berilgan moddalarning reaksiya tenglamasi bo'yicha mollari topib olinadi:



$$1) \ n_{CO} = \frac{10}{44,8} = 0,223 \text{ mol}; \ n_{O_2} = \frac{10}{32} = 0,3125 \text{ mol}$$

2) Bunday masalalarda yechimni topish uchun mol miqdori kichik bo'lgan modda asos qilib olinadi. Chunki bu modda to'liq sarflangan hisoblanadi.




4) Ortgan kislorod aniqlanadi:

$$10 - 7,14 = 2,86 \text{ g}$$

**Javoh:** Demak, 10 litr  $CO_2$  hosil bo'ladi, 2,86 g kislorod ortadi.

**2-masala.** Vodorod va is gazidan iborat 100 ml aralashmaga 80 kislorod qo'shib portlatildi. Natijada aralashmaning hajmi 130 ml gacha kamaygan. Suv bug'lari kondensatlangandan keyin 100 mlga teng bo'lib qolsa, undagi gazlarning hajmi ulushlarini hisoblang.



1) Tajribadan oldingi va keyingi hajmlar farqi aniqlab olinadi:  
 $(100+80) - 130 = 50 \text{ ml}$ .


Bu farq gazlar aralashmasi bilan reaksiyaga kirishgan kislorod hajmiga teng.

2)  $80 - 50 = 30 \text{ ml}$  ortgan kislorod.

3) Suv bug'lari kondensatlangandan keyingi hajm reaksiyada hosil bo'lgan karbonat angidrid va ortgan kislorod hajmlari yig'indisi hisoblanadi. Shu aralashmadan foydalanib hosil bo'lgan karbonat angidridning hajmini aniqlash mumkin.

$100 - 30 = 70 \text{ ml}$



4) Karbonat angidrid hajmidan foydalanib boshlang'ich aralashmadagi is gazining hajmi topiladi.



5) So'ngra vodorod hajmi topiladi.

$100 - 70 = 30 \text{ ml}$

6) Aralashmaning hajmiy tarkibi aniqlanadi.



Javob:  $0,3 \text{ H}_2, 0,7 \text{ CO}$

**3-masala.** Geliyga nisbatan zichligi 5 ga teng bo'lgan kislorod va vodorod aralashmasi portlatilganda necha gramm suv hosil bo'ladi?

Yechish: I usul:  $2\text{H}_2\text{O} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{H}_2\text{O}$

1) Zichlikka asoslanib aralashmaning o'ttacha molyar massasi topiladi.

$$M = D \cdot M = 5 \cdot 4 = 20$$

2) Aralashmaning molyar massasiga asoslanib, quyidagi tenglama tuzib olinadi va vodorodning mollar soni topiladi.

$$2x + 32(1-x) = 20$$

$$2x + 32 - 32x = 20$$

$$30x = 12$$

$$x = 0,4$$

$$x = 0,4 \text{ mol vodorod}$$

3) Umumiylar aralashmaning miqdori 1 mol ekanligiga asoslanib, vodorod miqdoridan kislorodning miqdori topiladi:  $1 - 0,4 = 0,6 \text{ mol O}_2$

4) Aralashmada boshlang'ich moddalardan vodorodning miqdori kichikligi uchun to'liq sarflangan vodorod hisoblanadi va suvning massasi unga asoslanib topiladi.

$$\begin{array}{r} 2 \\ \hline 0,4 \end{array} \quad \begin{array}{r} 36 \\ \hline x \end{array}$$

$$x=7,2 \text{ g H}_2\text{O}$$

**II usul.** Dioganal usuli.

1) Bu usulda dioganal sistemasini tuzish uchun gazlarni o'rtacha molyar massalaridan va har birining molyar massasidan foydalaniladi.



2) Dioganal natijalari qo'shib, yig'indining miqdori 1 molligiga asoslanib gazlarning har birining miqdori topiladi.

$$12+18=30$$

$$\begin{array}{r} 30 \\ \hline 18 \end{array} \quad \begin{array}{r} 1 \\ \hline x \end{array} \quad x=0,6 \text{ mol O}_2$$

$$\begin{array}{r} 30 \\ \hline 12 \end{array} \quad \begin{array}{r} 1 \\ \hline x \end{array} \quad x=0,4 \text{ mol H}_2$$

Aralashmada boshlang'ich moddalardan vodorodning miqdori kichikligi uchun to'liq sarflangan vodorod hisoblanadi va suvning massasi unga asosan topiladi.

$$\begin{array}{r} 2 \\ \hline 0,4 \end{array} \quad \begin{array}{r} 36 \\ \hline x \end{array} \quad x=7,2$$

g H<sub>2</sub>O

**Javob:** 7,2 g H<sub>2</sub>O

**4-masala.** Gaz moddalar aralashmasi analiz qilinganda unda 8% SO<sub>2</sub>, 9,5% O<sub>2</sub> va 82,5% N<sub>2</sub> (massa jihatidan) topilgan. Shu aralashmadagi moddalarning hajmiy ulushlarini aniqlang.

**Yechish:**

1) Har bir gazning molyar miqdorlarini foiz massalaridan aniqlanadi.

$$n_{SO_2} = \frac{8}{64} = 0,125 \text{ mol}; \quad n(N_2) = \frac{82,5}{28} = 2,94 \text{ mol}; \quad n(O_2) = \frac{9,5}{32} = 0,297 \text{ mol};$$

2) Har bir gazning normal sharoitdagи hajmi quyidagi formula asosida hisoblanadi: V = n · 22,4

$$V_{SO_2} = 0,125 \cdot 22,4 = 2,8 \text{ litr} \quad V_{O_2} = 0,297 \cdot 22,4 = 6,65 \text{ litr} \quad V_{N_2} = 2,94 \cdot 22,4 = 65,99 \text{ litr}$$

3) Gaz aralashmasining umumiy hajmi topiladi.

$$2,8 + 6,65 + 65,99 = 75,44 \text{ litr}$$

4) Umumiy hajmga nisbatan har bir gazning hajmi quyidagi foiz qiymatlariga ega bo'ladi:

$$75,44 \quad \text{---} \quad 100$$

$$2,8 \quad \text{---} \quad x$$

$$x = 3,74\%$$

$\text{SO}_2$

$$75,44 \quad \text{---} \quad 100$$

$$6,65 \quad \text{---} \quad x$$

$$x = 8,8\% \text{ O}_2$$

$$75,44 \quad \text{---} \quad 100$$

$$65,99 \quad \text{---} \quad x$$

$$x = 87,46\% \text{ N}_2$$

**Javob:** 3,74%  $\text{SO}_2$ , 8,8%  $\text{O}_2$ , 87,46%  $\text{N}_2$

**5-masala.** 3,6g uglerod, ichida 4,48 litr kislород (n.sh.) bo'lgan idishda yondirilganda ikki xil gaz hosil bo'ldi, bu gazlar 20 ml 30%li natriy gidroksid eritmasidan o'tkazildi. Hosil bo'lgan tuzning tarkibi va konsentrasiyasini aniqlang.

**Yechish:**  $\text{C} + \text{O}_2 \rightarrow \text{CO}_2$



1) Dastlab moddalar miqdori topib olinadi.

$$n_{(\text{C})} = \frac{3,6}{12} = 0,3;$$

$$n_{(\text{O}_2)} = \frac{4,48}{22,4} = 0,2;$$

2) Yuqoridagi tenglamaga asosan 0,2 mol kislороддан 0,2 mol  $\text{CO}_2$  hosil bo'ladi. Ortgan 0,1 mol uglerod 0,1 mol  $\text{CO}_2$  bilan reaksiyaga kirishib 0,2 mol CO gazi hosil qiladi. Aralashmaning tarkibi 0,1 mol  $\text{CO}_2$  (4,4 g) va 0,2 mol CO gazi.



$$3) m = p \cdot v \cdot w = 1,33 \cdot 20 \cdot 0,3 = 8\text{g}(0,2 \text{ mol}) \text{ NaOH}$$

Demak,  $\text{NaOH}$  bilan  $\text{CO}_2$  o'rtaqidagi nisbat 2:1.

Yuqoridagi reaksiyaga muvofiq 0,1 mol  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  hosil bo'ladi.

$$4) m = p \cdot v = 1,33 \cdot 20 = 26,6 (\text{NaOH eritmasi}) + 4,4 \text{CO}_2 = 31\text{g}$$

**Javob:** 0,1mol  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ , 31g eritma

**6-masala.** 4 litr propanni yoqish uchun tarkibida 30% (hajm) ozon bo'lgan kislороддан necha litr kerak bo'ladi?

**Yechish:**  $\text{C}_3\text{H}_8 + 5\text{O}_2 \rightarrow 3\text{CO}_2 + 4\text{H}_2\text{O}$

1) Reaksiya tenglamasiga muvofiq 4 litr propanni yoqish uchun sarflangan kislородning hajmi topiladi.

$$\begin{array}{l} 1 \text{ litr} \quad \dots \quad 5 \\ 4 \text{ litr} \quad \dots \quad x \\ 2) 2O_2 \rightarrow 3O_2 \\ 3) 3x \cdot 1,5 + 0,7x = 20 \\ \quad 1,15x = 20 \\ \quad x = 17,4 \text{ litr} \end{array}$$

$$x=20 \text{ litr } O_2, \\ \text{hajm 1,5 marta ortadi.}$$

**Javob:** 17,4 litr

**7-masala.** Kislorod bilan to'ldirilgan idishda 8,7 %  $O_2$  (hajm hisobida) ozonga aylantirilgandan so'ng idishdagi bosim qanday o'zgaradi?

**Yechish:**  $3O_2 \rightarrow 2O_3$

1) Reaksiya tenglamasiga muvofiq hosil bo'lgan ozon boshlang'ich hajmni necha % ini tashkil etishi hisoblab topiladi.

$$3 \quad \dots \quad 8,7\%$$

$$2 \quad \dots \quad x \quad x=5,8\%$$

2) Idishda qolgan kislorod 91,3% ( $100 - 8,7\%$ ).

3) Umumiy hajm 97,1 ( $91,3 + 5,8$ ).

Demak reaksiyadan keyingi bosim ham boshlang'ich bosimning 97,1%ini tashkil etadi.

**Javob:** 97,1%

### III BOB

### VODOROD

*Atomi: H; nishiy atom massasi 1g/mol; radiusi 0,078 nm.*

*Molekulasi: H<sub>2</sub>; bog' uzunligi 0,074 nm; bog' energiyasi 436 kJ/mol.*

*Valentligi: I; oksidlanish darajasi -1, 0, +1.*

*Ekvivalenti: 1, hajmiy ekvivalenti 11,2.*

*Izotoplari: 3ta | H, | D, | T.*

*Allotropiyasi 3ta: atomar vodorod, para spinli vodorod(p-H<sub>2</sub>), qaramaqarshi spinli vodorod, ya'n ni o'rto vodorod(o-H<sub>2</sub>) .*

*Vodorod davriy sistemani birinchi davr, birinchi gruppachasi elementi hisoblanib, koinotda eng ko'p tarqalgan elementdir. Samoda vodorod atomlari geliyga aylanish jarayoni yuz berib, bu termoyadro reaksiyasi deyiladi va bunda quyosh uchun asosiy energiya manbayi hosil bo'ladi. Organik birkimlar tarkibida eng ko'p uchraxdigan elementlardan hiri vodoroddir.*

*Vodorod, uning xossalari, olinishi, birkimlari va ishlatalishi yuzasidan asosiy ma'lumotlar va ularga oid namunaviy masalalarning izohi ushu bohdha bayon etilgan.*

#### Vodorod mavzusiga oid savollar va ularning javoblari

240. «Yonuvchi havoni» kim kashf qilgan (vodorodni)?

- A) 1766-yilda G. Kavendish;
- B) 1900-yilda J. Prust;
- C) 1898-yilda E. Rezerford.

241. Parijda vodorod to'ldirilgan sharni 1783-yilda kim havoga uchirgan?

- A) Jak Sharl;
- B) Klayperon;
- C) N. Uillson.

242. Kim vodorod suv tarkibiga kirishini aniqladi va unga gidrogenium deb kim nom bergan?

- A) 1789-yilda M.A. Lomonosov;
- B) 1870-yilda Yu.Libix;
- C) 1787-yilda A. Lavuazye.

243. Vodorod yer po'stlog'ini, suv va havoni birlgiligidagi massasini necha foizini tashkil qiladi?

- A) 0,88%;

- B) 0,088%;  
 C) 8,8 %.

244. Yulduzlarda sodir bo'ladigan reaksiya qaysi?

- A) yorug'lik ajralishi reaksiyasi bunda hu ajraladi;  
 B) termoyadro reaksiyasi, bunda H<sub>2</sub> atomlari He atomlariga aylanadi;  
 C) yulduzlarda reaksiya sodir bo'lmaydi.

*Bilib oling! Vodorod va uning izotoplarini kimlar kashf etgan, ularning qaynash va suyuqlanish temperaturalarini qanday?*

izotoplarini: 1766. F. Kavendish, 1932. G. Yuri, 1934. M. Olifamta.

	H <sup>1</sup>	D <sup>2</sup>	T <sup>3</sup>
T <sub>g</sub> °C	-259,1	-254,4	-251,85
T <sub>s</sub> °C	-252,6	-249,55	248,1

245. Kislotalarning indikatorlarga ta'siri qanday?

- A) lakmus — qizil, metilzarg'aldog'i — pushti, universal indikator — qizil rangga kiradi;  
 B) lakmus — pushti, metilzarg'aldog'i — qizil, universal indikator — qizil rangga kiradi;  
 C) lakmus — qizil, metilzarg'aldog'i — pushti, universal indikator — rangsiz.

246. Laboratoriya vodorod qanday olinadi?

- A) NH<sub>3</sub> ni termik parchalab yoki suvni elektroliz qilib (Domna apparatida);  
 B) Zn yoki Fe ni H<sub>2</sub>S yoki H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> bilan ta'sirlashtirib (Kipp apparatida);  
 C) Zn yoki Fe ni HCl yoki H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> bilan ta'sirlashtirib (Kipp apparatida).

247. Sanoatda vodorod qaysi yo'llar bilan olinadi?

- A) 2H<sub>2</sub>O  $\xrightarrow{425-450^{\circ}N}$  2H<sub>2</sub>+O<sub>2</sub>;  
 B) CH<sub>4</sub>+H<sub>2</sub>O  $\xrightarrow{425-450^{\circ}N}$  CO+3H<sub>2</sub>+206kJ;  
 CO+H<sub>2</sub>O  $\xrightarrow{425-450^{\circ}N}$  CO<sub>2</sub>+H<sub>2</sub>-40kJ;  
 C) A va B.

248. Tabiatdagi eng yengil va issiqlikni eng yaxshi o'tkazuvchi gaz?

- A) vodorod (H<sub>2</sub>);  
 B) geliy (He);  
 C) neon (Ne).

249. Qaysi gazning diffuziya tezligi eng yuqori?

- A) vodorod (H<sub>2</sub>);  
 B) kislород (O<sub>2</sub>);  
 C) xlor (Cl<sub>2</sub>).

250. Vodorodning fizik xossalari?

- A) 11 suvda 215 ml eriydi, havodan 14,5 marta yengil, hidsiz, rangsiz gaz;
- B) 11 suvda 21,5 ml eriydi, havodan 14,5 marta yengil, hidsiz, rangsiz gaz;
- C) 11 suvda 215 ml eriydi, havodan 195 marta yengil, hidsiz, rangsiz gaz.

251. Vodorod qaysi metallarda eriydi?

- A) Hg, Sb, Sn;
- B) Ta, Pb, Bi;
- C) Ni, Pd, Pt.

252. Qaldiroq gazning tarkibiy qismi qanday?

- A)  $2\text{H}_2 \cdot \text{O}_2$ ;
- B)  $2\text{H}_2 \cdot \text{N}_2$ ;
- C)  $\text{N}_2 \cdot \text{O}_2$ .

253. Eng toza ekologik sof yonilg'i qaysi?

- A) metan ( $\text{CH}_4$ );
- B) vodorod ( $\text{H}_2$ );
- C) propan ( $\text{C}_3\text{H}_8$ ).

254. Kimyo sanoatida vodoroddan eng ko'p nima ishlab chiqarishda foydalaniлади?

- A)  $\text{NH}_3$ ;
- B)  $\text{CH}_4$ ;
- C)  $\text{C}_3\text{H}_8$ .

255. Vodorod – kislorod alangasi nima uchun ishlataladi?

- A) oson suyuqlanadigan metallar va kvarsni kesish hamda payvandlash;
- B) qiyin suyuqlanadigan metallmaslar va kvarsni kesish hamda payvandlash;
- C) qiyin suyuqlanadigan metallar va kvarsni kesish hamda payvandlash.

256. Tuproqning necha % ini vodorod tashkil qiladi?

- A) 11%;
- B) 1%;
- C) 21%.

257. Erkin vodorod qanday gazlar bilan birga uchraydi?

- A) neft, vulqon va boshqa tabiiy gazlar tarkibida;
- B) suv gazi, ozon;
- C) botqoq gazi.

258. Suvga temir ta'sir ettirib vodorod ajratib oilsh uchun suv bug'i necha °C gacha qizdirilgan temir ustidan o'tkaziladi?

- A) 600°C;
- B) 700°C;
- C) 800°C.

259. Qanday suv elektr tokini o'tkazmaydi?

- A) distillangan suv;
- B) toza suv;
- C) xlorli suv.

260. Suvga elektr toki ta'sir etganda qanday moddalarga ajraladi?

- A) gidroksid anioni va vodorod kationi;
- B) vodorod va kislorod;
- C) gidroksoniy va vodorod kationiga.

261. Suvning elektr o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun qanday moddalar qo'shiladi?

- A) NaOH, KOH,  $H_2SO_4$ ;
- B)  $NH_4OH$ , Cu(OH)<sub>2</sub>,  $H_2CO_3$ ;
- C) Mg(OH)<sub>2</sub>, LiOH,  $H_2S$ .

262. Suvni sanoatdagи ahamiyatiga ko'ra nomi qanday?

- A) inert gaz;
- B) sintez gaz;
- C) analiz gaz.

263. Sintez gaz tarkibidagi vodorodni is gazidan tozalash uchun qaysi modda katalizator bo'ladi?

- A)  $Fe_2O_3$ ;
- B)  $MnO_2$ ;
- C)  $Cr_2O_3$ ;

264. Vodorodni  $CO_2$  dan tozalashda aralashma necha atmosfera bosimda suv orqali o'tkaziladi?

- A) 22,4 atm;
- B) 14,9 atm;
- C) 20 atm.

265. Laboratoriya vodorod olish uchun ishlataladigan maxsus asbob nomi?

- A) kipp apparati;
- B) domna pechi;
- C) elektrolizer.

266. Vodorod qaysi element bilan portlab reaksiyaga kirishadi?

- A) O<sub>2</sub>;
- B) F<sub>2</sub>;
- C) Cl<sub>2</sub>.

267. Suv hosil bo'lish reaksiyasida qancha issiqlik ajraladi?

- A) 137,8 kkal;
- B) 136,8 kkal;
- C) 138,8 kkal.

268. Vodorod yonayotganda unga kislorod yuborilsa alanganing  $t^{\circ}\text{C}$  si qanchaga ko'tariladi?

- A) 2500—3000;
- B) 2000—2500;
- C) 1500—2000.

269. Vodorodni yuqori  $t^{\circ}$  da birikmalaridagi kislorodni biriktirib olishi uning qaysi xossasiga asoslangan?

- A) ionlanish;
- B) oksidlanish;
- C) qaytarilish.

270.  $4700^{\circ}\text{C}$  da vodorodning necha %i dissotsiyalanadi?

- A) 85%;
- B) 95%;
- C) 75%.

271. Vodorod qanday holatda  $\text{N}_2$ ,  $\text{P}$ ,  $\text{S}$  kabi elementlari bilan odatdagি haroratda birikadi?

- A) atomar holida;
- B) birikmalar holida;
- C) molekular holida.

272. Atomar vodorod alangasining harorati necha gradusga yetadi?

- A)  $6000^{\circ}\text{C}$ ;
- B)  $5000^{\circ}\text{C}$ ;
- C)  $4000^{\circ}\text{C}$ .

273. Aerostatlarni to'ldirishda ishlataladigan gaz qaysi?

- A) kislorod;
- B) vodorod;
- C) azot.

274. Vodorod izotoplarining nechtasi barqaror, nechtasi radioaktiv?

- A) 2 tasi barqaror, 1 tasi radioaktiv;
- B) 1 tasi barqaror, 2 tasi radioaktiv;
- C) hammasi barqaror.

275. Og'ir vodorod qanday nomlanadi?

- A) protiy;
- B) tretiy;
- C) deyteriy.

276. Vodorod izotoplarida massa sonlari nisbati qanday bo'ladi?

- A) 2;4;6;
- B) 1;2;3;
- C) A va B.

277. Odatdagi vodorodning izotop tarkibi?

- A) 99,98%  $^1\text{H}$ ; 0,02%  $^2\text{D}$ ;
- B) 0,02%  $^1\text{H}$ ; 99,98%  $^2\text{D}$ ;
- C) 91,87%  $^1\text{H}$ ; 8,13%  $^2\text{D}$ .

### Vodorod mavzusiga oid namunaviy masalalar va ularning yechilish usullari

**1-masala.** Elementning gidridi  $\text{EH}_2$  tarkibli gidrid hosil qiladi. Unda vodorodning massa ulushi 4,76% ga teng. Gidrid hosil qilgan elementni aniqlang.

**Yechish.**

**I usul.**

1) Dastlab vodorodning massa ulushidan foydalanib gidridning molyar massasi aniqlanadi:

$$\begin{array}{rcl} 4,76\% & \xrightarrow{\hspace{1cm}} & 2 \\ 100\% & \xrightarrow{\hspace{1cm}} & x \end{array} \quad x = 42 \text{ EH}_2$$

2) Shundan so'ng elementni aniqlash mumkin:  $42 - 2 = 40 \text{ g Ca}$ .

**II-usul.** Vodorod 4,76% bo'lsa, noma'lum element 95,24% bo'ladi. Shunga asoslanib quydagi proporsiya tuziladi.

$$\begin{array}{rcl} 2 & \xrightarrow{\hspace{1cm}} & 4,76\% \\ x & \xrightarrow{\hspace{1cm}} & 95,24\% \end{array} \quad x = 40 \text{ g; E} = \text{Ca}$$

**III usul.** 1)  $\text{EH}_2$  gidridning tarkibi quydagicha:

$$\omega(\text{H}) = 4,76\%; \quad 0,0476 \text{ qism yoki } 4,76 \text{ g}$$

$$\omega(\text{E}) = 95,24\%; \quad 0,9524 \text{ qism yoki } 95,24 \text{ g}$$

2) Ekvivalentlar qoidasiga binoan:

$$\frac{m_1}{m_2} = \frac{E_1}{E_2} \quad \text{formuladan} \quad E_1 = \frac{m_1 \cdot E_2}{m_2} = \frac{1 \cdot 95,24}{4,76} = 20$$

3) Elementning atom massasi

$$\text{Ar} = \text{E} \cdot \nu = 20 \cdot 2 = 40; \quad \text{bu element} = \text{Ca.}$$

**Javob:** Ca

**2-masala.** Kalsiy gidridni suv bilan ishlanganda ajralib chiqqan gaz qizdirilgan temir (II) — oksid ustidan o'tkazildi. Buning natijasida namunaning massasi 16 grammga kamaydi. Qancha gramm kalsiy gidrid suv bilan ishlangan.

**Yechish:**  $\text{CaH}_2 + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Ca}(\text{OH})_2 + 2\text{H}_2$   
 $\text{FeO} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Fe} + \text{H}_2\text{O}$

Olingan na'muna massasini kamayishi kislorodni bog'lanishi hisobiga sodir bo'lди. Massasi 16 gramm kamaygan bo'lsa, demak, 1 mol FeO qaytarildi va qaytarishga 1 mol vodorod (2g) sarf bo'lган. 0,5 mol  $\text{CaH}_2$

dan ham shuncha miqdor (2g) vodorod olindi. Demak, suv bilan 0,5 mol CaH<sub>2</sub>, ya'ni 21 g CaH<sub>2</sub>, reaksiyaga kirishgan.

**Javob:** 21 g CaH<sub>2</sub>

**3-masala.** 20 ml vodorod va kislороддан iborat aralashma portlatildi va 4 ml vodorod ortib qoldi. Boshlang'ich aralashmaning foiz tarkibini (hajm bo'yicha) toping.

**Yechish:** Dastlab reaksiya tenglamasi yozib olinadi.



1) Gazlarning reaksiyaga kirishish nisbatlaridan foydalanib reaksiyada to'liq sarflangan 16 ml (20 - 4 = 16) gaz aralashmasining qanchasi vodorodga, qanchasi kislородга tegishli ekanligi aniqlab olinadi.

$$\begin{array}{rcl} 3 & \longrightarrow & 2\text{H}_2 \\ 16 & \longrightarrow & x \end{array} \quad x = 10,67 \text{ ml H}_2$$

$$\begin{array}{rcl} 3 & \longrightarrow & 1\text{O}_2 \\ 16 & \longrightarrow & x \end{array} \quad x = 5,33 \text{ ml O}_2$$

2) 4 ml ortgan vodorodni sarflangan vodorodga qo'shsak boshlang'ich aralashmadagi vodorodning hajmi kelib chiqadi.

$$10,67 + 4 = 14,67 \text{ ml}$$

3) 20 mldagi umumiy aralashmaning hajmi ulushlari aniqlanadi.

$$\begin{array}{rcl} 20 & \longrightarrow & 100\% \\ 14,67 & \longrightarrow & x \end{array} \quad x = 73,35\% \text{ H}_2$$

$$\begin{array}{rcl} 20 & \longrightarrow & 100\% \\ 5,33 & \longrightarrow & x \end{array} \quad x = 26,65\% \text{ O}_2$$

**Javob:** 73,35% H<sub>2</sub>, 26,65% O<sub>2</sub>

**4-masala.** 1 litrdan olingen vodorod bilan azot aralashmasi kontakt apparatidan o'tkazilganda, 10% azot reaksiyaga kirishgan. Reaksiyadan keyingi gazlar aralashmasini % larda ifodalangan tarkibini aniqlang.

**Yechish:** Dastlab reaksiya tenglamasi yozib olinadi.



Reaksiyaga kirishgan azot hajmi topiladi.

$$\begin{array}{rcl} 1 & \longrightarrow & 100\% \\ x & \longrightarrow & 10\% \end{array} \quad x = 0,1 \text{ / sarflangan N}_2$$

2) Reaksiyaga kirishgan vodorod hajmi topiladi.

$$\begin{array}{rcl} 1 & \longrightarrow & 3 \\ 0,1 & \longrightarrow & x \end{array} \quad x = 0,3 \text{ / sarflangan H}_2$$

3) Hosil bo'lgan ammiak hajmi topiladi.

$$\begin{array}{c} 1 \quad \quad \quad 2 \\ | \quad \quad \quad | \\ 0,1 \quad \quad \quad x \end{array} \quad x=0,2 / \text{hosil bo'lgan NH}_3$$

4) Ortib qolgan N<sub>2</sub> va H<sub>2</sub> hajmi topiladi.

$$\begin{array}{l} 1-0,1 = 0,9 \text{ litr ortgan N}_2 \\ 1-0,3 = 0,07 \text{ litr ortgan H}_2 \end{array}$$

5) Umumiy aralashma hajmi aniqlanadi.

$$0,9+0,7+0,2 = 1,8 \text{ litr}$$

6) Aralashmaning foiz tarkibi topiladi.

$$\begin{array}{c} 1,8 \quad \quad \quad 100\% \\ | \quad \quad \quad | \\ 0,9 \quad \quad \quad x \end{array} \quad x=50\% \text{ N}_2$$

$$\begin{array}{c} 1,8 \quad \quad \quad 100\% \\ | \quad \quad \quad | \\ 0,7 \quad \quad \quad x \end{array} \quad x=38,8\% \text{ H}_2$$

$$\begin{array}{c} 1,8 \quad \quad \quad 100\% \\ | \quad \quad \quad | \\ 0,2 \quad \quad \quad x \end{array} \quad x=11,1\% \text{ NH}_3$$

**Javob:** 50%N<sub>2</sub>, 38,8% H<sub>2</sub>, 11,1% NH<sub>3</sub>

**5-masala.** Yuqori oksidi R<sub>2</sub>O<sub>7</sub> bo'lgan element tarkibida 0,78% vodorod tutgan gazsimon birikma hosil qiladi. Bu qaysi element?

**Yechish:** R<sub>2</sub>O<sub>7</sub> tarkibli birikmaning gidridi RH tipida bo'ladi.

$$\frac{1}{1+Ar} \cdot 100\% = 0,78$$

$$0,78 + 0,78Ar = 100$$

$$0,78Ar = 100 - 0,78$$

$$0,78Ar = 99,22$$

$$Ar = 127,2$$

**Javob:** Ar= 127,2 yod

**6-masala.** Yopiq idishda xlor va vodorod aralashmasidan 8,1 g miqdori portlatilgan. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasini 50 g natriy hidroksid joylashtirilgan naycha orqali o'tkazilgan. Bunda naycha massasi 8,1 grammga ortgan. Boshlang'ich aralashmada vodorodning hajm va massa foizlari qanday bo'lishi mumkin.

**Yechish:** H<sub>2</sub>+Cl<sub>2</sub>→2HCl

1) Dastlab 2HCl ning miqdori topib olinadi.

$$n_{(HCl)} = \frac{8,1}{36,5} = 0,222;$$

2) Hosil bo'lgan kislota massasi boshlang'ich moddalar massasiga teng, demak, reaksiya unumi 100% bo'lganda:

$$V_{(H_2)} = 22,4 \cdot 0,111 = 2,486 \text{ liter};$$

$$m_{(H_2)} = 2 \cdot 0,111 = 0,222 \text{ gramm};$$

3) Vodorodning massasidan foydalanim uning massa ulushi topiladi.

$$\begin{array}{rcl} 8,1 & \xrightarrow{\hspace{1cm}} & 100\% \\ 0,222 & \xrightarrow{\hspace{1cm}} & x \end{array} \quad x=2,74\%.$$

4) Umumiy miqdor 0,222, vodorodning miqdori esa 0,111 ekanligidan vodorodning hajmiy ulushi 50%.

**Javob:** 50% (hajmiy), 2,74% (massa).

**7-masala.** Vodorod, argon va uglerod (II) oksiddan iborat 200 ml aralashmaga 200 ml kislород qo'shildi. Reaksiya mahsulotlari portlatib va sovutilgandan so'ng gazlar aralashmasining hajmi 300 mlgacha (n.sh.da) kamaydi. Uglerod (IV) -oksid ishqor eritmasiga yuttilgandan keyin 250 ml gaz qoldi. Dastlabki aralashmaning hajmiy tarkibini aniqlang.

**Yechish:**

1) Gazlar aralashmasining umumiy hajmi:

$$200+200=400 \text{ ml}$$

2) Reaksiya borishi hisobiga:

$$400-300=100 \text{ ml}$$



Reaksiya tenglamasiga asosan  $CO_2$  ning hajmi CO hajmiga teng.

4) Gazlar ishqor eritmasidan o'tkazilgandan keyin hajmlardagi o'zgarishga asoslanib  $CO_2$  ning hajmi topiladi.

$$300-250=50 \text{ ml } CO_2. \text{ Demak, aralashmada } CO \text{ ham } 50 \text{ mlga teng.}$$

5)  $CO$  ni yonishiga sarflangan kislород 25ml.

6) Vodorodning yonishi hisobiga gazlar aralashmasining kamayishi:

$$100-25=75 \text{ ml}$$

Vodorodning yonish reaksiysi tenglamasidan 25 ml kislород sarflanganda 50ml vodorod yonganligini aniqlash mumkin.

Demak, gazlar aralashmasida 100 ml (200-50(CO)-50( $H_2$ )) argon bor.

**Javob:** Ar(50%), 25%  $H_2$ , 25% CO.

## IV BOB

### SUV. ERITMALAR

#### «SUVGA TUFLAMANG, MAKRUH BO'LADI». Hadis-u sharifdan

*Suv yer yuzida eng ko'p tarqalgan eng muhim kimyoviy birikmalardan birdir. Shu bilan bir qatorda suv eng yaxshi erituvchi hamdir.*

*Eritmalarning kundalik turmushda, xalq xo'jaligida eng ko'p qo'llanuvchi sistema hisoblanib, ushbu bobda uning tarkibi, xossalari, konsentratsiyalari, ishlatalish sohalari haqida savollar va ularning javoblari berilgan. Rizga ma'lumki eritmalar va ularning konsentratsiyasini aniqlashga oid masalalarni mustaqil yecha olishga erishgan o'quvchilar kimyo fanidagi hoshqa mavzularni yetarli darajada o'zlashtira oladilar. Masalalarni mustaqil yecha olishlari uchun esa nazariy bilimlarni to'liq egallash lozim.*

*Shu sababli ushbu bobdagi savol-javohlar va boh oxirida qo'yilgan masalalar va ularning yechimlarini mukammal o'zlashtirish, suv va eritmalar to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lish imkonini beradi.*

#### Suv va eritmalariga oid savollar va ularning javoblari

278.  $H_2O$  da vodorod va kislorod atomlari necha gradusli burchak hosil qiladi?

- A) 104,5°C;
- B) 104,3°C;
- C) 107,3°C.

*Yodda tuting: Suv 0° C da muzlaydi; 100° C da qaynaydi;  $\rho=1$ , yuqori issiqlik sig'imiga ega (4,18 J/K(g))*

279. Suv bug'lari qizdirilganda temir bilan ta'sirlashganda qanday mahsulot hosil bo'ladi?

- A)  $Fe_3O_4$ ;
- B)  $Fe_2O_3$ ;
- C) FeO.

280. Dunyo okeanining hajmi qancha?

- A)  $1,53 \cdot 10^6 km^3$ ;
- B)  $1,35 \cdot 10^8 km^3$ ;
- C)  $1,35 \cdot 10^6 km^3$ .

281. Yerdagи necha foiz suv dunyo okeani hissasiga to'g'ri keladi?

- A) 95,3%;

- B) 98,2%;  
C) 97,2%.

282. Har yili kishi boshiga o'rtacha necha litr suv ishlatiladi?

- A) 8000 l;  
B) 9000 l;  
C) 10000 l.

283. 1 kg qand olish uchun qancha suv kerak?

- A) 400 l;  
B) 300 l;  
C) 600 l.

284. 1 kg bug'doy olish uchun qancha suv kerak?

- A) 1000 l;  
B) 2500 l;  
C) 1500 l.

285. 1 kg sintetik rezina olish uchun qancha litr suv sarflanadi?

- A) 2500 l;  
B) 2000 l;  
C) 3000 l.

286. Suvni tozalashning ikkilamchi bosqichida qaysi moddalardan foydalilanadi?

- A) ohak,  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$  tuzi;  
B) ohak,  $\text{Al}_2(\text{SO}_3)_3$  tuzi;  
C) ohak,  $\text{Al}(\text{NO}_3)_3$  tuzi.

287. Suvni tozalashda uchlamicha ya'ni so'nggi bosqichida qaysi moddalar (bakteriyadan tozalash) ishlatiladi?

- A)  $\text{O}_3$ ;  
B)  $\text{O}_2$  yoki  $\text{Cl}_2$ ;  
C)  $\text{Cl}_2$ .

288. Nima uchun birlamchi va ikkilamchi tozalash bosqichidan o'tgan suvda suv o'tlar tez ko'payadi?

- A) P va  $\text{O}_2$  ning birikmalarini saqlaydi;  
B) P va  $\text{H}_2$  ning birikmalarini saqlaydi;  
C) P va  $\text{N}_2$  ning birikmalarini saqlaydi.

289. Suyuq eritmalar nima?

A) ikki yoki undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat qattiq gomogen (bir jinsli) tuzilmalardir;

B) ikki yoki undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat suyuq gomogen (bir jinsli) tuzilmalardir;

C) ikki yoki undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat gaz gomogen (bir jinsli) tuzilmalardir.

290. Yer yuzining umumiy sathi qancha va uning qanchasini suv tashkil qiladi?

- A)  $510100000 \text{ km}^2$ , shundan  $375 \cdot 106 \text{ km}^2$  suvlidkan iboratdir;
- B)  $510100000 \text{ km}^2$ , shundan  $575 \cdot 106 \text{ km}^2$  suvlidkan iboratdir;
- C)  $510100000 \text{ km}^2$ , shundan  $275 \cdot 106 \text{ km}^2$  suvlidkan iboratdir.

291. Qaysi daryolar yiliga  $1 \cdot 10^8$  tonnagacha tuzni eritadi?

- A) Ganga va Missisipi;
- B) Ganga;
- C) Missisipi.

292. 1000 g yomg'ir suvini bug'latsak qancha qattiq qoldiq qoladi?

- A) 3 – 5 g;
- B) 5 – 8 g;
- C) 8 – 10 g.

293. Qaysi olim 12 kun distillangan qor suvini kolbada qaynatib, kolba devori biroz eriganini aniqlagan?

- A) Arrenius;
- B) Kablukov;
- C) Sheele.

294. Qaysi olim 101 kun davomida og'irligi tortilgan kolbada suvni qaynatib, idish og'irligini kamayganligini kuzatgan?

- A) Arrenius;
- B) Lavaazye;
- C) Sheele.

295. Xona haroratida ( $20^\circ\text{C}$ ) 100 g suv qancha qandni erita oladi?

- A) 100 g;
- B) 250 g;
- C) 200 g.

296. To'yingan eritma nima?

- A) ayni haroratda eruvchi moddadan ortiqcha erita olmaydigan eritma;
- B) ayni haroratda eruvchi moddadan ortiqcha erita oladigan eritma;
- C) ayni haroratda eruvchi moddadan ortiqcha erita olmaydigan erituvchi.

297. Eruchanlik nima?

- A) 100 g suvda erishi mumkin bo'lgan modda miqdori;
- B) 200 g suvda erishi mumkin bo'lgan modda miqdori;
- C) 150 g suvda erishi mumkin bo'lgan modda miqdori.

298. 100 g erituvchida modda 10 g dan ortiq erisa, 1 g dan kam erisa, 0,01 g dan kam erisa qanday modda hisoblanadi?

- A) yaxshi eruvchan, erimaydigan modda, oz eruvchan;
- B) yaxshi eruvchan, oz eruvchan, erimaydigan modda;
- C) oz eruvchan, yaxshi eruvchan, erimaydigan modda.

299. Qattiq moddaning eruvchanligi nimaga bog'liq?

- A) konsentratsiyaga;
- B) modda tabiatiga;
- C) haroratga.

300. Gazlarning eruvchanligi qaysi omilga to'g'ri, qaysi omilga teskari proporsional?

- A) haroratga teskari, bosimga to'g'ri;
- B) haroratga to'g'ri, bosimga teskari;
- C) haroratga teskari, bosimga teskari.

301. Eritma nima?

A) erituvchi, erigan modda va ularning o'zaro ta'sirlashuv mahsulotlaridan iborat ko'p jinsli tuzilma;

B) erituvchi, erigan modda va ularning o'zaro ta'sirlashuv mahsulotlaridan iborat 1 jinsli tuzilma;

C) erituvchi, erigan modda va ularning o'zaro ta'sirlashuv mahsulotlaridan iborat geterogen tuzilma.

302. Eritmada modda, molekula yoki atomgacha maydalangan bo'lib, qancha masofa oralig'ida erituvchi molekulalari orasida taqsimlangan?

- A)  $10^{-7}$  m;
- B)  $10^{-5}$  m;
- C)  $10^{-9}$  m.

303. J<sub>2</sub> ning spirtdagi eritmasi qanday eritmaga xos?

- A) haqiqiy eritma;
- B) chin eritma;
- C) dag'al eritma.

304. Eritmalar qanday bo'ladi?

- A) suyuq, qattiq;
- B) suyuq, qattiq, gazsimon;
- C) suyuq, gazsimon.

305. Suyuq eritmalarga misol?

- A) tuz, qand, aldegidning suvdagi eritmasi;
- B) tuz, kraxmal, spirtning suvdagi eritmasi;
- C) tuz, qand, spirtning suvdagi eritmasi.

306. Qattiq eritmalarga misol?

- A) tuz, qand, aldegidning suvdagi eritmasi;
- B) metallarning qotishmalari: tilla buyumlar, dyuralumin;
- C) tuz, kraxmal, spirtning suvdagi eritmasi.

307. Gazsimon eritmalarga misol?

- A) havo, gazlar aralashmasi;
- B) metallarning qotishmalari: tilla buyumlar, dyuralumin;
- C) tuz, kraxmal, spirting suvdagi eritmasi.

**308. To'yinmagan eritma?**

- A) ayni haroratda to'yingan eritmada mavjud erigan moddalardan kam miqdorini tutuvchi erituvchi;
- B) ayni haroratda to'yingan eritmada mavjud erigan moddalardan ko'p miqdorini tutuvchi eritma;
- C) ayni haroratda to'yingan eritmada mavjud erigan moddalardan kam miqdorini tutuvchi eritma.

**309. Suyultirilgan eritma nima?**

- A) erigan moddasi juda ko'p bo'lgan eritma;
- B) erigan moddasi juda oz bo'lgan eritma;
- C) erituvchi moddasi oz bo'lgan eritma.

**310. Konsentrangan eritma nima?**

- A) erituvchi modda miqdori yetarlicha yuqori bo'lgan eritma;
- B) erigan modda miqdori yetarlicha yuqori bo'l'magan eritma;
- C) erigan modda miqdori yetarlicha yuqori bo'lgan eritma.

**311. Massa ulushi nima va uning formulasi?**

- A) erituvchi modda massasini ( $m_1$ ) eritma massasiga ( $m_2$ ) ga nisbati

bo'lib, 1 dan kichik bo'ladi:  $w = \frac{m_1}{m_2}$ ;

- B) erigan modda massasini ( $m_1$ ) eritma massasiga ( $m_2$ ) ga nisbati bo'lib,

1 dan kichik bo'ladi:  $w = \frac{m_1}{m_2}$ ;

- C) erigan modda massasini ( $m_1$ ) erituvchi massasiga ( $m_2$ ) ga nisbati bo'lib, 1 dan kichik bo'ladi:  $w = \frac{m_1}{m_2}$ .

**312. Foiz konsentratsiya nima va uning formulasi?**

- A) erigan modda massasini ( $m_1$ ) eritma massasiga ( $m_2$ ) nisbatining % larda ifodalanishi:  $C\% = \frac{m_1}{m_2} \cdot 100\%$ ;

- B) erigan modda massasini ( $m_1$ ) erituvchi massasiga ( $m_2$ ) nisbatining % larda ifodalanishi:  $C\% = \frac{m_1}{m_2} \cdot 100\%$ ;

- C) erituvchi modda massasini ( $m_1$ ) eritma massasiga ( $m_2$ ) nisbatining % larda ifodalanishi:  $C\% = \frac{m_1}{m_2} \cdot 100\%$ .

**313. Molyar konsentratsiya nima?**

A) erituvchi modda miqdorining (mollarda – M) eritma hajmiga (v)

nisbati  $C_m = \frac{m \cdot 1000}{M \cdot V}$  yoki  $C_m = \frac{m \cdot 1000}{M \cdot V}$ ;

B) erigan modda miqdorining (mollarda – M) erituvchi hajmiga (v)

nisbati  $C_m = \frac{m \cdot 1000}{M \cdot V}$  yoki  $C_m = \frac{n}{V} \cdot 1000$ ;

C) erigan modda miqdorining (mollarda – M) eritma hajmiga (v) nisbati

$C_m = \frac{m \cdot 1000}{M \cdot V}$  yoki  $C_m = \frac{n}{V} \cdot 1000$ .

**314. Normal konsentratsiya nima?**

A) erigan modda ekvivalent sonining (E) eritma hajmiga (V)

nisbati  $C_v = \frac{m \cdot 1000}{E \cdot V}$ ;

B) erituvchi modda ekvivalent sonining (E) eritma hajmiga (V) nisbati

$C_v = \frac{m \cdot 1000}{E \cdot V}$ ;

C) erigan modda ekvivalent sonining (E) erituvchi hajmiga (V)

nisbati  $C_v = \frac{m \cdot 1000}{E \cdot V}$ .

**315. Biror bir A moddaning  $V_1$  litr  $N_1$  konsentratsiyali eritmasi boshqa bir B moddaning  $V_2$  litr  $N_2$  konsentratsiyali eritmalar bilan ta'sirlashishi qaysi formula bilan ifodalanadi?**

A)  $V_1 \cdot N_2 = V_2 \cdot N_1$  yoki  $\frac{V_1}{V_2} = \frac{N_2}{N_1}$ ;

B)  $V_1 \cdot N_1 = V_2 \cdot N_2$  yoki  $\frac{V_1}{V_2} = \frac{N_2}{N_1}$ ;

C)  $V_1 \cdot N_1 = V_2 \cdot N_2$  yoki  $\frac{V_1}{V_2} = \frac{N_1}{N_2}$ .

**316. Qonda, miya va yurakda, suyaklarda qancha suv bor?**

A) 80%; 83%; 20–25 %;

B) 83%; 80%; 25–30 %;

C) 83%; 80%; 20–25 %.

**317. Baliqlar, meduzalar, suv o'tlari tanasining qancha foizini suv tashkil qiladi?**

- A) 80%; 95–98%; 95–99%;  
 B) 85%; 95–99%; 95–99%;  
 C) 80%; 98–99%; 96–99%.

**318. Quruglik o'simliklarining tanasining necha foizini suv tashkil qiladi?**

- A) 27-75%;  
 B) 50-75%;  
 C) 15-50%.

**319. «Og'ir» va «O'ta og'ir» suvning formulasini ko'rsating.**

- A)  $D_2O$ ,  $H_2O$ ;  
 B)  $H_2O$ ,  $T_2O$ ;  
 C)  $D_2O$ ,  $T_2O$ .

**320. Og'ir suvni oddiy suvgaga nisbatan kimyoviy aktivligi qanday?**

- A) sustroq;  
 B) faolroq;  
 A) bir xil.

### **Suv va eritmalar mavzusiga oid namunaviy masalalar va ularning yechilish usullari**

**1-masala:**  $H_2SO_4$  kislotaning 150 ml 2M li va 350 ml 4 M li eritmaları aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritmaning molyar konsentratsiyasini toping?

**Yechish:**

**I usul:** Masalani yechish uchun quyidagi formuladan foydalilanadi:

$$C_{M_2} = \frac{Cm_1 \cdot V_1 + Cm_2 \cdot V_2}{V_1 + V_2} = \frac{150 \cdot 2 + 350 \cdot 4}{150 + 350} = 3,4$$

**Javob:** 3,4 M.

**II usul:** Masalani yechish uchun quyidagi formuladan molni topib olinadi:  
 $n = Cm \cdot V$

$$1) n = 0,15 \cdot 2 = 0,3; \quad n = 0,35 \cdot 4 = 1,4; \quad 0,3 + 1,4 = 1,7.$$

2) Umumiy hajm topib olinadi:

$$V_j = V_1 + V_2 = 150 + 350 = 500$$

$$3) C_M = \frac{n}{V} \cdot 1000 \text{ binoan} \quad C_M = \frac{1,7}{500} \cdot 1000 = 3,4$$

**Javob:** 3,4 M.

**2-masala:**  $AgNO_3 = 60^\circ C$  dagi to'yingan eritmasini  $200^\circ C$  sovutilganda 15 g tuz cho'kmaga tushishi uchun zarur bo'ladigan eritmani tayyorlash uchun talab etiladigan tuz va suvning massasini toping?

$$- S(20^\circ C) = 222; \quad S(60^\circ C) = 450$$

**Yechish:**

Eruvchanlikda erituvchining miqdori doimo 100 g ga teng bo'ladi. Shunga asoslanib:

- 1)  $S(60^\circ C) 450 + 100 = 550$  eritma
- 2)  $S(20^\circ C) 222 + 100 = 322$  eritma
- 3)  $550 - 322 = 228$  cho'kma
- 4)  $228 \text{ g cho'kma} \xrightarrow{\quad} 550$   
 $15 \text{ g cho'kma} \xrightarrow{\quad} x \qquad x = 36,2$
- 5)  $228 \text{ g cho'kma} \xrightarrow{\quad} 450$   
 $15 \text{ g cho'kma} \xrightarrow{\quad} x \qquad x = 29,6$
- 6)  $36,2 - 29,6 = 6,6 \text{ g suv}$

**Javob:** 29,6 g tuz, 6,6 g suv

**3-masala:** Tarkibi  $H_2SO_4 \cdot SO_3$  bo'lgan oleumning qanday massasini (g) 500 g suvgaga qo'shib 60% sulfat kislota olish mumkin?

**Yechish:**

1)  $H_2SO_4 \cdot SO_3 + H_2O \rightarrow 2H_2SO_4$  reaksiyaga muvofiq holda oleum va sulfat kislotaning massalarini topib olinadi:


$$98 + 80 = 178 \quad H_2SO_4 \cdot SO_3$$

$$2 \cdot 98 = 196 \quad H_2SO_4$$

2) Bunga asoslanib quyidagi proporsiya tuziladi:

$$178 \xrightarrow{\quad} 100\%$$

$$196 \xrightarrow{\quad} x \qquad x = 110$$



**Javob:** 600 g

**4-masala:**  $CdSO_4$  eritmasiga massasi 50 g bo'lgan Zn plastinka botirib qo'yildi. Oradan ma'lum vaqt o'tgandan so'ng, plastinkaning massasi 3,76 % ga ortdi. Eritmaga o'tgan Zn ning massasini toping?

**Yechish:**

1) Reaksiya bo'yicha ortishni topib olinadi;



$$112 - 65 = 47 \text{ ortish.}$$

2) Tajriba bo'yicha ortishni topib olinadi.

$$50 \cdot 0,376 = 1,88 \text{ ortish};$$


3)  $47 \text{ g} \quad 65 \text{ Zn}$

$$1,88 \text{ g} \quad x \quad x = 2,6 \text{ Zn}$$

**Javob:** 2,6 Zn.

**5-masala:** 255 g 20% li  $\text{AgNO}_3$  eritmasiga tarkibida ekvivalent miqdorida natriy galogenid bo'lgan 45 g eritma qo'shilib, cho'kma ajratilgandan so'ng 9,92 % li eritma hosil bo'ldi.

Reaksiyada qaysi tuzning eritmasi ishlatalig'an?



1) Berilgan kattaliklardan foydalanib  $\text{AgNO}_3$  massasi topib olinadi va shunga binoan proporsiya tuziladi.

$$255 \cdot 0,2 = 51 \text{ g } \text{AgNO}_3$$

2)  $170 \quad 85$

$$51 \quad x \quad x = 25,5 \text{ NaNO}_3$$

3)  $9,92\% \quad 25,5$

$$100 \% \quad x \quad x = 257 \text{ hosil bo'lgan eritma.}$$

4)  $255 + 45 = 300$  dastlabki eritma

5)  $300 - 257 = 43 \text{ AgGal} \downarrow$

6)  $51 \quad 43 \downarrow$

$$170 \quad x \quad x = 143,5 \downarrow$$

7)  $143,5 - 108 = 35,5$  xlor

**Javob:** NaCl.

**6-masala:** Eritmaga 600 g suv qo'shilganda moddaning massa ulushi 3,5 marta kamaydi. Boshlang'ich eritmaning massasini (g) hisoblang?

**Yechish:**

Eritmaning dastlabki holatida uning konsentratsiyasi 3,5 teng deb qabul qilinadi

$$100 \% \quad x$$

$3,5 \% \quad y = 0,035x$  bu yerda  $x$  – eritma,  $0,035x$  erigan modda. Bunga asoslanib yangi eritma uchun tenglama tuziladi.

$$100 \% \quad (x + 600)$$

$$1 \% \quad 0,35x$$

$$3,5x = x + 600$$

$$2,5x = 600$$


$$x = 240$$

**Javob:** 240.

**7-masala:** Osh tuzining 20% eritmasidan 300 g tayyorlash uchun uning 8% li va 40% li eritmalaridan qanchadan kerak?

**Yechish:**

1) Har doim so'ralayotgan % ni diogonalning o'rtasiga qo'yiladi, agar so'ralayotgan % ning eritma massasi berilgan bo'lsa, diogonal natijalari qo'shiladi.



- 2)  $32 - 12 \text{ (40\%)} \\ 300 - x \quad x = 112,5$   
3)  $32 - 20 \text{ (8\%)} \\ 300 - x \quad x = 187,5$

**Javob:** 112,5 (40 % li), 187,5 (8% li).

## V BOB

### NOORGANIK MODDALARNING ENG MUHIM SINFLARI

*Noorganik moddalar ikki asosiy sinfga bo'linib, bular oddiy va murakkab moddalardir. Oddiy moddalarga metallar va metallmaslar kirsa, murakkab moddalar 4 ta sinfga bo'linadi:*

- 1) Oksidlar.
- 2) Asoslar.
- 3) Kislotalar.
- 4) Tuzlar.

*Noorganik kimyoda masalalar yechish jarayonida masala shartida berilgan moddani qaysi sinfga kirishini va bu sinfining xossalariini to'liq bilsakkina masalalarning to'g'ri yechimini topa olamiz. Shu sahabli ushbu bohda berilgan sinf vakillarini olinishi, fizik-kimyoviy xossalari, ishlatalish sohalariga oid savol-javoblar va masalalar yechimlari orqali noorganik birikmalarning eng muhim sinflariga oid bilimlarni egallash imkonini beradi.*

#### Noorganik moddalarning eng muhim sinflariga oid savollar va ularning javoblari

321. Oddiy modda nima?

- A) parchalab bo'lmaydigan moddalar, ya'ni tarkibi bir xil element atomidan tashkil topgan moddalar;
- B) parchalab bo'ladigan moddalar, ya'ni tarkibi bir xil element atomidan tashkil topgan moddalar;
- C) parchalab bo'lmaydigan moddalar, ya'ni tarkibi har xil element atomidan tashkil topgan moddalar.

322. Oddiy moddalar xossalariiga ko'ra necha xil?

- A) 3 xil: gaz, suyuq va qattiq;
- B) 2 xil: metall va metallmas;
- C) turli xil.

323. Suyuq metallarga misol keltiring?

- A) Hg va Fr;
- B) Ta va In;
- C) Co va Ir.

324. Metallarning fizik xossalariini ko'rsating.

- A) metall yaltiroqligi, sublimatlanish, plastiklik va cho'ziluvchanlik.

B) metall yaltiroqligi, issiqlik va elektr o'tkazuvchanlik, kristall panjaraning mustahkamligi;

C) metall yaltiroqliligi, issiqlik va elektr o'tkazuvchanlik, plastiklik, cho'ziluvchanlik.

325. Qaysi metallmaslar (1) qattiq, qaysilar (2) suyuq bo'ladi?

A) (1)  $S_8$ ,  $P_4$ ; (2)  $Br_2$ ;

B) (1)  $S_8$ ,  $J_2$ ; (2)  $Br_2$ ,  $P_4$ ;

C) (1)  $P_4$ ,  $J_2$ ; (2)  $Br_2$ ,  $S_8$ .

326. Olmos va Borning kristall panjara turi qanday?

A) molekular;

B) molekular va atom;

C) atom.

327. Murakkab modda nima?

A) bir xil element atomidan tashkil topgan moddalar;

B) har xil element atomidan tashkil topgan moddalar;

C) har xil modda atomidan tashkil topgan moddalar.

328. Murakkab moddalar qanday sinflarga bo'linadi?

A) 4 ga;

B) 2 ga;

C) 3ga.

Oksidlar	Asoslar	Kislotalar	Tuzlar
MgO	NaOH	HCl	NaCl
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Al(OH) <sub>3</sub>	H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>	KHCO <sub>3</sub>
P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	Cr(OH) <sub>3</sub>	H <sub>3</sub> PO <sub>4</sub>	Cu(OH)Cl

329. Oksidlarga ta'rif bering?

A) tarkibida kislorod bo'lgan bir necha elementdan tashkil topgan murakkab moddalar;

B) biri kislorod bo'lgan 2 elementdan tashkil topgan gaz moddalar;

C) biri O<sub>2</sub> bo'lgan, ikki elementdan tashkil topgan murakkab moddalar.

330. Kvars nima?

A) SiO<sub>2</sub> (kremniy (IV) oksid);

B) SiO (kremniy (II) oksid);

C) SiH<sub>4</sub> (kremniy gidridi).

331. Magneziya va temirtosh nima?

A) MgO; FeO;

B) MgO; Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>;

C) MgO; Fe(OH)<sub>2</sub>.

332. Oksidlar kimyoviy xossalariiga ko'ra necha xil?

- A) 2 xil: tuz hosil qiluvchi va tuz hosil qilmaydigan;
- B) 2 xil: suvda eriydigan va erimaydigan;
- C) 3 xil: asosli va kislotali.

333. Tuz hosil qiluvchi oksidlar necha xil?

- A) 2 xil: asosli va kislotali;
- B) 2 xil: suvda eriydigan va erimaydigan;
- C) 3 xil: asosli, kislotali, amfoter.

334. Asosli oksidlarga ta'rif bering?

- A) kislotalar yoki kislotali oksidlar bilan tuz hosil qiluvchi oksidlar;
- B) asoslar yoki asosli oksidlar bilan tuz hosil qiluvchi oksidlar;
- C) faqat amfoter oksidlar bilan tuz hosil qiluvchi oksidlar.

335. Kislotali oksidlarga ta'rif bering?

- A) faqat amfoter oksidlar bilan tuz hosil qiluvchi oksidlar;
- B) kislotalar yoki kislotali oksidlar bilan tuz hosil qiluvchi oksidlar;
- C) asoslar yoki asosli oksidlar bilan tuz hosil qiluvchi oksidlar.

336. Amfoter oksidlarga ta'rif bering.

- A) kislotalar bilan ham, asoslar bilan ham tuz hosil qilmaydigan oksidlar;
- B) kislotalar bilan ham, asoslar bilan ham tuz hosil qiluvchi oksidlar;
- C) kislotalar yoki kislotali oksidlar bilan tuz hosil qiluvchi oksidlar.

337. Betaraf oksidlar nima?

- A) tuz hosil qilmaydigan oksidlar;
- B) kislotalar yoki kislotali oksidlar bilan tuz hosil qiluvchi;
- C) kislotalar bilan ham, asoslar bilan ham tuz hosil qiluvchi oksidlar.

338. Oksidlar qanday yo'l bilan olinadi?

- A) kislotalarni asoslar bilan ta'sirlashuvidan;
- B) kislotalarga vodorodni ta'siridan;
- C) kislotalarni parchalash yo'li bilan.

339. Oksidlarning kimyoviy xossalariini ko'rsating?

- A)  $\text{Na}_2\text{O} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{NaOH}$ ;  
—  $\text{SO}_2 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_3$   
—  $\text{CaO} + 2\text{HCl} \rightarrow \text{CaCl}_2 + \text{H}_2\text{O}$
- B)  $\text{P}_2\text{O}_5 + 3\text{Ca(OH)}_2 \rightarrow \text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 + 3\text{H}_2\text{O}$ ;  
—  $\text{MgO} + \text{SO}_2 \rightarrow \text{MgSO}_3$

C) A va B.

340.  $\text{CO}_2$  havoning necha foizini tashkil etadi?

- A) 0,03 %;
- B) 0,3 %;
- C) 0,5 %.

341. «Quruq muz» nima va uning ishlatalishi?

- A)  $\text{SO}_2$ ; isituvchi vosita sifatida ishlataladi;
- B)  $\text{SiO}_2$ ; qurituvchi vosita sifatida ishlataladi;
- C)  $\text{CO}_2$ ; sovituvchi vosita sifatida ishlataladi.

342. Qaysi oksid tibbiyotda ultrabinafsha nur bilan ishlovchi asboblarda qo'llaniladi?

- A)  $\text{N}_2\text{O}_5$ ;
- B)  $\text{SiO}_2$ ;
- C)  $\text{CO}$ .

343. Shisha sanoatining asosiy xomashyosi qaysi modda?

- A)  $\text{SiO}_2$ ;
- B)  $\text{CO}_2$ ;
- C)  $\text{SO}_2$ .

344. Kvarsning asosiy tabiiy ko'rinishlari qaysi?

- A) ametist, flyurit, yoqut minerallari;
- B) bishofit, silvinit, karnallit;
- C) ametist, haqiq, yoqut minerallari.

345. Qaysi oksiddan yarim o'tkazgichlar tayyorlanadi?

- A)  $\text{SiO}_2$ ;
- B)  $\text{CaO}$ ;
- C)  $\text{SeO}_2$ .

346. So'ndirilmagan ohak qanday olinadi?

- A)  $\text{CaO} + \text{CO}_2 \rightarrow \text{CaCO}_3$ ;
- B)  $\text{CaO} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Ca(OH)}_2$ ;
- C)  $\text{CaCO}_3 \rightarrow \text{CaO} + \text{CO}_2 \uparrow$ .

347. Tuproqning kislotaliligi ortib ketsa qaysi modda yordamida uni neytrallanadi?

- A)  $\text{FeO}$ ;
- B)  $\text{CaO}$ ;
- C)  $\text{SO}_2$ .

348. Asoslar deb nimaga aytildi?

- A) metall atomi va kislota goldig'idan tashkil topgan murakkab moddalar;
- B) vodorod atomi va gidroksil guruhidan tashkil topgan murakkab moddalar;
- C) metall atomi gidroksil guruhidan tashkil topgan murakkab moddalar.

349. Gidroksogruppa necha valentlikni namoyon qiladi?

- A) I valentli;
- B) II valentli;
- C) III valentli.

350. Asoslar qanday nomlanadi?

- A) o'zgarmas metallar uchun; metallar atomi nomi+ gidroksid; kaliy gidroksid  $\text{KOH}$ ;

B) o'zgaruvchan valentli metallar uchun; metall atomi nomi + (metall atom valentligi rim raqamida) +[-chiziqcha] – +gidroksid, M: vismut (III) – gidroksid, Bi (OH)<sub>3</sub>;

C) A va B.

351. Asoslar suvda erishiga ko'ra necha xil?

A) 2 xil: ishqorlar va suvda erimaydigan asoslar;

B) 2 xil: yaxshi va yomon eriydigan;

C) 2 xil: amfoter va befarq.

352. Amfoter asoslar nima?

A) asosli xossalari namoyon qiluvchi asoslar;

B) kislotali xossalari namoyon qiluvchi asoslar;

C) ham kislotali, ham asosli xossalari namoyon qiluvchi asoslar.

353. Suvda erimaydigan asoslarga misol keltiring?

A) Cu(OH)<sub>2</sub>, Fe(OH)<sub>2</sub>;

B) KOH, Ca(OH)<sub>2</sub>;

C) Cu(OH)<sub>2</sub>, NaOH.

354. Asoslar qanday yo'l bilan olinadi?

A) 2Na+2H<sub>2</sub>O → 2NaOH+H<sub>2</sub>;

B) CaO+H<sub>2</sub>O → Ca(OH)<sub>2</sub>;

C) A va B.

355. Oq rangli asoslarga misollar keltiring.

A) KOH, NaOH, Ca(OH)<sub>2</sub>;

B) Ni(OH)<sub>2</sub>, NaOH, Cu(OH)<sub>2</sub>;

C) Fe(OH)<sub>2</sub>, NaOH, Ca(OH)<sub>2</sub>.

356. Yashil va qo'ng'ir rangli asoslar qaysi?

A) Ca(OH)<sub>2</sub>; Fe(OH)<sub>3</sub>;

B) Ni(OH)<sub>2</sub>; Al(OH)<sub>3</sub>;

C) Ni(OH)<sub>2</sub>; Fe(OH)<sub>3</sub>.

***Bilib oling!!! Ishqorlarning indikatorlarga ta'siri:***

Indikatorlar nomi	Neytral eritmadiagi rang	Ishqoriy eritmadiagi rang
Lakmus	Binafsha	Ko'k
Metil zarg'aldog'i	To'q sariq	Sariq
Fenolftalein	Rangsiz	Pushti

357. Asoslarning kimyoviy xossalari:

- A) 1)  $\text{NaOH} + \text{HCl} \rightarrow \text{NaCl} + \text{H}_2\text{O}$ ;  
2)  $\text{Mg(OH)}_2 + \text{HCl} \rightarrow \text{Mg(OH)}\text{Cl} + \text{H}_2\text{O}$ ;
- B) 3)  $\text{CaO} + \text{CO}_2 \rightarrow \text{CaCO}_3 \downarrow$ ;  
4)  $\text{CuCl}_2 + \text{NaOH} \rightarrow \text{Cu(OH)}\text{Cl} + \text{NaCl}$ ;
- C) A va B.

358. «*Kaustik soda*» nima?

- A)  $\text{NaOH}$ ;
- B)  $\text{KOH}$ ;
- C)  $\text{LiOH}$ .

359.  $\text{NaOH}$  sanoatda qanday olinadi?

- A)  $\text{Ca(OH)}_2 + 2\text{NaCl} \rightarrow \text{CaCl}_2 + 2\text{NaOH}$ ;
- B)  $\text{NaCl}$  eritmasini elektroliz qilib;
- C)  $\text{Na}_2\text{O} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{NaOH}$ .

360.  $\text{Ca(OH)}_2$  dan tayyorlangan eritma qanday nomlanadi?

- A) so'ndirilmagan ohak;
- B) marmar suvi;
- C) ohak suti.

361. Kislotalar deb nimaga aytildi?

- A) tarkibida metall atomlariga almashina oluvchi vodorod atomlari hamda kislota qoldig'idan iborat murakkab modda;
- B) tarkibida metall atomlariga almashina oluvchi vodorod atomlari hamda asos qoldig'idan iborat murakkab modda;
- C) tarkibida metall atomlariga almashina olmaydigan vodorod atomlari hamda kislota qoldig'idan iborat murakkab modda.

362. Kislotalar tarkibida kislorod atomi mavjudligiga ko'ra necha xil?

- A) bir va ikki negizli;
- B) kuchli va kuchsiz;
- C) kislorodli va kislorodsiz.

363. Kislotalar tarkibidagi vodorod soniga qarab qanday toifalanadi?

- A) bir negizli; ikki negizli; ko'p negizli;
- B) kuchli va kuchsiz;
- C) bir va ikki negizli.

364. Kislotalar qanday usul bilan olinadi?

- A)  $\text{P}_2\text{O}_5 + 3\text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{H}_3\text{PO}_4$   
 $- 2\text{CH}_3\text{COONa} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow 2\text{CH}_3\text{COOH} + \text{Na}_2\text{SO}_4$ ;
- B)  $\text{Na}_2\text{SiO}_3 + 2\text{HCl} \rightarrow \text{H}_2\text{SiO}_3 \downarrow + 2\text{NaCl}$ ;
- C) A va B.

365. Qattiq kislotalar qaysilar?

- A)  $\text{H}_3\text{BO}_3$ ,  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ;
- B)  $\text{H}_2\text{SiO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;
- C)  $\text{H}_3\text{BO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SiO}_3$ .

366. Neytrallanish reaksiyasiga misollar keltiring?

- A)  $\text{H}_2\text{SO}_4 + 2\text{NaOH} \rightarrow \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{H}_2\text{O}$   
–  $\text{H}_3\text{PO}_4 + \text{K}_2\text{O} \rightarrow \text{KH}_2\text{PO}_4 + \text{H}_2\text{O}$   
–  $\text{CaO} + 2\text{HNO}_3 \rightarrow \text{Ca}(\text{NO}_3)_2 + \text{H}_2\text{O};$   
B)  $\text{P}_2\text{O}_5 + 3\text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{H}_3\text{PO}_4$   
–  $\text{CH}_3\text{COONa} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{CH}_3\text{COOH} + \text{Na}_2\text{SO}_4;$   
C)  $\text{H}_2\text{CO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2;$   
–  $\text{H}_2\text{SO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{O} + \text{SO}_2$

367. Angidrid so'zining ma'nosi va ta'rifi?

- A) suvlantirilgan; kislotalar qizdirilganda tarkibidan suv chiqib ketishi hisobiga hosil bo'lgan mahsulot;  
B) suvsizlantirilgan; kislotalar qizdirilganda tarkibidan suv chiqib ketishi hisobida hosil bo'lgan mahsulot;  
C) suvsizlantirilgan; kislotalar qizdirilganda tarkibidan vodorod atomi chiqib ketishi hisobiga hosil bo'lgan mahsulot.

*Bilib oling!!! Kislotalarning indikatorlarga ta'siri*

Muhit indikator	Neytral eritma	Kislotali eritma
Lakmus	Binafsha	Qizil
Fenolftalein	Rangsiz	Rangsiz
Metilzarg'aldoq	To'q sariq	Qirmizi

368.  $\text{H}_2\text{SO}_4$  nima uchun ishlataladi?

- A) tuzlar girolizida;  
B) moddalarni qaytarishda;  
C) Gazlarni quritish, suvini tortib olishda (reaksiyalarda).

369. Akkumulator batareyalarida qaysi kislota mavjud?

- A)  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;  
B)  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ;  
C)  $\text{H}_4\text{P}_2\text{O}_7$ .

370. Qaysi kislota tutovchi kislota deb yuritiladi?

- A) HF va  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;  
B) HCl va  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ;  
C) HCl (kons) va  $\text{HNO}_3$ .

371.  $\text{HNO}_3$  ni qanday metallardan yasalgan idishlarda saqlanadi?

- A) Fe, Cu, Al;  
B) Pb, Al, Cu;  
C) Cr, Cu, Ti.

372. Qaysi kislota oshqozon shirasining tarkibiy qismi hisoblanadi?

- A) HBr;
- B) HCl;
- C) HJ.

373. Tuzlar deb nimaga aytildi?

- A) metall atomlari va kislota qoldig'idan iborat bo'lgan murakkab modda;
- B) vodorod atomi va kislota qoldig'idan iborat bo'lgan murakkab modda;
- C) metall atomi va gidroksil gruppadan iborat bo'lgan murakkab modda.

374. Tuzlarning nomi qanday keltirib chiqariladi?

- A) metall atomi va kislota qoldig'i valentligidan;
- B) metall nomi va kislotali oksid nomidan;
- C) metall atomi va kislota qoldig'i nomidan.

375. Tuzlar necha xil va ular qaysilar?

- A) 3 xil: o'rta, asosli, nordon;
- B) 2 xil: kislородли va kislородсиз;
- C) 2 xil: og'ir va yengil metall tuzlari.

376. O'rta tuzlar qanday nomlanadi?

- A) o'zgarmas valentli metallar uchun metall atomi + kislota qoldig'i;
- B) o'zgaruvchan valentli metallar uchun metall atomi nomi (metall atomi valentligi rim raqamida) + kislota qoldig'i nomi;
- C) A va B.

377. Nordon tuzlarning nomlanishi qanday?

- A) o'zgarmas valentli metallar uchun; metall atomi nomi + gidro + kislota qoldig'i nomi;
- B) o'zgaruvchan valentli metallar uchun metall atomi nomi+ (metallarni valentligi rim raqamida) + gidro + kislota qoldig'i nomi;
- C) A va B.

378. Asosli tuzlar qanday nomlanadi?

- A) o'zgarmas valentli tuzlar uchun metall atomi nomi + gidrokso + kislota qoldig'i;
- B) o'zgaruvchan valentli metallar uchun metall atomi nomi+ (metallarni valentligi rim raqamida) + gidrokso + kislota qoldig'i nomi.
- C) A va B.

379. O'rta tuz nima?

- A) kislota tarkibidagi vodorod o'rmini olgan, metall atomi va kislota qoldig'idan iborat murakkab modda ( $\text{AlPO}_4$ ,  $\text{CuSO}_4$ ,  $\text{K}_2\text{SO}_4$ );
- B) metall atomi, vodorod hamda kislota qolig'idan iborat murakkab modda ( $\text{NaHCO}_3$ ,  $\text{KHS}$ ,  $\text{Ca}(\text{H}_2\text{PO}_4)_2$ );
- C) metall atomi va kislota qoldig'i bilan birga gidroksid ( $\text{OH}$ ) guruh tutgan murakkab modda  $\text{Mg(OH)}_2$ ,  $\text{Al(OH)}_3$ ,  $\text{Cl}_2$ .

380. Nordon tuz nima?

A) metall atomi va kislota qoldig'i bilan birga gidroksid (OH) guruh tutgan murakkab modda Mg(OH) Br, Al(OH) Cl<sub>2</sub>;

B) metall atomi, vodorod hamda kislota qoldig'idan iborat murakkab modda (NaHCO<sub>3</sub>, KHS, Ca(H<sub>2</sub>PO<sub>4</sub>)<sub>2</sub>;

C) kislota tarkibidagi vodorod o'rnini olgan, metall atomi va kislota qolig'idan iborat murakkab modda (AlPO<sub>4</sub>, CuSO<sub>4</sub>, K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>).

381. Asosli tuz nima?

A) metall atomi va kislota qoldig'i bilan birga gidroksid (OH) guruh tutgan murakkab modda Mg(OH) Br, Al(OH) Cl<sub>2</sub>;

B) metall atomi, vodorod hamda kislota qoldig'idan iborat murakkab modda (NaHCO<sub>3</sub>, KHS, Ca(H<sub>2</sub>PO<sub>4</sub>)<sub>2</sub>;

C) kislota tarkibidagi vodorod o'rnini olgan, metall atomi va kislota qoldig'idan iborat murakkab modda (AlPO<sub>4</sub>, CuSO<sub>4</sub>, K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>).

382. Qo'sh tuzlar nima?

A) kislota tarkibidagi vodorod o'rnini olgan, metall atomi va kislota qolig'idan iborat murakkab modda (AlPO<sub>4</sub>, CuSO<sub>4</sub>, K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>);

B) metall atomi, vodorod hamda kislota qoldig'idan iborat murakkab modda (NaHCO<sub>3</sub>, KHS, Ca(H<sub>2</sub>PO<sub>4</sub>)<sub>2</sub>;

C) ikki xil metall kationidan tashkil topgan tuz: achchiqtosh – KAl(SO<sub>4</sub>)<sub>2</sub>, yoki K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>·Al<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub>.

383. Xlorli ohakning formulasi qanday?

A) Ca(OCl) Cl;

B) Ca(OCl)<sub>2</sub>;

C) Ca(OH) Cl.

384. Qizil va sariq qon tuzi nima?



A) kompleks tuz K<sub>3</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>]; K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>];

B) kompleks tuz K<sub>3</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>]; K<sub>4</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>];

C) kompleks tuz K<sub>3</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>]; K<sub>2</sub>[Fe(CN)<sub>6</sub>].

385. Tuzlar qanday usullar bilan olinadi?

A) 1) Fe+S → FeS



C) A va B.

386. Tuzlarning kimyoviy xossalari?

- A) 1)  $MgCl_2 + 2NaOH \rightarrow Mg(OH)_2 + 2NaCl$ ;  
2)  $Ca_3(PO_4)_2 + 2H_2SO_4 \rightarrow Ca(H_2PO_4)_2 + 2CaSO_4$ ;  
3)  $CaCO_3 \xrightarrow{\text{}} CaO + CO_2$ ;
- B) 4)  $Fe + S \rightarrow FeS$ ;  
5)  $ZnCl_2 + H_2 \rightarrow 2HCl + Zn$ ;  
6)  $Hg(NO_3)_2 + Cu \rightarrow Cu(NO_3)_2 + Hg$ ;  
7)  $2NaOH + CO_2 \rightarrow Na_2CO_3 + H_2O$ ;
- C) 8)  $CuCl_2 + NaOH \rightarrow Cu(OH)Cl + NaCl$ ;  
9)  $2NaOH + Cl_2 \rightarrow NaCl + NaClO + H_2O$ ;  
10)  $BaCl_2 + H_2SO_4 \rightarrow BaSO_4 \downarrow + 2HCl$ ;  
11)  $2HJ + Cl_2 \rightarrow 2HCl + J_2$ .

387. Odam organizmining necha foizini tuzlar tashkil qiladi?

- A) 0,7%;  
B) 5,5%;  
C) 7,2%.

388. Qaysi tuz tibbiyotda fiziologik eritma tayyorlashda ishlataladi?

- A) NaJ (0,87% li yoki 0,9% li);  
B) NaBr (0,87% li yoki 0,9% li);  
C) NaCl (0,87% li yoki 0,9% li).

389. Marmarning asosiy tarkibiy qismi?

- A)  $CaCO_3$ ;  
B)  $Ca(OH)_2$ ;  
C) CaO.

390. Ammoniyli selitra ( $NH_4NO_3$ ) qaysi korxonada ishlab chiqariladi?

- A) Farg'ona fosforli o'g'itlar zavodida;  
B) Farg'ona azotli o'g'itlar korxonasida;  
C) Navoiy mineral o'g'itlar zavodida.

391. Marmar qaysi konlarda olinadi?

- A) Nurota, G'ozg'on;  
B) Xo'jaikon, G'ozg'on;  
C) Boybichakon, Nurota.

392. Osh tuzi (NaCl) va silvinit (NaCl.KCl) qaysi konlardan qazib olinadi?

- A) Xo'jakon, Tubokat;  
B) Borsakelmas, Boybichakon, Oqqal'a;  
C) A va B.

393. Fosforit  $Ca_3(PO_4)_2$  qaysi konlardan qazib olinadi?

- A) Markaziy Qizilqum, Shimoliy Jetitov, Qoraqat;  
B) Xo'jakon, Tubokat;  
C) Borsakelmas, Boybichakon, Oqqal'a.

394. Metallarning sulfid tuzlari qaysi kondan qazib olinadi?

- A) Tubokat;
- B) Oqqal'a;
- C) Olmaliq.

395. Ichimlik sodasi va lyaps formulasini ko'rsating

- A)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ;  $\text{LiNO}_3$ ;
- B)  $\text{NaHCO}_3$ ;  $\text{LiNO}_3$ ;
- C)  $\text{KHCO}_3$ ;  $\text{LiNO}_2$ .

396. Suvsizlantirilgan soda va potash formulasini ko'rsating?

- A)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  va  $\text{K}_2\text{CO}_3$ ;
- B)  $\text{NaHCO}_3$  va  $\text{LiNO}_3$ ;
- C)  $\text{NaHCO}_3$  va  $\text{K}_2\text{CO}_3$ .

397. Kompleks tuzlar necha xil bo'ladi?

- A) 3 xil: o'rta, nordon va asosli;
- B) 2xil: kompleks kationli va anionli;
- C) 2 xil: eruvchan va erimaydigan.

398. Kompleks kation tarkibi qanday?

- A) ichki sfera-kompleks ion, tashqi sfera kislota qoldig'i;
- B) ichki sfera-kompleks ioni, tashqi sfera metall ioni;
- C) A va B.

399. Kompleks kation tuzlar va ularning o'qilishi?

- A)  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  kaliy geksamiano (III) ferrat;
- B) ichki sfera kompleks ion, tashqi sfera metall ionidan boshlab;
- C)  $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_4\text{Cl}_2]\text{Cl}_2$  platina dixloro tetraamin xlorid.

400. Kompleks anion tarkibi qanday?

- A) ichki sfera kompleks ion;
- B) tashqi sfera metall ioni;
- C) ichki sfera kompleks ioni, tashqi sfera metall ioni.

401. Kompleks anionlariga misol va ularning o'qilishi qanday?

- A)  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  kaliy geksamiano (III) ferrat;
- B)  $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_4\text{Cl}_2]\text{Cl}_2$  platina dixloro tetraamin xlorid;
- C)  $[\text{Pt}(\text{NH}_3)_2\text{Cl}_2]\text{Cl}_2$  platina dixloro diamin xlorid.

402. Qo'sh tuzlar qanday hosil bo'ladi?

- A) barqaror kompleks kation tuzlarni parchalanishi hisobiga;
- B) barqaror kompleks anion tuzlarni parchalanishi hisobiga;
- C) beqaror kompleks kation tuzlarni parchalanishi hisobiga.

403. Kompleks kation tuzlaridan qo'sh tuz hosil bo'lishini ko'rsating?

- A)  $\text{K}_2[\text{CuCl}_4] \rightarrow \text{CuCl}_2 \cdot 2\text{KCl}$ ;
- B)  $\text{CuCl}_2 \cdot 2\text{KCl} \rightarrow \text{K}_2[\text{CuCl}_4]$ ;
- C)  $\text{K}_2[\text{CuCl}_4] \rightarrow \text{CuCl}_2 + 2\text{KCl}$ .

404. Kompleks tuzlarning o'qilishida oksidlanish darajasiniing ta'siri qanday?

A) metallning lotincha nomi: I a; II o; III i; IV e; V an; VI on; VII in; VIII n qo'shiladi;

B) metallning lotincha nomi, past oksidlanish darajasiga «it», yuqori oksidlanish darajasiga «at» qo'shimchasi qo'shiladi;

C) A va B.

405. Kompleks tuzlar tarkibi nimalardan iborat?

A) ichki sferada metall-markaziy atom yoki kompleks hosil qiluvchi hamda ligand kislota qoldig'i yoki neytral molekula, tashqi sferada esa kislota qoldig'i yoki metall atomi;

B) ichki sferadan metallmas-markaziy atom yoki kompleks hosil qiluvchi hamda ligand kislota qoldig'i yoki neytral molekula tashqi sferada esa kislota qoldig'i yoki metall atomi;

C) ichki sferadan metall-markaziy atom yoki kompleks hosil qiluvchi, hamda ligand metall yoki neytral molekula, tashqi sferada esa kislota qoldig'i yoki metall atomi.

406. Ligand suv bo'lganda u qanday nomlanadi?

A) gidro;

B) akva;

C) kompleks suv.

407. Monodendat, bidendat va polidendat ligandlarni izohlang.

A) koordinatsiya soni 2 va undan ortiq bo'lgan ligandlar;

B) koordinatsiya soni 2 bo'lgan ligandlar;

C) koordinatsiya soni 2 va undan ortiq bo'limgan ligandlar.

### Noorganik moddalarning eng muhim sinflariga oid namunaviy masalalar va ularning yechilish usullari

**1-masala.** 36,94g qo'rg'oshin (IV) -oksid vodorod oqimida qaytarildi. Reaksiya tugaganidan keyin 35,14 g PbO<sub>2</sub> va Pb aralashmasi hosil bo'ldi. Bu reaksiyada hosil bo'lgan oksidlar massasi yig'indisini hisoblang.

**Yechish:** 1) PbO<sub>2</sub> + 2H<sub>2</sub> → Pb + 2H<sub>2</sub>O

1) Boshlang'ich modda massasidan reaksiya tugagandan so'ng hosil bo'lgan aralashma massasi ayrliganda, ajralib chiqqan suv massasi kelib chiqadi:

$$36,94 - 35,14 = 1,8;$$

2) Suv massasidan reaksiyada hosil bo'lgan qo'rg'oshin massasi topiladi:

$$\begin{array}{r} 36 \\ \hline 1,8 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 207 \\ \hline x \end{array}$$

$$x = 10,35$$

3) Hosil bo'lgan aralashmadan qo'rg'oshin massasi ayrilib, ortgan qo'rg'oshin (IV) -oksidining massasi aniqlanadi:

$$35,14 - 10,35 = 24,79 \text{ PbO}_2$$

4) Ortgan qo'rg'oshin (IV) -oksidini va suv (oksid deb olinadi) massalari qo'shiladi:

$$24,79 + 1,8 = 26,59 \text{ g}$$

**Javob:** 26,59 g

**2-masala.** 50 g oxaktosh qattiq qizdirilganda 22 g kalsiy oksid olindi. Ohaktosh tarkibida necha foiz  $\text{CaCO}_3$  bo'lgan?

**Yechish:**

1) ohaktosh qizdirilganda uning tarkibidagi  $\text{CaCO}_3$  so'ndirilmagan ohak ( $\text{CaO}$ ) va  $\text{CO}_2$  gazini hosil qiladi:  $\text{CaCO}_3 \rightarrow \text{CaO} + \text{CO}_2$

22 g  $\text{CaO}$  qancha  $\text{CaCO}_3$  dan hosil bo'ladi?

$$\begin{array}{rcl} 56 \text{ g} & \longrightarrow & 100 \text{ g} \\ 22 & \longrightarrow & x \quad x=39,3 \end{array}$$

2) 50 g ohaktosh tarkibida 39,3 g  $\text{CaCO}_3$  bo'lgan. 39,3 g  $\text{CaCO}_3$ , 50 g ohaktoshning necha foizini tashkil etadi?

$$\text{CaCO}_3\% = \frac{39,3}{50} \cdot 100 = 78,5\%$$

**Javob:** 78,5 %  $\text{CaCO}_3$  bor.

**3-masala.** Massasi 6,13 g bo'lgan bertole tuzi parchalanishi natijasida hosil bo'lgan  $\text{O}_2$  bilan to'ldirilgan idishda 1,6 g oltingugurt bo'lakchasi yonib tamom bo'ladi? Reaksiya tamom bo'lгandan so'ng hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmi qanday bo'ladi?

**Yechish:** Bertole tuzining parchalanish reaksiya tenglamasi:



1) hosil bo'ladigan kislороднинг mol miqdori hisoblab topiladi:

$$\begin{array}{rcl} a) 245 & \longrightarrow & 96 \\ 6,13 & \longrightarrow & x \quad x=2,4 \text{ g O}_2 \end{array}$$

$$b) \frac{2,4}{32} = 0,075 \text{ mol O}_2;$$

2) Oltingugurtni kislородда yonish tenglamasi:  $\text{S} + \text{O}_2 \rightarrow \text{SO}_2$  dan oltingugurtning mol miqdori  $n = 1,6 : 32 = 0,05$  molni topiladi;

3) Demak, 0,05 mol  $\text{SO}_2$  va ortib qolgan kislород 0,025 mol gazlar aralashmasini tashkil etadi. Umumiy hajm  $(0,05+0,025)$  0,075 mol yoki  $1,68 / (0,075 \cdot 22,4)$  bo'ladi.

**Javob:** 1,68 l.

**4-masala.** 4,05 g ikki valentli metall oksidini eritish uchun 9,77 g 37%li HCl sarf bo'ladi. Bu qaysi element oksidi edi?

**Yechish:**

$$\begin{aligned} 1) m(\text{HCl}) &= 9,77 \cdot 0,37 = 3,67 \text{ g HCl} \\ &\text{MeO} + 2\text{HCl} \rightarrow \text{MeCl}_2 + \text{H}_2\text{O} \end{aligned}$$

$$\frac{4,05}{x+16} = \frac{3,67}{73}$$

$$4,05 \cdot 73 = 3,67 (x+16)$$


$$295,65 = 3,67x + 57,92$$

$$295,65 - 57,92 = 3,67x$$

$$237,73 = 3,67x \quad x = 65 \text{ Zn}$$

**Javob:** Zn (rux elementi). ZnO – rux oksidi.

**5-masala.** So'ndirilgan ohak, CaCO<sub>3</sub>, va kalsiy sulfat aralashmasi bor. Bu aralashmaning 31 grammiga xlorid kislota ta'sir ettirilganda 2,24 l gaz ajralib chiqqan va 13,6 g qattiq qoldiq qolgan. Aralashmaning tarkibini aniqlang?



1) Qoldiq kalsiy sulfat demak, aralashmada 13,6 g kalsiy sulfat bo'lgan. 2,24 l CO<sub>2</sub> gazi ajralgan (2). Bunga asoslanib, 10 g kalsiy karbonat borligi aniqlanadi.

Unda Ca(OH)<sub>2</sub>:



**Javob:** 13,6 g, 10 g, 7,4.

**6-masala:** Massasi 60 g bo'lgan Na<sub>2</sub>O<sub>2</sub> bo'lgan naycha orqali hajm bo'yicha 15% O<sub>2</sub>, 75% N<sub>2</sub> va 10% CO<sub>2</sub> bor 11 gazlar aralashmasi o'tkazilgan (n,sh.da).

Naychadan o'tgan gazlar aralashmasi to'la reaksiyaga kirishgan deb hisoblab naychadan chiqqan gazlar aralashmasining tarkibini foizlarda hisoblang.

**Yechish:** natriy peroksid bilan karbonat angidrid reaksiyaga kirishadi:



1) Boshlang'ich aralashmadagi karbonat angidrid miqdori 0,1 / bo'lib, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan kislorod miqdori esa 0,05 / bo'ladi. Reaksiyadan keyin hosil bo'lgan aralashma tarkibi 0,75 / N<sub>2</sub>, 0,2 / O<sub>2</sub>, umumiy hajmi 0,95 / bo'ladi. Foizlarda 0,75 · 100/0,95 = 79% N<sub>2</sub>, 21% O<sub>2</sub> bo'ladi.

**Javob:** 79% N<sub>2</sub>, 21% O<sub>2</sub>

**7-masala:** Qizil-qo'ng'ir rangli qattiq A modda bor. Qizdirilganda u qora rangli boshqa bir B moddaga aylanadi. Bu jarayon kislorod ajralishi bilan boradi. Qizdirilganda B modda uglerod (II)-oksid bilan reaksiyaga kirishib C moddaga aylanadi, bunda uglerod (IV)-oksid ajralib chiqadi. A modda xlorid kislotada erib D tuz hosil qiladi, C modda xlor bilan o'zaro ta'sirlashganda ham D tuz hosil qilishi mumkin. D tuzning eritmasi sariq


qon tuzi bilan reaksiyaga kirishganda ko'k rang beradi. A moddani toping va 32,5 g D modda hosil qilish uchun qancha g A moddadan olish kerakligini hisoblang.

**Yechish:**



$$325\text{g (2 mol)} \xrightarrow{\quad} 1\text{mol (160)}$$

$$32,5\text{g (0,2 mol)} \xrightarrow{\quad} x \text{ g} \quad x = 0,1 \text{ mol (16 g Fe}_2\text{O}_3)$$



**Javob:** A –  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ , B –  $\text{Fe}_3\text{O}_4$ , C – Fe, D –  $\text{FeCl}_3$ .  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  – 16 g olish kerak.

---

## VI BOB

### DAVRIY SISTEMA VA ATOM TUZILISHI

*Insoniyat tafakkuri tabiatdagi voqealarni, tushunchaga va qonunlarni ma'lum tizimga—sistemaga solinsa osonroq qabul qilishga asoslangan. Shunga tayangan holatda ko'pgina kimyogarlar; nemis olimlari I. Debereynler va L. Meyer, ingliz olimi J. Nyulendes, fransuz olimi A. Shankurtular kimyoviy elementlarni sinflashni turli variantlarini taklif qildilar. Lekin ular tabiiy sistema yaratma olmadilar va bunga 1869-yili rus olimi D.I. Mendeleyev musharrraf bo'ldi.*

*Mendeleyevning davriy sistemasining ham bir necha varianti bo'lib, hular davriy qonunni turli shakldagi ifodasiadir. Bu davriy sistema asosida har bir kimyoviy element haqida atroficha ma'lumot olish mumkin va ularning atom tuzilishini ham to'liq ochib bera olishi alohida e'tiborga loyiqdir. Davriy sistema, davriy qonun, atomlarning tuzilishi haqidagi asosiy ma'lumotlarni ushbu bobda batatsil bayon etiladi.*

#### **Davriy sistema va atom tuzilishi mavzusiga oid savollar va ularning javoblari**

408. Abu ar-Roziy (IX asr oxiri X asr boshlari) moddalarni nima asosida sinflagan?

- A) o'simlik, hayvon va minerallardan olinishi;
- B) hayvonlar va minerallardan;
- C) o'simlik va hayvondan.

409. XVIII asrda nechta element ma'lum edi?

- A) 25 tacha;
- B) 30 tacha;
- C) 15 tacha.

410. XIX asrda nechta element ma'lum edi?

- A) 26 dan ortiq;
- B) 60 dan ortiq;
- C) 15 dan ortiq.

411. Kimlar kimyoviy elementlarni sistemalashtirishga harakat qilgan?

- A) nemis olimlari I. Debereynler (1829) L. Meyer (1864), ingliz olimi U. Odling va J. Nyulends (1863);
- B) fransuz olimlari J. Dyuma va A. Shankurtua;
- C) A va B.

412. 1620-yilda A. Sola erituvchilarni nechta sinfga ajratgan va ular qaysilar?

- A) 2 ta: suvli, yog'li;
- B) 3 ta: suvli, kislotali, yog'li;
- C) 2ta: kislotali, yog'li.

413. Sistemalashtirish muammosini kim hal qildi?

- A) A.Sala (1-mart. 1702);
- B) D.I.Mendeleyev (1-mart. 1869);
- C) E.Jogrua (1-mart 1700).

414. Moddalarning o'xhash jadvalini kim tuzdi?

- A) 1718-yil. E. Joffrua;
- B) U.Odling 1718-yil;
- C) E.Jogrua 1719-yil.

415. Davriy qonunning dastlabki talqini qanday?

A) oddiy moddalarning xossalari hamda elementlar birikmalarining shakli va xossalari ularning atom massalari qiymatiga davriy ravishda bog'liq;  
B) kimyoviy elementlar va ulardan hosil bo'lувчи oddiy hamda murakkab moddalarning xossalari, shu elementlar atomlarining yadro zaryadlari bilan davriy ravishda bog'liq bo'ladi;

C) kimyoviy moddalar va ulardan hosil bo'lувчи oddiy hamda murakkab moddalarning xossalari, shu elementlar atomlarining yadro zaryadlari bilan davriy ravishda bog'liq bo'ladi.

416. Davriy qonunning zamonaviy talqini?

A) oddiy moddalarning xossalari hamda elementlar birikmalarining shakli va xossalari uning elektron qiymatiga davriy ravishda bog'liq;  
B) kimyoviy elementlar va ulardan hosil bo'lувчи oddiy hamda murakkab moddalarning xossalari, shu elementlar atomlarining yadro zaryadlari bilan davriy ravishda bog'liq bo'ladi;

C) kimyoviy moddalar va ulardan hosil bo'lувчи oddiy hamda murakkab moddalarning xossalari, shu elementlar atomlarining yadro zaryadlari bilan davriy ravishda bog'liq bo'ladi.

417. Davriy qonun asosida nima vujudga kelgan?

- A) eruvchanlik jadvali;
- B) davriy qonun;
- C) elementlar davriy sistemasi.

418. Davriy sistemaning dastlabki variantida nechta element bo'lgan?

- A) 23 ta;
- B) 63 ta;
- C) 44 ta.

**419. Davriylik nima?**

- A) ma'lum qatordan so'ng xossalarning takrorlanishi;
- B) ma'lum intervaldan so'ng xossalarning o'zgarishini;
- C) ma'lum diagonaldan so'ng xossalarning takrorlanishi.

**420. Mendeleyev o'zi tuzgan davriy sistemada nimalarning tub mohiyatini tushuntira olmadi?**

- A) elementlar xossalaringin o'xshashligi va farqlarini davriy o'zgarish sabablarini;
- B) elementlar xossalaringin o'xshashligini davriy o'zgarish sabablarini;
- C) davrlardagi bog'liqlik va massaning saqlanish qonunini.

**421. «Atom kimyoviy reaksiyalarda o'zgarishga uchramaydigan zarra» degan fikr qachon yo'qqa chiqarildi?**

- A) XIX asr o'rtalari XX asr boshlarida;
- B) XIX asr oxiri XX asr boshlarida;
- C) XVIII asr o'rtalari XIX asr boshlarida.

**422. X-(rentgen) nurlarini kim ochgan?**

- A) ingliz olimi K. Rentgen 1889-yil;
- B) fransuz olimi K. Rentgen 1891-yil;
- C) nemis olimi K. Rentgen 1895-yil.

**423. Radioaktivlikni kim ochgan?**

- A) fransuz olimi A. Bekkerel 1896-yil;
- B) fransuz olimi K. Rentgen 1891-yil;
- C) ingliz olimi R.Guk 1876-yil.

**424. Elektronning ochilishi qachon?**

- A) ingliz olimi J. Tomson 1897-yil;
- B) ingliz olimi K. Rentgen 1889-yil;
- C) ingliz olimi R.Guk 1876-yil.

**425. Atom yadro zaryadi elektronning davriy sistemadagi tartib raqamiga tengligini kim topdi?**

- A) ingliz olimi Stelluti 1625-yil;
- B) fransuz olimi A. Bekkerel 1903-yil;
- C) ingliz olimi D. Mozli 1913-yil.

**426. Kimlar radioaktivlikni o'r ganib, kimyoviy element atomi murakkab sistema ekanligini ko'rsatib berdi?**

- A) M. Skladovskaya-Kyuri, P. Kyure, E. Rezerford;
- B) E. Rezerford, I. Pavlov va I.I. Mechnikov;
- C) D.I. Meneleyev, Lekok va Nilser.

**427. Davriy sistemada nechta element sayyoralar nomiga qo'yilgan va ular qaysilar?**

- A) 3 ta: uran, kalifoni, plutoni;

- B) 3 ta: kalifoniy, neptuniy, fermiy;  
C) 3 ta: uran, neptuniy, plutoniy.

428. Davriy sistemada nechta element mamlakatlar nomiga qo'yilgan va ular qaysilar?

- A) 2 ta: Rutiniy (Rossiya sharafiga), Skandiy (Skandinaviya sharafiga);

B) 3 ta: Galliy (Qadimgi Fransiya sharafiga), Germaniy (Germaniya sharafiga), Poloniy (Polsha sharafiga);

- C) 5 ta A va B.

429. Davriy sistemadagi eng og'ir element qaysi?

- A) volfram;

- B) osmiy;

- C) radon.

430. Davriy sistemadagi eng og'ir metall qaysi?

- A) volfram;

- B) osmiy;

- C) radon.

431. Davriy sistemadagi eng yengil metall qaysi?

- A) litiy;

- B) natriy;

- C) fransiy.

432. «Tosh» degan ma'nioni anglatuvchi element qaysi?

- A) fransiy;

- B) litiy;

- C) natriy.

433. Kimyoviy elementlarni eng ko'p kashf qilgan olim kim?

- A) rus olimi D.I.Mendeleyev (8 ta elementni);

- B) fransuz olimi Geyl-Lyussak;

- C) ingliz olimi G.Devi (7 ta elementni).

434. Elektronning massasi va zaryadi qancha?

- A) ē ning massasi  $9,1 \cdot 10^{-28}$  kg, zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19}$  kl;

- B) ē ning massasi  $6,1 \cdot 10^{-32}$  kg, zaryadi  $1,9 \cdot 10^{-31}$  kl;

- C) ē ning massasi  $9,1 \cdot 10^{-31}$  kg, zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19}$  kl.

435. «Qobiq» nima?

- A) atomdagи p lar to'plami;

- B) atomdagи e lar to'plami;

- C) atomdagи n lar to'plami.

436. Proton – neytron nazariyasiga ko'ra atom yadrosi nimadan iborat?

- A) p va : n;

- B) n va : ē;

- C) ē va : p.

437. Atom tarkibiga kiruvchi barcha zarrachalar yig'indisi nimaga teng?

- A) nuklonlar massasiga;
- B) atom massasiga;
- C) elektronlar massasiga.

438. Nisbiy atom massasi nimaga teng?

- A)  $Ar = Z$  (proton soni, tartib raqami) + n (neytron soni);
- B)  $Ar = \bar{e}$  (elektron soni) + n (neytron soni);
- C)  $Ar = n$  (neytron soni) +  $\bar{e}$  (elektron soni).

439. Neytron soni nimaga teng?

- A)  $N = Ar - Z$ ;
- B)  $Ar = N + Z$ ;
- C)  $Z = Ar - N$ .

440. Yadro zaryadi nimalarni belgilovchi tavsif bo'lib hisoblanadi?

- A) atomning  $\bar{e}$  tuzilishli va kimyoviy xossalari belgilovchi;
- B) atomning  $\bar{e}$  tuzilishli va fizik xossalari belgilovchi;
- C) atomning  $\bar{e}$  tuzilishli va elektr xossalari belgilovchi.

441. Har qanday elektronning qobig'i soni element joylashgan ... raqamiga teng.

- A) guruh;
- B) davr;
- C) qator.

442. Element atomlarining tashqi e qavatida nechtadan ortiq e bo'lmaydi?

- A) 7 ta dan;
- B) 8 ta dan;
- C) 5 ta dan.

443. Bosh guruhchalarlardagi elektron atomlarining tashqi e qavatidagi e soni guruh raqamiga teng. Bu qoidadan mustasno bo'lgan element qaysi?

- A) U (uran);
- B) Ac (aktiniy);
- C) He (geliy).

444. Bosh va yonaki guruhchalar elementlari nima bilan farqlanadi?

- A) pog'onalarini to'lib borishi bilan;
- B) yacheykalarini to'lib borishi bilan;
- C) pog'onacha to'lib borishi bilan.

445. Kimyo fani alohida fan sifatida qachon shakllangan?

- A) XIX – XX asrlarda;
- B) XVIII – XIX asrlarda;
- C) XVII – XVIII asrlarda.

**446. Kimyo fanining asoslari kimlar tomonidan yo'lga qo'yilgan?**

A) eramizdan avval qadimgi Yunonistonda yashagan Levkipp, Demokrit kabi tabiatshunos olimlar va VIII – XI asrlarda yashagan Ahmad al-Farg'oni, Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar tomonidan;

B) eramizdan avval qadimgi Yunonistonda yashagan Levkipp, Demokrit kabi tabiatshunos olimlar va VIII – XI asrlarda yashagan Ahmad Al-Farg'oni;

C) Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar tomonidan.

**447. Qadimgi olimlar kitoblarida kimyo fani haqida nimalar yozilgan?**

A) hayvonlar va o'simliklardan ajratib olingan dorivor moddalar tarkibi haqida;

B) kimyo fanining rivojlanish tarixi va dastlabki ta'limoti;

C) kimyo fani asoslarini tashkil etuvchi moddiy dunyo unsurlarini toifalash hamda amaliy kimyo uslublari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

**448. ar-Roziy qanday g'oyani ilgari surgan?**

A) energiya yo'q bo'lmaydi va yo'qdan bor bo'lmaydi, bir turdan ikkinchi turga aylanib turadi;

B) moddiy unsurlarning eng kichik birligi – atomlar haqida, ularni yanada kichikroq zarralarga bo'linishi to'g'risida fikr bildirgan;

C) moddiy unsurlarning eng kichik birligi – atomlar va ularning bo'linmasligi haqida.

**449. Forobi va Beruniy asarlarida nimalar keltirilgan?**

A) moddiy dunyo tarkibiy qismlari, ma'dan va qimmatbaho toshlarning tarqalishi haqidagi ta'limot;

B) moddiy unsurlarning eng kichik birligi – atomlar haqida, ularni yanada kichikroq zarralarga bo'linishi to'g'risida fikr bildirgan;

C) moddiy dunyo tarkibiy qismlari, ma'dan va qimmatbaho toshlarni sinflash haqida ma'lumotlar.

**450. Ibn Sino xizmati qanday bo'lgan?**

A) dorivor moddalarining tarkibi va xossalariiga ko'ra turli sinflarga toifalagan;

B) dorivor o'simliklarning tarkibi va xossalariiga ko'ra turli sinflarga toifalagan;

C) dorivor o'simliklarning tarqalishi va ahamiyatiga ko'ra turli sinflarga toifalagan.

**451. Kimyo fani qachon va qayerda keng miyosda rivojvana boshladi?**

A) XVII – XVIII asrlarga kelib, g'arb mamlakatlarida;

B) XVI – XVII asrlarga kelib, sharq mamlakatlarida;

C) XVIII – XIX asrlarga kelib, g'arb mamlakatlarida.

**452. XVIII asr oxirida, XIX asrning 60-yillarida va hozirgi kunda bizga ma'lum bo'lgan elementlar soni.**

A) 50 taga yaqin, 66 ta, 115 ta;

- B) 40 taga yaqin, 61 ta, 102 ta;  
C) 30 taga yaqin, 63 ta, 118 ta.

453. Kimyoviy elementlarni dastlabki toifalashda nima asos qilib olingan, necha toifaga bo'lingan?

- A) ularning suyuqlanish harorati va zichligi;  
B) ularning ko'zga tashlanadigan belgilari, metall va metallmaslar;  
C) ularning ko'zga tashlanadigan belgilari, agregat holati.

454. Deyarli barcha metallarga xos bo'lgan xususiyat?

- A) o'ziga xos hidi, elektr va issiqlikni o'tkazuvchanlik, bug' zichligi;  
B) o'ziga xos yaltiroq, elektr va issiqlikni o'tkazuvchanlik, bolg'ala-nuvchanlik;  
C) o'ziga xos rangi, qovushqoqligi, elektr va issiqlikni o'tkazuvchanlik.

455. Qattiq metallmaslarga misol keltiring.

- A) oltingugurt S, uglerod C, kremniy Si, yod J<sub>2</sub>;  
B) kremniy Si, uglerod C, fosfor P, argon Ar;  
C) kremniy Si, oltingugurt S, fosfor P, brom Br<sub>2</sub>.

456. Suyuq metallmaslarga misol keltiring.

- A) selen Se;  
B) brom Br<sub>2</sub>;  
C) kremniy Si.

457. Gaz holdagi metallmaslarga misol keltiring.

- A) O<sub>2</sub> kislород, H<sub>2</sub> vodorod, xlor Cl<sub>2</sub>;  
B) C uglerod, H<sub>2</sub> vodorod, xlor Cl<sub>2</sub>;  
C) O<sub>2</sub> kislород, fosfor P, xlor Cl<sub>2</sub>.

458. Tipik metallarning gidroksidlari ..., metallmaslarning gidroksidlari esa...?

- A) kislota, asos;  
B) amfoter, kislota;  
C) asos, kislota.

459. Metall gidridlari qanday agregat holatga ega?

- A) qattiq;  
B) suyuq;  
C) gaz.

460. Metallmas gidridlari qanday agregat holatga ega?

- A) gaz;  
B) uchuvchan birikmalar;  
C) qattiq.

461. Qaysi element tashqi alomati bilan metallga o'xshaydi, lekin metallmas?

- A) He – neon;

- B)  $J_2$  – yod;  
C) At – astat.

462. Amfoter elementlar deb qanday elementlarga aytildi?

- A) ayrim metallarga xos bo‘lgan xususiyatlarni namoyon qiluvchi elementlarga;  
B) metallarga va galogenlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni namoyon qiluvchi elementlarga;  
C) metallarga ham, metallmaslarga ham xos bo‘lgan xususiyatlarni namoyon qiluvchi elementlarga.

463. Zn – rux, qanday birikmada asos, qanday birikmada kislota xossani namoyon qiladi?

- A)  $Zn(OH)_2$  da asos.  $H_2ZnO_2$  da kislota;  
B)  $Na_2[Zn(OH)_4]$  da asos,  $H_2ZnO_2$  da kislota;  
C)  $H_2ZnO_2$  da asos,  $Na_2[Zn(OH)_4]$  da kislota.

464. Ayrim elementlar oksidi qanday valentlikda bo‘lganda qaysi xossasini namoyon qiladi?

- A) quyi valentlikda – asosli oksid, yuqori valentlikda – kislotali oksid, oraliq valentlikda – amfoter oksid;  
B) quyi valentlikda – kislotali oksid, yuqori valentlikda – asosli oksid, oraliq valentlikda – amfoter oksid;  
C) quyi valentlikda – amfoter oksid, yuqori valentlikda – kislotali oksid, oraliq valentlikda – asosli oksid.

465. Davriy qonunga birinchi marta ta’rif bergan olim?

- A) 1625-yil Stelluti;  
B) 1869-yil D.I. Mendeleyev;  
C) 1865-yil R.Guk.

466. Davriy qonunning dastlabki ta’rifi qanday?

- A) oddiy jismlarning, shuningdek element birikmalarining shakli va xossalari elementlar atom og‘irligining qiymatiga davriy ravishda bog‘liq bo‘ladi;  
B) oddiy moddalarning, shuningdek element birikmalarining shakli va xossalari elementlar atom og‘irligining qiymatiga davriy ravishda bog‘liq bo‘ladi;  
C) oddiy jismlarning, shuningdek element birikmalarining shakli va xossalari elementlar atom zaryadining qiymatiga davriy ravishda bog‘liq bo‘ladi.

467. D.I. Mendeleyev qaysi yillarda yashab o’tgan?

- A) 1836–1917-yillarda;  
B) 1834–1907-yillarda;  
C) 1843–1912-yillarda.

468. Tabiatdagi barcha narsalar atomdan iboratligini kim aytgan ?

- A) eramizdan avvalgi 454—377-yillarda Arastu;
- B) eramizdan avvalgi 462—376-yillarda Levkipp;
- C) eramizdan avvalgi 460—370-yillarda Demokrit.

469. Markaziy Osiyolik ar-Roziy nimani izohlab bergen?

- A) moddalarning bo'linishini, atom mayda bo'laklar bilan bo'shlidlardan iborat ekanini va ular doimo harakatda ekanini;
- B) atomlarning bo'linishini, atom mayda bo'laklar bilan bo'shlidlardan iborat ekanini va ular doimo harakatda ekanini;
- C) atomlarning bo'linishini, atom mayda zaryadlar bilan bo'shlidlardan iborat ekanini va ular doimo harakatda ekanini.

470. Beruniy qaysi fikrni e'tirof etgan?

- A) atomlarning bo'linadigan (lekin cheksiz emas) mayda zarrachalar ekanligini;
- B) atomlarning bo'linmas eng mayda zarrachalar ekanligini;
- C) atomlarning bo'linadigan (cheksiz) mayda zarrachalar ekanligini.

471. R. Boyl kimyoviy element haqida qanday fikr bildirgan?

- A) uning eng oddiy kimyoviy jihatdan bo'linmaydigan modda ekanligi va u murakkab moddalar tarkibiga kirishi haqida;
- B) uning eng oddiy biokimyoviy jihatdan bo'linadigan modda ekanligi va u murakkab moddalar tarkibiga kirishi haqida;
- C) uning kimyoviy jihatdan bo'linadigan modda ekanligi va u barcha moddalar tarkibiga kirishi haqida.

472. Massanining saqlanish qonunu qachon va kim tomonidan yaratilgan?

- A) 1801—1808-yillarda S.L. Prust tomonidan;
- B) 1769 — yilda M.V. Lomonosov tomonidan;
- C) 1803—1804-yillarda Jon Dalton yaratgan.

473. Tarkibning doimiylik qonunini qachon va kim tomonidan yaratilgan?

- A) 1801—1808-yillarda S.L. Prust tomonidan;
- B) 1769 — yilda M.V. Lomonosov tomonidan;
- C) 1803—1804-yillarda Jon Dalton yaratgan.

474. Atom molekular ta'limotini kim qachon yaratgan?

- A) 1801—1808-yillarda S.L. Prust tomonidan;
- B) 1769-yilda Berselius tomonidan;
- C) 1803—1804-yillarda Jon Dalton yaratgan.

475. Atom massa tushunchasini fanga kim kiritgan?

- A) D.I. Mendeleyev;
- B) Jon Dalton;
- C) J. Prust.

476. 46 ta elementning atom massalari asosida tuzilgan kimyoviy elementlar jadvalini kim va qachon kashf etdi?

- A) 1814-yil Berselius;
- B) 1814-yil Mendeleyev;
- C) 1814-yil Dalton.

477. 1817–1829-yillarda Debereyner qanday kashfiyat qilgan?

A) 46 ta elementning atom massalari asosida kimyoviy elementlar jadvalini tuzdi;

- B) 7 guruh elementlariga galogenlar deb atagan;
- C) elementlami triadalarga, ya'ni o'xshash uchtadan iborat oilalarga ajratadi.

478. Valentlik tushunchasini fanga kim qachon kiritgan?

- A) 1852-yilda Eduard Franklend;
- B) 1769- yilda Berselius tomonidan;
- C) 1803–1804-yillarda Jon Dalton yaratgan.

479. Organik kimyo tuzilish nazariyasini kim qachon yaratgan?

- A) 1865-yilda A.Kekule;
- B) 1861-yilda Butlerov;
- C) 1931-yilda L.K.Poling.

480. Triadalar nazariyasini kim qachon yaratgan?

- A) 1881-yilda M.G.Kucherov;
- B) 1817–1829-yillarda I.V. Debereyner;
- C) 1897–1903-yillarda A. Bekkerel.

481. Kimyoviy elementlarning silindr shaklidagi jadvalini kim qachon yaratgan?

- A) 1814-yilda Vollaston;
- B) 1869-yilda D.I.Mendeleyev;
- C) 1862-yilda B.de-Shankurtua.

482. Elementlarning atom massalari ortib borishiga asoslangan jadvalni kim qachon tuzgan?

- A) 1897- yilda A.Bekkerel;
- B) 1847-yilda D.D.Ivanenko;
- C) 1864-yilda Yu. L. Meyer.

483. Oktavalar qonunini kim qachon yaratgan?

- A) 1865-yilda Z. Nyulends (1837–1898);
- B) 1864-yilda Yu. L. Meyer (1830–1895);
- C) 1887-yilda S.Arrenius (1845–1912).

484. Atom massa ortishi bilan metallik va metallimaslik qanday o'zgaradi?

- A) ortadi, kamayadi;
- B) kamayadi, ortadi;
- C) o'zgarmaydi.

485. Vodorodli uchuvchan birikmalarda valentlik qanday o'zgaradi?

- A) kamayadi;
- B) dastlab ortadi so'ngra kamayadi;
- C) ortadi.

486. Metallik xossasi eng kuchli element?

- A) fransiy;
- B) litiy;
- C) seziy.

487. Metallmaslik xossasi eng kuchli element?

- A) He – geliy;
- B) O – kislorod;
- C) F – ftor.

488. Elementlarning tartib raqami nimalarga son jihatdan teng?

- A) nuklonlar soni va elektron soniga;
- B) yadro zaryad, proton soni va elektron soniga;
- C) atom massasi va protonlar soniga.

489. Davriy qonunning hozirgi ta'rifi qanday?

- A) kimyoviy elementlarni va ular hosil qiladigan oddiy hamda murakkab moddalarning xossalari shu elementlar atom yadrosi zaryadiga davriy ravishda bog'liq;
- B) kimyoviy moddalar va ulardan tashkil topgan murakkab moddalarning xossalari shu moddaning atom massasiga davriy ravishda bog'liq;
- C) kimyoviy elementlarni va ular hosil qiladigan oddiy hamda murakkab moddalarning xossalari shu elementlar atom massasiga davriy ravishda bog'liq.

490. Atom tuzilishining planetar modelini kim taklif etgan?

- A) P.Uillard 1900-yilda;
- B) Ernest Rezerford 1911-yilda;
- C) P.R.Kyuri 1898-yilda.

491. Rezerford o'z tajribasida qanday nurdan foydalangan?

- A)  $\gamma$  nurlaridan;
- B)  $\beta$  nurlaridan;
- C)  $\alpha$  nurlaridan.

492. Atom markazida nima joylashgan?

- A) manfiy zaryadlangan elektronlar;
- B) musbat zaryadlangan yadro;
- C) proton va neytronlar.

493. Yadro atrofida harakatlanuvchi zarralar nima?

- A) manfiy zaryadlangan elektronlar;
- B) musbat zaryadlangan yadro;
- C) proton va neytronlar.

494. Atom yadrosi  $\alpha$  nurlar bilan bombardimon qilinganda yadrodan nimalar ajraladi?

- A) manfiy zaryadlangan elektronlar;
- B) musbat zaryadlangan yadro;
- C) proton va neytronlar.

495. Protonning zaryadi, massasi nechaga teng? Qanday belgilanadi?

- A) +1, 1, p;
- B) 0, 1, n;
- C) -1, 1, p.

496. Neytronning zaryadi, massasi nechaga teng? Qanday belgilanadi?

- A) +1, 1, p;
- B) -1, 1, n;
- C) 0, 1, n.

497. Elektron massasi proton massasidan necha marta kichik?

- A) 1836 marta;
- B) 1840 marta;
643. S. Arrenius nazariyasiga ta'rif bering.

A) elektrolitlar suvda eriganda va suyuqlantirilganda ionlarga ajralmasa elektrolitik dissotsiatsiyalanish deyiladi;

B) elektrolitlar suvda eriganda ionlarga ajralishi elektrolitik dissotsatsiyalanish deyiladi;

C) elektrolitlar suvda eriganda va suyuqlantirilganda ionlarga ajralishi elektrolitik dissotsiatsiyalanish deyiladi.

644. Elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasining birinchi qoidasi?

A) elektrolitlar suvda eriganda va suyuqlantirilganda «+» va «-» zaryadlangan ionlarga ajraladi;

B) elektr toki ta'sirida ionlar bir yo'nalishda harakatlanadi: «+» ionlar katodga, «-» zaryadlangan ionlar esa anodga. Shuning uchun «+» ionlar kationlar, «-» ionlar esa anionlar deyiladi;

C) dissotsiatsiya qaytar jarayon; molekulalarni ionlarga ajralishi (dissotsiatsiyalanish) bilan bir vaqtida ionlarni birikishi (assotsilanish) ham sodir bo'ladi.

645. Elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasining birinchi qoidasi?

A) elektrolytlar suvda eriganda va suyuqlantirilganda «+» va «-» zaryadlangan ionlarga ajraladi;

B) elektr to'ki ta'sirida ionlar bir yo'nalishda harakatlanadi: «+» ionlar katodga, «-» zaryadlangan ionlar esa anodga. Shuning uchun «+» ionlar kationlar, «-» ionlar esa anionlar deyiladi;

C) dissotsiastiya qaytar jarayon; molekulalarning ionlarga ajralishi (dissotsiatsiyalanish) bilan bir vaqtida ionlarni birikishi (assotsilanish) ham sodir bo'ladi.

646. Nazariyaning uchinchi qoidasi?

A) elektrolytlar suvda eriganda va suyuqlantirilganda «+» va «-» zaryadlangan ionlarga ajraladi;

B) elektr toki ta'sirida ionlar bir yo'nalishda harakatlanadi: «+» ionlar katodga, «-» zaryadlangan ionlar esa anodga. Shuning uchun «+» ionlar kationlar, «-» ionlar esa anionlar deyiladi;

C) dissotsiatsiya qaytar jarayon; molekulalarni ionlarga ajralishi (dissotsiatsiyalanish) bilan bir vaqtida ionlarni birikishi (assotsilanish) ham sodir bo'ladi.

647. Ionlanish nazariysi nimalarni to'liq izohlay olmadi?

A) noelektrolytlarning eritmalarida ionlarga ajralish hodisasini;

B) elektrolytlarning eritmalarida ionlarga ajralish hodisasini;

C) elektrolytlarning eritmalarida erkin ionlarga ajralish hodisasini.

648. Gidratlar va ionlanish nazariyasini birinchi bo'lib kim birlashtirishni taklif etdi?

A) rus olimi I.A. Kablukov, elektrolitik dissotsiatsiyalanish nazariysi shaklida;

B) shved olimi S.Arrenius, elektrolitik dissotsiatsiyalanish nazariysi shaklida;

C) rus olimi I.A. Kablukov, gidratlanish nazariysi shaklida.

649. Elektrolytlar qanday birikmalar?

A) qutbli kovalent bog'li birikmalar;

B) ion yoki qutbli kovalent bog'li birikmalar;

C) qutbsiz kovalent bog'li birikmalar.

650. Dissotsiatsiyalanish jarayonida ionlar qanday holatga o'tadi?

- A) erkin holatga;
- B) solvatlangan holatga;
- C) gidratlangan holatga.

651. Erituvchi molekulalari elektrolitlarning kimyoviy reaksiyalarida ishtirok etadimi?

- A) yo'q;
- B) ha;
- C) mavjud bo'lmaydi.

652. Eritmada ionlar qanday harakat qiladi?

- A) tartibsiz;
- B) tartibli;
- C) erkin.

653. Ionlar qachon tartibli harakat qiladi?

- A) eritmada issiqlik o'tkazilganda;
- B) eritmada elektr toki o'tkazilganda;
- C) eritmada konsentratsiya o'zgarganda.

654. Elektrolitik dissotsiatsiyalanish qanday jarayon hisoblanadi?

- A) qaytar va qaytmas jarayon;
- B) qaytar jarayon;
- C) qaytmas jarayon.

655. Elektrolitik dissotsiatsiyalanish darajasi qaysi formula bilan topiladi?

A)  $n = \alpha \cdot N$ ;

B)  $pH = \lg[H^+]$ ;

C)  $\alpha = \frac{n}{N}$ .

656. Dissotsiatsiyalash darajasi nimaga bog'liq?

- A) erituvchi tabiatiga, haroratiga;
- B) erigan modda tabiatiga, eritma konsentratsiyasiga, haroratiga;
- C) erituvchi tabiatiga, erigan modda tabiatiga, eritma konsentratsiyasiga, haroratiga.

657. Dissotsiatsiyalangan va dastlabki molekulalar orasidagi muvozanat konstantasi nima deyiladi?

- A) dissotsiatsiyalanish konstantasi;
- B) muvozanat konstantasi;
- C) proporsionallik konstantasi.

*Yodda tuting !!! «K<sub>dis</sub>» qancha katta bo'lsa, elektrolit shuncha kuchli bo'ladi.*

658. Dissotsatsiyalanish konstantasi nimaga bog'liq?

- A) haroratga bog'liq;
- B) erituvchi tabiatiga; eruvchi (erigan) moddalar tabiatiga bog'liq;
- C) erituvchi tabiatiga; eruvchi (erigan) moddalar tabiatiga; haroratga bog'liq.

659. Dissotsatsiyalanish konstantasi nimaga bog'liq emas?

- A) haroratga;
- B) konsentratsiyaga;
- C) bosimga.

660. Kuchsiz elektrolitlarning kuchini solishtirish uchun qanday kattalikdan foydalilanadi?

- A) dissotsatsiyalanish konstantasidan;
- B) dissotsatsiyalanish darajasidan;
- C) dissotsatsiyalanish konstantasi va darajasidan.

661. Dissotsatsiyalanish darjasining eng yuqori qiymati nechaga teng?

- A) 10;
- B) 1;
- C) 100.

662. Kablukovning dissotsatsiya nazariyasiga qo'shgan hissasi?

- A) eritmada erkin ionlar va gidratlangan ionlar bo'ladi;
- B) eritmada erkin ionlar bo'ladi;
- C) eritmada erkin ionlar emas, balki gidratlangan ionlar bo'ladi.

663. Suvning ion ko'paytmasi qiymati nechaga teng?

- A)  $1 \cdot 10^{-14}$  mol/l;
- B)  $1 \cdot 10^{-7}$  mol/l;
- C)  $1 \cdot 10^{-12}$  mol/l.

664.  $H^+$  ionlarning qiymati nechaga teng?

- A)  $1 \cdot 10^{-14}$  mol/l;
- B)  $1 \cdot 10^{-7}$  mol/l;
- C)  $1 \cdot 10^{-12}$  mol/l.

665.  $OH^-$  ionlarning qiymati nechaga teng?

- A)  $1 \cdot 10^{-14}$  mol/l;
- B)  $1 \cdot 10^{-7}$  mol/l;
- C)  $1 \cdot 10^{-12}$  mol/l.

666. Suvning ion ko'paytmasini umumiy ifodasi?

- A)  $H_2O = [H^+] \cdot [OH^-] = 10^{-1} \cdot 10^{-6} = 1 \cdot 10^{-7}$ ;
- B)  $H_2O = [H^+] \cdot [OH^-] = 10^{-6} \cdot 10^{-6} = 1 \cdot 10^{-12}$ ;
- C)  $H_2O = [H^+] \cdot [OH^-] = 10^{-7} \cdot 10^{-7} = 1 \cdot 10^{-14}$ .

667. Vodorod ko'rsatkich (pH) deb nimaga aytildi?

A) eritmadiagi  $H^+$  ionlari konsentratsiyasining «+» ishora bilan olingan o'nli logorismiga teng qiymatga aytildi;

B) eritmadiagi  $H^+$  ionlari konsentratsiyasining teskari ishora bilan olingan o'nli logorismiga teng qiymatga aytildi;

C) suyuqlanmadagi  $H^+$  ionlari konsentratsiyasining teskari ishora bilan olingan o'nli logorismiga teng qiymatga aytildi.

668. pHni matematik ifodasini ko'rsating.

A)  $pH = -\lg[H^+]$ ;

B)  $pH = +\lg[H^+]$ ;

C)  $pOH = \lg[OH^-]$ .

669. Neytral muhitda pH ning qiymati nechaga teng?

A)  $pH = 7$ , (masalan; ko'z yoshlari  $pH = 7$ );

B)  $pH < 7$  (masalan: oshqozon shirasi  $pH = 1,7$ );

C)  $pH > 7$  (masalan; yomg'ir suvi  $pH = 7,5$ ).

670. Kislotali muhitda pH ning qiymati nechaga teng?

A)  $pH = 7$ , (masalan; ko'z yoshlari  $pH = 7$ );

B)  $pH < 7$  (masalan: oshqozon shirasi  $pH = 1,7$ );

C)  $pH > 7$  (masalan; yomg'ir suvi  $pH = 7,5$ ).

671. Ishqoriy muhitida pH ning qiymati nechaga teng?

A)  $pH = 7$ , (masalan; ko'z yoshlari  $pH = 7$ );

B)  $pH < 7$  (masalan: oshqozon shirasi  $pH = 1,7$ );

C)  $pH > 7$  (masalan; yomg'ir suvi  $pH = 7,5$ ).

672. Tuproqni kislotaliligini kamaytirish uchun qanday tuzlardan foydalaniadi?

A)  $MgCO_3$  yoki  $CaCO_3$ ;

B)  $CaSO_4 \cdot 2H_2O$  (gips);

C)  $NaNO_3$ .

673. Tuproqni ishqoriyligini kamaytirish uchun qanday tuzlardan foydalaniadi?

A)  $MgCO_3$  yoki  $CaCO_3$ ;

B)  $CaSO_4 \cdot 2H_2O$  (gips);

C)  $NaNO_3$ .

674. Titrlangan yoki ishchi eritmalar deb nimaga aytildi?

A) konsentratsiyasi aniq bo'lman eritmalar;

B) konsentratsiyasi yuqori bo'lgan eritmalar;

C) konsentratsiyasi aniq bo'lgan eritmalar.

675. Titrlash jarayonida ishtirok etayotgan moddalarning molyar miqdori o'zaro teng bo'lgan holat nima deyiladi?

A) ekvivalent nuqta;

B) absolyut nuqta;

C) kritik nuqta.

676. Fenolftalein, metilzarg'aldog'i va lakkmus kabi indikatorlar eritmalarda ... va ... xossasini namoyon qiladi?

A) kuchsiz asos va kuchsiz kislota;

B) kuchli asos va kuchsiz kislota;

C) kuchsiz asos va kuchli kislota.

677. Indikatorlarni eritmalarda biror rangga kirishini ta'minlovchi gruppasi qanday nomlanadi?

A) geterotsiklik;

B) alitsiklik;

C) xromofor.

678. Indikator rangini o'zgarishini ko'z bilan kuzatish mumkin bo'lgan pH oralig'i nima deb ataladi?

A) indikator rangini o'zgartirmaydigan intervali;

B) indikator rangini o'zgartirish intervali;

C) indikator rangini oraliq intervali.

679. Interval qiymatlari indikatorlarda nechaga teng?

A) fenolftaleinda pH=8-9,8, lakkmusda pH=5-8, metilzarg'aldog'ida pH=3,1 – 4,4;

B) fenolftaleinda pH=5-8, lakkmusda pH=8-9,8, metilzarg'aldog'ida pH=3,1 – 4,4;

C) fenolftaleinda pH=8-9,8, lakkmusda pH=3,1-4,4, metilzarg'aldog'ida pH=5-8.

680. Dissotsiatsiya nuqtayi nazaridan kislotalarga ta'rif bering.

A) dissotsiatsiyalanganda anion sifatida OH<sup>-</sup> ioni hosil qiluvchi elektrolitlarga aytildi;

B) dissotsiatsiyalanganda kation sifatida Me<sup>+</sup> ioni hosil qiluvchi elektrolitlarga aytildi;

C) dissotsiatsiyalanganda kation sifatida H<sup>+</sup> ioni hosil qiluvchi elektrolitlarga aytildi:

681. Ko'p negizli kislotalar qanday dissotsiyalanadi.

A) bosqichli;

B) bosqichsiz;

C) bosqichli va bosqichsiz.

682. Kislotalarning umumiy xossalalarini ayting.

A) nordon, indikator rangini o'zgartirmaydi; asoslar, asosli oksidlar, tuzlar bilan reaksiyaga kirishadi;

B) nordon, indikator rangini o'zgartiradi; asoslar, asosli oksidlar, tuzlar bilan reaksiyaga kirishadi;

C) nordon, indikator rangini o'zgartiradi; asoslar, asosli oksidlar, tuzlar bilan reaksiyaga kirishmaydi.

**683. Kislotalar nima uchun umumiyl xossalarga ega?**

A) barcha kislotalar dissotsatsiyalanganda kislota qoldig'i hosil qilganligi uchun;

B) barcha kislotalar dissotsatsiyalanganda  $H^+$  hosil qilganligi uchun;

C) barcha kislotalar dissotsatsiyalanganda  $H^+$  va  $OH^-$  hosil qilganligi uchun.

**684. Dissotsiatsiya nuqtayi nazaridan asoslarga ta'rif bering.**

A) dissotsiatsiyada anion sifatida  $OH^-$  ioni hosil qiluvchi elektrolitlarga aytildi;

B) dissotsiatsiyada anion sifatida kislota qoldig'i ioni hosil qiluvchi elektrolitlarga aytildi;

C) dissotsiatsiyada kation sifatida  $Me^+$  ioni hosil qiluvchi elektrolitlarga aytildi.

**685. Suvda eriydigan asoslar uchun umumiyl hossalarni aytинг.**

A) indikator rangini o'zgartirmaydi, kislotalar, kislotali oksidlar va tuzlar bilan reaksiyaga kirishadi;

B) indikator rangini o'zgartiradi, kislotalar, kislotali oksidlar va tuzlar bilan reaksiyaga kirishmaydi;

C) indikator rangini o'zgartiradi, kislotalar, kislotali oksidlar va tuzlar bilan reaksiyaga kirishadi.

**686. Asoslar nima uchun umumiyl xossalarga ega?**

A) barcha asoslar dissotsilanganda  $Me^+$  hosil qilganligi uchun;

B) barcha asoslar dissotsilanganda  $OH^-$  hosil qilganligi uchun;

C) barcha asoslar dissotsilanganda  $OH^-$  va  $H^+$  hosil qilganligi uchun.

**687. Dissotsiatsiya nuqtayi nazaridan tuzlarga ta'rif bering.**

A) dissotsiatsiyalanganda vodorod kationi va kislota qoldig'i anioni hosil qiluvchi elektrolitlarga aytildi;

B) dissotsiatiyasilangada metall kationi va  $OH^-$  anioni hosil qiluvchi elektrolitlarga aytildi;

C) dissotsiatsiyalanganda metall kationi va kislota qoldig'i anioni hosil qiluvchi elektrolitlarga aytildi.

**688. Tuzlar uchun umumiyl xossalalar yo'qligining sababi?**

A) dissotsiatsiyada umumiyl ionlar hosil qilmaydi;

B) dissotsiatsiyada umumiyl ionlar hosil qiladi;

C) dissotsiatsiyada metall ionlar hosil qilganligi uchun.

**689. Kuchli elektrolitlarni ko'rsating.**

A) tuzlar, eruvchan ishqorlar;

B) tuzlar, kuchli kislotalar, eruvchan ishqorlar;

C) tuzlar, kuchli kislotalar.

**690. Kuchsiz elektrolitlarni ko'rsating.**

A) barcha eruvchi ishqorlar, kuchsiz anorganik kislotalar

( $H_2CO_3$ ,  $HClO$ ,  $H_2S$ ,  $H_2SiO_3$ ), erimaydigan gidroksidlar,  $NH_4OH$  va suv;

B) barcha organik kislotalar, kuchli anorganik kislotalar, erimaydigan gidroksidlar,  $\text{NH}_4\text{OH}$  va suv;

C) barcha organik kislotalar, kuchsiz anorganik kislotalar

( $\text{H}_2\text{CO}_1$ ,  $\text{HClO}$ ,  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{H}_2\text{SiO}_3$ ), erimaydigan gidroksidlar,  $\text{NH}_4\text{OH}$  va suv;

691. Kislorodli kislotalarning kuchini qanday aniqlash mumkin?

A) kislorodning miqdoriga qarab, kislorod miqdori vodorod miqdoridan qancha ko'p bo'lsa kislota shuncha kuchli bo'ladi. Masalan,  $\text{HClO}$ ,  $\text{HClO}_2$ ,  $\text{HClO}_3$ ,  $\text{HClO}_4$ . Ushbu qatorda gipoxlorit kislotadan perxlorat kislotaga tomon kislota kuchi ortib boradi;

B) kislorodning miqdoriga qarab, kislorod miqdori vodorod miqdoridan qancha oz bo'lsa kislota shuncha kuchli bo'ladi. M:  $\text{HClO}_4$ ,  $\text{HClO}_3$ ,  $\text{HClO}_2$ ,  $\text{HClO}$ . Ushbu qatorda gipoxlorit kislotadan perxlorat kislotaga tomon kislota kuchi ortib boradi;

C) kislorodning miqdoriga qarab, kislorod miqdori vodorod miqdoridan qancha ko'p bo'lsa kislota shuncha kuchli bo'ladi. Masalan;  $\text{HClO}$ ,  $\text{HClO}_2$ ,  $\text{HClO}_3$ ,  $\text{HClO}_4$ . Ushbu qatorda gipoxlorit kislotadan perxlorat kislotaga tomon kislota kuchi kamayib boradi.

*Eslatma!!! Kuchli va kuchsiz kislotalar jadvali 8-sinf kimyo darsligi 106-sahifada ifodalangan.*

*Yodda tufing!!! Elektrolitlarni kuchini diissotsiatsiyalish darajasiga qarab solishtirish bir xil konsentratsiyali eritmalar dagina ahamiyatga egadir.*

**Elektrolitlarning eritmalarini orasida sodir bo'ladigan reaksiyalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:**

- a) neytrallanish reaksiyasi;
- b) gaz moddalar hosil bo'ladigan reaksiyalar;
- c) cho'kma hosil bo'ladigan reaksiyalar.

692. Neytrallanish reaksiyasida rang o'zgarishi jarayonini tushuntiring.

A) lakmus eritmasi qo'shilgan qizil rangli kislota eritmasi bilan lakmus eritmasi qo'shilgan ko'k rangli ishqor eritmasi aralashtirilganda binafsha rangli eritma hosil bo'ladi;

B) lakmus eritmasi qo'shilgan ko'k rangli kislota eritmasi bilan lakmus eritmasi qo'shilgan qizil rangli ishqor eritmasi aralashtirilganda binafsha rangli eritma hosil bo'ladi;

C) lakmus eritmasi qo'shilgan qizil rangli kislota eritmasi bilan lakmus eritmasi qo'shilgan ko'k rangli ishqor eritmasi aralashtirilganda qizil rangli eritma hosil bo'ladi.

693. Neytrallanish reaksiyalarining mohiyati nimada?

A) kislotali muhit beruvchi  $\text{H}^+$  va ishqoriy muhit beruvchi  $\text{OH}^-$  ionlari qo'shib  $\text{H}_2\text{O}^+$  hosil qiladi;

B) kislotali muhit beruvchi  $H^+$  va ishqoriy muhit beruvchi  $OH^-$  ionlari qo'shib suv hosil qiladi;

C) kislotali muhit beruvchi  $OH^-$  va ishqoriy muhit beruvchi  $H^+$  ionlari qo'shib suv hosil qiladi.

694. Qanday reaksiyalar oxirigacha boradi?

A) reaksiya natijasida gaz, cho'kma, kam dissotsiatsyalanuvchi birikmalar hosil qiladigan reaksiyalar;

B) reaksiya natijasida kam dissotsiatsiyalananuvchi birikmalar hosil qiladigan reaksiyalar;

C) reaksiya natijasida gaz, cho'kma hosil qiladigan reaksiyalar.

695. Ionli tenglama yozilganda qanday moddalar ionlarga ajratib yozilmaydi.

A) faqat gazlar;

B) faqat cho'kmalar;

C) gaz, cho'kma, suv.

*Eslatma!!! Ionlarning o'ziga xos xossalari 8-sinf kimyo darsligi 110-sahifa 22-jadvalda berilgan.*

696.  $H^+$  ioni ortiqcha bo'lgan eritma muhiti qanday?

A) kislotali;

B) ishqoriy;

C) neytral.

697.  $OH^-$  ioni ortiqcha bo'lgan eritma muhiti qanday?

A) kislotali;

B) ishqoriy;

C) neytral.

*Bilib oling!!! Toza suvdagi  $H^+$  va  $OH^-$  ionlari konsentratsiyalari bir-biriga teng.*

698. Gidroliz reaksiyaları nima?

A) tuzlar bilan asoslar orasidagi sodir bo'ladigan reaksiyalar;

B) tuzlar bilan kislotalar orasidagi sodir bo'ladigan reaksiyalar;

C) tuzlar bilan suv orasidagi sodir bo'ladigan reaksiyalar.

699. Gidroliz deb nimaga aytildi?

A) tuzlarning dissotsiatsiyalishidan hosil bo'lgan ionlarni suv bilan ta'sirlashib kuchli elektrolitlar hosil qilishi;

B) tuzlarning dissotsiatsiyalishidan hosil bo'lgan ionlarni suv bilan ta'sirlashib kuchsiz elektrolitlar hosil qilishi;

C) tuzlarning dissotsiatsiyalishidan hosil bo'lgan ionlarni suv bilan ta'sirlashib o'rta kuchli elektrolitlar hosil qilishi.

700. Gidroliz so'zining ma'nosini aytинг.

- A) «gidro»—suv, «lizis»—ajrataman (yunoncha);
- B) «gidro»—suv, «lizis»—eritaman (yunoncha);
- C) «gidro»—suv, «lizis»—parchalayman (yunoncha).

701. Kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlarning suvdagi eritmasi qanday muhitni namoyon qiladi?

- A) kislotali;
- B) ishqoriy;
- C) neytral.

702. Kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzlarning suvdagi eritmasi qanday muhitni namoyon qiladi?

- A) kislotali;
- B) ishqoriy;
- C) neytral.

703. Kuchli asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlarning suvdagi eritmasi qanday muhitni namoyon qiladi?

- A) kislotali;
- B) ishqoriy;
- C) neytral.

704. Kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzlarning suvdagi eritmasi qanday muhitni namoyon qiladi?

- A) kislotali;
- B) ishqoriy;
- C) deyarli neytral.

705. Qanday tuzlar to'liq gidrolizga uchraydi?

- A) kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzlar;
- B) kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzlar;
- C) kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar.

706. Qanday tuzlar gidrolizga uchramaydi?

- A) kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzlar;
- B) kuchli asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar;
- C) kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar.

707. Tuzlar gidrolizi qanday omillarga bog'liq?

- A) tuzlarning tabiatiga, haroratga;
- B) tuzlarning tabiatiga, eritma konsentratsiyasiga;
- C) tuzlarning tabiatiga, eritma konsentratsiyasiga, haroratga.

708. Ishqoriy muhit namoyon qiluvchi tuzlarning gidrolizini kuchaytiruvchi omillar.

- A) haroratni pasaytirish, eritmani suyultirish (suv qo'shish), kislota qo'shish, kislotali muhit beruvchi tuz qo'shish;

B) haroratni oshirish, eritmani suyultirish (suv qo'shish), kislota qo'shish, kislotali muhit beruvchi tuz qo'shish;

C) haroratni oshirish, eritmani suyultirish (suv qo'shish), kislota qo'shish, ishqoriy muhit beruvchi tuz qo'shish.

709. Ishqoriy muhit namoyon qiluvchi tuzlarning gidrolizini susaytiruvchi omillar.

A) haroratni oshirish, tuz konsentratsiyasini oshirish, ishqor qo'shish, ishqoriy muhit beruvchi tuz qo'shish;

B) haroratni pasaytirish, tuz konsentratsiyasini oshirish, ishqor qo'shish, kislotali muhit beruvchi tuz qo'shish;

C) haroratni pasaytirish, tuz konsentratsiyasini oshirish, ishqor qo'shish, ishqoriy muhit beruvchi tuz qo'shish.

710. Kislotali muhit namoyon qiluvchi tuzlarning gidrolizini kuchaytiruvchi omillar.

A) haroratni oshirish, eritmani suyultirish (suv qo'shish), ishqor qo'shish, ishqoriy muhit beruvchi tuz qo'shish;

B) haroratni pasaytirish, eritmani suyultirish (suv qo'shish), ishqor qo'shish, ishqoriy muhit beruvchi tuz qo'shish;

C) haroratni oshirish, eritmani suyultirish (suv qo'shish), kislota qo'shish, ishqoriy muhit beruvchi tuz qo'shish.

711. Kislotali muhit namoyon qiluvchi tuzlarning gidrolizini susaytiruvchi omillar.

A) haroratni oshirish, tuz konsentratsiyasini oshirish, kislota qo'shish, kislotali muhit beruvchi tuz qo'shish;

B) haroratni pasaytirish, tuz konsentratsiyasini oshirish, kislota qo'shish, kislotali muhit beruvchi tuz qo'shish;

C) haroratni pasaytirish, tuz konsentratsiyasini oshirish, kislota qo'shish, ishqoriy muhit beruvchi tuz qo'shish.

712. Kuchsiz kislota va kuchsiz asosdan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizini qanday siljitim mumkin?

A) kislota qo'shib;

B) ular to'la gidrolizga uchraydi;

C) ishqor qo'shib.

713. Suvning ion ko'paytmasi deb nimaga aytildi?

A) har qanday eritmada, 298K (25°C) temperaturada H<sup>+</sup> ionlari bilan OH<sup>-</sup> ionlarining ko'paytmasi (o'zgarmas kattalik);

B) har qanday eritmada, 300K (27°C) temperaturada H<sup>+</sup> ionlari bilan OH<sup>-</sup> ionlarining ko'paytmasi (o'zgarmas kattalik);

C) har qanday eritmada, 273K (0°C) temperaturada H<sup>+</sup> ionlari bilan OH<sup>-</sup> ionlarining ko'paytmasi (o'zgarmas kattalik).

## **Elektrolitik dissotsiatsiya va eritma muhit ko'rsatkichi-pH ga oid namunaviy masalalar va ularning yechilish usullari**

**1-masala:**  $\text{CH}_3\text{COOH}$  ning 0,01 Mli eritmasining dissotsiatsiyalanish darajasi 2% bo'lsa,  $\text{H}^+$  ionlari konsentratsiyasini toping?

**Yechish:**

**I usul:**

1) Dastlab moddaning dissotsiatsiyalanish tenglamasi yoziladi



1 mol  $\text{H}^+$  ionlari hosil bo'lishini hisobga olib, quyidagi formulaga qo'yiladi (berilgan foizi, doimo ulush hisobiga olinadi):

$$2) C_{\text{ion}} = \alpha \cdot C_m \cdot n = 0,02 \cdot 0,01 \cdot 1 = 2 \cdot 10^{-4}$$

**II usul:** Eritmani molyar konsentratsiyasi berilgan moddaning 1 litr eritmadaagi mollar sonini ifodalaydi. Shuni bilgan holda quyidagi proporsiyani tuzish mumkin:

$$100\% \quad \text{---} \quad 0,01\text{M}$$

$$2\% \quad \text{---} \quad x$$

$$x = 2 \cdot 10^{-4}$$

**Javob:**  $2 \cdot 10^{-4}$

**2-masala:** 0,24 l suvdagi vodorod ionlari soni  $3,01 \cdot 10^{15}$  ga teng. Ionlarga dissotsiatsiyalangan suv molekulasiga qancha dissotsiatsiyalangan suv molekulasi to'g'ri keladi.

**Yechish:**

1) suvning zichligi 1 ga tengligidan foydalanim, berilgan suv hajmi 0,24 litr=240 g massaga o'tkazib olinadi.

2) Berilgan suv massasidan foydalanim, umumiy suv molekulalar soni topiladi:

$$18 \quad \text{---} \quad 6,02 \cdot 10^{23}$$

$$240 \quad \text{---} \quad x \quad x = 8,026 \cdot 10^{24}$$

3) Shundan so'ng, berilgan vodorod ionlari sonidan foydalanib dissotsiatsiyalangan suv molekulalar soni topiladi:

$$6,02 \cdot 10^{23} \quad \text{---} \quad 6,02 \cdot 10^{23}$$

$$3,01 \cdot 10^{15} \quad \text{---} \quad x \quad x = 3,01 \cdot 10^{15}$$

4) Ionlarga dissotsiatsiyalangan suv molekulalari soni topiladi:

$$8,026 \cdot 10^{24} - 3,01 \cdot 10^{15} = 8,025 \cdot 10^{24}$$

5) Ionlarga dissotsiatsiyalangan suv dissotsiatsiyalangan suv molekulalari sonining bir-biriga nisbatani aniqlanadi:

$$3,01 \cdot 10^{15} \quad \text{---} \quad 8,025 \cdot 10^{24}$$

$$1 \quad \text{---} \quad x \quad x = 2,66 \cdot 10^9$$

**Javob:**  $2,66 \cdot 10^9$  nisbatda bo'ladi.

**3-masala:** 24,5% li 0,4 l sulfat kislota ( $p=1,25\text{g/ml}$ ) eritmasining hajmi 250 l bo'lguncha suyultiriladi. Hosil bo'lgan eritmadaagi pOH ni toping ( $\alpha=100\%$ ).

**Yechish:**

1) Dastlab eritmadi molyar konsentratsiyasi topiladi:

$$C_M = \frac{C\% \cdot p \cdot 10}{M} = \frac{24,5\% \cdot 1,25 \cdot 10}{98} = 3,125;$$

2) So'ngra shu eritmadi kislotaning moli aniqlanadi.


$$1 \text{ l} \longrightarrow 3,125 \text{ mol}$$

$$0,4 \text{ l} \longrightarrow x \quad x = 1,25 \text{ mol}$$

3) Kislotaning yangi eritmadi konsentratsiyasi aniqlanadi.

$$C_M = \frac{n \cdot 1000}{V} = \frac{1,25 \cdot 1}{250} = 0,05;$$

4) Kislotaning dissotsiatsiyalanish tenglamasidan foydalaniib, vodorod ionlarining konsentratsiyasini aniqlash mumkin.



$$\begin{array}{l} 1 \longrightarrow 2 \\ 0,05 \longrightarrow x \end{array} \quad x = 0,1$$

5) Vodorod ionlarining konsentratsiyasi 0,1 ga teng bo'lganda pH = 1 bo'ladi. Demak,

$$\text{pH} + \text{pOH} = 14 \text{ dan } \text{pOH} = 13 \text{ ga}$$

**Javob:** pOH=13.

**4-masala.** 0,001 M konsentratasiyalı natriy gidroksid eritmasining pH ko'rsatkichini hisoblang (dissotsiatsiyalanish darajasi 100%).

**Yechish:**

1) Reaksiya tenglamasi yoziladi:  $\text{NaOH} \rightarrow \text{Na}^+ + \text{OH}^-$ ;

$$2) \text{pOH} = -\lg |\text{OH}^-| \quad \text{pOH} = -\lg |0,001| = 3;$$

$$3) \text{pH} = 14 - \text{pOH}; \quad \text{pH} = 14 - 3 = 11.$$

**Javob:** 11.

**5-masala.** KSCN ni 0,05 M eritmasining gidrolizlanish darajasini hisoblang. Eritma muhit qanday?

**Yechish:**

1) KSCN kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzdir, shuning uchun, eritma muhitish qoriy bo'ladi. Gidrolizlanish tenglamasidan hosil bo'lgan kuchsiz elektrolit HSCN ni dissotsiatsiyalanish konstantasi  $1,4 \cdot 10^{-14}$  ga teng.



$$\beta = \sqrt{\frac{K_{\text{HSCN}}}{K_{\text{KOH}} \cdot C_{\text{KSCN}}}} = \sqrt{\frac{1 \cdot 10^{-14}}{1,4 \cdot 10^{-14} \cdot 0,05}} = 1,42 \cdot 10^{-12} \cdot 100\% = 1,42 \cdot 10^{-10}$$

**Javob:**  $1,42 \cdot 10^{-10}$ ; muhitish qoriy.

**6-masala.** pH=3 bo'lgan eritma berilgan pH ni 2 birlikka kamaytirish uchun H<sup>+</sup> ionlari konsentratsiyasini qanday o'zgartirish kerak?

**Yechish:** Dastlab pH=3 bo'lgandagi H<sup>+</sup> ionlari konsentratsiyasini topib olish kerak. Bunda pH=3 bo'lganda? har qanday ionning konsentratsiyasi 0,001 ga teng bo'ladi, 2 birlikka kamayganda (pH=1 bo'lganda) esa 0,1 ga teng bo'ladi.

Demak, shundan ko'rinib turibdiki, konsentratsiyasini 100 marta orttirish

$$\left( \frac{0,1}{0,001} = 100 \right) \text{kerak.}$$

**Javob:** 100.

**7-masala.** Elektrolitning 173 ta molekulasidan 86 tasi ionlarga ajralgan bo'lsa dissotsiatsiyalish darajasi necha foizga teng?

**Yechish:**

I -usul: Proporsiya orqali:

$$\begin{array}{rcl} 173 & \longrightarrow & 100\% \\ 86 & \longrightarrow & x \end{array} \quad x=49,7\%$$

**II-usul:** Formula orqali topiladi :  $\alpha = \frac{n}{N} \cdot 100\%$ .

Bu yerda N-umumiylar erigan molekulalar soni n=dissotsiatsiyalangan molekulalar soni:

$$\alpha = \frac{86}{173} \cdot 100 = 49,7\%$$

**Javob:** 49,7%.

## IX BOB

### KIMYOVİY KINETİKA

*Har bir jarayonni o'ziga xos ma'lum tezligi bo'lgani singari kimyoviy jarayonlarni ham tezligi mavjud bo'lib, ayrim reaksiyalar juda tez (sekundlarning ulushlarida), ayrimlari esa juda sekin (oylar, yillar davomida: yadro reaksiyalar) amalga oshiriladi. Kimyoviy jarayonlarda ayrim reaksiyalarni tezlashtirish zarur bo'lsa, ba'zan ularni sekinlashtirish ham zarur bo'lib qoladi.*

*Biz bu bobda mana shunday kimyoviy jarayonlarning tezliklari, ularga ta'sir etuvchi omillar, qaytar va qaytmas reaksiyalar, kimyoviy muvozanat hamda uni siljutuvchi faktorlarga oid asosiy ma'lumotlar va masalalar yechimlarini batafsil ko'rib chiqish imkonini heradi.*

#### **Kimyoviy kinetika mavzusiga oid savollar va ularning yechilish usullari**

714. Reaksiya tezligiga ta'rif bering?

- A) boshlang'ich moddalar konsentratsiyasining vaqt birligi ichida o'zgarishiga aytildi;
- B) boshlang'ich moddalar konsentratsiyasining vaqt birligi ichida oshishiga aytildi;
- C) boshlang'ich moddalar konsentratsiyasining vaqt birligi ichida kamayishiga aytildi.

715. Reaksiya tezligining formulasini ko'rsating?

A)  $V = \frac{C_2 - C_1}{t} = \frac{\Delta C}{t} \text{ mol/l} \cdot \text{s};$

B)  $V = \frac{C_1 - C_2}{t} = \frac{\Delta C}{t} \text{ mol/l} \cdot \text{s};$

C)  $V = \frac{t_1 - t_2}{c} = \frac{\Delta t}{c} \text{ mol/l} \cdot \text{s}.$

716. Massalar ta'siri qonuni matematik ifodasini ko'rsating:  
 $nA + mB \rightarrow pS + qD$

A)  $V = \frac{t_1 - t_2}{c} = \frac{\Delta t}{c} \text{ mol/l} \cdot \text{s};$

B)  $V = \frac{C_1 - C_2}{t} = \frac{\Delta C}{t} \text{ mol/l·s};$

C)  $V = k |A|^n \cdot |B|^m.$

717. k – tezlik konstantasi qiymati qanday omillarga bog'liq?

- A) reaksiyaga kirishuvchi moddalaming tabiatiga va temperaturasiga bog'liq;  
 B) reaksiyaga kirishuvchi moddalarning tabiatiga bog'liq;  
 C) reaksiyaga kirishuvchi moddalarning temperaturasiga bog'liq.

718.  $C_{(qattiq)} + O_{2(gaz)} \rightarrow CO_{2(gaz)}$  uchun tezlik ifodasi qanday?

- A)  $V = k |O_2| |C|;$   
 B)  $V = k |O|^2 |C|;$   
 C)  $V = k |O_2|$  (qattiq moddalarni konsentratsiyasi o'zgarmaydi).

719. Vant-Goff formulasini vaqtga bog'liqlik ifodasini ko'rsating.

A)  $\frac{v t_2}{v t_1} = \frac{\tau t_1}{\tau t_2};$

B)  $V = \frac{C_1 - C_2}{t} = \frac{\Delta C}{t} \text{ mol/l·s};$

C)  $V = \frac{C_1 - C_2}{t} = \frac{\Delta C}{t} \text{ mol/l·s}.$

720. Reaksiya tezligiga bosimning ta'siri qanday?

- A) teskari proporsional;  
 B) proporsionallik yo'q;  
 C) to'g'ri proporsional.

721. Tezlikka bosim ta'siri qaysi formula bilan ifodalanadi?


A)  $v = k |P_1|^n |P_2|^m;$

B)  $\frac{v t_2}{v t_1} = \frac{\tau t_1}{\tau t_2};$

C)  $V = \frac{C_1 - C_2}{t} = \frac{\Delta C}{t} \text{ mol/l·s}.$

722. Oddiy reaksiyalar deb nimaga aytildi?

- A) I ta bosqichda amalga oshadigan reaksiyalarga aytildi;  
 B) konsekutiv reaksiyalar deb atalib, bir reaksiya mahsuloti boshqa reaksiya uchun boshlang'ich modda hisoblanadi;  
 C) bir vaqtning o'zida bir moddadan o'zaro bog'liq bo'limgan yo'nalishda bir necha xil moddalar hosil bo'lishi:



723. Murakkab reaksiyalar deb nimaga aytildi?

A) 1 ta bosqichda amalga oshadigan reaksiyalarga aytildi;

B) konsekutiv reaksiyalar deb atalib, bir reaksiya mahsuloti boshqa reaksiya uchun boshlang'ich modda hisoblanadi;

C) bir vaqtning o'zida bir moddadan o'zaro bog'liq bo'limgan yo'nalishda bir necha



724. Parallel reaksiyalar deb nimaga aytildi?

A) 1 ta bosqichda amalga oshadigan reaksiyalarga aytildi;

B) konsekutiv reaksiyalar deb atalib, bir reaksiya mahsuloti boshqa reaksiya uchun boshlang'ich modda hisoblanadi;

C) bir vaqtning o'zida bir moddadan o'zaro bog'liq bo'limgan yo'nalishda bir necha



725. Reaksiya tezligiga konsentratsiyaning ta'siri qonunini kim, nechanchi yili aniqladi va qonun qanday nomlandi?

A) 1861-yil Beketov, massalar ta'siri qonuni;

B) 1865-yil Beketov, massalar saqlanish qonuni;

C) 1865-yil Beketov, massalar ta'siri qonuni.

726. Massalar ta'siri qonunini matematik formulasini kim, nechanchi yili aniqlagan?

A) 1865-yil Norvegiyalik olimlar K. M. Vaage va P. Guldberglar;

B) 1867-yil Norvegiyalik olimlar K. M. Vaage va P. Guldberglar;

C) 1867-yil Norvegiyalik olimlar K. M. Vaage va Beketovlar.

727. Reaksiya tezligiga haroratning ta'sirini qaysi olim o'rgangan?

A) Vant-Goff;

B) Beketov;

C) K.M. Vaage.

728. Reaksiya tezligiga haroratning ta'sirini matematik ifodasini ko'rsating?

A)  $V_2 = V_1 \cdot \gamma^{\frac{R-T_2}{10}}$ ;

B)  $\frac{V t_2}{V t_1} = \frac{\tau t_1}{\tau t_2}$ ;

C)  $V = \frac{C_1 - C_2}{t} = \frac{\Delta C}{t} \text{ mol/l} \cdot \text{s}$ .

729. Aktivlanish energiyasi deb nimaga aytildi?

- A) reaksiyaga kirishadigan modda molekulalarini nofaol ionlarga aylantirish uchun ularga berilishi lozim bo'lgan energiya;
- B) reaksiyaga kirishadigan modda molekulalarini passiv zarrachalarga aylantirish uchun ularga berilishi lozim bo'lgan energiya;
- C) reaksiyaga kirishadigan modda molekulalarini aktiv zarrachalarga aylantirish uchun ularga berilishi lozim bo'lgan energiya.

730. Kataliz bu...?

- A) kimyoviy reaksiya tezligini katalizatorsiz o'zgarishi;
- B) kimyoviy reaksiya tezligini katalizator ishtirokida o'zgarishi;
- C) kimyoviy reaksiya tezligini katalizator ishtirokida tezlashishi.

731. Gomogen kataliz deb nimaga aytildi?

- A) reaksiyaga kirishuvchi moddalar va katalizator bir xil fazali sistemani hosil qiluvchilar (gaz – gaz, suyuq – suyuq, qattiq – qattiq);
- B) reaksiyaga kirishuvchi moddalar va katalizator har xil fazali sistemani hosil qiluvchilar (gaz – suyuq, suyuq – qattiq, gaz – qattiq);
- C) reaksiyaga kirishuvchi moddalar bir xil, katalizator har xil fazali sistemani hosil qiluvchilar.

732. Geterogen kataliz nima?

- A) reaksiyaga kirishuvchi moddalar va katalizator bir xil fazali sistemani hosil qiluvchilar (gaz – gaz, suyuq – suyuq, qattiq – qattiq);
- B) reaksiyaga kirishuvchi moddalar va katalizator har xil fazali sistemani hosil qiluvchilar (gaz – suyuq, suyuq – qattiq, gaz – qattiq);
- C) reaksiyaga kirishuvchi moddalar bir xil, katalizator har xil fazali sistemani hosil qiluvchilar.

733. Biologik katalizatorlar nima?

- A) gemoglobin – oqsil tabiatli moddalar;
- B) rodopsin – oqsil tabiatli moddalar;
- C) fermentlar (enzim) – oqsil tabiatli moddalar.

734. Muvozanat konstantasi formulasini ko'rsating:  $nA + mB \rightarrow pC + qD$  reaksiya uchun

A)  $K_m = \frac{[C]^p \cdot [D]^q}{[A]^n \cdot [B]^m}$  ;

B)  $\frac{v t_2}{v t_1} = \frac{\tau t_1}{\tau t_2}$  ;

C)  $V = \frac{C_1 - C_2}{t} = \frac{\Delta C}{t} mol/l \cdot s$ .

735. Muvozanatda turgan sistemaga bosimning ta'siri qanday?

A) bosim oshirilsa muvozanat mollar soni kam tomonga siljiydi, ko'paysa aksincha;

B) bosim oshirilsa muvozanat mollar soni ko'p tomonga siljiydi, kamaysa aksincha;

C) bosim oshirilsa muvozanat siljimaydi.

736.  $N_2 + 3H_2 \leftrightarrow 2NH_3$ , reaksiyada bosim oshirilsa reaksiya qaysi tomonga siljiydi?

A) mahsulot tomonga (o'ngga);

B) boshlang'ich modda tomonga (chapga);

C) siljimaydi.

737. Termokimiyoviy tenglama deb nimaga aytildi?

A) issiqlik chiqishi va yutilishi hisobiga;

B) issiqlik chiqishi hisobiga;

C) issiqlik yutilishi hisobiga.

738. Issiqlik effektini topish reaksiyasini ko'rsating.

A)  $Q = H_{\text{ox}} - H_{\text{bosh}}$ ;

B)  $\Delta H = H_{\text{bosh}} - H_{\text{ox}}$ ;

C)  $\Delta H = H_{\text{ox}} - H_{\text{bosh}}$ .

739. Ekzotermik reaksiyalar...

A) issiqlik yutilishi bilan boradigan reaksiyalar;

B) issiqlik chiqishi bilan boradigan reaksiyalar;

C) issiqlik chiqishi va yutilishi bilan boradigan reaksiyalar.

740. Reaksiyalarda qachon issiqlik ajraladi?

A) boshlang'ich moddalarni uzish uchun ketadigan energiyadan mahsulot chiqadigan energiya kichik bo'lsa;

B) boshlang'ich moddalarni uzish uchun ketadigan energiyadan mahsulot chiqadigan energiyaga teng bo'lsa;

C) boshlang'ich moddalarni uzish uchun ketadigan energiyadan mahsulot chiqadigan energiya katta bo'lsa.

741. Endotermik reaksiyalar...

A) issiqlik yutilishi bilan boradigan reaksiyalar;

B) issiqlik chiqishi bilan boradigan reaksiyalar;

C) issiqlik chiqishi va yutilishi bilan boradigan reaksiyalar.

742. Reaksiyada qachon issiqlik yutiladi?

A) boshlang'ich moddalarni uzish uchun ketadigan energiyadan mahsulot chiqadigan energiya kichik bo'lsa;

B) boshlang'ich moddalarni uzish uchun ketadigan energiyadan mahsulot chiqadigan energiyaga teng bo'lsa;

C) boshlang'ich moddalarni uzish uchun ketadigan energiyadan mahsulot chiqadigan energiya katta bo'lsa.

**743. Kimyoviy kinetika nima?**

- A) kimyoviy reaksiyalar mexanizmlari haqidagi ta'lilot;
- B) kimyoviy reaksiyalar tezligi haqidagi ta'lilot;
- C) kimyoviy reaksiyalar tezligi va mexanizmlari haqidagi ta'lilot.

**744. Promotorlar nima?**

- A) katalizatorni passivlashtirib beradigan moddalar:  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{V}_2\text{O}_5$ ,  $\text{Na}_2\text{O}$ ;
- B) katalizatorni aktivlashtirib beradigan moddalar:  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{V}_2\text{O}_5$ ,  $\text{Na}_2\text{O}$ ;
- C) katalizatorni aktivlashtirib beradigan moddalar:  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ,  $\text{V}_2\text{O}_5$ ,  $\text{Li}_2\text{O}$ .

### **Kimyoviy kinetika mavzusiga oid namunaviy masalalar va ularning yechilish usullari**

**1-masala:** Hajmi 2 l bo'lgan sistemada 3600 sek. davomida 2 mol mahsulot hosil bo'ladi. Reaksiyaning o'rtacha tezligini aniqlang?

**Yechish:**

$$v = \frac{C_1 - C_2}{t_1 - t_2} = \frac{\Delta C}{\Delta t} \quad \text{formulaga asoslanib, reaksiyaning o'rtacha tezligi}$$

(mol/l·sek) aniqlanadi;

$$v = \frac{2}{2 \cdot 3600} = 0,00028 \text{ mol/l · sek}$$

**Javob:** 0,00028 mol/l·sek

**2-masala:**  $2\text{SO}_2 + \text{O}_2 \rightleftharpoons 2\text{SO}_3$  reaksiyada hajm 2 marta kamaytirilganda to'g'ri reaksiyalarning tezligini aniqlang?

**Yechish:**

1) To'g'ri reaksiya tezligi topiladi:

$$v = K |A|^n \cdot |B|^m = 2^1 \cdot 2 = 8 \text{ marta ortadi.}$$

**Javob:** 8.

**3-masala:** Agar reaksiya tezligining harorat koeffitsiyenti 2 ga teng bo'lsa, harorat 50°C dan 100°C ga oshirilgan reaksiyaning tezligi necha marta ortadi?

**Yechish:**

1) Berilgan:  $\gamma=2$ ,

$$t_1=50^\circ\text{C},$$

$$t_2=100^\circ\text{C};$$

$$2) \frac{vt_2}{vt_1} = y^{\frac{1}{\gamma}}$$

Formulaga asosan,

$$\frac{vt_2}{vt_1} = 2^{\frac{140^\circ - 50^\circ}{10}} \quad \frac{vt_2}{vt_1} = 2^5 = 32;$$

**Javob:** 32 marta.

**4-masala:**  $\text{HCOOH} \rightarrow \text{CO}_2 + \text{H}_2$  reaksiyaning  $140^\circ\text{C}$  dagi tezlik konstantasi  $5,75 \cdot 10^{-4}$  ga,  $185^\circ\text{C}$  da esa  $9,2 \cdot 10^{-3}$  ga teng. Reaksiyaning harorat koeffitsiyentini toping?

**Yechish:**

Massalar ta'siri qonuniga muvofiq reaksiya tezligi ayni reaksiyaning tezlik konstantasiga to'g'ri proporsional bo'ladi.

$$\text{Shunga binoan: } \frac{vt_2}{vt_1} = y^{\frac{t_2-t_1}{10}}$$

$$\frac{Kt_2}{Kt_1} = y^{\frac{t_2-t_1}{10}}; \quad \frac{9,2 \cdot 10^{-3}}{5,75 \cdot 10^{-4}} = y^{\frac{185-140}{10}}$$

$16 = y^{4,5}$  bu tenglamani yechishda ushbu ifodaning logarifmiga bo'linadi:  
 $4,5 \lg y = 1 \lg 16$

$$y = \frac{\lg 16}{4,5} = \frac{1,204}{0,65} = 1,8433$$

**Javob:**  $y = 1,8433$ .

**5-masala:**  $y = 2$  bo'lgan reaksiyani  $30^\circ\text{C}$  da tugatish uchun 3 soat ketadi. Shu reaksiyani 45 minutda tugatish uchun haroratni necha  $^\circ\text{C}$  ga ko'tarish kerak?

**Yechish:**

1) dastlab vaqtlarni bir xil birlikka o'tkazib olinadi:

1 soat ————— 60 min

3 soat ————— x

x = 180 min;

$$2) \frac{vt_1}{vt_2} = \frac{Tt_1}{Tt_2} \text{ formulaga binoan, o'rtacha tezlik } \frac{vt_1}{vt_2} = \frac{180}{45} = 4;$$

3) O'rtacha tezlik 4 ga tengligidan foydalanib, Vant – Goff formulasiga asosan keyingi harorat topiladi.

$$\frac{vt_2}{vt_1} = y^{\frac{t_2-t_1}{10}}; \quad 4 = 2^{\frac{t_2-20}{10}} \text{ asosan sonlarni bir xillikka keltirish uchun } 4 = 2^2$$

deb qabul qilinadi. Natijada,  $2^2 = 2^{\frac{t_2 - 20}{10}}$  holat kelib chiqadi; asos sonlar tashlab yuborilsa, tenglama quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.  $2 = \frac{t_2 - 20}{10}$  bu tenglamadan  $t_2$  ning qiymati  $20 = t_2 - 20$ ;  $t_2 = 40$ .

**Javob:** haroratni  $40^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarish kerak.


**6-masala:** Quyidagi  $4\text{HCl} + \text{O}_2 \leftrightarrow 2\text{H}_2\text{O} + 2\text{Cl}_2$  reaksiyada moddalarning muvozanat konsentratsiyalari (mol/l)

$|\text{HCl}| = 0,015$ ;  $|\text{O}_2| = 0,03$ ;  $|\text{H}_2\text{O}| = 0,01$ ;  $|\text{Cl}_2| = 0,01$ ; bo'lsa reaksiyaga kirishayotgan moddalarning dastlabki konsentratsiyalari yig'indisini toping.

**Yechish:**

Dk – (dastlabki konsentratsiya), Sk – (sarflangan konsentratsiya) Mk – (muvozanat konsentratsiyasi). Bularning uchalasi ham boshlang'ich moddalar uchun xos. Hosil bo'lgan mahsulotlar konsentratsiyadan boshlang'ich moddaning sarflangan konsentratsiyalarini aniqlash mumkin:


0,015 0,03 0,01 0,01



bo'lgani uchun ularning qaysi biri bo'yicha proporsiya tuzilsa ham qiymat o'zgarmaydi:



$$X = 0,02Sk \quad |\text{HCl}|$$



$$X = 0,005Sk \quad |\text{O}_2| ;$$

2) Dk=Sk+ Mk ga  $|\text{HCl}|$  uchun;  $0,015+0,02=0,035$

$|\text{O}_2|$  uchun:  $0,03+0,005=0,035$ ;

3) Ularning Dk lari yig'indisi  $0,035+0,035=0,07$  ga teng.

**Javob:** 0,07.

**7-masala:** Ushbu  $\text{NO} + \text{O}_2 \rightleftharpoons \text{NO}_2$  reaksiyaning muvozanat holatida moddalarning konsentratsiyalari  $|\text{NO}| = 0,56$ ;  $= |\text{O}_2| = 0,28$ ;  $|\text{NO}_2| = 0,44$  mol/l bo'lsa, shu reaksiyaning muvozanat konstantasi ( $K_M$ ) ni toping?

**Yechish:**

Dastlab reaksiya tenglamasi tenglanadi:  $2\text{NO} + \text{O}_2 \rightleftharpoons 2\text{NO}_2$ . Moddalar konsentratsiyalari muvozanat holatida bo'lgani uchun quyidagi tenglamaga to'g'ridan- to'g'ri qo'yish mumkin:

$$K_M = \frac{|NO_2|^2}{|NO|^2 \cdot |O_2|} = \frac{|0,44|^2}{|0,56|^2} = 2,2$$

### Javob 2,2

**8-masala:** Quyidagi sistemada  $A + B \rightarrow C + D$  tenglamadagi tartib bo'yicha yozilgan moddalar konsentratsiyalari (mol/l) 8, 3, 2, 12 bo'lган. Muvozanat holatdagi sistemadan C moddadan 2 mol/l chiqarib yuborilgan A va D moddalarining yangi konsentratsiyalarini aniqlang?


**Yechish:**

1) Dastlab ularning muvozanat konsentratsiyalariga asoslangan holda,

$$\text{muvozanat konstantasi topiladi: } K_M = \frac{|C| \cdot |D|}{|A| \cdot |B|} = \frac{2 \cdot 12}{8 \cdot 3} = 1;$$

2)  $K_M$  ga asoslanib A va D moddalarning yangi konsentratsiyasi topiladi. Muvozanatda turgan sistemaga qancha modda qo'shilsa ham undan qancha modda olinsa ham sistemaning muvozanat konstantasi o'zgarmaydi.

3) Reaksiyaning qaysi tomonidan ma'lum miqdor olib tashlansa, shu tomonga  $+x$  qo'shiladi, qarama-qarshi tomondan esa  $-x$  ayrıldi. Demak:



Shunga asoslanib tenglama tuziladi.

$$1 = \frac{|A+x| \cdot |D|}{|B-x| \cdot |C|} = \frac{12x+x^2}{24-8x-3x+x^2} = \frac{12x+x^2}{24-11x+x^2} = 1 \Rightarrow$$

$$\Rightarrow 12x+x^2 = 24 - 11x+x^2$$

$$12x+11x=24$$

$$23x=24$$

$$x=1,0435$$

$$x = \frac{24}{23} = 1,0435;$$

4) Demak  $x$  A va B lar chiqib, C va D larga qo'shilayotgan miqdordir. Shunga asoslanib, A va D larning yangi konsentratsiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$|A|=8-1,0435=6,96 \text{ mol/l}$$

$$|D|=12+1,0435=13,04 \text{ mol/l};$$

5) Natijaga ishonch hosil qilish uchun topilgan qiymat o'rniiga qo'yib tekshirib ko'riladi

$$K_M = \frac{|1,0435| \cdot |12+1,04|}{|8-1,04| \cdot |3-1,04|} = 1.$$

**Javob:** A=6,96 mol/l; B=13,04 mol/l.

**9-masala:**  $H_2 + Cl_2 = 2HCl$  reaksiyada vodorod va xlor teng nisbatda (2:2) olinadi. Xlorning 20% miqdori sarflangandan so'ng muvozanat konstantasini toping?

**Yechish:**

1) Dastlab barcha moddalarning muvozanat paytidagi konsentratsiyalari aniqlab olinadi. Buning uchun sarflangan xlor miqdori aniqlanadi.

$$100\% \quad 2$$

$$20\% \quad x \quad x=0,4 \text{ mol};$$

2) Sarflangan xlor miqdoridan foydalanib, xlorning muvozanat konsentratsiyasi topiladi.

$$2-0,4=1,6 \text{ mol M}k \text{ xlor}$$

3) Reaksiyada sarflangan vodorodning miqdori topiladi.

$$100\% \quad 2$$

$$20\% \quad x \quad x=0,4 \text{ mol};$$

4) Sarflangan xlor miqdoridan foydalanib vodorodning muvozanat paytidagi konsentratsiyasi topiladi.

$$2-0,4=1,6 \text{ mol M}k \text{ xlor};$$

5) Sarflangan modda miqdoridan hosil bo'lgan vodorod xlorid miqdori topiladi.

$$1 \quad 2$$

$$0,4 \quad x \quad x=0,8 \text{ mol M}k \text{ vodorod xlorid};$$

6) Moddalarning topilgan muvozanat paytidagi konsentratsiyalaridan foydalanib, muvozanat konstantasi aniqlanadi.

$$Km = \frac{|0,8|^2}{|1,6| \cdot |1,6|} = 0,25.$$

**Javob:**  $Km = 0,25$ .

**10-masala:**  $2H_2 + O_2 = 2H_2O$  reaksiyasi hajmi  $0,009 \text{ m}^3$  bo'lgan idishda olib boriladi. Kimyoviy muvozanat qaror topganda moddalar konsentratsiyasi  $H_2=0,5$ ;  $O_2=0,4$  va  $H_2O=0,6 \text{ mol/l}$  bo'lsa, boshlang'ich moddalar yig'indisi mol da hisoblang?

**Yechish:**

1) mahsulotdan foydalanib boshlang'ich moddalarning sarflangan miqdorini aniqlash mumkin.

	$2H_2$	$+ O_2$	$= 2H_2O$
Muvozanat holatidagi moddalar konsentratsiyasi M k	0,5	0,4	0,6
0,6 mol $H_2O$ hosil bo'lishi uchun sarflangan dastlabki moddalar Sk	0,6	0,3	-
Dastlabki moddalar konsentratsiyasi Dk	1,1	0,7	-

a)  $0,4+0,3=0,7$  mol/l O<sub>2</sub>;

b)  $0,6+0,5=1,1$  mol/l H<sub>2</sub>.

3) Idishning hajmidan foydalananib 9 l uchun boshlang'ich moddalarning miqdori topiladi:

a)  $0,7+1,1=1,8$  mol/l O<sub>2</sub> va H<sub>2</sub>

$$\begin{array}{rcl} \text{b)} & 1 \text{ l} & \xrightarrow{\hspace{1cm}} 1,8 \\ & 9 \text{ l} & \xrightarrow{\hspace{1cm}} x \end{array}$$

$$x = 16,2 \text{ mol}$$

**Javob:** 16,2 mol.

## X BOB

### METALLMASLAR

*Davriy sistemaning asosan p oilasiga mansub, davrlarini oxirida, asosiy gruppachalarni (I-III dan tashqari) yugori qismini tashkil etuvchi, elektromanfyligi nishbatan katta, kimyoviy reaksiyalarda asosan oksidlovchi xossasini namoyon qiluvchi elementlar metallmaslardir.*

*Ushbu bobda mana shu element atomlarini 4 ta gruppachasi vakillari:*

*1. Galogenlar: VII – ftor guruhchasi metallmaslari.*

*2. Halkogenlar: VI – kislorod guruhchasi metallmaslari.*

*3. Hayot elementlari: V – azot guruhchasi metallmaslari.*

*4. IV – uglerod guruhchasi metallmaslari haqida ma'lumot beriladi.*

*Hamda shu gruppacha elementlari va ularning birikmalarining xossalari, olinishi, ishlatalishiga oid savollar, ularning javoblari va masalalarning yechimlari berilgan.*

#### **Metallmaslar mavzusiga oid savollar va ularning javoblari**

745. Galogen tushunchasini fanga kim kiritgan va qanday ma'noni anglatadi?

A) 1811-yilda nemis kimyogari I.Shveyger, galogen so'zining ma'nosi «tuz hosil qiluvchi»;

B) 1811-yilda nemis kimyogari Sheele, galogen so'zining ma'nosi «tuz hosil qiluvchi»;

C) 1811-yilda nemis kimyogari I.Shveyger, galogen so'zining ma'nosi «kislota hosil qiluvchi».

746. Galogen atamasi qaysi elementlar uchun umumiy hisoblanadi.

A) ftor, xlor, tellur, poloni, yod;

B) ftor, xlor, brom, yod, poloni;

C) ftor, xlor, brom, yod, astat.

747. Galogenlar tabiatda qanday holda tarqalgan?

A) erkin holida;

B) birikmalar holida;

C) tuz holida.

748. Galogenlar nima sababdan erkin holda uchramaydi.

A) tipik metallmas, kuchli qaytaruvchi bo'lgani uchun;

B) tipik metallmas, kuchli oksidlovchi bo'lgani uchun;

C) tipik metallmas, kuchsiz qaytaruvchi bo'lgani uchun.

749. Galogenlarning yer qobig'idagi miqdori.

- A) ftor (0.027%), xlор (0,045%), brom (0,00016%), yod (0,00003%);
- B) ftor (0.045%), xlор (0,027%), brom (0,00016%), yod (0,00003%);
- C) ftor (0.0027%), xlор (0,045%), brom (0,00016%), yod (0,00003%).

750. Galogenlarning asosiy tabiiy birikmalarini ko'rsating.

- A) ftoridlar; plavik shpati –  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 \cdot \text{CaF}_2$ , apatit, fosforitlar; xlоридлар;  $\text{KCl}$ ,  $\text{NaCl}$ ; bromидлар;  $\text{KBr}$ ,  $\text{MgBr}_2$ ; yодидлар;  $\text{NaI}$ ,  $\text{KI}$ ;
- B) ftoridlar; plavik shpati –  $\text{NaF}$ , apatit, fosforitlar; xlоридлар;  $\text{KCl}$ ,  $\text{NaCl}$ ; bromидлар;  $\text{KBr}$ ,  $\text{MgBr}_2$ ; yодидлар;  $\text{NaI}$ ,  $\text{KI}$ ;
- C) ftoridlar; plavik shpati –  $\text{CaF}_2$ , apatit, fosforitlar; xlоридлар;  $\text{KCl}$ ,  $\text{NaCl}$ ; bromидлар;  $\text{KBr}$ ,  $\text{MgBr}_2$ ; yодидлар;  $\text{NaI}$ ,  $\text{KI}$ .

*Yodda tuting!!! Galogenlardan ftor faqat elektroliz yo'li bilan olinadi.*

751. Xlor qanday usul (lar) bilan olinadi?

- A) xlоридлами elektroliz qilib hamda ularga kuchli oksidlovchilar ta'sir ettirib;
- B) xlоридлами elektroliz qilib hamda ularga kuchli qaytaruvchilar ta'sir ettirib;
- C) xlоридлами elektroliz qilib hamda ularga kuchsiz qaytaruvchilar ta'sir ettirib.

752. Brom va yod qaysi usullar bilan olinadi?

- A) tuz eritmalarini elektroliz qilib, ularga kuchli qaytaruvchilar ta'sir ettirib hamda xlor va brom ta'siri yordamida olish mumkin;
- B) tuz eritmalarini elektroliz qilib, ularga kuchli oksidlovchilar ta'sir ettirib, hamda xlor va brom ta'siri yordamida olish mumkin;
- C) tuz eritmalarini elektroliz qilib, ularga kuchli oksidlovchilar ta'sir ettirib hamda yod va astat ta'siri yordamida olish mumkin.

*Bilib oling!!! Galogenlarning nishbiy atom massasi ortishi bilan qaynash harorati va zichligi ortadi hamda rangi va agregat holatlari quyuqlashadi; F- och-yashil rangli gaz, Cl- sarg'ish- yashil rangli gaz, Br- qizg'ish- qo'ng'ir rangli suyuqlik, I- to'q- kulrang kristall modda.*

753. Galogenlarning eruvchanligi qanday?

- A) suvda eruvchanligi yomon, organik erituvchilarda yaxshi eriydi;
- B) suvda eruvchanligi yaxhi, organik erituvchilarda yaxshi eriydi;
- C) suvda eruvchanligi yomon, organik erituvchilarda yomon eriydi.

754. Galogenlarda ftordan yodga tomon kimyoviy aktivlik, oksidlovchilik, qaytaruvchilik xossalari qanday o'zgaradi?

- A) kamayadi, ortadi, ortadi;
- B) kamayadi, kamayadi, ortadi;
- C) ortadi, kamayadi, ortadi.

755. Ftor ionidan yod ioniga tomon kimyoviy aktivlik qanday o'zgaradi.

- A) kamayadi;
- B) ortadi;
- C) o'zgarmaydi.


756. Ftor nechanchi yil kim tomonidan aniqlangan?

- A) 1771-yil Sheele;
- B) 1771-yil I.Shveyger;
- C) 1777-yil Sheele.

*Yodda tuting!!! Yod sublimatlanish xususiyatiga ega.*

*Qattiq moddalarning suyuq holatga o'tmasdan gaz holatga, gaz holatdan yana suyuqlanmasdan qattiq holatga o'tish hodisasi sublimatlanish deyiladi.*

*Bilib oling!!! Ftor galogenlar ichida eng faoli, kislород ham fтор yordamida oksidlanadi, suv esa alangalanib yonib ketadi.*



757. Xlor nechanchi yil kim tomonidan aniqlangan?

- A) 1787-yil S.Arrenius;
- B) 1774-yil Sheele;
- C) 1774-yil Balar.

758. Brom nechanchi yil kim tomonidan aniqlangan?

- A) 1826-yil fransuz olimi A.J.Balar va nemis olimi S.Levig;
- B) 1826-yil fransuz olimi A.J.Balar va shved olimi S.Arrenius;
- C) 1828-yil fransuz olimi A.J.Balar va nemis olimi S.Levig.

759. Yod nechanchi yil kim tomonidan aniqlangan?

- A) 1826-yil fransuz olimi A.J.Balar;
- B) 1811-yil fransuz olimi B.Kurtua;
- C) 1811-yil nemis olimi S.Levig.

760. Xloring tabiatdagи birikmalarini ko'rsating.

A) faqat birikmalar holida; galit (tosh tuz) —  $\text{NaCl}$ , silvinit —  $\text{KCl}$ , silvin —  $\text{KCl} \cdot \text{NaCl}$ , bishofit —  $\text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ , karnallit —  $\text{KCl} \cdot \text{MgCl}_2$ , kainit —  $\text{KCl} \cdot \text{MgSO}_4 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ ;

B) faqat birikmalar holida; galit (tosh tuz) —  $\text{NaCl}$ , silvinit —  $\text{KCl} \cdot \text{NaCl}$ , silvin —  $\text{KCl}$ , bishofit —  $\text{MgCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ , karnallit —  $\text{KCl} \cdot \text{MgCl}_2$ , kainit —  $\text{KCl} \cdot \text{MgSO}_4 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ ;

C) faqat birikmalar holida; galit (tosh tuz) —  $\text{NaCl}$ , silvinit —  $\text{KCl} \cdot \text{NaCl}$ , silvin —  $\text{KCl}$ , bishofit —  $\text{CaCl}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ , karnallit —  $\text{KCl} \cdot \text{MgCl}_2$ , kainit —  $\text{KCl} \cdot \text{MgSO}_4 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ .

761. Xloring sanoatda va laboratoriya da olinishini aniqlang.

A) sanoatda elektroliz usuli bilan, laboratoriya da  $\text{HCl}$  ga  $\text{MnO}_2$  yoki  $\text{KMnO}_4$  qo'shib qizdirish orqali olinadi.  $\text{MnO}_2 + 4\text{HCl} = \text{MnCl}_2 + \text{Cl}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;



B) sanoatda elektroliz usuli bilan, laboratoriyada  $\text{HCl}$  ga  $\text{HF}$  qo'shib qizdirish orqali olinadi;

C) sanoatda elektroliz usuli bilan, laboratoriyada  $\text{HCl}$  ga  $\text{HBr}$  qo'shib qizdirish orqali olinadi.

*Yodda tuting!!! Xlor sarg'ish-yashil rangli, o'tkir hidli, bo'g'uvchi, zaharli gaz. Xlorni hidlash mumkin emas, ko'proq migdorda nafas olinsa kishi o'lishi ham mumkin. U havodan 2,5 marta og'ir.*

762. Xlorli suvning tarkibi va undagi xloring massa ulushi qanday?

A) 1 hajm suvda 22,4 hajm xlor eriydi, unda xloring massa ulushi 0,783%;

B) 1 hajm suvda 2,5 hajm xlor eriydi, unda xloring massa ulushi 0,783%;

C) xlor suvda erimaydi.

763. Xlor qaysi moddalar bilan ta'sirlashganda oksidlovchi xossasini namoyon qiladi?

A) bromidlar, yodidlar bilan ta'sirlashganda



B) metallar va vodorod bilan ta'sirlashganda



C) bromidlar, yodidlar, metallar va vodorod bilan ta'sirlashganda.



764. Xlor suv bilan ta'sirlashganda qanday moddalar hosil bo'ladi?

A) xlorid va gipoxlorit kislotalar  $\text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{HCl} + \text{HClO};$

B) xlor suvda erimaydi;

C) xlorat va gipoxlorit kislotalar  $\text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{HClO}_2 + \text{HClO}.$

765. Xlor sovuq ishqor eritmasi bilan ta'sirlashganda qanday moddalar hosil bo'ladi.

A) kaliy xlorat, kaliy xlorid va suv



B) kaliy gipoxlorit, kaliy xlorid va suv



C) xlor sovuq ishqor bilan ta'sirlasmaydi.

766. Xlor qaynoq ishqor eritmasi bilan ta'sirlashganda qanday moddalar hosil bo'ladi?

A) xlor qaynoq ishqor bilan ta'sirlashmaydi;

B) kaliy gipoxlorid, kaliy xlorid va suv;



C) kaliy xlorat (bertole tuzi), kaliy xlorid va suv  
$$3\text{Cl}_2 + 6\text{KOH} \rightarrow \text{KClO}_3 + 5\text{KCl} + 3\text{H}_2\text{O}$$
.

767. Vodorod xlorid sanoatda qaysi moddalardan olinadi?

- A)  $2\text{NaCl} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{HCl}$ ;  
B) vodorod va xlor gazlarining o'zaro ta'siridan:  $\text{H}_2 + \text{Cl}_2 \rightarrow 2\text{HCl}$ ;  
C)  $\text{NaCl} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{NaHSO}_4 + \text{HCl}$ .

768. Vodorod xlorid laboratoriya da qaysi moddalardan olinadi?

- A) quruq toza natriy xloridga konsentrangan sulfat kislota ta'sir etdirib;  
B) vodorod va xlor gazlarining o'zaro ta'siridan:  $\text{H}_2 + \text{Cl}_2 \rightarrow 2\text{HCl}$ ;  
C)  $\text{NaCl} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{NaHSO}_4 + \text{HCl}$ .

*Yodda tuting!!! Vodorod xlorid rangsiz, o'tkir hidli, bo'g'uvchi gaz bo'lib, havodan 1,256 marta og'ir, suvda juda yaxshi eriydi, ya'ni Ihajm suvda 500 hajm HCl eriydi.*

769. Vodorod xloridning kimyoviy xossa jihatidan xlorid kislotadan asosiy farqli tomoni:

- A) quruq vodorod xlorid metallar va metall oksidlari bilan ta'sirlashmaydi;  
B) quruq vodorod xlorid metallar bilan ta'sirlashmaydi;  
C) quruq vodorod xlorid metall oksidlari bilan ta'sirlashmaydi.

770. Vodorod xlorid asosan nima maqsadda ishlataladi?

- A) osh tuzi olish uchun;  
B) xlorid kislota ishlab chiqarish uchun;  
C) vodorod olish uchun.

771. Xlorid kislota laboratoriya da qanday olinadi?

- A) vodorod xlorid laboratoriya da olib bo'linmaydi;  
B) sanoatda olingan vodorod xloridni suvda eritib olinadi;  
C) laboratoriya da olingan vodorod xloridni suvda eritib olinadi.

772. Xlorid kislota sanoatda qanday olinadi?

- A) sanoatda olingan vodorod xloridni suvda eritib olinadi;  
B) vodorod xlorid sanoatda olib bo'linmaydi;  
C) laboratoriya da olingan vodorod xloridni suvda eritib olinadi.

*Yodda tuting!!! Xlorid kislota rangsiz, o'tkir hidli suyuqlik. Nam havoda tutaydi, zichligi (konsentrangan) 1,19gr/ml, konsentratsiyasi 37%.*

*Bilib oling!!! Xlorid kislota quyidagi kimyoviy xossalarga ega; indikator rangini o'zgartiradi, aktivlik qatorida vodoroddan oldin turgan metallar bilan ta'sirlashib tuz va vodorod hosil qiladi, asosli va amfoter oksidlар bilan, asoslar bilan ta'sirlashib tuz va suv hosil qiladi.*

**Eslatma!!! Xlorid kislota va uning tuzlari AgNO<sub>3</sub>, bilan reaksiyaga kirishib oq cho'kma (AgCl) hosil qiladi (sifat reaksiya).**

773. Xlorid kislota nima maqsadlarda ishlataladi?

A) xloridlar olishda, metallar sirtini tozalashda, metallarni kavsharlashda, bo'yq moddalar olishda, plastmassalar tayyorlashda;

B) metallarni tozalashda, tibbiyotda, xloridlar olishda, metallar sirtini tozalashda, metallarni kavsharlashda;

C) metallarni tozalashda, tibbiyotda, xloridlar olishda, metallar sirtini tozalashda, metallarni kavsharlashda, bo'yq moddalar olishda, plastmassalar tayyorlashda.

774. Osh tuzining asosiy massasi qayerlarda uchraydi?

A) dengiz va okean suvlarida erigan holatda;

B) kon va dengiz suvlarida erigan holatda;

C) daryo va okean suvlarida erigan holatda.

775. Tosh tuz qaysi konlarda qazib olinadi? (O'zbekiston hududida).

A) Xo'jaikon, Tubokat, Borsakelmas, Boybichakon, Oqqal'a;

B) Xo'jaikon, Tubokat, Boybichakon, Oqqal'a;

C) Xo'jaikon, Tubokat, Borsakelmas, Boybichakon.

776. Osh tuzining fizik xossalari ko'rsating.

A) T<sub>q</sub> = 1413°C, T<sub>s</sub> = 80°,4°C, zichligi d = 1,16g/ml, eruvchanligi 0 °Cda 35,6 ga teng;

B) T<sub>q</sub> = 1413°C, T<sub>s</sub> = 80°,4°C, zichligi d = 2,1g/ml, eruvchanligi 0 °C da 28,6 ga teng;

C) T<sub>q</sub> = 1413°C, T<sub>s</sub> = 800,4°C, zichligi d = 2,16g/ml, eruvchanligi 0 °C da 35,6 ga teng.

777. Osh tuzi qanday maqsadlarda ishlataladi?

A) oziq-ovqat sanoatida, konservalash ishlarida, boshqa xloridlar olishda, xlor olishda, natriy va natriy gidroksid olishda, soda ishlab chiqarishda, sovun ishlab chiqarishda va kundalik turmushda;

B) oziq-ovqat sanoatida, konservalash ishlarida, boshqa xloridlar olishda, xlor olishda, natriy va natriy gidroksid olishda, soda ishlab chiqarishda, xlorid kislota ishlab chiqarishda, sovun ishlab chiqarishda va kundalik turmushda;

C) oziq-ovqat sanoatida, konservalash ishlarida, boshqa xloridlar olishda, xlor olishda, natriy va natriy gidroksid olishda, soda ishlab chiqarishda, xlorid kislota ishlab chiqarishda.

778. Inson 1kunda va 1yilda qancha osh tuzi iste'mol qiladi?

A) 8gr, 3,6kg;

B) 10gr, 3,6kg;

C) 12gr, 3,6kg.

*Eslatma: O'zbekistonda barcha aholi lyilda 90000t, butun dunyodagi aholi esa 25mln t osh tuzi iste'mol qiladi.*

779. KCl ning tabiiy minerallari qaysi konlardan qazib olinadi?

- A) Tubokat, Borsakelmas;
- B) Tubokat, Oqqal'a;
- C) Tubokat, Xo'jaikon.

780. KCl nima maqsadlarda ishlataladi?

- A) o'g'it sifatida, KOH, Cl<sub>2</sub> va xlor birikmalarini olishda;
- B) KOH, Cl<sub>2</sub> va xlor birikmalarini olishda;
- C) o'g'it sifatida, Cl<sub>2</sub> va xlor birikmalarini olishda.

781. Qaysi xloridlar suvda erimaydi?

- A) AgCl, PbCl<sub>2</sub>, CuCl, HgCl<sub>2</sub>;
- B) AgCl, PbCl<sub>2</sub>, NaCl, HgCl<sub>2</sub>;
- C) AgCl, PbCl<sub>2</sub>, KCl, HgCl<sub>2</sub>.

782. Xlorning kislorodli birikmalaridagi oksidlanish darajasini aniqlang.

- A) -1, +3, +5, +7;
- B) 0, +3, +5, +7;
- C) +1, +3, +5, +7.

783. Gipoxlorit kislota asta-sekin parchalansa qanday moddalar hosil bo'ladi?

- A) bu modda parchalanmaydi;
- B) xlorid kislota va atomar kislorod  
$$\text{HClO} = \text{HCl} + \text{O};$$
- C) xlorid kislota va molekular kislorod.  
$$2\text{HClO} = 2\text{HCl} + \text{O}_2.$$

784. Xlorli ohak (oqartiruvchi ohak) olish uchun ....

- A) so'ndirilgan ohakka xlor ta'sir ettirib  
$$\text{Ca(OH)}_2 + \text{Cl}_2 = \text{CaOCl}_2 + \text{H}_2\text{O};$$
- B) o'yuvchi natriya xlor ta'sir ettirib;  
$$6\text{NaOH} + 3\text{Cl}_2 = 5\text{NaCl} + 3\text{H}_2\text{O} + \text{NaClO}_3;$$
- C) o'yuvchi natriya xlor ta'sir ettirib;  
$$2\text{NaOH} + \text{Cl}_2 = \text{NaCl} + \text{H}_2\text{O} + \text{NaClO}.$$

785.  $\text{HClO} \longrightarrow \text{HClO}_2 \longrightarrow \text{HClO}_3 \longrightarrow \text{HClO}_4$  Bu qatorda kislotalarning kislotaliligi, oksidlovchiligi va barqarorligi qanday o'zgaradi?

- A) kamayadi, kamayadi, ortadi;
- B) ortadi, ortadi, ortadi;
- C) ortadi, kamayadi, ortadi.

786. Xlorning qaysi kislotasida eritma konsentratsiyasi 40%dan ortsa portlab parchalanadi?

- A) xlorat kislota –  $\text{HClO}_3$ ;

- B) xlorit kislota –  $\text{HClO}_3$  ;  
C) perxlorat kislota –  $\text{HClO}_4$ .

787. Bertole tuzi nima maqsadlarda ishlataladi?

- A) portlovchi moddalar tayyorlashda, laboratoriya da kislorod olishda;  
B) gugurt ishlab chiqarishda, portlovchi moddalar tayyorlashda, laboratoriya da kislorod olishda;  
C) gugurt ishlab chiqarishda, portlovchi moddalar tayyorlashda.

788. Florni tabiatdagi birikmalarini aniqlang.

- A)  $\text{Na}_3\{\text{AlF}_6\}$ - flyurit(plavik shpati),  $\text{CaF}_2$  – kriolit,  $3\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2\text{F} \cdot \text{CaF}_2$ , yoki  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_3\text{F}$  – fторapatit;  
B)  $3\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2\text{F} \cdot \text{CaF}_2$  yoki  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_3\text{F}$  – fторapatit;  
C)  $\text{CaF}_2$  – flyurit(plavik shpati),  $\text{Na}_3\{\text{AlF}_6\}$  – kriolit,  $3\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2\text{F} \cdot \text{CaF}_2$  yoki  $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_3\text{F}$  – fторapatit.

789. Brom qayerlarda uchraydi?

- A) xlor bilan yondosh tarzda minerallar holida, dengiz va yer osti suvlarida uchraydi;  
B) dengiz va yer osti suvlarida uchraydi;  
C) xlor bilan yondosh tarzda minerallar holida uchraydi.

790. Yod qayerlarda uchraydi?

- A) yer osti suvlarida, organik birikmalar tarkibida;  
B) dengiz o'tlari(laminariya), dengiz bulutlarida, yer osti suvlarida, organik birikmalar tarkibida;  
C) dengiz o'tlari(laminariya), dengiz bulutlarida.

791. Qaysi galogenni amalda erituvchilarda eritish qiyin?

- A) xlor;  
B) flor;  
C) fтор va xlor.

792. Fтор xona haroratida qaysi metallar bilan yonib reaksiyaga kirishadi?

- A) ishqoriy metallar, qo'rg'oshin, alumin;  
B) ishqoriy metallar, nikel, temir;  
C) ishqoriy metallar, qo'rg'oshin, temir.

793. Fтор qizdirilganda qaysi metallar bilan reaksiyaga kirishadi?

- A) barcha metallar bilan (hattoki oltin va platina bilan ham);  
B) barcha metallar bilan (oltin va platinadan tashqari);  
C) ishqoriy metallar, qo'rg'oshin, alumin.

794. Fтор qaysi metallmaslar bilan sovuqda ham portlab reaksiyaga kirishadi?


- A) vodorod, bor, uglerod, kremniy, fosfor, mishyak, surma, oltingugurt, brom, yod;  
B) vodorod, bor, uglerod, kremniy, fosfor, mishyak, surma;  
C) fosfor, mishyak, surma, oltingugurt, brom, yod.

795. Ftor qizdirilganda qaysi metallmaslar bilan ham reaksiyaga kirisha oladi?


- A) xlor, kripton, brom;
- B) xlor, kripton, ksenon;
- C) xlor, brom, ksenon.

796. Ftor atmosferasida qaysi murakkab moddalar yonib ketadi?

- A) ftor atmosferasida murakkab moddalar yonmaydi;
- B) ishqor va suv



- C) shisha va suv



797. HBr va HI hosil qilish uchun qanday sharoit kerak?

A) HBr olish uchun H<sub>2</sub> va Br<sub>2</sub> qizdiriladi, yod esa kuchli qizdirilganda vodorod bilan ta'sirlashadi;

B) HBr olish uchun H<sub>2</sub> va Br<sub>2</sub> qizdiriladi, yod esa kuchli qizdirilganda vodorod bromid bilan ta'sirlashadi;

C) HBr olish uchun H<sub>2</sub> va Br<sub>2</sub> qizdiriladi, yod esa kuchli qizdirilganda vodorod xlorid bilan ta'sirlashadi.

798. Ftor nima maqsadlarda ishlataladi?

A) yuqori haroratga chidamli surkov vositalari, kimyoviy reagentlarga chidamli plastmassalar (teflon), sovituvchi suyuqliklar (freon, xlodon) olishda;

B) yuqori haroratga chidamli surkov vositalari, kimyoviy reagentlarga chidamli plastmassalar (teflon);

C) sovituvchi suyuqliklar (freon, xlodon) olishda.

799. Brom nima maqsadlarda ishlataladi?

A) dorivor vositalar, bo'yoqlar;

B) dorivor vositalar, bo'yoqlar, kumush bromid ishlab chiqarishda;

C) antiseptik vositalar ishlab chiqarishda.

800. Inson organizmida brom yetishmaganda qanday kasalliklar kelib chiqadi?

A) asab kasalliklari, ichki kasalliklar;

B) teri kasalliklari;

C) asab kasalliklari.

801. 5%li yodning spirtdagи eritmasi nima maqsadda ishlataladi?

A) faqat antiseptik vosita;

B) faqat qon to'xtatuvchi vosita;

C) antiseptik va qon to'xtatuvchi vosita.

**Yodda tuting!!! Galogenlarning birikmalaridagi oksidlanish darajasi:**

- F ----- 0; -1;  
Cl ----- -1, 0; +1, +3, +5, +7;  
Br ----- -1; 0; +1; +5;  
J ----- -1, 0, +1, +5, +7.

**Eslatma!!!  $HClO$ ,  $HClO_2$ ,  $HClO_3$ ,  $HClO_4$  kislotalarning barchasi sp<sup>1</sup> gribidlangan.**

**Bilib oling!!! Ftor o'ta faol bo'lganligi uchun 217 °C suyultirilgan  $KF \cdot HF$  birikmasini elektroliz qilib olinadi.  $2KF + 2HF$  elektroliz  $H_2 + F_2 + 2K + 2F$**

802. Freon nima? Formulasini qanday?

- A) sovutgichlardagi suyuqlik.  $CF_2Cl_2$ ;  
B) isitkichlardagi suyuqlik.  $CF_2Cl_2$ ;  
C) sovutgichlardagi suyuqlik.  $CFCl_2$ .

803. Inson 1 sutkada qancha yod qabul qiladi?

- A) 3 mg;  
B) 4 mg;  
C) 2 mg.

804. Kislorod ftorid ( $OF_2$ ) qanday usul bilan olinadi?

- A) Kislorod ftorid ( $OF_2$ ) ni olib bo'lmaydi;  
B)  $2F_2 + 2NaOH(2\%) = 2NaF + OF_2 + H_2O$ ;  
C)  $F_2 + [O] = OF_2$ .

805. Galogenlarning vodorodli birikmalari qanday xossaga ega?

- A) uchuvchan moddalar;  
B) yonuvchan moddalar;  
C) suyuqliklar.

806. Galogenlar (suvda eriydi) vodorodli birikmalari suvda qanday eriydi va nimalarga aylanadi?

- A) suvda yomon eriydi, kislotalarga aylanadi;  
B) suvda umuman erimaydi;  
C) suvda yaxshi eriydi, kislotalarga aylanadi.

807. Galogenlarning atom massasi ortishi bilan agregat holati va qaynash temperaturasi qanday o'zgaradi?

- A) gaz, suyuq, suyuq, kristall. Ortadi;  
B) gaz, gaz, suyuq, kristall. Ortadi;  
C) gaz, gaz, suyuq, kristall, kamayadi. Ortadi.

808. Galogenlar yuqori oksidlarida necha valentli? (ftordan tashqari)

- A) VII valentli;

- B) V valentli;  
C) VI valentli.

809. Mg, Al, C xossalari bo'yicha qaysi elementlarga o'xshaydi?

- A) Mg → Ca; Al → B; C → Si;  
B) Mg → Ba; Al → Ca; C → Si;  
C) Mg → Ca; Al → Be; C → Si.

810. Inert gazlar molekulasi nechta atomdan iborat?

- A) 2 ta atomdan;  
B) 1 ta atomdan;  
C) 3 ta atomdan.

811. Inert gazlar vodorod va metallar bilan qanday birikmalmi hosil qiladi?

A) inert gazlar  $H_2$  bilan kislotalar hosil qiladi, metallar bilan reaksiyaga kirishmaydi;

B) inert gazlar  $H_2$  va metallar bilan reaksiyaga kirishganda kislotalar va tuzlar hosil qiladi;

C) inert gazlar  $H_2$  va metallar bilan reaksiyaga kirishmaydi.

812. Inert gazlar qanday birikmalar hosil qiladi?

- A) ayrimlari kislородли, ayrimlari fторли;  
B) ayrimlari kislородсиз, ayrimlari fторли;  
C) ayrimlari kislородли, ayrimlari bromli.

813. Kislороднинг birikmalaridagi oksidlanish darajasini aniqlang.

A)  $OF_2$  da +4,  $H_2O_2$  da -1,  $F_2O$ , da +1, qolgan birikmalarda esa -2ni namoyon qiladi;

B)  $OF_2$  da +2,  $H_2O_2$  da -1,  $F_2O_2$  da +1, qolgan birikmalarda esa -2ni namoyon qiladi;

C)  $OF_2$  da +2,  $H_2O_2$  da -1,  $F_2O_2$  da -1, qolgan birikmalarda esa -2ni namoyon qiladi.

814. Nima sababdan kislородда +4, +6 oksidlanish darajasi namoyon bo'lmaydi?

- A) tashqi energetik qavatida f-orbital mavjud emas;  
B) tashqi energetik qavatida d-orbital mavjud emas;  
C) tashqi energetik qavatida yetarli energiya mavjud emas.

815. Oltingugurt tabiatda qanday holatda uchraydi?

- A) tabiatda erkin holatda uchraydi;  
B) faqat birikmalar holatida;  
C) erkin va birikmalar holatida.

816. Oltingugurt ni tabiatdagi birikmalarini ko'rsating.

A) sulfidlar; pirit- $FeS_2$ , rux aldamasi-ZnS, mis yaltirog'i-Cu<sub>2</sub>S, qo'rg'oshin yaltirog'i-PbS, vodorod sulfid- $H_2S$ ; sulfatlar; gips- $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ , taxir tuz- $MgSO_4 \cdot 7H_2O$ , glauber tuzi  $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$ ;

B) sulfatlar; gips- $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ , taxir tuz- $\text{MgSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ , glauber tuzi  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ .

C) sulfidlar; pirit- $\text{FeS}_2$ , rux aldamasi- $\text{ZnS}$ , mis yaltirog'i- $\text{Cu}_2\text{S}$ , qo'rg'oshin yaltirog'i- $\text{PbS}$ , vodorod sulfid- $\text{H}_2\text{S}$ .

817. O'zbekistonda qazib olinayotgan mis rudalari tarkibida kislород группачасининг qaysи elementлари uchraydi?

- A) oltingugurt, selen, poloniy;
- B) oltingugurt, kislород, tellur;
- C) oltingugurt, selen, tellur.

818. Selen va tellur ..... olishda asosiy xomashyo hisoblanadi.

A) yarimo'tkazgichlar, quyosh batareyalari, termoregulatorlar, po'lat va shishaning maxsus navlarini;

B) yarimo'tkazgichlar, quyosh batareyalari, po'lat va plastmassa maxsus navlarini;

C) yarimo'tkazgichlar, quyosh batareyalari, termoregulatorlar, shisha va plastmassa maxsus navlarini.

*Yodda tuting!!! Oltingugurning tabiatda uch xil allotropik shakl ko'rinishi mavjud; rombik oltingugurt  $S_\varphi$  monoklinik  $S_\varphi$ , plastik oltingugurt  $S_\varphi$ . Oltingugurt tabiatda rombik oltingugurt ko'rinishida uchraydi.*

819. Rombik oltingugurning fizik xossalarni ko'rsating.

A) sariq tusli kristall modda,  $T_q = 440,5^\circ\text{C}$ ,  $T_s = 112,8^\circ\text{C}$ ,  $d = 2,2\text{gr/ml}$ , elektr tokini va issiqlikni yaxshi o'tkazadi;

B) sariq tusli kristall modda,  $T_q = 444,5^\circ\text{C}$ ,  $T_s = 112,8^\circ\text{C}$ ,  $d = 2\text{gr/ml}$ , elektr tokini va issiqlikni yomon o'tkazadi;

C) sariq tusli kristall modda,  $T_q = 444,5^\circ\text{C}$ ,  $T_s = 112,7^\circ\text{C}$ ,  $d = 2,2\text{gr/ml}$ , elektr tokini yaxhi va issiqlikni yomon o'tkazadi.

820. Oltingugurt qaysi erituvchilarda eriydi?

- A)  $\text{CS}_2$  va organik erituvchilarda;
- B)  $\text{CS}_2$  va qutbli erituvchilarda;
- C) faqat qutbsiz erituvchilarda.

*Bilib oling!!! Qattiq jismlarni suyuqlik sirtida galqib turishi flotatsiya hodisasi deyiladi.*

821. Plastik oltingugurt qanday hosil bo'ladi?

A) rombik oltingugurtni qaynash haroratigacha qizdirib, so'ng issiq suvgaga yuttiriladi;

B) rombik oltingugurtni qaynash haroratigacha qizdirib, so'ng iliq suvgaga yuttiriladi;

C) rombik oltingugurtni qaynash haroratigacha qizdirib, so'ng sovuq suvga yuttiriladi.

822. Oltingugurtni oksidlovchilik xossasini ifodalovchi kimyoviy jarayonni izohlang.

- A) vodorod sulfidni va metall sulfidlarni hosil bo'lishi;
- B) vodorod sulfidni hosil bo'lishi;
- C) metall sulfidlarni hosil bo'lishi.

823. Oltingugurt ni qaytaruvchilik xossasini ifodalovchi kimyoviy jarayonni izohlang.

- A) kislород, fтор, azot bilan ta'sirlanishi;
- B) kislород, fтор, xlor bilan ta'sirlanishi;
- C) kislород, fтор, xlor, azot bilan ta'sirlanishi.

824. Oltingugurt asosan nima maqsadlarda ishlataladi?

A) kauchukni vulkanlash, gugurt,  $H_2SO_4$ , dorilar,  $CS_2$ , qora porox, o'simliklarni zararkunandalardan himoya qiluvchi vositalar ishlab chiqarishda hamda qog'oz ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan  $Ca(HSO_3)_2$  ni olishda ishlataladi;

B) qog'oz ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan  $Ca(HSO_3)_2$  ni olishda ishlataladi;

C) kauchukni vulkanlash, gugurt,  $H_2SO_4$ , dorilar,  $CS_2$ , qora porox, o'simliklami zararkunandalardan himoya qiluvchi vositalar ishlab chiqarishda.

825.  $H_2S$  ni olinishini aniqlang.

A) metall sulfidlariiga  $HCl$  ta'sir ettirib:  $FeS + 2HCl = FeCl_2 + H_2S$ ;

B) metall sulfidlariiga  $HCl$  ta'sir ettirib hamda  $S$  ni 200-350°C gacha qizdirib vodorod gazi o'tkazish orqali:  $FeS + 2HCl = FeCl_2 + H_2S$ ;  $H_2 + S = H_2S$ ;

C)  $S$  ni 200-350°C gacha qizdirib vodorod gazi o'tkazish orqali:  $H_2 + S = H_2S$ .

*Bilib oling!!! Vodorod sulfid rangsiz, o'tkir (palag'da tuxumni eslatuvchi) hidli, zaharli gaz. Ts = - 60°C, Tq = -61,8°C, Il suvda 3,85gr eriydi (1 hajm suvda 2,5 hajm).*

826.  $H_2S$ ni kislородда yonish reaksiyalarini ko'rsating.

A) kislород yetarli bo'lsa:  $2H_2S + 3O_2 = 2SO_2 + 2H_2O$   
kislород yetarli bo'lмаганда:  $2H_2S + O_2 = 2S + 2H_2O$ ;

B) kislород yetarli bo'lмаганда:  $2H_2S + 3O_2 = 2SO_2 + 2H_2O$   
kislород yetarli bo'lganda:  $2H_2S + O_2 = 2S + 2H_2O$ ;


C) vodorod sulfid yonmaydi.

827. Vodorod sulfid suvda eritilganda qanday modda hosil bo'ladi.

- A) sulfid kislota ( $H_2SO_3$ );

- B) sulfid kislota ( $H_2S$ );  
 C) sulfat kislota ( $H_2SO_4$ ).

828. Vodorod sulfid va sulfid kislotani qaytaruvchilik xususiyatini ifodalovchi reaksiyani ko'rsating.



*Yodda tuting!!! Vodorod sulfid, sulfid kislota va suvda eriydigan sulfidlar uchun reaktiv  $Pb(NO_3)_2$  dir. Bunda qora cho'kma  $PbS$  hosil bo'ladi.*

829. Oltingugurtning necha xil oksidi bor va bular ichida qaysilar amaliy ahamiyatga ega?


- A) 3 xil;  $SO$ ,  $SO_2$ ,  $SO_3$ . Amaliy ahamiyatga moliklari  $SO_2$ ,  $SO_3$ ;  
 B) 2 xil;  $SO_2$ ,  $SO_3$ . Amaliy ahamiyatga moliklari  $SO_2$ ,  $SO_3$ ;  
 C) 3 xil;  $SO$ ,  $SO_2$ ,  $SO_3$ . Amaliy ahamiyatga moliklari  $SO$ ,  $SO_3$ .

830.  $SO_2$  tabiatda qanday moddalar tarkibida uchraydi?

- A) tabiiy ko'mirning yonishidan hosil bo'lgan gazlar tarkibida;  
 B) vulqon gazlarida va tabiiy ko'mirning yonishidan hosil bo'lgan gazlar tarkibida;  
 C) vulqon gazlarida.

831.  $SO_2$  laboratoriya qanday usulda olinadi?

- A) metall sulfidlarini havoda kuydirib olinadi:



- B)  $SO_2$  laboratoriya usulida olinmaydi;

- C) sulfit kislota tuzlariga xlorid yoki sulfat kislota ta'sir ettirib.




832.  $SO_2$  sanoatda qanday usulda olinadi?

- A) metall sulfidlarini havoda kuydirib olinadi:



- B) sulfid kislota tuzlariga xlorid yoki sulfat kislota ta'sir ettirib:



- C)  $SO_2$  sanoat usulida olinmaydi.

833.  $SO_2$  ni fizik xossasini aniqlang.

- A) rangsiz, o'tkir hidli gaz,  $+10^\circ C$  da suyuq,  $-73^\circ C$  da qattiq kislotali oksid;

- B) rangsiz, o'tkir hidli gaz,  $-10^\circ C$  da suyuq,  $-73^\circ C$  da qattiq kislotali oksid;

- C) rangsiz, o'tkir hidli gaz,  $-10^\circ C$  da suyuq,  $+73^\circ C$  da qattiq kislotali oksid.

834.  $\text{SO}_2$  asosli oksidlar va ishqorlar bilan ta'sirlashib qanday birikmalarni hosil qiladi?

- A) sulfitlarni  $\text{CaO} + \text{SO}_2 \rightarrow \text{CaSO}_3$ ;  $2\text{NaOH} + \text{SO}_2 \rightarrow \text{Na}_2\text{SO}_3 + \text{H}_2\text{O}$ ;
- B) sulfatlarni  $\text{CaO} + \text{SO}_2 + 0,5\text{O}_2 \rightarrow \text{CaSO}_4$ ;
- C) sulfidlarni  $2\text{CaO} + 4\text{SO}_2 \rightarrow 2\text{CaSO}_3 + 2\text{CaS} + 2\text{O}_2$ ;
- D)  $2\text{NaOH} + 2\text{SO}_2 \rightarrow \text{Na}_2\text{S} + \text{H}_2\text{S} + 2\text{O}_2$ .

835. Vodorod sulfid va oltingugurt (IV) — oksid orasidagi reaksiyadan qanday moddalar hosil bo'ladi?

- A) sulfid kislota  $\text{H}_2\text{S} + \text{SO}_2 + 0,5\text{O}_2 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_3 + \text{S}$ ;
- B) bu reaksiya sodir bo'lmaydi;
- C) oltingugurt va suv  $2\text{H}_2\text{S} + \text{SO}_2 \rightarrow 3\text{S} + 2\text{H}_2\text{O}$ .

836.  $\text{SO}_2$  ning ishlatalishini aniqlang.

A) organik bo'yoglarini rangsizlantirishda, mikroorganizmlarni o'ldirishda, quruq turshak tayyorlashda, ba'zi rezavor mevalarni yetiltirishda, suyuq  $\text{SO}_2$  neftini tozalashda;

B) noorganik bo'yoglarini rangsizlantirishda, mikroorganizmlarni o'ldirishda, quruq turshak tayyorlashda, ba'zi rezavor mevalarni yetiltirishda, suyuq  $\text{SO}_2$  neftini tozalashda;

C) organik bo'yoglarini rangsizlantirishda, mikroorganizmlami o'ldirishda, quruq turshak tayyorlashda.

837.  $\text{SO}_3$  sanoatda qanday olinadi?

- A)  $\text{H}_2\text{SO}_4 \xrightarrow{\text{koz}} \text{H}_2\text{O} + \text{SO}_3$ ;
- B)  $\text{SO}_2$  ni oksidlab  $2\text{SO}_2 + \text{O}_2 \xrightarrow{\text{koz}} 2\text{SO}_3$ ;
- C)  $\text{SO}_2$  ni sanoatda olib bo'lmaydi.

838.  $\text{SO}_3$  ning fizik xossalari ko'rsating.

A)  $-45^\circ\text{C}$  da qaynaydigan,  $17^\circ\text{C}$  da oq kristall massaga aylanadigan rangsiz suyuqlik.

B)  $45^\circ\text{C}$  da qaynaydigan,  $-17^\circ\text{C}$  da oq kristall massaga aylanadigan rangsiz suyuqlik.

C)  $45^\circ\text{C}$  da qaynaydigan,  $17^\circ\text{C}$  da oq kristall massaga aylanadigan rangsiz suyuqlik.

839.  $\text{SO}_3$  ni suv va sulfat kislota bilan ta'sirini aniqlang.

- A)  $\text{H}_2\text{O} + \text{SO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 + \text{Q}$   $\text{H}_2\text{SO}_4 + 2\text{SO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 2\text{SO}_3$ ;
- B)  $\text{H}_2\text{O} + \text{SO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 - \text{Q}$   $\text{H}_2\text{SO}_4 + \text{nSO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 \cdot \text{nSO}_3$ ;
- C)  $\text{H}_2\text{O} + \text{SO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 + \text{Q}$   $\text{H}_2\text{SO}_4 + \text{nSO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 \cdot \text{nSO}_3$ .

840.  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ni olinish sxemasini ko'rsating.

- A)  $\text{FeS}_2 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 \cdot \text{nSO}_3$        $\text{SO}_2 \longrightarrow \text{SO}_3 \longrightarrow \text{H}_2\text{SO}_4$ ;
- B)  $\text{Al}_2\text{S}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 \cdot \text{nSO}_3$        $\text{SO}_2 \longrightarrow \text{SO}_3 \longrightarrow \text{H}_2\text{SO}_4$ ;
- C)  $\text{FeS}_2 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 \cdot \text{nSO}_3$        $\text{SO} \longrightarrow \text{SO}_3 \longrightarrow \text{H}_2\text{SO}_4$ .

841. Sulfat kislotani fizik xossalari aniqlang.

A) rangsiz, hidsiz, og'ir moysimon suyuqlik, 98% li kons  $H_2SO_4$  ning zichligi 1.84 kv/sm<sup>3</sup>, suvda eritilganda juda ko'p issiqlik ajraladi. Shuning uchun ehtiyot bo'lish kerak;

B) rangsiz, hidsiz, og'ir moysimon suyuqlik, 96% li kons  $H_2SO_4$  ning zichligi 1.84 kv/sm<sup>3</sup>, suvda eritilganda juda ko'p issiqlik ajraladi. Shuning uchun ehtiyot bo'lish kerak;

C) rangsiz, hidsiz, og'ir moysimon suyuqlik, 96% li kons  $H_2SO_4$  ning zichligi 1.64 kv/sm<sup>3</sup>, suvda eritilganda juda ko'p issiqlik ajraladi. Shuning uchun ehtiyot bo'lish kerak.

842. Sulfat kislota eritmasi qanday tayyorlanadi?

A) suvga  $H_2SO_4$  ni aralashtirib turgan holda quyish kerak;

B)  $H_2SO_4$  ni suvga aralashtirib turgan holda quyish kerak;

C) ikkalasini ham teng quyish kerak.

*Bilib oling !!! Suyultirilgan sulfat kislota kislotalar uchun xos bo'lgan barcha xossalari o'zida namoyon qiladi.*

1. Metallarning faollik qatorida  $H_2$  dan oldin turgan metallar bilan ta'sirlashib tuz va vodorod hosil qiladi.  $Zn + H_2SO_4 \longrightarrow ZnSO_4 + H_2$

2. Asosli va amfoter oksidlar bilan ta'sirlashadi.



3. Asoslar bilan ta'sirlashadi.  $2NaOH + H_2SO_4 \longrightarrow Na_2SO_4 + 2H_2O$ .

4. Kuchsiz va uchuvchan tuzlari bilan ta'sirlashib yangi tuz va yangi kislota hosil bo'ladi.



*Konsentrangan sulfat kislota kuchli oksidlovchi bo'lgani uchun barcha metallar bilan reaksiyaga kirishadi. (Ag, Au, Pt va konsentratsiyasi 100 % ga yaqin bo'lganda Fe ga ta'sir etmaydi.)*

843.  $H_2SO_4$  ning metallar bilan ta'sirlashishida mahsulot chiqishi nimaga bog'liq?

A) kislotani konsentratsiyasiga va sharoitga;

B) metallarning faolligiga, kislotani konsentratsiyasiga va sharoitga;

C) metallarning faolligiga va sharoitga.

844. Konsentrangan sulfat kislota qanday holatda metallmaslar bilan ham reaksiyaga kirishadi?

A) kislota soviutilganda  $2H_2SO_4 + C \rightarrow CO_2 + 2SO_2 + 2H_2O$ ;

B) odatdagи sharoitda  $2H_2SO_4 + C \rightarrow CO_2 + 2SO_2 + 2H_2O$ ;

C) kislota qaynatilganda  $2H_2SO_4 + C \rightarrow CO_2 + 2SO_2 + 2H_2O$ .

845. Konsentrangan sulfat kislota qog'oz, yog'och, shakar va gazlamalar tarkibidagi sellulozadan suvni tortib olganda qanday moddaga aylanadi?

- A) ko'mirga: shakar +  $H_2SO_4 \rightarrow H_2SO_4 \cdot nH_2O + nC$  (ko'mir);
- B) yog'ochga:sovun +  $H_2SO_4 \rightarrow H_2SO_4 \cdot nH_2O + nC$  (yog'och);
- C) qurumga: shakar +  $H_2SO_4 \rightarrow H_2SO_4 \cdot nH_2O + nC$  (qurum).

846. Tiosulfat kislota formulasini ko'rsating.

- A)  $H_2S_2O_4$ ;  $H_2SO_3 + SO \rightarrow H_2S_2O_4$ ;
- B)  $H_2S_2O_3$ ;  $H_2SO_3 + S \rightarrow H_2S_2O_3$ ;
- C)  $H_2S_2O_8$ ;  $2H_2SO_3 + 1.5O_2 \rightarrow H_2S_2O_8 + H_2O$ .

847. Politonat kislotalar qanday formulaga ega bo'ladi?

- A)  $H_2S_xO_6$  bu yerda x 2 dan 5 gacha;
- B)  $H_2S_xO_6$  bu yerda x 3 dan 6 gacha;
- C)  $H_2S_xO_6$  bu yerda x 3 dan 7 gacha.

848. Pentationat kislotani ko'rsating.

- A)  $H_2S_6O_6$ ;
- B)  $H_2S_5O_5$ ;
- C)  $H_2S_5O_6$ .

849. Giposulfid kislota qanday tuzilishga ega?

- A)  $H_2S_2O_4$ ;
- B)  $H_2S_2O_3$ ;
- C)  $H_2S_3O_6$ .

850. Persulfat kislota qanday tuzilishga ega?

- A)  $H_2S_2O_8$ ;
- B)  $H_2S_2O_7$ ;
- C)  $H_2S_3O_6$ .


851. Sulfuril xlorid va tionil xloridni ko'rsating.

- A)  $SO_2Cl_2$  va  $SOCl_2$ ;
- B)  $SCl_4$  va  $SOCl_2$ ;
- C)  $SOCl_2$  va  $SO_2Cl_2$ .

852. Xlorsulfon kislotani ko'rsating.

- A)  $SO_2Cl_2$ ;
- B)  $SOCl_2$ ;
- C)  $SO_2OHCl$ .

*Yodda tuting !!! Sulfat kislota va uning tuzlari uchun bariy xlorid sifat reaktivini hisoblanadi.*



*Eslatma!!! BaSO<sub>4</sub> suvda ham nitrat kislotada ham erimaydigan og cho'kmadir!*

853.  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  nima maqsadlarda ishlataladi?

A) shisha va soda ishlab chiqarishda, tibbiyot va veterinariyada dori-darmon tayyorlashda;

B) tibbiyot va veterinariyada dori-darmon tayyorlashda;

C) shisha va soda ishlab chiqarishda.

854. Glauber tuzining formulasini ko'rsating.

A)  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ;

B)  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ ;

C)  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$ .

855. Tabiiy gipsning formulasini ko'rsating

A)  $\text{CaSO}_4 \cdot 0.5\text{H}_2\text{O}$ ;

B)  $\text{CaSO}_4 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ ;

C)  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ .

856. Tabiiy gips qizdirilganda ( $150^{\circ}\text{--}170^{\circ}\text{C}$  da)  $\frac{3}{4}$  qism suvni chiqarib qaysi moddani hosil qiladi?

A) alebastr  $\text{Ca SO}_4 \cdot \frac{1}{2}\text{H}_2\text{O}$ ;

B) alebastr  $\text{Ca SO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ;

C) alebastr  $\text{Ca SO}_4 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ .

857. Mis kuporosi nima maqsadlarda ishlataladi?

A) metallar sirtini mis bilan qoplashda va o'simlik zararkurandalariga qarshi kurashishda;

B) o'simlik zararkunandalariga qarshi kurashishda;

C) metallar sirtini mis bilan qoplashda.

858. Temir kuporosi ( $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ ) qanday modda va nima maqsadlarda ishlataladi?

A) to'q qizil rangli kristall modda, o'simlik zararkunandalariga qarshi kurashishda va turli bo'yoqlar tayyorlashda;

B) to'q yashil rangli kristall modda, o'simlik zararkunandalariga qarshi kurashishda va turli bo'yoqlar tayyorlashda;

C) to'q yashil rangli kristall modda, turli bo'yoqlar tayyorlashda.

*Eslatma!!! Sulfat kislotalening ishlatalish sohalari.*

*Bo'yoq moddalar va mineral o'g'itlar olishda, akkumulatorlarda elektrolit sifatida, turli sulfatlar va kislotalar olishda, neft mahsulotlarini tozalashda, portlovchi moddalarni va o'simliklarni himoya qilish vositalarini olishda, tibbiyotda.*

859. Sanoatda sulfat kislota ishlab chiqarish uchun xomashyolar qaysilar?

A) sof oltingugurt — S, temir(kolchedani(pirit) —  $\text{FeS}_2$ ), rangli metallarning sulfidlari —  $\text{CuS}$ ,  $\text{ZnS}$ ,  $\text{PbS}$ , vodorod sulfid —  $\text{H}_2\text{S}$ ;

B) rangli metallarning sulfidlari —  $\text{CuS}$ ,  $\text{ZnS}$ ,  $\text{PbS}$ , vodorod sulfid —  $\text{H}_2\text{S}$ ;

C) sof oltingugurt — S, temir kolchedani(pirit) —  $\text{FeS}_2$ .

860. Sanoatda sulfat kislota ishlab chiqarishga qadar bo'ladigan jarayonlar necha bosqichda?

A) 1 boqichda, Oltingugurt (IV) – oksidni oksidlاب, oltingugrt (VI) – oksid olish;

B) 2-bosqichda, Oltingugurt (IV) – oksid olish, Oltingugurt (IV) – oksidni oksidlاب, oltingugrt (VI) – oksid olish;

C) 3 boqichda, Oltingugurt (IV) – oksid olish, Oltingugurt(IV) – oksidni tozalash;

Oltingugurt (IV) – oksidni oksidlاب, oltingugrt (VI) – okid olish.

861. Xomashyolardan oltingugurt (IV) -oksid oling.

A)  $4 \text{FeS}_2 + 11\text{O}_2 \rightarrow 2\text{Fe}_2\text{O}_3 + 8 \text{SO}_2$ ,  $\text{Cu}_2\text{S} + 2\text{O}_2 \rightarrow \text{SO}_2 + 2\text{CuO}$ ,  
 $2\text{H}_2\text{S} + 3\text{O}_2 \rightarrow 2\text{SO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;

B)  $2\text{H}_2\text{S} + 3\text{O}_2 \rightarrow 2\text{SO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;

C)  $4 \text{FeS}_2 + 11\text{O}_2 \rightarrow 2\text{Fe}_2\text{O}_3 + 8 \text{SO}_2$ ,  $\text{Cu}_2\text{S} + 2\text{O}_2 \rightarrow \text{SO}_2 + 2\text{CuO}$ .

862. Sanoatda  $\text{H}_2\text{SO}_4$  olishda qaysi xomashyodan foydalaniladi?

A) temir sulfiddan –  $\text{FeS}$ ;

B) glauber tuzidan –  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ ;

C) piritdan –  $\text{FeS}_2$ .

*Yodda tuting!!! Piritni kuydirish reaksiyasining unumini oshirish uchun quyidagi amallarni bajarish kerak.*

*A) havo o'rniiga toza kisloroddan foydalanish. Bunda reaksiya tezlashadi, chunki reaksiyaga kirishuvchi moddalardan biri kislorodning konsentratsiyasi ortadi.*

*B) Pirit bo'laklarini maydalash. Bu piritning kislorod bilan to'qnashuv yuzasini kattalashtirib reaksiyani tezlashtiradi. Piritni juda maydalab bo'lmaydi, chunki  $\text{O}_2$  piritning zinchashgan qatlami orasiga kira olmaydi.*

863. Pirit kukun holida bo'lsa, kuydirish qaysi pirit asosida amalgalashadi?

A) yo'nalishdagi oqim prinsipdan foydalaniladi. Bunda kukun holdagi pirit yuqoridan pastga sochiladi, pastdan esa havo purkaladi. Piritning mayda zarrachalari bilan havoning aralashmasi qaynovchi qatlam deyiladi. Bu sharoitda piritni oksidlash uchun juda oz muddat kifoya;

B) qarshi oqim prinsipdan foydalaniladi. Bunda kukun holdagi pirit yuqoridan pastga sochiladi, pastdan esa havo purkaladi. Piritning mayda zarrachalari bilan havoning aralashmasi qaynovchi qatlam deyiladi. Bu sharoitda piritni oksidlash uchun juda oz muddat kifoya;

C) qarshi oqim prinsipdan foydalaniladi. Bunda kukun holdagi pirit pastdan yuqoriga sochiladi, pastdan esa havo purkaladi. Piritning mayda zarrachalari bilan havoning aralashmasi qaynovchi qatlam deyiladi. Bu sharoitda piritni oksidlash uchun juda oz muddat kifoya.

864. Kuydirish pechidan chiqayotgan  $\text{SO}_2$  qaysi qurilmalardan tozalanadi?

- A) siklon va elektrofiltr;
- B) siklon va filtr;
- C) filtr va elektrofiltr.

865. Quritish minorasida  $\text{SO}_2$  qaysi modda yordamida qanday modda-lardan tozalanadi?

- A) suyultirilgan sulfat kislota yordamida suv bug'laridan;
- B) konsentrangan sulfat kislota yordamida suv bug'laridan;
- C) konsentrangan, sulfat kislota yordamida.

866.  $\text{SO}_2$  ni oksidlashda  $400^{\circ}\text{C}$  da va  $600^{\circ}\text{C}$ da ...%  $\text{SO}_3$  hosil bo'lib, reaksiya elektrotermik bo'lgani uchun harorat ko'tarilgan sari  $\text{SO}_2$  ning unumi kamayadi.

- A) 96%;  $2\text{SO}_2 + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{SO}_3 + \text{Q}$ ;
- B) 98%;  $2\text{SO}_2 + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{SO}_3 + \text{Q}$ ;
- C) 73%;  $2\text{SO}_2 + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{SO}_3 + \text{Q}$ .

867.  $2\text{SO}_2 + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{SO}_3 + \text{Q}$  reaksiyada ajralgan issiqlik nimaga sarflanadi?

- A)  $\text{SO}_2$  isitish uchun;
- B)  $\text{SO}_2$  sovutish uchun;
- C)  $\text{SO}_2$  hosil qilish uchun.

868.  $\text{SO}_2$  ni oksidlashda qulay sharoit yaratish uchun muvozanatni o'ngga siljituvcchi omillarni ko'rsating.

- A) kontakt apparatiga kiritilayotgan  $\text{SO}_2$ ning tozaligi;
- B) harorat, katalizator, kontakt apparatiga kiritilayotgan  $\text{SO}_2$ ning tozaligi;
- C) harorat, katalizator.

869. Yuttirish minorasida  $\text{SO}_3$  nima yordamida yuttiriladi?

- A) 96%li  $\text{H}_2\text{SO}_4$ . Bunda quyidagi jarayon kechadi:  
 $\text{H}_2\text{O} + \text{SO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 + \text{Q}$        $\text{H}_2\text{SO}_4 + \text{nSO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 \cdot \text{nSO}_3$ ;
- B) 93%li  $\text{H}_2\text{SO}_4$ . Bunda quyidagi jarayon kechadi:  
 $\text{H}_2\text{O} + \text{SO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 + \text{Q}$        $\text{H}_2\text{SO}_4 + \text{nSO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 \cdot \text{nSO}_3$ ;
- C) 98%li  $\text{H}_2\text{SO}_4$ . Bunda quyidagi jarayon kechadi:  
 $\text{H}_2\text{O} + \text{SO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 + \text{Q}$        $\text{H}_2\text{SO}_4 + \text{nSO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{SO}_4 \cdot \text{nSO}_3$ .

870. Azot nechanchi yili, kim tomonidan kashf etilgan?

- A) 1772-yil shotland olimi Rezersford;
- B) 1777-yil shotland olimi Rezersford;
- C) 1787-yil shotland olimi Rezersford.

871. Azot molekulasi dagi bog'lar sonini aniqlang.

- A)  $\text{N}=\text{N}$ ; 1ta  $\pi$  bog' 2 ta sigma bog';
- B)  $\text{N}=\text{N}$ ; 2ta  $\pi$  bog' 1 ta sigma bog';
- C)  $\text{N}=\text{N}$ ; 3ta  $\pi$  bog'.

872. Azot tabiatda qanday holda uchraydi?

- A) erkin va birikma; erkin holda havoda hajm bo'yicha 78%, massa bo'yicha 75.5% bo'ladi;
- B) erkin va birikma; erkin holda havoda hajm bo'yicha 75,5%, massa bo'yicha 78% bo'ladi;
- C) erkin va birikma; erkin holda havoda hajm bo'yicha 21%, massa bo'yicha 75,5% bo'ladi.

873. Azotning tabiiy birikmalarini aniqlang?

- A)  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  – Chilida uchragani uchun chili selitrasи deyiladi. Oqsil tarkibida ham azot bor;
- B)  $\text{KNO}_3$  – Chilida uchragani uchun chili selitrasи deyiladi. Oqsil tarkibida ham azot bor;
- C)  $\text{NaNO}_3$  – Chilida uchragani uchun chili selitrasи deyiladi. Oqsil tarkibida ham azot bor.

874. Laboratoriya da azot qaysi moddalardan olinadi?

- A) so'ndirilgan ohak va ammoniy xloriddan;
- B) mis(II) oksid va ammiakdan  $3\text{CuO} + 2\text{NH}_3 \rightarrow 3\text{Cu} + 3\text{H}_2\text{O} + \text{N}_2$ ;
- C) laboratoriya da azot olinmaydi.

875. Sanoatda azot olish uchun qaysi xomashyodan foydalaniladi?

- A) havo, suyuq holatga o'tkaziladi. Buning uchun havo qattiq sovitiladi. Suyuq havo asta sekin bug'lanadi. Bunda 1-bo'lib azot uchib chiqadi, kislorod qoladi. Buning sababi azotning qaynash harorati kislorodnikidan past.  $\text{N}_2$  da  $T_{\text{q}} = -196^{\circ}\text{C}$ ,  $\text{O}_2$  da  $T_{\text{q}} = -183^{\circ}\text{C}$ . Demak havodan  $\text{N}_2$  va  $\text{O}_2$  olinadi;

B) havo, suyuq holatga o'tkaziladi. Buning uchun havo qattiq sovitiladi. Suyuq havo asta sekin bug'lanadi. Bunda 1-bo'lib azot uchib chiqadi, kislorod qoladi. Buning sababi azotning qaynash harorati kislorodnikidan past.  $\text{N}_2$  da  $T_{\text{q}} = -183^{\circ}\text{C}$ ,  $\text{O}_2$  da  $T_{\text{q}} = -196^{\circ}\text{C}$ . Demak havodan  $\text{N}_2$  va  $\text{O}_2$  olinadi;

C) havo, suyuq holatga o'tkaziladi. Buning uchun havo qattiq sovitiladi. Suyuq havo asta-sekin bug'lanadi. Bunda 1-bo'lib kislorod uchib chiqadi, kislorod qoladi. Buning sababi azotning qaynash harorati kislorodnikidan past.  $\text{N}_2$  da  $T_{\text{q}} = -196^{\circ}\text{C}$ ,  $\text{O}_2$  da  $T_{\text{q}} = -183^{\circ}\text{C}$ . Demak havodan  $\text{N}_2$  va  $\text{O}_2$  olinadi.

876. Azotning fizik xossasi qanday?

- A) rangsiz, hidsiz, ta'msiz gaz, suvda juda oz eriydi. 1 hajm suvda 0,01154 hajm  $\text{N}_2$  eriydi.  $T_s = -183^{\circ}\text{C}$ ;
- B) rangsiz, hidsiz, ta'msiz gaz, suvda juda oz eriydi. 1 hajm suvda 0,01154 hajm  $\text{N}_2$  eriydi.  $T_s = -210^{\circ}\text{C}$ ;
- C) rangsiz, hidsiz, ta'msiz gaz, suvda juda oz eriydi. 1 hajm suvda 0,01154 hajm  $\text{N}_2$  eriydi.  $T_s = -196^{\circ}\text{C}$ .

877. Tabiatda qaysi hodisa ro'y berganda azot (II) -oksid hosil bo'ladi?

A) momaqaldiroq paytida.  $\text{NO} \rightarrow$  past haroratda hosil bo'ladi;



B) momaqaldiroq paytida.  $\text{NO}_2 \rightarrow$  holatida hosil bo'ladi.



C) momaqaldiroq paytida.  $\text{NO} \rightarrow$  yuqori haroratda hosil bo'ladi.



878. Azot va vodoroddan ammiak hosil bo'lishda kerak bo'ladigan omillar.

A) katalizator, bosim, harorat.  $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3;$

B) katalizator, bosim.  $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3;$

C) katalizator, harorat.  $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3.$

879. Azot odatdagi sharoitda qaysi metall bilan reaksiyaga kirishadi?

A) kaliy:  $6\text{Na} + \text{N}_2 \rightarrow 2\text{Na}_3\text{N};$

B) litiy:  $6\text{Li} + \text{N}_2 \rightarrow 2\text{Li}_3\text{N};$

C) natriy:  $6\text{K} + \text{N}_2 \rightarrow 2\text{K}_3\text{N}.$

880. Azot qizdirilganda qaysi metallar bilan reaksiyaga kirishadi?

A) litiydan tashqari barchasi bilan;

B) metallar bilan ta'sirlashmaydi;

C) magniyidan tashqari barchasi bilan.

881. Azotning metallar bilan hosil qilgan birikmalari qanday nomlanadi?

A) nitritlar. M.:  $\text{Li}_3\text{N}$ —litiy nitrid,  $\text{Mg}_3\text{N}_2$ —magniy nitrid;

B) azotning metallar bilan birikmalari mavjud emas;

C) nitridlar. M.:  $\text{Li}_3\text{N}$ —litiy nitrid,  $\text{Mg}_3\text{N}_2$ —magniy nitrid.

882. Azotning vodorodli birikmalari ichida eng muhim va amaliy ahamiyatga ega bo'lgani qaysi?

A) ammiak —  $\text{NH}_3;$


B) gidrazin —  $\text{N}_2\text{H}_4;$

C) azid kislota —  $\text{HN}_3.$


883. Ammiak laboratoriyada qanday olinadi?

A) ammoniy tuzlariga suvda erimaydigan asos qo'shib olinadi.

$\text{NH}_4\text{Cl} + \text{CuOH} \rightarrow \text{CuCl} + \text{NH}_3 + \text{H}_2\text{O}$  shuningdek, ammoniy xloridga so'ndirilgan ohak aralashtirib qizdirish yo'li bilan ham olinadi.



B) ammoniy tuzlariga ishqor qo'shib olinadi.  $\text{NH}_4\text{Cl} + \text{NaOH} \rightarrow \text{NaCl} + \text{NH}_3 + \text{H}_2\text{O}$  shuningdek, ammoniy xloridga so'ndirilgan ohak aralashtirib qizdirish yo'li bilan ham olinadi.



C) azot va vodorodni o'zaro ta'sirlashtirib  $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3.$

884. Sanoatda ammiak qanday olinadi?

A) havodan olingan azot va suvni elektroliz qilib olingan vodorod reaksiyaga kiritiladi:  $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3;$

B) ammoniy tuzlariga ishqor qo'shib olinadi.  $\text{NH}_4\text{Cl} + \text{NaOH} \rightarrow \text{NaCl} + \text{NH}_3 + \text{H}_2\text{O}$  shuningdek, ammoniy xloridga so'ndirilgan ohak aralashtirib qizdirish yo'li bilan ham olinadi.



C) ammoniy tuzlariga suvda erimaydigan asos qo'shib olinadi.  $\text{NH}_4\text{Cl} + \text{CuOH} \rightarrow \text{CuCl} + \text{NH}_3 + \text{H}_2\text{O}$  shuningdek, ammoniy xloridga so'ndirilgan ohak aralashtirib qizdirish yo'li bilan ham olinadi.



885. Sanoatda ammiakni olishda reaksiyani o'ng tomonga ( $\text{NH}_3$  hosil bo'lisch) siljитish uchun nima qilish kerak?

A)  $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3 + \text{Q}$  bosimni kamaytirish haroratni pasaytirish kerak, past haroratda ammiak hosil bo'lishi kamayadi hamda katalizator qo'shish kerak ( $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{K}_2\text{O}$  va Fe aralashmasi);

B)  $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3 + \text{Q}$  bosimni oshirish, haroratni pasaytirish kerak, lekin, past haroratda ammiak hosil bo'lishi kamayadi hamda katalizator qo'shish kerak ( $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{K}_2\text{O}$  va Fe aralashmasi);

C)  $\text{N}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow 2\text{NH}_3 + \text{Q}$  bosimni oshirish, haroratni oshirish kerak, lekin, past haroratda ammiak hosil bo'lishi kamayadi hamda katalizator qo'shish kerak ( $\text{Al}_2\text{O}_3$ ,  $\text{K}_2\text{O}$  va Fe aralashmasi).

886. Ammiakning fizik xossasi qanday?

A) rangsiz, o'tkir hidli, havodan 1,7 marta yengil gaz. 1 hajm suvda 700 hajm ammiak eriydi, ammiak suvda juda yaxshi eriydi;

B) rangsiz, o'tkir hidli, havodan 1,5 marta yengil gaz. 1 hajm suvda 700 hajm ammiak eriydi, ammiak suvda juda yaxshi eriydi;

C) rangsiz, o'tkir hidli, havodan 1,7 marta yengil gaz. 1 hajm suvda 500 hajm ammiak eriydi, ammiak suvda juda yaxshi eriydi.

887. Ammiakning suvda erishdan qanday modda hosil bo'ladi?

A) ammoniy xlorid (novshadil spirti)  $\text{NH}_3 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{NH}_4\text{OH};$

B) ammoniy gidrati (novshadil spirti)  $\text{NH}_3 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{NH}_4\text{OH};$

C) ammoniy gidroksid (novshadil spirti)  $\text{NH}_3 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{NH}_4\text{OH}.$

888. Ammiakning kislotalari bilan ta'sirlashib tuz hosil qilishi qaysi mexanizm bo'yicha boradi?

A) donor-akeptor mexanizm:  $\text{NH}_3 + \text{HCl} \rightarrow \text{NH}_4\text{Cl}$ ,  $\text{NH}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{NH}_4\text{HSO}_4$ ,  $2\text{NH}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow (\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ;

B) radikal mexanizm  $\text{NH}_3 + \text{HCl} \rightarrow \text{NH}_4\text{Cl}$ ,  $\text{NH}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{NH}_4\text{HSO}_4$ ,  
 $2\text{NH}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow (\text{NH}_4)_2\text{SO}_4;$

C) ion mexanizm  $\text{NH}_3 + \text{HCl} \rightarrow \text{NH}_4\text{Cl}$ ,  $\text{NH}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{NH}_4\text{HSO}_4$ ,  
 $2\text{NH}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow (\text{NH}_4)_2\text{SO}_4.$

889. Ammiak yuqori haroratda qizdirilsa qanday modda hosil bo'ladi?

- A) azot va gidrozin;
- B) azot va vodorodni;
- C) azot va azid kislota.

890. Ammiak katalizatorsiz va katalizator ishtirokida yonsa qaysi moddani hosil qiladi?

A) katalizatorsiz azot va suv:  $4\text{NH}_3 + 3\text{O}_2 \rightarrow 2\text{N}_2 + 6\text{H}_2\text{O}$ ; Pt katalizator bo'lsa, azot(II) -oksid va suv:  $4\text{NH}_3 + 5\text{O}_2 \xrightarrow{\text{Pt}} 4\text{NO} + 6\text{H}_2\text{O}$ ;

B) katalizatorli azot va suv:  $4\text{NH}_3 + 3\text{O}_2 \rightarrow 2\text{N}_2 + 6\text{H}_2\text{O}$ ; Pt katalizatorsiz bo'lsa, azot(II) -oksid va suv:  $4\text{NH}_3 + 5\text{O}_2 \xrightarrow{\text{Pt}} 4\text{NO} + 6\text{H}_2\text{O}$ ;

C) ikkalasida ham azot(II) -oksid va suv:  $4\text{NH}_3 + 5\text{O}_2 \rightarrow 4\text{NO} + 6\text{H}_2\text{O}$ .

891. Ammoniy tuzlari deb nimaga aytildi?

A) ammoniy ioni va kislota qoldig'idan tashkil topgan murakkab moddalar:

$\text{NH}_4\text{Cl}$ ,  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ,  $(\text{NH}_3)_2\text{SO}_4$ ,  $(\text{NH}_3)_3\text{PO}_4$ ,  $(\text{NH}_3)_2\text{SO}_3$ ,  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ ,  $(\text{NH}_3)_2\text{HPO}_4$ ;

B) ammoniy ioni va kislota qoldig'idan tashkil topgan murakkab moddalar.

$\text{NH}_4\text{Cl}$ ,  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_3\text{PO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_3$ ,  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ ;

C) ammoniy ioni va asos qoldig'idan tashkil topgan murakkab moddalar.

$\text{NH}_4\text{Cl}$ ,  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_3\text{PO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_3$ ,  $\text{NH}_4\text{H}_2\text{PO}_4$ ,  $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ .

892. Ammoniy tuzlarning barchasi qaysi erituvchida yaxshi eriydi?

A) suvda;

B) suvda va organik erituvchilarda;

C) organik erituvchilarda.

893. Ammoniy tuzlarning barchasini o'ziga xos xossalari aniqlang?

A) qattiq qizdirilsa parchalanadi  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3 \rightarrow 2\text{NH}_3 + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$ , ishqor ta'sir ettirilsa ammiak ajraladi.  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_3 + 2\text{NaOH} \rightarrow 2\text{NH}_3 + 2\text{H}_2\text{O} + \text{Na}_2\text{SO}_3$ ;

B) odatdag'i sharoitda parchalanadi  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3 \rightarrow 2\text{NH}_3 + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$ , ishqor ta'sir ettirilsa ammiak ajraladi.  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_3 + 2\text{NaOH} \rightarrow 2\text{NH}_3\text{OH} + \text{Na}_2\text{SO}_3$ ;

C) qattiq qizdirilsa parchalanadi  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3 \rightarrow 2\text{NH}_3 + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$ , ishqor ta'sir ettirib ammiak olib bo'lmaydi.

894. Ammiak nima maqsadlarda ishlataladi?

A) ammoniyli tuzlar olishda, mineral o'g'it ishlab chiqarishda, dori-darmon, sovitgich apparatlarini tayyorlashda;

B)  $\text{HNO}_3$  ishlab chiqarishda, nitrat olishda, ammoniyli tuzlar olishda, mineral o'g'it ishlab chiqarishda, dori-darmon, sovitgich apparatlarini tayyorlashda;

C)  $\text{HNO}_3$  ishlab chiqarishda, nitrat olishda, ammoniyli tuzlar olishda.

895. Azotning kislородли биркмаларини аниqlang.

- A)  $\text{N}_2\text{O}$ -азот (II) -оксид,  $\text{NO}$ -азот (I) -оксид,  $\text{N}_2\text{O}_3$ -азот (III) -оксид,  $\text{NO}_2$ -азот, IV -оксид,  $\text{N}_2\text{O}_4$ -азот тошкисид,  $\text{N}_2\text{O}_5$ -азот(V) -оксид;  
B)  $\text{N}_2\text{O}$ -азот (I) -оксид,  $\text{NO}$ -азот (II) -оксид,  $\text{N}_2\text{O}_3$ -азот (III) -оксид,  $\text{NO}_2$ -азот (II) -оксид,  $\text{N}_2\text{O}_4$ -азот тошкисид,  $\text{N}_2\text{O}_5$ -азот(V) -оксид;  
C)  $\text{N}_2\text{O}$ -азот, (I) -оксид,  $\text{NO}$ -азот (II) -оксид,  $\text{N}_2\text{O}_3$ -азот (III) -оксид,  $\text{NO}_2$ -азот (IV) -оксид,  $\text{N}_2\text{O}_4$ -азот тошкисид,  $\text{N}_2\text{O}_5$ -азот (V) -оксид.

896. Azot (II) -оксиди qanday fizik xossalarga ega?

- B) fullerenni juda mayda kristallari to'plami;
- C) ohaktoshni juda mayda kristallari to'plami.

1043. Karbinda C atomlari qanday bog'langan?

- A) chiziqli tuzilishda;
- B) burchakli tuzilishda;
- C) tetraedr tuzilishda.

1044. Grafiteda C atomlari qanday bog'langan?

- A) 3 burchak hosil qilib;
- B) 6 burchak hosil qilib;
- C) 5 burchak hosil qilib.

1045. Karbinning nechta turi bor?

- A) Ita: poliin;
- B) Ita: polimetilen;
- C) 2ta: poliin, polimetilen.

1046. Poliin tuzilishi karbinda qanday bo'ladi?

- A) C atomlari qo'shbog'lar orqali bog'langan bo'ladi:  
 $=C=C=C=C=C=$  ( $=C=C=$ ) $n$ ;
- B) C atomli bog' va 3 bog'oralatib bog'langan bo'ladi: ( $-C\equiv C-C\equiv C-$ ) $n$ ;
- C) C atomli 2 bog' va 3 bog'oralatib bog'langan bo'ladi: ( $-C\equiv C-C=C-$ ) $n$ .

1047. Polimetilen tuzilishi karbinda qanday bo'ladi?

- A) C atomlari qo'shbog'lar orqali bog'langan bo'ladi:  
 $=C=C=C=C=C=$  ( $=C=C=$ ) $n$ ;
- B) C atomli bog' va 3 bog'oralatib bog'langan bo'ladi: ( $-C=C-C\equiv C-$ ) $n$ ;
- C) C atomli 2 bog' va 3 bog'oralatib bog'langan bo'ladi: ( $-C\equiv C-C=C-$ ) $n$ .

1048. Karbinning fizik xossalari qanday?

- A) kimyoviy inert, qora kukun, yarim o'tkazgich xossaga ega;
- B) kimyoviy faol, qora kukun, yarim o'tkazgich xossaga ega;
- C) kimyoviy inert, oq kukun, yarim o'tkazgich xossaga ega.

1049. Karbinning ( zichligi) va qattiqligi qanday?

- A) p ( zichligi) va qattiqligi grafitnikidan kichik, olmosnikidan yuqoriroq;
- B) p ( zichligi) va qattiqligi grafitnikidan ham olmosnikidan ham kichikroq;
- C) p ( zichligi) va qattiqligi grafitnikidan yuqori,olmosnikidan kichikroq.

1050. 80-yillar oxirida C ning qaysi allotropiyasi kashf qilindi?

- A) karbin;
- B) fulleren;
- C) grafit.

1051. Fulleren qanday hosil bo'ladi?

- A) gazsimon C ning qattiq holatga o'tishida oz miqdorda hosil bo'ladi;
- B) qattiq C ning gazsimon holatga o'tishida oz miqdorda hosil bo'ladi;
- C) gazsimon C ning suyuq holatga o'tishida oz miqdorda hosil bo'ladi.

1052. Fullerening shakli qanday?

- A) ikosaedr;
- B) tetraedr;
- C) oktaedr.

1053. Fulleren kristallida nechta C atomlari bor?

- A) 80 dan ortiq, ular 20 ta 5, 12 ta 6 burchakdan iborat ikosaedr hosil qiladi;
- B) 60 dan ortiq, ular 20 ta 6, 12 ta 5 burchakdan iborat ikosaedr hosil qiladi;
- C) 80 dan ortiq, ular 20 ta 6, 12 ta 5 burchakdan iborat ikosaedr hosil qiladi.

1054. Toshko'mir, neft, yonuvchi tabiiy gazlar nimadan hosil bo'ladi?

- A) o'simlik qoldig'idan;
- B) o'simlik va hayvon qoldig'idan;
- C) hayvon qoldig'idan.

1055. Tog' jinslari nima hisobiga nuraydi?

- A) havodagi CO<sub>2</sub> hisobiga, chunki u tog' jinslariga birikib, yana minerallar hosil qiladi;
- B) havodagi O<sub>2</sub> hisobiga, chunki u tog' jinslariga birikib, yana minerallar hosil qiladi;
- C) havodagi N<sub>2</sub> hisobiga, chunki u tog' jinslariga birikib, yana minerallar hosil qiladi.

1056. Yonuvchi slanes nimaning birikmasi?

- A) Si ning tabiiy birikmasi;
- B) S ning tabiiy birikmasi;
- C) C ning tabiiy birikmasi.

1057. Uglerodning yer qobig'idagi miqdori qancha?

- A) 0,023 %;
- B) 0,083 %;
- C) 0,23 %.

1058. Fotosintez jarayonida qanday reaksiya boradi?

- A) C<sub>6</sub>H<sub>12</sub>O<sub>6</sub> + 3O<sub>2</sub> → 6 CO + 6H<sub>2</sub>O;
- B) 6 CO<sub>2</sub> + 6H<sub>2</sub>O → C<sub>6</sub>H<sub>12</sub>O<sub>6</sub> + 6O<sub>2</sub>;
- C) 6 CO + 6H<sub>2</sub>O → C<sub>6</sub>H<sub>12</sub>O<sub>6</sub> + 3O<sub>2</sub>.

1059. O'zbekiston ko'mir zaxiralari bo'yicha Markaziy Osiyoda nechanchi o'rinda turadi?

- A) 4-o'rinda;
- B) 1-o'rinda;
- C) 2-o'rinda.

1060. Ko'mir qaysi konlarda qazib olinadi?

- A) Angren, Sharg'un, Boysun;
- B) Angren, Sharg'un, Boybichakon;
- C) Angren, Xo'jakon, Boysun.

1061. O'zbekistonda ko'mirning geologik zaxiralari qancha?

- A) milliard tonna;
- B) 2 milliard tonna;
- C) 4 milliard tonna.

1062. Adsorbsiya deb nimaga aytildi?

- A) 2 moddani o'zaro aralohishi;
- B) 2 modda yuzasiga 1-moddaning yutilishi;
- C) 1 modda yuzasiga 2-moddaning yutilishi.

1063. Adsorbent nima?

- A) yuzasidan yutilish jarayoni yuz beradigan modda;
- B) yutuvchi modda;
- C) dastlabki aralashuvchi modda.

1064. Absorbsiya deb nimaga aytildi?

- A) gaz yoki qattiq jismlar sirtida boshqa moddalarning molekulalari, atomlari, ionlarining yutilishi;
- B) suyuqlik yoki qattiq jismlar sirtida boshqa moddalarning molekulalari, atomlari, ionlarining yutilishi;
- C) suyuqlik yoki gaz jismlar sirtida boshqa moddalarning molekulalari, atomlari, ionlarining yutilishi.

1065. Sorbsiya nima?

- A) gaz moddaga tashqi muhitdan boshqa moddalarning yutilishi;
- B) qattiq moddaga tashqi muhitdan boshqa moddalarning yutilishi;
- C) moddaga tashqi muhitdan boshqa moddalarning yutilishi.

1066. O'z sirtiga boshqa moddalarni yutgan modda nima deyiladi?

- A) adsorbent;
- B) absorbent;
- C) absorbtiv.

1067. Yutilgan modda nima deyiladi?

- A) adsorbent;
- B) absorbent;
- C) absorbtiv.

1068. Adsorbsiya qobiliyati nimaga bog'liq?

- A) konsentratsiyaga;
- B) yuza maydoniga;
- C) haroratga.

1069. Ko'mirning adsorbentlik xossasini kuchaytirish uchun nima qilinadi?

- A) ko'mirni o'ta qizigan suv bug'i bilan faollashtiriladi;
- B) ko'mirni o'ta qizigan spirit bug'i bilan faollashtiriladi;
- C) ko'mirni sovuq suv bilan faollashtiriladi.

1070. Gaz yutuvchi moslamasini kim ixtiro qilgan?

- A) 1-jahon urushi yillari A.M. Berselius;
- B) 1-jahon urushi yillari N.O. Zelenskiy;
- C) 1-jahon urushi yillari A.M. Butlerov.

1071. Gaz yutuvchi moslamada havoni tozalash uchun nimadan foydalangan?

- A) aktivlashtirilgan grafitdan;
- B) nofaol ko'mirdan;
- C) aktivlashtirilgan ko'mirdan.

1072. Aktivlashtirilgan ko'mir yana qanday maqsadlarda foydalaniлади?

- A) inson organizmidagi zaharli moddalarni, oziq-ovqat mahsulotlarini (yog'-moyerlarni) tozalashda;
- B) inson organizmidagi zaharli moddalarni tozalashda;
- C) oziq-ovqat mahsulotlarini (yog'-moyerlarni) tozalashda.

1073. Aktivlangan ko'mir kimyo sanoatida qanday maqsadda foydalaniлади?

- A) yoqilg'i sifatida;
- B) olmos sifatida;
- C) katalizator sifatida.

1074. Uglerod qaysi galogen bilan odatdagи sharoitda reaksiyaga kirishadi?

- A)  $\text{Cl}_2$  bilan:  $\text{C} + 2\text{Cl}_2 \rightarrow \text{CCl}_4$ ;
- B)  $\text{F}_2$  bilan:  $\text{C} + 2\text{F}_2 \rightarrow \text{CF}_4$ ;
- C)  $\text{I}_2$  bilan:  $\text{C} + 2\text{I}_2 \rightarrow \text{CI}_4$ .

1075. C qizdirilganda nimalar bilan reaksiyaga kirishadi?

- A)  $\text{O}_2$ , S, N<sub>2</sub>, metallar, metall oksidlari;
- B) H<sub>2</sub>, S, N<sub>2</sub>, metallar, metall oksidlari;
- C) P, S, N<sub>2</sub>, metallar, metall oksidlari.

1076. Oraliq metall karbonatlarining (Ti, W, Fe N) qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?

- A) elektr o'tkazuvchanlik, qattiqlik, yuqori haroratga chidamlilik, kimyoviy barqarorlik;
- B) elektr o'tkazuvchanlik, yumshoq, yuqori haroratga chidamlilik, kimyoviy barqarorlik;

C) elektr o'tkazuvchanlik, qattiqlik, yuqori haroratga chidamsiz, kimyoviy beqarorlik.

1077. Kremniy karbid (karborund) ning fizik xossalarini aytинг?

- A) juda qattiq, suyuqlanmaydigan, kimyoviy barqaror modda;
- B) juda yumshoq, suyuqlanmaydigan, kimyoviy barqaror modda;
- C) juda qattiq, suyuqlanmaydigan, kimyoviy beqaror modda.

1078. Uglerodning qaytaruvchilik xossasini ko'rsating?

- A)  $C + 2C_2 \rightarrow CCl_4$ ;
- B)  $FeO + C \rightarrow Fe + CO$ ;
- C)  $3Fe + C \rightarrow Fe_3C$ .

1079. Uglerod oksidlarining olinishini ko'rsating.

- A)  $CO_2 + C \rightarrow 2CO - 160 \text{ kJ}$ ;
- B)  $C + O_2 \rightarrow CO_2 + 412 \text{ kJ}$ ;
- C)  $C + O_2 \rightarrow CO_2 + 412 \text{ kJ}$ ;  $CO_2 + C \rightarrow 2CO - 160 \text{ kJ}$ .

1080. CO ning fizik xossalarini sanang?

- A) rangsiz, hidsiz, o'ta zaharli, suvda yaxshi eriydigan, havodan yengil gaz;
- B) rangsiz, hidsiz, o'ta zaharli, suvda kam eriydigan, havodan yengil gaz;
- C) rangsiz, hidli, zaharsiz, suvda kam eriydigan, havodan yengil gaz.

1081. CO oksidlarning qaysi sinfiga mansub?

- A) befarq oksidlar;
- B) kislotali oksidlar;
- C) asosli oksidlar.

1082.  $2CO + O_2 = 2CO_2 + 572 \text{ kj}$ . CO qanday rangda alanga hosil qilib yonadi?

- A) yashil rang;
- B) rangsiz;
- C) moviy rang.

1083. CO ning qaytaruvchilik xossasiga misol keltiring?

- A)  $SnO + 2CO \rightarrow Sn + 2CO_2$ ;
- B)  $FeO + CO \rightarrow Fe + CO_2$ ;  $SnO + 2CO \rightarrow Sn + 2CO_2$ ;
- C)  $FeO + CO \rightarrow Fe + CO_2$ .

1084. Fosgen hosil bo'lish reaksiyasini yozing.

- A)  $CO + Cl_2 \rightarrow COCl_2$ ;
- B)  $SiO_2 + 3C \rightarrow SiC + 2CO$ ;
- C)  $CO + F_2 \rightarrow COF_2$ .

1085. Fosgen hosil bo'lish reaksiyadagi katalizator bo'lgan moddalarni aytинг.

- A) aktivlanmagan ko'mir;
- B) aktivlangan ko'mir;
- C) aktivlangan grafit.

1086.  $\text{CO}_2$  ning fizik xossalarini ayting?

- A) rangsiz, hidsiz, havodan og'ir, havoga nisbatan zichligi = 1,25gr/ml;
- B) rangli, hidli, havodan og'ir, havoga nisbatan zichligi=1,25gr/ml;
- C) rangli, hidsiz, havodan og'ir, havoga nisbatan zichligi=1,25gr/ml.

1087.  $\text{CO}_2$  qanday sharoitda suyuqlikka aylanadi?

- A) 5,76 · 106 Pa va 20°C da;
- B) 5,67 · 106 Pa va 20°C da;
- C) 5,67 · 106 Pa va 25°C da.

1088. Korbanat angidrid suyuqligi bug'langanda ko'p miqdorda issiqlik yutilishi hisobiga, nima hosil bo'ladi?

- A) quruq muz (qora qattiq massa);
- B) quruq gaz (oq qattiq massa);
- C) quruq muz (oq qattiq massa).

1089. Laboratoriyada  $\text{CO}_2$  qanday olinadi?

- A)  $\text{NaHCO}_3$  ga  $\text{HCl}$  ta'sir ettirib;
- B)  $\text{CaCO}_3$ , kalsiy karbonat (bo'r, ohaktosh bo'lakchalari, marmar) ga  $\text{HCl}$  ta'sir ettirib;
- C)  $\text{CaCO}_3$  ga  $\text{HNO}_3$  ta'sir ettirib.

1090. Sanoatda  $\text{CO}_2$  qanday olinadi?

- A) magniy karbonatni parchalab:  $\text{MgCO}_3 \rightarrow \text{MgO} + \text{CO}_2$ ;
- B) karbonat kislotani parchalab:  $\text{H}_2\text{CO}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2$ ;
- C) ohaktoshni kuydirib:  $\text{CaCO}_3 \rightarrow \text{CaO} + \text{CO}_2$ .

1091.  $\text{CO}_2$  uchun sifat reaksiyalarini ayting.

- A)  $\text{Ca(OH)}_2 + \text{CO}_2 \rightarrow \text{CaCO}_3 \downarrow + \text{H}_2\text{O}$ ;
- B)  $2\text{NaOH} + \text{CO}_2 \rightarrow \text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{H}_2\text{O}$ ;
- C)  $\text{Ba(OH)}_2 + \text{CO}_2 \rightarrow \text{BaCO}_3 \downarrow + \text{H}_2\text{O}$ .

1092. Qaysi modda  $\text{CO}_2$  da yonadi?

- A) Mg (magniy) :  $2\text{Mg} + \text{CO}_2 \rightarrow 2\text{MgO} + \text{C}$ ;
- B) Ca (kalsiy) :  $2\text{Ca} + \text{CO}_2 \rightarrow 2\text{CaO} + \text{C}$ ;
- C) Ba (bariy) :  $2\text{Ba} + \text{CO}_2 \rightarrow 2\text{BaO} + \text{C}$ .

1093.  $\text{CO}_2$  qanday maqsadlarda ishlataladi?

- A) sanoatda soda (ichimlik sodasi, kir sodasi, texnik soda) olishda sifat reaksiyalarida;
- B) sanoatda soda (ichimlik sodasi, kir sodasi, texnik soda) olishda, kislotalar sintezida, sovun olishda;
- C) sanoatda soda (ichimlik sodasi, kir sodasi, texnik soda) olishda kislotalar sintezida,yong'inni o'chirishda, gazlangan ichimliklar tayyorlashda.

1094. Oziq-ovqat mahsulotlarini sovuqda saqlashda nimalardan foydalilaniladi?

- A) quruq muzdan ( $\text{CO}_2$ );

- B) quruq gaz ( $\text{CO}$ );  
C) quruq muz ( $\text{H}_2\text{O}$ ).

1095.  $\text{CO}_2$  tabiatda qanday hosil bo'ladi?

- A) organik birikmalarni yonish jarayonida: barglarni yonishida;  
B) tabiatda hayvon va o'simliklar nafas olishida organik qoldiqlarning chirishida, yonish jarayonida;  
C) neft mahsulotlari yonish jarayonida.

1096.  $\text{H}_2\text{CO}_3$  nimalar bilan ta'sirlashadi?

- A) faqat ishqoriy va ishqoriy-yer metallari oksidlari va tuzlari bilan;  
B) faqat ishqoriy va ishqoriy-yer metallari gidroksidlari bilan;  
C) faqat ishqoriy va ishqoriy-yer metallari oksidlari va gidroksidlari bilan.

1097. Karbonat va gidrokarbonatlarni boshqa tuzlardan farqlash uchun nima qilinadi?

- A) karbonat kislota tuzlariga kuchli kislotalar ta'sir qilinadi;  
B) karbonat kislota tuzlariga kuchsiz kislotalar ta'sir ettiriladi;  
C) karbonat kislota tuzlariga ishqor ta'sir ettiriladi.

1098.  $\text{CaCO}_3 \rightarrow \text{CaO} + \text{CO}_2 \uparrow$  ushbu reaksiya oxirigacha borishi uchun nima qilish kerak?

- A)  $\text{CaCO}_3$  miqdori ko'paytiriladi;  
B) reaksiyon muhitdan  $\text{CO}_2$  chiqarib turiladi;  
C)  $\text{CaO}$  miqdori ko'paytiriladi.

1099.  $\text{CaCO}_3$  minerallarini aytинг.

- A) ohaktosh, bor, marmar, silvinit, stalaktitlar;  
B) malaxit, marmar, bor, stalaktitlar, kainit;  
C) ohaktosh, bor, marmar, stalagmit, stalaktitlar.

1100. Tog'larda asosan qaysi minerallar uchraydi?

- A) ohaktosh ( $\text{CaCO}_3$ );  
B) siderit ( $\text{FeCO}_3$ );  
C) potash ( $\text{K}_2\text{CO}_3$ ).

1101.  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ -suvsizlantirilgan sodaning ishlatalishini aytинг?

A) shisha,sovun olishda, soda olishda, qog'oz to'qimachiligida, neft sanoatida;  
B) shisha,sovun olishda, qog'oz to'qimachiligida, neft sanoatida, turmushda;  
C) shisha, turmushda, ichimlik sodasi olishda, neft sanoatida.

1102. Ichimlik sodasi  $\text{NaHCO}_3$ , qanday maqsadlarda ishlataladi?

A) tibbiyotda, non mahsulotlari tayyorlashda, o't o'chirish balonlarini zaryadlashda;  
B) shisha,sovun, tibbiyotda, non mahsulotlari tayyorlashda;  
C) o't o'chirish kolonnalarida, tibbiyotda,sovun olishda, qog'oz tayyorlashda.

1103.  $H_2CO_3$  qachon mavjud bo'la oladi?

- A) faqat organik eritmalarda;
- B) suvda mavjud bo'la oladi;
- C) faqat suvli eritmalarda.

1104. Ohaktoshga  $CO_2$ , va  $H_2O$  qanday ta'sir qiladi?

- A)  $CaCO_3 + CO_2 + H_2O \rightarrow Ca(HCO_3)_2$ ;
- B) bu moddalar ta'sir qilmaydi;
- C)  $CaCO_3 + 2H_2O \rightarrow Ca(OH)_2 + H_2CO_3$ .

1105.  $Ca(HCO_3)$  qanday qilib  $CaCO_3$ -ga aylanadi?

- A) kislota ta'sir ettirib;
- B) harorat ta'sirida;
- C) suv ta'sirida.

1106. Kremniy yer qobig'ida necha % ni tashkil etadi?

- A) 2, 76%;
- B) 25,6%;
- C) 27,6 %.

1107. Kremniy tabiatda qanday holatda uchraydi?

- A) faqat birikmalar holida;
- B) erkin holda, birikmalar tarkibiga kirmaydi;
- C) qattiq holatda.

1108. Kremniyning birikmalaridan tashkil topgan tog' jinslarining nomini aytинг.

- A) greyslar, dala shpati, bozalitlar;
- B) gillar, greyslar, dala shpati;
- C) greyslar, granitlar, bozalitlar.

1109. Kremniyning minerallari qaysilar?

- A) ametis, qum tuproq( $SiO_2$ ), greyslar;
- B) kaolin( $Al_2O_3 \cdot SiO_2 \cdot 2H_2O$ ), grafitlar, qum;
- C) kvars, qum, gil, qumtuproq ( $SiO_2$ ) kaolin ( $Al_2O_3 \cdot SiO_2 \cdot 2H_2O$ ), dala shpati ( $K_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$ ).

1110. Kremniy qanday olinadi?

- A)  $H_2SiO_3$ , parchalab;
- B)  $SiO_2 + 2Hg \rightarrow 2HgO + Si$  yoki  $SiO_2 + 2C \rightarrow 2CO + Si$ ;
- C)  $SiO_2$  ni parchalab.

1111. Kremniy qanday sohalarda ishlataladi?

- A) kremniyli po'latlar, karborund keramika, fotoelementlar, sxemalar tayyorlashda;
- B) kremniyli po'latlar, quyosh batareyasini olishda;
- C) keramika, fotoelementlar, yarimo'tkazgich.

1112. Po'lat tarkibida necha % Si bo'lganda oson magnitlanish xususiyatiga ega bo'ladi?

- A) 5%;
- B) 15%;
- C) 4 %.

1113. Transport, dvigatel, generatorlar tayyorlanadigan po'latning tarkibida necha % Si bo'ladi?

- A) 14%;
- B) 6%;
- C) 4%.

1114. 1,6% Kremniy li po'lat qanday xususiyatga ega bo'ladi?

- A) kislotaga chidamli;
- B) korroziyaga chidamli;
- C) ishqor va noqulay sharoitga chidamli.

1115. Radio va elektrotexnikada yarim o'tkazgich sifatida nimalardan foydalaniladi?

- A) amorf holidagi kremniydan;
- B) birikma holidagi kremniy tuzlaridan;
- C) kristall holidagi toza kremniydan.

1116. Kosmik qurilmadagi energiya manbai nima?

- A) Si li elektrodlar;
- B) Si li yarimo'tkazgichlar;
- C) Si li quyosh batareyasi.

1117. Kristall kremniyning fizik xossalari qanday?

A) kristall kremniy kulrang-po'lat rangli, metall yaltiroqligiga ega.  
t° suy-1420°C; t° qay-2355°C;  
B) kristall kremniy parchalanish, degidrogenlanish, sikllanish, izomerlanish xususiyatlari ega;

- t° suy-1420°C      t° qay-2355°C;  
C) kristall kremniy kulrang-po'lat rangli, metall yaltiroqligiga ega  
t° suy-1420°C      t° qay- 2355°C.

1118. Kremniyning nechta izotopi bor?

- A) 11 ta ( $24 \rightarrow 34$ );
- B) 10 ta ( $24 \rightarrow 33$ );
- C) 12 ta ( $24 \rightarrow 35$ ).

1119. Kremniy qizdirilganda nimalar bilan reaksiyaga kirishadi?

- A) faqat ishqoriy va ishqoriy-yer metallari va Mn, Fe bilan;
- B) O<sub>2</sub>, Cl<sub>2</sub>, Br<sub>2</sub>, S;
- C) amfoter metallar bilan.

1120. Qizdirilganda kremniy qaysi metallar bilan reaksiyaga kirishadi?

- A) Mg, Ca, Cr, Mn, Fe;
- B) Mg, Cu, Cr, Mn, Fe;
- C) Mg, Ca, Cu, Mn, Fe.

1121. Kremniyning qaysi birikmasi havoda o'z-o'zidan alangalanib ketadi?

- A)  $\text{SiF}_4$ :  $\text{SiF}_4 + 2\text{O}_2 \rightarrow \text{SiO}_2 + 2\text{F}_2\text{O}$ ;
- B) bunday birikma mavjud emas;
- C)  $\text{SiH}_4$ :  $\text{SiH}_4 + 2\text{O}_2 \rightarrow \text{SiO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ .

1122. Kremnovodorodlarda kremniy nechtagacha bo'lishi mumkin? Ularning umumiyligi formulasi?

- A)  $\text{SiH}_{2n+2}$ ,  $n < 8$ ;
- B) uglevodorodlardagi uglerod soni bilan bir xil;
- C) kremnovodorodlarda Si 8 tagacha bo'ladi.

1123. Kremniy qaysi kislotalar bilan ta'sirlashadi?

- A) kislotalar bilan ta'sirlashmaydi;
- B) faqat  $\text{HNO}_3$  bilan ta'sirlashadi;
- C) faqat HF bilan ta'sirlashadi.

1124. Tog' xrustalli deb ataladigan modda nomini ayting.

- A) dala shpati-rangli amorf tuzilishli;
- B) kvars-tiniq, rangsiz kristall;
- C) kvars-qizg'ish rangli, kristall tuzilishli.

1125. Kvarsning shakl o'zgarish mahsulotlarini ayting.

- A) kremen, kaolin, agat, qum;
- B) yashma, agat, kremen, dala shpati;
- C) kremen, agat, yashma, qum.

1126.  $\text{SiO}_2$  qaysi kislota bilan ta'sirlashadi?

- A) HF:  $4\text{HF} + \text{SiO}_2 \rightarrow 2\text{H}_2\text{O} + \text{SiH}_4 \uparrow$  (gaz);
- B) HCl:  $2\text{HCl} + \text{SiO}_2 \rightarrow \text{SiCl}_2 + \text{H}_2 + \text{O}_2$ ;
- C) HCl:  $4\text{HCl} + \text{SiO}_2 \rightarrow \text{SiCl}_4 + 2\text{H}_2\text{O}$ .

1127. Kvarsning suyuqlanish t°C si?

- A) 1420°C atrofida;
- B) 2355°C atrofida;
- C) 1500°C atrofida.

1128. Suyuq shisha tayyorlash uchun Si ning qaysi birikmasidan foydalaniladi?

- A)  $\text{Na}_2\text{SiO}_3$ ,  $\text{K}_2\text{SiO}_3$ ;
- B)  $\text{Na}_2\text{SiO}_3$ ,  $\text{SiO}_2$ ;
- C)  $\text{CaSiO}_3$ ,  $\text{K}_2\text{SiO}_3$ .

1129. Silikat sanoati necha yo'nalishga bo'linadi?

A) 4 ta: shisha, kvars, keramika, sement ishlab chiqarish;

B) 3 ta: shisha ishlab chiqarish, sement ishlab chiqarish, keramika (sopol buyumlar);

C) 3ta: shisha, kvars, keramika.

1130. Oddiy oynaning formulasini yozing?

A)  $\text{CaO} \cdot \text{Na}_2\text{O} \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ ;

B)  $\text{CaO} \cdot \text{K}_2\text{O} \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ ;

C)  $\text{CaO} \cdot \text{Na}_2\text{O} \cdot 6\text{SiO}_2$ .

1131. Oddiy oyna qaysi reaksiya yordamida olinadi?

A)  $\text{CaCO}_3 + \text{Na}_2\text{CO}_3 + 6\text{SiO}_2 \rightarrow \text{CaO} \cdot \text{Na}_2\text{O} \cdot 6\text{SiO}_2 + 2\text{CO}_2$ ;

B)  $\text{K}_2\text{O} \cdot \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 6\text{SiO}_2 + \text{CO}_2 + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{SiO}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O} + \text{K}_2\text{CO}_3 + 4\text{SiO}_2$ ;

C)  $\text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{MgCO}_3 + 6\text{SiO}_2 \rightarrow \text{MgO} \cdot \text{Na}_2\text{O} \cdot 6\text{SiO}_2 + 2\text{CO}_2$ .

1132. Yuqoridagi reaksiyada  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  o'rniga  $\text{K}_2\text{CO}_3$  qo'shilsa qanday shisha olinadi?

A) kimyoiy idishlar uchun pishiq, oson suyuqlanuvchan idish;

B) avtomashinalar oynalatini tayyorlash uchun, qiyin suyuqlanuvchan shisha;

C) kimyoiy idishlar tayyorlash uchun pishiq, qiyin suyuqlanuvchan shisha.

1133. Xrustall shisha olish uchun qanday moddalardan foydalaniladi?

A)  $\text{K}_2\text{CO}_3$  va  $\text{PbO}$ ;

B)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  va  $\text{PbO}$ ;

C)  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  va  $\text{CaO}$ .

1134. Ko'k shisha olish uchun qanday moddalar qo'shiladi?

A)  $\text{Cr}_2\text{O}_3$ ;

B)  $\text{CaO}$ ;

C)  $\text{FeO}$ .

1135.  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  va  $\text{FeO}$  shishaga qanday rang beradi?

A) yashil va kulrang;

B) och yashil va to'q yashil;

C) yashil va to'q yashil.

1136.  $\text{Cu}_2\text{O}$  shishaga qanday rang beradi?

A) pushti;

B) ko'k;

C) qizil.

1137. Oltin qo'shilsa qanday shisha olinadi?

A) rubin shisha;

B) sariq shisha;

C) qimmatbaho xrustall shisha.

1138. Rubin shishanining o'ziga xos xususiyati nimada?

- A) tindal konusini hosil qiladi;
- B) ko'k va qizil nurlarni o'tkazadi;
- C) faqat qizil nurni o'tkazadi.

1139. Sement ishlab chiqarish uchun xomashyo nima?

- A) ohaktosh va klinker;
- B) ohaktosh va giltaproq;
- C) giltaproq va klinker.

1140. Xomashyo tarkibidan suv va CO<sub>2</sub> chiqarib yuborilgandan so'ng qolgan moddalar nima deyiladi?

- A) klinker yoki gil tuproq;
- B) keramik klinker;
- C) klinker.

1141. Nimani kukunga aylantirilib sement olinadi?

- A) klinkerni;
- B) ishlov berilgan giltaproqni;
- C) ishlov berilgan keramikni.

1142. Keramik buyumlar deb nimaga aytildi?

- A) kaolindan tayyorlangan buyumlarga;
- B) gildan tayyorlangan buyumlarga;
- C) asbestdan tayyorlangan buyumlarga.

1143. Sopol tayyorlash uchun qanday xomashyo kerak bo'ladi?

- A) giltaproq, kaolin, qum, bo'r, dolomit;
- B) giltaproq, kaolin, bishofit, dolomit;
- C) qum, bo'r, ametis.

1144. Nozik sopollar tayyorlash uchun asosiy xomashyoga nimalar qo'shiladi?

- A) talk, magniy oksid, kaolin;
- B) talk, glinozem, titan birikmlari;
- C) glinozem, titan birikmlari, giltaproq.

1145. Sopol tayyorlash necha bosqichda bo'ladi?

- A) 1) maqsadga muvofiq homashyo tayyorlash;
- 2) loy (sopol massasi) tayyorlash
- 3) qoliplarga quyish
- 4) quritish
- 5) kuydirish;
- B) 1) maqsadga muvofiq xomashyo tayyorlash;
- 2) loy (sopol massasi) tayyorlash
- 3) kuritish
- 4) qoliplarga quyish

- 5) kuydirish;  
 C) 1) maqsadga muvofiq xomashyo tayyorlash  
 2) loy (sopol massasi) tayyorlash  
 3) kuydirish  
 4) quritish  
 5) qoliplarga quyish.

1146. Keramik buyumlar suv o'tkazmaydigan bo'lishi uchun nima qilinadi?

- A)  $\text{CaCl}_2$  kuydirish pechiga tashlanib, buyumlar yuzasi glazur bilan qoplanadi;  
 B) osh tuzi kuydirish pechiga tashlanib, buyumlar yuzasi glazur bilan qoplanadi;  
 C) ichimlik sodasi kuydirish pechiga tashlanib, buyumlar yuzasi glazur bilan qoplanadi.

1147. CO da C va O ni valentligi nechaga teng?

- A) 3 ga teng.  $\text{C}=\text{O}$  (1 tasi donor – akseptor bog');  
 B) 2 ga teng.  $\text{C}=\text{O}$  (1 tasi donor – akseptor bog');  
 C) 1 ga teng.  $\text{C}=\text{O}$  (2 tasi donor – akseptor bog').

1148. CO sanoatda qanday yo'l bilan olinadi?

- A)  $2\text{C}+\text{O}_2 \rightarrow 2\text{CO}-160\text{KJ}$ ;  
 B)  $\text{CO}_2 + \text{C} \rightarrow 2\text{CO}-160\text{KJ}$ ;  
 C)  $2\text{C}+2\text{NO} \rightarrow 2\text{CO}+\text{N}_2-160\text{KJ}$ .

1149. CO ni laboratoriya da qanday yo'l bilan olinadi?

- A)  $\text{HCOOH} \xrightarrow{\text{H}_2\text{SO}_4} \text{CO} + \text{H}_2\text{O}$   
 $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \xrightarrow{\text{H}_2\text{SO}_4} \text{CO} + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$ ;  
 B)  $2\text{C}+\text{O}_2 \rightarrow 2\text{CO}-160\text{KJ}$ ;  
 C)  $\text{CO}_2 + \text{C} \rightarrow 2\text{CO}-160\text{KJ}$ .

*Bilib oling!!! Is gazi qondagi gemoglobin bilan oson birikib (kislorodga nisbatan), organizmni kislorod bilan ta'minlanishini qiyinlashtiradi. Natijada odam zaharlanadi.*

1150. Kalsinatsiyalangan soda nima?  
 A) tarkibida suv tutadigan  $\text{K}_2\text{CO}_3$ ;  
 B) tarkibida suv tutmaydigan  $\text{CaCO}_3$ ;  
 C) tarkibida suv tutmaydigan  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ .

1151. Generator gazi qanday olinadi?

- A)  $\text{CO}_2 + \text{C} \rightarrow 2\text{CO}$ ;  
 B)  $\text{ZnO} + \text{C} \rightarrow \text{Zn} + \text{CO}$ ;  
 C)  $2\text{C} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{CO}$ .

1152. Suv gazi qanday olinadi?

- A)  $\text{CO} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{CO}_2 + \text{H}_2$ ;
- B)  $\text{C} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{CO} + \text{H}_2$ ;
- C)  $\text{S} + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{SO}_2 + 2\text{H}_2$ .

1153. Koks gazi tarkibi qanday?

- A)  $\text{H}_2$ -59%,  $\text{CH}_4$ -25%,  $\text{CO}$ -6%,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{O}_2$  - 7% va boshqa gazlar - 3%
- B)  $\text{H}_2$ -59%,  $\text{CH}_4$ -20%,  $\text{CO}$ -11%,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{N}_2$ ,  $\text{O}_2$  - 7% va boshqa gazlar-3%;
- C)  $\text{H}_2$ -59%,  $\text{CH}_4$ -25%,  $\text{CO}$ -6%,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{N}_2$ ,  $\text{O}_2$  - 7% va boshqa gazlar-3%.

1154. C ni qaysi birikmasi organik moddalar uchun yaxshi erituvchi hisoblanib, o'simliklarni zararkunandalarga qarshi kurashuvchi vosita ham hisoblanadi?



- A)  $\text{CH}_4$ ;
- B)  $\text{CCl}_4$ ;
- C)  $\text{CS}_2$ .

*Eslatma!!! Barcha gidrokarbonatlar, ishqoriy metallarning va ammoniyning karbonatlari suyda yaxshi eriydi, qolgan karbonatlar suvda erimaydi.*

*Bilib oling!!! Qizdirilganda ishqoriy metallari karbonatlaridan tashqari barcha karbonatlar  $\text{CO}_2$  hosil qilib parchalanadi. Parchalanish metallning aktivligiga hog'liq. Qancha metall nosaol bo'lsa, parchalanish jarayoni shuncha oson kechadi.*

1155. Kremniyni ugleroddan farq qiluvchi asosiy kimyoviy xossasi?


- A) ishqorlarning suyuqlanmasi va eritmalar bilan ta'sirlashadi:



- B) metall oksidlari bilan ta'sirlashadi:



- C) faqat ishqor eritmasi bilan ta'sirlashadi:



1156.  $\text{SiO}_2$  ni tetraedrlar joylashish tartibiga qarab bir-biridan farq qiluvchi 4 xil holatni sharhlang?

- A) a) kvars - geksoganal strukturali;  
b) kristobalit - kubik strukturali;  
c) tridilit - geksoganal strukturali;  
d) amorf holatli  $\text{SiO}_2$ .
- B) a) kvars - geksoganal strukturali;

- b) kristobalit – kubik strukturali;
  - c) tridilit – piramida strukturali;
  - d) amorf holatli  $\text{SiO}_2$ .
- C) a) kvars – geksoganal strukturali;  
 b) kristobalit – geksoganal strukturali;  
 c) tridilit – geksoganal strukturali;  
 d) amorf holatli  $\text{SiO}_2$ .

1157.  $\text{SiO}_2$  ning kislotali xossasini ifodalovchi reaksiyasi?

- A)  $\text{SiO}_2 + 2\text{NaOH} \rightarrow \text{H}_2\text{O} + \text{Na}_2\text{SiO}_3$   
 $\text{SiO}_2 + \text{Na}_2\text{CO}_3 \rightarrow \text{CO}_2 \uparrow + \text{Na}_2\text{SiO}_3$   
 $\text{SiO}_2 + \text{CaO} \rightarrow \text{CaSiO}_3$ ;
- B)  $\text{SiO}_2 + 2\text{NaOH} \rightarrow \text{H}_2\text{O} + \text{Na}_2\text{SiO}_3$   
 $\text{SiO}_2 + \text{Na}_2\text{CO}_3 \rightarrow \text{CO}_2 \uparrow + \text{Na}_2\text{SiO}_3$   
 $\text{SiO}_2 + 4\text{HF} \rightarrow \text{SiF}_4 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- C)  $\text{SiO}_2 + 2\text{NaOH} = \text{H}_2\text{O} + \text{Na}_2\text{SiO}_3$   
 $\text{SiO}_2 + \text{HCl} \rightarrow \text{SiCl}_4 + 2\text{H}_2\text{O}$   
 $\text{SiO}_2 + \text{CaO} = \text{CaSiO}_3$ .

1158. Sifatli sementlarning gidromoduli nechaga teng?

- A) 1,5;  
 B) 3;  
 C) 2.

1159. O'zbekistonimizda qadimdan kulolchilik sanoati rivojlangan shaharlar qaysilar?

- A) Samarqand, Namangan, Xiva;  
 B) Buxoro, Xiva, Qarshi;  
 C) Samarqand, Buxoro, Xiva.

1160. Qalayning mis bilan qotishmasi nima deyiladi?


- A) amalgama;  
 B) bronza;  
 C) qalay-misli temirtosh.

1161. Qalayni oksidlanishga va suvgaga bo'lgan munosabati qanday?

- A) havoda oksidlanmaydi, suv bilan reaksiyaga kirishmaydi;  
 B) havoda oksidlanadi, suv bilan ta'sirlashmaydi;  
 C) havoda oksidlanmaydi, suv bilan ta'sirlashadi.

1162. Qalayni kislotalarga munosabati qanday?

- A)  $\text{Sn} + 4\text{HNO}_3 \rightarrow \text{Sn}(\text{NO}_3)_2 + 2\text{NO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;  
 B) faqat HCl bilan ta'sirlashadi;  
 C) kons HCl va kons  $\text{H}_2\text{SO}_4$  lar bilan ta'sirlashadi.



1163.  $\text{Sn}(\text{OH})_2$  (oq cho'kma) qanday olinadi?

- A)  $\text{SnCl}_2 + 2\text{KOH} \rightarrow \text{Sn}(\text{OH})_2 + 2\text{KCl}$ ;
- B)  $\text{SnO} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Sn}(\text{OH})_2$ ;
- C)  $\text{Sn} + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Sn}(\text{OH})_2 + \text{H}_2$ .

1164.  $\text{Sn}(\text{OH})_2$  qanday asos?

- A) kuchsiz asos;
- B) kuchli asos;
- C) amfoter.

1165..  $\text{Sn}$  qanday ishqorlar bilan munosabatda bo'ladi?

- A)  $\text{Sn} + 2\text{KOH} + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{K}_2[\text{Sn}(\text{OH})_4] + \text{H}_2 \uparrow$   
 $\text{Sn} + 2\text{KOH} + \text{O}_2 \rightarrow \text{K}_2\text{SnO}_3 + \text{H}_2\text{O}$ ;
- B)  $\text{Sn} + 2\text{KOH} + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{K}_2[\text{Sn}(\text{OH})_4] + \text{H}_2 \uparrow$   
 $\text{Sn} + 2\text{KOH} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{K}_2\text{SnO}_3 + 2\text{H}_2$ ;
- C)  $\text{Sn} + 2\text{KOH} + \text{O}_2 \rightarrow \text{K}_2\text{SnO}_3 + \text{H}_2\text{O} \uparrow$   
 $\text{Sn}(\text{OH})_2 + 2\text{KOH} \rightarrow \text{K}_2\text{Sn}(\text{OH})_4$ .

1166.  $\text{Sn}(\text{OH})_2$  ni amfoterligini tasdiqlovchi reaksiyani ko'rsating?

- A)  $\text{Sn} + 2\text{KOH} + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{K}_2[\text{Sn}(\text{OH})_4] + \text{H}_2$   
 $\text{Sn}(\text{OH})_2 + 2\text{HCl} \rightarrow \text{SnCl}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- B)  $\text{Sn}(\text{OH})_2 + 2\text{NaOH} \rightarrow \text{Na}_2[\text{Sn}(\text{OH})_4]$   
 $\text{Sn}(\text{OH})_2 + 2\text{HCl} \rightarrow \text{SnCl}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- C)  $\text{Sn} + 2\text{HCl} \rightarrow \text{SnCl}_2 + \text{H}_2$   
 $\text{Sn}(\text{OH})_2 + 2\text{HCl} \rightarrow \text{SnCl}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ .

1167.  $\alpha$  – qalay kislota qanday aniqlanadi?

- A)  $\text{H}_2\text{O} + \text{SnO}_2 \rightarrow \text{H}_2\text{SnO}_3$ ;
- B)  $\text{Na}_2\text{SnO}_3 + 2\text{HCl} \rightarrow 2\text{NaCl} + \text{H}_2\text{SnO}_3$ ;
- C)  $\text{SnCl}_4 + 4\text{NH}_4\text{OH} \rightarrow \text{H}_2\text{SnO}_3 \downarrow + 4\text{NH}_4\text{Cl} + \text{H}_2\text{O}$ .

1168.  $\beta$  – qalay kislota qanday olinadi?

- A) qalayga konsentrangan nitrat kislota ta'sir etdirilib;
- B) qalayga suyultirilgan nitrat kislota ta'sir etdirilib;
- C) qalayning galogenli hosilasiga suv ta'sir etdirilib.

1169.  $\alpha$  – qalay kislota  $\beta$  – qalay kislotadan qanday olinadi?

- A)  $\alpha$  – qalay kislotadan  $\beta$  – qalay kislota olib bo'lmaydi;
- B)  $\alpha$  – qalay kislota eritmadan olinmasa vaqt o'tishi bilan  $\beta$  – qalay kislotaga aylanadi;
- C)  $\beta$  – qalay kislotasi faqat  $\text{SnCl}_4$  bilan  $\text{NH}_4\text{OH}$  ta'sirlashishida olinadi.

1170. Qo'rg'oshinning asosiy birikmasi?

- A) qo'rg'oshin yaltirog'i –  $\text{PbS}$ , qo'rg'oshin nitrat;
- B) qo'rg'oshin yaltirog'i –  $\text{PbS}$  (galenit), qo'rg'oshin glyoti –  $\text{PbO}$ ;
- C) qo'rg'oshin glyoti –  $\text{PbO}$ , qo'rg'oshin sulfat.

1171. Sanoatda qo'rg'oshin olish reaksiyasini ko'rsating.

- A)  $2\text{PbS} + 3\text{O}_2 \rightarrow 2\text{PbO} + 2\text{SO}_2$ ;       $\text{PbO} + \text{C} \rightarrow \text{Pb} + \text{CO}$ ;  
B)  $\text{PbO} + \text{H}_2 \rightarrow \text{Pb} + \text{H}_2\text{O}$ ;  
C)  $2\text{PbS} + 3\text{O}_2 \rightarrow 2\text{PbO} + 2\text{SO}_2$ .

1172. Qo'rg'oshinning issiqlik va elektr tokiga munosabati?

- A) kumushnikidan 10 marta ko'p;  
B) kumushniki bilan bir xil;  
C) kumushnikidan 10 marta kam.

1173.  $\text{Pb}(\text{OH})_2$  qanday olinadi?

- A)  $2\text{Pb} + \text{O}_2 + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{Pb}(\text{OH})_2$ ;  
B)  $\text{PbO} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Pb}(\text{OH})_2$ ;  
C)  $\text{Pb}(\text{NO}_3)_2 + 2\text{NaOH} \rightarrow \text{Pb}(\text{OH})_2 + 2\text{NaNO}_3$ .

1174. Qo'rg'oshinni kislotalarga munosabati?



- A) faqat nitrat kislota bilan ta'sirlashadi:




- B) faqat organik kislotalar bilan ta'sirlashadi:



- C) nitrat va sirka kislotalarda yaxshi eriydi:




konsentrangan va qizdirilgan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  da eruvchan nordon tuz hosil qiladi



1175. Qo'rg'oshinni ishqorlar bilan ta'sirlashuvi qanday?

- A) ishqorlarda sekinroq eriydi va metall gidroksoplyumbat tuzini hosil qiladi:



- B) ishqorlarda erib kaliy tetragidroksotit (II) plumbat hosil qiladi;

- C) ishqorlar bilan ta'sirlashmaydi.

1176.  $\text{PbO}$  qanday olinadi?

- A) qo'rg'oshinni oksidlab:  $2\text{Pb} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{PbO}$ ;  
B) tuzlarni termik parchalab:  $\text{PbCO}_3 \xrightarrow{-\text{CO}_2} \text{PbO} + \text{CO}_2 \uparrow$ ;  
C) qo'rg'oshin (II) gidroksidni parchalab:  $\text{Pb}(\text{OH})_2 \rightarrow \text{PbO} + \text{H}_2\text{O}$ .

1177.  $\text{Pb}(\text{OH})_2$  qanday olinadi?

- A) qo'rg'oshin (II) oksidga suv ta'sir ettirib:  $\text{PbO} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Pb}(\text{OH})_2$ ;  
B) qo'rg'oshinni o'ziga suv ta'sir ettirib;  
C) qo'rg'oshinni eruvchan tuzlariga ishqor ta'sir ettirib:  
 $\text{Pb}(\text{CH}_3\text{COO})_2 + 2\text{NaOH} \rightarrow \text{Pb}(\text{OH})_2 + 2\text{CH}_3\text{COONa}$ .

1178.  $\text{Pb}(\text{OH})_2$  qanday asos?

- A) kuchsiz asos;

- B) amfoter (asosligi kislotaliligidan kuchsiz);  
 C) amfoter (kislotaliligi asosligidan kuchsizroqdir).

1179. Qo'rg'oshinning qaysi tuzlari eruvchan?

- A) PbS va Pb(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> dan qolgani erimaydi;  
 B) Pb(CH<sub>3</sub>COO)<sub>2</sub> va PbS dan qolgani erimaydi;  
 C) Pb(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> va Pb (CH<sub>3</sub>COO)<sub>2</sub> dan qolgani erimaydi.

1180. PbO<sub>2</sub> ni ta'riflang.

- A) qora-qo'ng'ir tusli kukun, suvda erimaydi, qizdirilganda parchalanadi:  
 $3\text{PbO}_2 \rightarrow \text{Pb}_3\text{O}_4 + \text{O}_2$ ;  
 B) qora-kulrang tusli kristall, suvda erimaydi, qizdirilganda parchalanadi:  
 $3\text{PbO}_2 \rightarrow \text{Pb}_3\text{O}_4 + \text{O}_2$ ;  
 C) qora-kulrang tusli kristall, suvda erimaydi, qizdirilganda parchalanmaydi.

1181. Pb<sub>3</sub>O<sub>4</sub>(PbO va PbO<sub>2</sub> aralashmasi) ekanligini isbotlang.

- A) Pb<sub>3</sub>O<sub>4</sub>+4HNO<sub>3</sub> $\rightarrow$ PbO<sub>2</sub>+2Pb(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>+2H<sub>2</sub>O;  
 B) bunday modda mavjud emas;  
 C) Pb<sub>3</sub>O<sub>4</sub> bunday aralashmadan tashkil topmagan.

1182. PbO<sub>2</sub> ni oksidlovchilik xususiyatini isbotlovchi reaksiyani ko'rsating?

- A) PbO<sub>2</sub>+4HCl(kons)=PbCl<sub>2</sub>+Cl<sub>2</sub>+2H<sub>2</sub>O;  
 B) PbO<sub>2</sub>+H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> $\rightarrow$ PbSO<sub>4</sub>+O<sub>2</sub>+H<sub>2</sub>O;  
 C) A va B.

1183. Tetraetilqo'rg'oshin Pb(C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>)<sub>4</sub> nima maqsadlarda ishlatiladi?

- A) u oz miqdorda benzinga aralashtirilib, antideetonatsiya yoqilg'isi sifatida;  
 B) benzinning detonatsiyaga chidamliligini kamaytirish uchun;  
 C) o't o'chirish maqsadida.

### Metallmaslar mavzusiga oid namunaviy masalalar va ularning yechilish usullari

**1-masala.** Murakkab moddaning 3,99g miqdori to'liq yonishidan 2,31g uglerod (IV) oksid va 6,72 g oltingugurt (IV) oksid hosil bo'ladi. Murakkab moddaning eng oddiy formulasini toping?

**Yechish:**  $x + \text{O}_2 \rightarrow \text{CO}_2 + \text{SO}_2$

1) CO<sub>2</sub> dagi C ning massasi topiladi:

$$44 \text{ g} \xrightarrow{\quad} 12 \text{ g C}$$

$$2,31 \xrightarrow{\quad} x \qquad \qquad \qquad x = 0,63 \text{ g C};$$

2) SO<sub>2</sub> dagi S ning massasi topiladi:

$$64 \text{ g} \xrightarrow{\quad} 32 \text{ g S}$$

$$6,72 \xrightarrow{\quad} x \qquad \qquad \qquad x = 3,36 \text{ g S};$$

3)  $3,36 + 0,63 = 3,99$ . Demak, dastlabki modda uglerod va oltingugurtdan iborat ekan;

4) Moddaning haqiqiy formulasini topish uchun quyidagi amal bajariladi:

$$\frac{0,63}{12} : \frac{3,36}{32} = 0,0525 : 0,105;$$

5) Aniqlangan miqdoriy nisbatlarning kichigiga har ikkalasi bo'linadi:

$$\frac{0,0525 : 0,105}{0,0525} = 1 : 2 \text{ demak, } CS_2 \text{ ekan.}$$

**Javob:**  $CS_2$ .

**2-masala.** Tarkibida 10% qo'shimchasi bo'lgan, 50 t temir ko'chedanidan reaksiya unumi 100% bo'lganda qancha tonna sulfat kislota olish mumkin?

**Yechish:**

1)  $FeS_2 \rightarrow 2H_2SO_4$  dastlab toza kolchedanning massasi aniqlab olinadi;  
50 ————— 100%

$$x ————— 90\% \quad x = 45 \text{ t sof kolchedan}$$

2) piritdan(kolchedan) hosil bo'ladigan sulfat kislota massasi aniqlanadi:  
 $120FeS_2 ————— 196 H_2SO_4$

$$45 ————— x \quad x = 75 \text{ t } H_2SO_4;$$

3) Reaksiya unumi 100% berilgani uchun 73,5 t javobni qanoatlanadir.

**Javob:** 73,5 t.

**3-masala.** Kislorodning hajmiy ulushi 20% bo'lgan 20 g kislorod va vodoroddan iborat gazlar aralashmasi portlatilganda, qaysi gazdan qancha miqdorda ortib qoladi?

**Yechish:** Hajmiy ulush mol hisoblanishini e'tiborga olib aralashma tarkibi ajratib olinadi:

1)  $0,2 \cdot 32 = 6,4 \text{ g } O_2$ ;

2)  $0,8 \cdot 2 = 1,6 \text{ g } H_2$ ;

3) Umumiy aralashma  $6,4 + 1,6 = 8 \text{ g}$ .

4) Proporsiya orqali 20g aralashmadagi kislorod massasi topiladi:

$$8 ————— 6,4O_2$$

$$20 ————— x \quad x = 16;$$

5) Kislorod massasidan foydalanib vodorod massasi topiladi:

$$20 - 16 = 4 \text{ g } H_2$$

6) Reaksiya tenglamasi orqali ortib qolgan gaz topiladi:




$$32O_2 ————— 4 H_2$$


$$16 ————— x \quad x = 2 \text{ g } H_2;$$

7) Aralashmadagi 4g vodoroddan 2g i suv hosil qilish uchun sarflanganligidan foydalanib, ortgan vodorod topiladi:  $4 - 2 = 2 \text{ g}$

**Javob:** 2g vodorod.

**4-masala.** Quyidagi ketma-ketlikni davom ettiring:





**5-masala.** 1 tonna 97%li ohaktoshni parchalab olingan gazni so'ndirilgan ohak eritmasiga yuttirib qancha cho'kma olsa bo'ladi?

**Yechish:**

1) Dastlab reaksiya tenglamasi yozib olinadi:



2) 97%li  $CaCO_3$  massasi topiladi:

$$m(CaCO_3) = 1000 \cdot 0,97 = 970 \text{ kg}$$

3) 970 kg  $CaCO_3$  ajratib chiqaradigan  $CO_2$  massasi topiladi:

$$\begin{array}{rcl} 970 & & x \\ 100 & \longrightarrow & 44 \end{array}$$

$$x=426,8$$

4) Olingan natijalardan reaksiyada hosil bo'lgan  $CaCO_3$  massasi aniqlanadi:

$$\begin{array}{rcl} 100 & & 44 \\ x & \longrightarrow & 426,8 \end{array}$$

$$x=970 \text{ kg}$$

**Javob:** 970 kg.

**6-masala.** Massasi 108 g bo'lgan ohaktosh kuydirilganda massasi 44g ga kamaydi. Parchalanmay qolgan ohaktosh massasini hisoblang.

**Yechish:**

1) Dastlab, reaksiya tenglamalari yozib olinadi:



2) Kamaygan miqdor gazga tegishli bo'lganligi uchun 44g karbonat angidridi deb qabul qilinadi va undan parchalangan ohaktosh massasi aniqlanadi:

$$44g CO_2 \longrightarrow 100g CaCO_3$$

$$44g \longrightarrow x \qquad x=100 \text{ g}$$

3) Berilgan ohaktosh massasidan parchalangan ohaktosh massasi ayrilib parchalanmay qolgan kalsiy karbonat massasi aniqlanadi:  $108 - 100 = 8 \text{ g}$

**Javob:** 8 g.

**7-masala.** Ozon va kislorod aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 17,5 bo'lsa, aralashma tarkibidagi ozonning hajmiy ulushini toping.

**Yechish:**

1) Aralashmaning vodorodga nisbatan zichligidan foydalanib, aralashma molar massasi topiladi:

$$M = D_H \cdot 2 = 17,5 \cdot 2 = 35$$

2) Topilgan molar massasiga asoslanib, gazlarning miqdorini topish uchun quyidagi tenglama tuziladi:

$$32 \cdot x + 48 \cdot (1-x) = 35$$

$$32x + 48 - 48x = 35$$

$$16x = 13$$

$$x = 0,8125 \text{ O}_2;$$

3) Topilgan kislorod miqdoridan ozonning miqdori aniqlanadi:

$$1 - 0,8125 = 0,1875 \text{ O}_3;$$

Gazlarda miqdor hajmiy ulush ham hisoblanadi.

**Javob:**  $0,1875 \text{ O}_3$ .

---

## XI BOB

### METALLAR

*Metallar davriy sistemadagi elementlarning 80,5 % ni tashkil etadi. Metallarning kashf etilishiga juda ko'p olimlar buyuk kashfiyotlari orqali o'z hissalarini qo'shganlar. Shulardan biri metallarni kashf etilishiga eng katta hissa qo'shgan olim ingliz kimyogari Gemfri Devi hisoblanib u 6 ta metallni (K va Na ni 1807 yilda, Ba, Ca, Mg, Sr ni 1808-yilda) kashf etdi va bu jarayonda u 2 marta kuchli zaharlanib, bir ko'zi va qo'lidan ajraldi.*

*Metallarni kashf etilishida bunday fan fidoyilarini ko'pini misol keltirishimiz mumkin.*

*Ushbu bobda davriy sistemadagi barcha asosiy metallarni atom tuzilishi, izotoplari, tabiatda tarqalishi, hirikmalari, olinish usullari, fizik-kimyoviy xossalari, ularning ishlatalish sohalariga oid savollar va javoblar berilgan.*

*Shu bilan birga metallar mavzusi bo'yicha masalalarning yechimlari ham ko'rsatib o'tilgan.*

#### Metallar mavzusiga oid savollar va ularning javoblari

1184. Xrom nechanchi yil kim tomonidan kashf etilgan?

- A) 1797-yil fransuz olimi N.M.Voklen;
- B) 1787-yil fransuz olimi N.M.Voklen;
- C) 1774-yil shved olimi K.Sheele va V.Lamp.

1185. Marganes nechanchi yil kim tomonidan kashf etilgan?

- A) 1797-yil fransuz olimi N.M.Voklen;
- B) 1774-yil shved olimi K.Sheele va V.Lamp;
- C) 1735-yil G.Brand.

1186. Kobalt nechanchi yil kim tomonidan kashf etilgan?

- A) 1797-yil fransuz olimi N.M.Voklen;
- B) 1774-yil shved olimi K.Sheele va V.Lamp;
- C) 1735-yil G.Brand.

1187. Insoniyatga qadimdan ma'lum bo'lgan metallarni aniqlang.

- A) Cu, Zn, Fe, Al, Sn;
- B) Cu, Zn, Fe, Ag, Sn;
- C) C, Zn, Fe, Au, Sn.

1188. Kristall holatidagi aluminiy oksid tuzilishini izohlang.

- A)  $\text{AlO}_6$  da metall atrofida 6 ta kislород kationi,  $\text{OAl}_4$  da kislород atomi atrofida 4 ta aluminiy anioni bo'ladi;

B)  $\text{AlO}_6$  da metall atrofida 6 ta kislorod atomi,  $\text{OAl}_4$  da kislorod atomi atrofida 4 ta aluminiy atomi bo'ladi;  
C) aluminiy oksidi faqat  $\text{Al}_2\text{O}_3$  ko'rinishida bo'ladi.

1189. Aluminiy oksidi kristall holatidagi formulalarni ko'rsating.

- A)  $\text{AlO}_6$  (oktaedr);  
B)  $\text{AlO}_4$  (tetraedr);  
C) A va B.

1190. Ishqoriy-yer metallarini alanga rangiga munosabati?

A) Be – bo'lmaydi, Mg – oq rangli, Ca – qizil g'isht rangli, Sr – malina rangli, Ba – yashil rangli;

B) Be – bo'lmaydi, Mg – qizil rangli, Ca – qizil g'isht rangli, Sr – malina rangli, Ba – rangsiz;

C) Be – bo'lmaydi, Mg – oq rangli, Ca – qizil g'isht rangli, Sr – kulrang rangli, Ba – yashil rangli.

1191. Qaysi metall ioni o'simlik barglaridagi xlorofil zarrachalarini hosil qiladi?

- A) Ca;  
B) Mg;  
C) Fe.

1192. Odam va hayvon suyaklari, tishlari asosini tashkil etuvchi element qaysi?

- A)  $\text{P}_4$ ;  
B)  $\text{F}_2$ ;  
C) Ca.

1193. Ishqoriy metallar karbonatlari va gidrokarbonatlari eruvchanligi qanday?

- A) karbonatlari yaxshi, gidrokarbonatlar yomon eriydi;  
B) gidrokarbonatlari yaxshi, karbonatlar yomon eriydi;  
C) ikkalasi ham yaxshi eriydi.

1194. Ishqoriy-yer metallari karbonatlari va gidrokarbonatlari eruvchanligi qanday?

- A) ikkalasi ham yaxshi eriydi;  
B) karbonatlari yomon, gidrokarbonatlar yaxshi eriydi;  
C) xuddi ishqorlarnikiga o'xshash.

1195. Davriy sistemada nechta metall bor?

- A) 97 ta;  
B) 119 ta;  
C) 98 ta.

1196. Qadim zamonalarda odamlar nechta metallni bilishgan?

- A) 7 ta: Au, Al, Cu, Fe, Sn, Pb, Hg;

- B) 7 ta: Au, Ag, Cu, Fe, Sn, Pb, Hg;  
C) 8 ta: Au, Al, Ag, Cu, Fe, Sn, Pb, Hg.

1197. Metallar tabiatda qanday holda uchraydi?

- A) birikmalar;  
B) erkin holda;  
C) A va B.

1198. Qanday metallar erkin holda uchraydi?

- A) passiv metallar: Cu, Hg, Ag, Au;  
B) passiv metallar: Cu, Hg, Al, Au;  
C) aktiv metallar: Zn, Na, K.

1199. Sanoatda metallarni olish qanday reaksiyalarga asoslangan?

- A) oksidlanish-qaytarilish;  
B) elektroliz;  
C) aluminotermiya.

1200. Metallar olishni qanday usullari bor?

- A) parchalanish, almashinish;  
B) aluminotermiya, o'rin olish;  
C) pirometallurgik, gidrometallurgik, elektrotermik usullar.

1201. Pirometallurgik usulda metallar qanday olinadi?

- A) yuqori haroratda metall birikmalarini bevosita texnik ishlovdan o'tkazishga asoslangan;  
B) C, CO, Al, Si, H<sub>2</sub> yarmini qaytarishga asoslangan;  
C) A va B: ZnO + C → CO + Zn; 6CaO + 4Al → 2Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> + 6Ca;  
Fe<sub>3</sub>O<sub>4</sub> + 4CO → 4CO<sub>2</sub> + 3Fe;  
WO<sub>3</sub> + 3H<sub>2</sub> → 3H<sub>2</sub>O + W.

1202. Pirometallurgik usulda yana nimalar olinadi?

- A) sof metallar;  
B) po'lat va cho'yan;  
C) aktiv metallmaslar.

1203. Po'lat va cho'yan qanday usul yordamida olinadi?

- A) pirometallurgik usul;  
B) keramika;  
C) aluminotermiya.

1204. Metall birikmalarini eritmaga o'tkazib, yuqori haroratlarsiz, elektroliz yordamida yoki boshqa metall ta'sir ettirib olish usuli nima deyiladi?

- A) pirometallurgik;  
B) oksidlanish-qaytarilish;  
C) gidrometallurgik usul.

1205. Gidrometallurgik usul yordamida qaysi metallar olinadi?

- A) metall oksidlari, hidroksidlari, tuzlar suyuqlanmalari elektroliz qilinadi;

B) metallning qo'sh tuzlari;

C) amfoter metallar.

1206. Elektrotermik usulda qaysi metallar olinadi?

A) ishqoriy va ishqoriy-yer metallari;

B) Al olinadi;

C) A va B.

1207. Yoritish lampochkalarini tayyorlashda qaysi metallardan foydalaniлади?

A) Sn, Pb, Sb, Zn, Cu, Fe, Ni, W;

B) S, Pb, Sb, Zn, Cr, Fe, Ni, W;

C) Sn, Pb, Sb, Zn, Cu, F<sub>2</sub>, Ni, W.

1208. Metallar ishlatalish sohasiga qarab nechaga bo'linadi?

A) 2 ga: aktiv va passiv;

B) 2 ga: sanoat va qurilish metallari;

C) 2 ga: qora va rangli metallar.

1209. Qora metallarga qaysi metallar kiradi?

A) Fe va uni qayta ishlashtining asosiy mahsulotlari;

B) cho'yan va po'lat;

C) A va B.

1210. Rangli metallarni aytинг?

A) qimmatbaho metallar;

B) Fe dan boshqa metallar va ularni qayta ishlasht mahsulotlari;

C) temir va uning barcha birikmalari.

1211. Rangli metallar Fe zichligiga (7874 kg/m<sup>3</sup>) nisbatan zichligiga qarab qanday sinflarga ajratiladi?

A) 2 ga; og'ir va yengil;

B) aktiv va passiv;

C) cho'ziluvchan va bolg'alanuvchan.

1212. O'gir metallarga qaysi metallar kiradi?

A) Te, Cd, Ni, Hg, Sn, Pb, Cu, Co...;

B) Te, Cd, Ni, Hg, Sn, Al, Pb, Cu, C;

C) Fe, Ca, Ni, Hg, Sn, Pb, Cu, Co.

1213. Yengil metallarni aniqlang.

A) Ni, Na, K, Ca, Al, Mg, Ti, Zn, Pb...;

B) Li, Na, K, Ca, Al, Mg, Ti, Zn, Sb...;

C) Te, Cd, Ni, Hg, Sn, Pb, Cu, Co.... .

1214. Nodir metallarni aniqlang.

A) Ag, Au, Al, Pt, Ra...;

B) Ag, W, Fr, Zn, Pd...;

C) Ag, Au, Pt, Ra, Pd... .

1215. Noyob metallarni aniqlang?

- A) aktinoid, lantanoid; W, V, Nb, Ta;
- B) ayrim «d» oila elementlari va aktinoidlar;
- C) aktinoidlar, lantanoidlar W, V, Na, K, Al.

1216. Projektor va reflektorlar tayyorlashga qaysi metallardan foydalaniлади?

- A) In va Au, chunki ular nurni yaxshi o'tkazadi;
- B) Ag va Pt, chunki ular nurni yaxshi aks ettiradi;
- C) In va Ag, chunki ular nurni yaxshi o'tkazadi.

1217. O'zbekistonda hozirgi kunda nechta qimmatbaho metall koni topilgan?

- A) 30 ta;
- B) 40 ta;
- C) 50 ta.

1218. Oltin zaxirasi bo'yicha O'zbekiston dunyoda nechanchi o'rinda turadi?

- A) 4-o'rinda;
- B) 3-o'rinda;
- C) 7-o'rinda.

1219. O'zbekistonda qanday metallar qazib olinadigan konlar mavjud?

- A) Au, Ag, Cu, Re, Mo, Pb, Zn, W, Cd, Ni, Os, V, Sc, Te, Se;
- B) Au, Al, Cu, Re, Mo, Pb, Zn, W, Ca, Ni, Os, V, Sc, Te, Se;
- C) Au, Ag, Cu, Re, Ma, Pb, Zn, W, Cd, Ni, Os, V, Sc, Tl, Hg.

1220. Natriy va Kaliy metallariga xos xususiyatlarni sanang?

- A) yumshoq, suvdan og'ir, kislorod va suv bilan odatdag'i sharoitda shiddatli reaksiyaga kirishadi va bir valentli birikmalarini hosil qiladi;
- B) yumshoq, suvdan yengil, kislorod va suv bilan odatdag'i sharoitda shiddatli reaksiyaga kirishadi va ikki valentli birikmalarini hosil qiladi;
- C) yumshoq, suvdan yengil, kislorod va suv bilan odatdag'i sharoitda shiddatli reaksiyaga kirishadi va bir valentli birikmalarini hosil qiladi.

1221. Ishqoriy metallar doimo necha valentli bo'ladi?

- A) I va II valentli;
- B) I valentli;
- C) I va III valentli.

1222. Ishqoriy metallar qaysi erituvchida yaxshi eriydi?

- A) barcha qutbli va qutbsiz erituvchilarda;
- B) faqat suvda va qutbsiz erituvchilarda;
- C) suvda.

1223. Ishqoriy metallar atom massalari ortishi bilan qanday xossalari davriy ravishda o'zgarib boradi?

- A) fizik xossasi o'zgaradi, kimyoviy xossasi o'zgarmaydi;  
B) kimyoviy xossasi o'zgaradi, fizik xossasi o'zgarmaydi;  
C) fizik va kimyoviy.

1224. Li dan Cs ga tomon gidroksidlar eruvchanligi qanday o'zgaradi?

- A) ortadi;  
B) kamayadi;  
C) K gacha ortadi, so'ng kamayadi.

1225. Li dan Cs ga tomon suyuqlanish va qaynash temperaturalari qanday o'zgaradi?

- A) avval ortadi, so'ng kamayadi;  
B) kamayadi;  
C) o'zgarmaydi.

1226. Suyultirilgan metallda boshqa metall, metallmaslar, murakkab moddalar erishidan hosil bo'ladigan eritma nima deyiladi?

- A) amalgama;  
B) metalli temir tosh;  
C) qotishma.

1227. Qotishmalar qanday tuzilishga ega?

- A) kristall;  
C) vaqtinchalik (karbonat) – unda magniy va kalsiy gidrokarbonatlar mavjudligi bilan bog'liq ( $\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$ ,  $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ ), doimiy qattiqlik – suvda magniy va kalsiy nitratlari va nitritlari mavjudligi bilan bog'liq ( $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{Ca}(\text{NO}_2)_2$ ,  $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{Mg}(\text{NO}_2)_2$ ).

1369. Suvning qattiqligini yo'qotish usullari qaysilar?

A) elektroliz ya'ni suvdan elektr tokini o'tkazish orqali;

B) distillyatsiya (suvni haydash) hamda kimyoviy usul;

C) suvni kimyoviy inert moddalaridan iborat bo'lgan filtrdan o'tkazish orqali.

1370. Vaqtincha qattiqlikni yo'qotishning kimyoviy usullari qaysilar?

- A) qaynatish, ohakli suv qo'shish, ishqor qo'shish;
- B) sovitish, ohakli suv qo'shish, kislota qo'shish;
- C) sovitish, ohakli suv qo'shish, tuz qo'shish.

1371. Soda qo'shib suvni yumshatish usulini ko'rsating.

- A)  $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2 + \text{Ca}(\text{OH})_2 \rightarrow 2\text{CaCO}_3 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- Mg(HCO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> + Ca(OH)<sub>2</sub> → MgCO<sub>3</sub> · CaCO<sub>3</sub> + H<sub>2</sub>O;
- B) Ca(OH)<sub>2</sub> → CaO↓ + H<sub>2</sub>O ;
- Mg(HCO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> → MgO↓ + 2CO<sub>2</sub> + H<sub>2</sub>O;
- C) Ca(HCO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> + 2Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> → CaCO<sub>3</sub>↓ + 2NaHCO<sub>3</sub>;
- Mg(HCO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> + 2Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> → MgCO<sub>3</sub> + 2NaHCO<sub>3</sub>.

1372. Doimiy qattiqlikni yo'qotish usullari qaysi?

- A) bariy gidroksid qo'shiladi:



- B) soda yoki natriy fosfat qo'shib yo'qotiladi:



- C) karbonat kislota qo'shib yo'qotiladi:



1373. Kationitlar qanday moddalar?

A) suvda erimaydigan, tarkibida tashqi muhit kationlariga (Ca<sup>+2</sup>, Mg<sup>+2</sup>) almashina oluvchi, harakatchan kationlar (Na<sup>+</sup>) tutadigan qattiq moddalar;

B) suvda eriydigan, tarkibida tashqi muhit kationlariga (Ca<sup>+2</sup>, Mg<sup>+2</sup>) almashinmaydigan kam harakatchan kationlar (Na<sup>+</sup>) tutuvchi gelsimon moddalar;

C) faqat ishqorlarda eruvchi, tarkibida tashqi muhit kationlariga (Ca<sup>+2</sup>, Mg<sup>+2</sup>) almashina oluvchi, harakatchan kationlar (Na<sup>+</sup>) tutadigan suyuq moddalar.

1374. Anionitlar qanday moddalar?

A) organik moddalarda eruvchi tashqi muhit anionlariga (SO<sub>4</sub><sup>2-</sup>, Cl<sup>-</sup>) almashina oluvchi, harakatsiz gaz moddalar;

B) suvda erimaydigan, tarkibida tashqi muhit anionlariga (SO<sub>4</sub><sup>2-</sup>, Cl<sup>-</sup>) almashina oluvchi, harakatchan anionlar tutadigan qattiq moddalar;

C) suvda eruvchi tashqi muhit anionlariga (SO<sub>4</sub><sup>2-</sup>, Cl<sup>-</sup>) almashina olmaydigan inert qattiq moddalar.

1375. Sanoatda suvning qattiqligini yo'qotishning ion almashinuv usuli reaksiyasi qaysi (kationit)?

- A) Na<sub>4</sub>R<sub>3</sub> + 3Mg → 4Na + Mg<sub>3</sub>R<sub>3</sub> bu yerda: R – kislota qoldig'i radikal;
- B) Na<sub>2</sub>(R)<sub>2</sub> + Ba(OH)<sub>2</sub> → BaR<sub>2</sub> + 2Na bu yerda: R – gidroksid radikal;
- C) Na<sub>2</sub>R + Ca<sup>+2</sup> → 2Na<sup>+</sup>CaR bu yerda: R – organik radikal.

1376. Aluminiyni kim kashf qilgan?

- A) X. N. Linney (1852-yil);
- B) X. K. Ersted (1825-yil);
- C) V. N Faust (1810-yil).

1377. Aluminiyni tabiatda tarqalishini ko'rsating?

- A) eng ko'p tarqalgan metall (7,45 %), erkin holda uchramaydi;
- B) nodir metalli, tabiatda o'rtacha miqdorda (2,2 %), birikmalar holda uchraydi;
- C) tabiatda eng ko'p miqdorda (7,45 %), faqat erkin holda uchraydi.

1378. Tarkibida aluminiy tutgan qancha mineral bor?

- A) 270 dan ortiq;
- B) 350 dan ortiq;
- C) 250 dan ortiq.

1379. Aluminiy qanday birikma holida uchraydi?

- A) alumosilikatlar shaklida;
- B) aluminiy gidroksid va aluminiy nitrat;
- C) aluminiy sulfat va inert gazlar bilan birqalikda uchraydi.

1380. Alumosilikatlar qanday moddalar?

- A) kation sifatida aluminiy va kremniy anion sifatida nitratlar tutgan moddalar  $M[Al((OH_3)SiO_2)_2](NO_3)$ ;
- B) kation sifatida aluminiy va kremniy, anion sifatida xlor va sulfatlar tutuvchi moddalar M:  $(Al_2O_3)_2 \cdot 2SiO_2 \cdot NaCl$ ;
- C) anion sifatida tarkibiga aluminiy va kremniy, kationlar sifatida tarkibiga ishqoriy va ishqoriy-yer metallari kiradigan tuzlar, dala shpati —  $K_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$ , slyuda —  $K_2O \cdot 2H_2O \cdot 3Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$ .

1381. Alumosilikatlarni nurashi natijasida nimalar hosil bo'ladi?

- A) qora tuproq. M:  $Al_2O_3 \cdot 4SiO_2 \cdot 6H_2O$ ;
- B) gillar. M: oq gil — kaolin  $Al_2O_3 \cdot 2SiO_2 \cdot 2H_2O$ ;
- C) sariq gil. M:  $Al(OH)_3 \cdot 2SiO_2 \cdot 3H_2O$ .

1382. Aluminiy birikmalarini aniqlang?

- A) kaolin —  $Al_2O_3 \cdot 2SiO_2 \cdot 2H_2O$ , boksit —  $Al_2O_3 \cdot nH_2O$ , ortoklaz —  $K_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$ , nefelin —  $Na_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 2SiO_2$ ;
- B) kaolin —  $Al_2O_3 \cdot 2SiO_2 \cdot 2H_2O$ , boksit —  $Al_2O_3 \cdot nH_2O$ , ortoklaz —  $K_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$ , nefelin —  $Na_2O \cdot Fe_2O_3 \cdot 2SiO_2$ ;
- C) kaolin —  $Al_2O_3 \cdot 3SiO_2 \cdot 2H_2O$ , boksit —  $Al_2O_3 \cdot nH_2O$ , ortoklaz —  $K_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 4SiO_2$ , nefelin —  $Na_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 2SiO_2$ .

1383. Aluminiy qaysi moddalardan olinadi?

- A) ortoklaz —  $K_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$ , kaolin —  $Al_2O_3 \cdot 2SiO_2 \cdot 2H_2O$ ;
- B) aluminiy oksid —  $Al_2O_3$ , boksit —  $Al_2O_3 \cdot nH_2O$ , nefelin —  $(Na, K)_2O \cdot Al_2O_3 \cdot 2SiO_2$ ;
- C) boksit —  $Al_2O_3 \cdot nH_2O$ , slyuda —  $K_2O \cdot 2H_2O \cdot 3Al_2O_3 \cdot 6SiO_2$ .

1384. Aluminiyni organizmdagi miqdori qancha?

- A) muskul to'qimasida  $0,015 - 4,7 \cdot 10^{-12}\%$ , ilikda  $4 - 2,7 \cdot 10^{-5}\%$ , qonda  $0,54 \text{ mg/l}$ , kunlik miqdori  $8 \text{ mg}$ ,  $70 \text{ kg}$  li odamda  $40 \text{ mg}$ ;  
B) muskul to'qimasida  $0,028 - 3,2 \cdot 10^{-8}\%$ , ilikda  $4 - 3,7 \cdot 10^{-6}\%$ , qonda  $0,88 \text{ mg/l}$ , kunlik miqdori  $7 \text{ mg}$ ,  $70 \text{ kg}$  li odamda  $50 \text{ mg}$ ;  
C) muskul to'qimasida  $0,07 - 2,8 \cdot 10^{-4}\%$ , ilikda  $4 - 2,7 \cdot 10^{-4}\%$ , qonda  $0,39 \text{ mg/l}$ , kunlik miqdori  $2,45 \text{ mg}$ ,  $70 \text{ kg}$  li odamda  $61 \text{ mg}$ .

1385. Aluminiy qaysi usulda olinadi?

- A) elektrotermik usulda;  
B) ekzotermik usulda;  
C) elektroliz usulda.

1386. Aluminiy olishda suyuqlangan kriolitda ( $\text{Na}_3\text{AlF}_6$ ) qaysi modda eletrolit va bu eritma elektr o'tkazuvchanligi qaysi modda yordamida oshiriladi?

- A)  $\text{Al(OH)}_3, \text{AlF}_3$ ;  
B)  $\text{Al}_2\text{O}_3, \text{AlF}_3$ ;  
C)  $\text{Al}_2\text{O}_3, \text{Al(OH)}_2\text{F}$ .

1387. 1 tonna aluminiy olishga qancha energiya ketadi?

- A) ko'p energiya sarflanadi  $20\,000 \text{ kvt/soat}$ ;  
B) nisbatan kam energiya sarflanadi  $400 \text{ kvt/soat}$ ;  
C) quyosh energiyasining o'zi yetarli.

1388. Aluminiyning fizik xossalari qanday?

A) kumushsimon oq rangli yumshoq metall, qiyin bolg'analuvchan, yarim o'tkazgich xususiyatiga ega.  $T_q=500^\circ\text{C}$   $D=5,4$  izotop soni 15 ta;

B) kumushsimon oq rangli qattiq metall yaxshi bolg'analuvchan, issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazadi.  $T_q=400^\circ\text{C}$   $D=2,6$  izotop soni 12 ta;

C) kumushsimon oq rangli qattiq metall, yaxshi bolg'analuvchan, issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazadi.  $T_q=660,5^\circ\text{C}$ ,  $D=2,7$  izotop soni 11 ta.

1389. Aluminiy qanday holatda suv bilan ta'sirlashib vodorod ajratadi?

- A) oksid pardasiga inert gazlar ta'sir ettirilsa,  
 $2\text{Al}+6\text{H}_2\text{O} \xrightarrow{\text{Rn}} 2\text{Al(OH)}_3 + 3\text{H}_2$ ;  
B) oksid pardasi olib tashlansa,  $2\text{Al}+6\text{H}_2\text{O} \xrightarrow{\text{Rn}} 2\text{Al(OH)}_3 + 3\text{H}_2$ ;  
C) oksid pardasiga temperatura ta'sir ettirilsa,  
 $2\text{Al}+6\text{H}_2\text{O} \xrightarrow{\text{Rn}} 2\text{Al(OH)}_3 + 3\text{H}_2$ .

1390. Qizdirilgan aluminiyni  $\text{HCl}$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  suyuqlik bilan ta'siri qanday?

- A)  $2\text{Al}+2\text{HCl} \rightarrow 2[\text{AlHCl}]$ ,  $2\text{Al}+3\text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 + 3\text{H}_2$ ;  
B)  $2\text{Al}+6\text{HCl} \rightarrow 2\text{AlCl}_3 + 3\text{H}_2$ ,  $2\text{Al}+6\text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow 2\text{Al}(\text{HSO}_4)_3 + 3\text{H}_2$ ;  
C)  $2\text{Al}+6\text{HCl} \rightarrow 2\text{AlCl}_3 + 3\text{H}_2$ ,  $2\text{Al}+3\text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 + 3\text{H}_2$ .

1391. Aluminiyli idishida qaysi kislota saqlanadi?

- A) konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ;  
B) konsentrangan  $\text{HNO}_3$ ;  
C) suyultirilgan  $\text{H}_2\text{SO}_4$ .

1392. Qizdirilgan aluminiyning galogenlar, fosfor, otingugurt, azot, uglerod bilan reaksiyasini yozing?

- |   |   |  |
|---|---|--|
| A) $10\text{Al} + 3\text{N}_2 \rightarrow 2\text{Al}_5\text{N}_3$ , | $10\text{Al} + 6\text{P} \rightarrow 2\text{Al}_5\text{P}_3$ ,    | $6\text{Al} + 3\text{S} \rightarrow \text{Al}_6\text{S}_3$ , |
| $4\text{Al} + 3\text{C} \rightarrow \text{Al}_4\text{C}_3$ ,        | $2\text{Al} + 3\text{Cl}_2 \rightarrow 2\text{AlCl}_3$ ;          |  |
| B) $2\text{Al} + \text{N}_2 \rightarrow \text{AlN}$ ,               | $\text{Al} + \text{P} \rightarrow \text{AlP}$ ,                   | $2\text{Al} + 3\text{S} \rightarrow \text{Al}_2\text{S}_3$ , |
| $4\text{Al} + 3\text{C} \rightarrow \text{Al}_4\text{C}_3$ ,        | $3\text{Al} + 2\text{Cl}_2 \rightarrow 2\text{Al}_2\text{Cl}_3$ ; |  |
| C) $2\text{Al} + \text{N}_2 \rightarrow 2\text{AlN}$ ,              | $\text{Al} + \text{P} \rightarrow \text{AlP}$ ,                   | $2\text{Al} + 3\text{S} \rightarrow \text{Al}_2\text{S}_3$ , |
| $4\text{Al} + 3\text{C} \rightarrow \text{Al}_4\text{C}_3$ ,        | $2\text{Al} + 3\text{Cl}_2 \rightarrow 2\text{AlCl}_3$ .          |  |

1393. Termit nima?

A) aluminiy va temir kuyindisidan iborat aralashma. Bundan metallarni payvandlashda ishlataladi;

B) natriy va temir kuyindisidan iborat aralashma. Bundan metallarni payvandlashda ishlataladi;

C) kaliy va temir kuyindisidan iborat aralashma. Bundan metallarni uzishda ishlataladi.

1394. Aluminotermiya nima va uni kim ochgan?

A) metall oksidlarini aluminiy bilan qaytarib metall olish usuli, rus olimi Y. Berselus;

B) metall oksidlarini aluminiy bilan qaytarib metall olish usuli, rus olimi J. Dyuman;

C) metall oksidlarini aluminiy bilan qaytarib metall olish usuli, rus olimi N.N. Beketov.

1395. Aluminotermiya bilan qaysi metallar olinadi?

A) kaliy, marganes, qo'rg'oshin, titan, sirkoniy;

B) xrom, marganes, vanadiy, titan, sirkoniy;

C) kaliy, magniy, vanadiy, bariy, sirkoniy.

1396. Alumin va uning qotishmalari nima uchun xalq xo'jaligida keng ishlataladi?

A) yengilligi, havo va namlik ta'siriga chidamliligi;

B) og'irligi, namlik ta'siriga chidamliligi;

C) og'irligi, havo haroratiga chidamli namlik ta'siriga chidamsiz.

1397. Aluminiy qotishmasi qayerda ishlataladi?

A) binokorlik, og'it ishlab chiqarishda, kemasozlik, temir yo'l transporti, qurilish, asbobsozlik;

B) binokorlik, aviatsiya, maishiy texnika ishlab chiqarishda, kemasozlik, temir yo'l transporti, qurilish, asbobsozlik;

C) raketa, aviatsiya, kemasozlik, temir yo'l transporti, qurilish, asbobsozlik.

1398. Aluminiydan nimalar tayyorlanadi?

A) mikroskop linzasi, elektr tarmoq simlari, temir, mashina dvigiteli, oshxona idishi;

B) teleskop oynasi, elektr tarmoq simlari, temir, yorituvchi raketa, oshxona idishi;

C) mikroskop linzasi, po'lat ishlab chiqarishda, temir, yorituvchi raketa, oshxona idishi.

1399. Aluminiy kukunidan nima tayyorlanadi?

A) metall bo'yog'i: ( $\text{Fe}$  va  $\text{Fe}$  buyumlarini korroziyadan saqlavchi);

B) metall bo'yog'i: ( $\text{Cu}$  va  $\text{Cu}$  buyumlarini korroziyadan saqlavchi);

C) zararkunanda hasharotlarga qarshi vositalar ishlab chiqarishda.

1400. Aluminiyning qaysi birikmasidan jilvir va qumqayroq tayyorlanadi?

A) serenit  $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{O} \cdot 2\text{SiO}_2$ ;

B) korund ( $\text{Al}_2\text{O}_3$ );

C) keramin  $\text{Al}(\text{OH})_3 \cdot \text{Na}_2\text{O} \cdot 6\text{SiO}_2$ .

1401. Aluminiyning qaysi birikmasidan zargarlik buyumlari tayyorlanadi?

A) shaffof kristallari-pushti rubin va ko'k sapfir;

B) tiniq kristallari-qizil rubin va moviy sapfir;

C) xira kristallari-sariq rubin va yashil sapfir.

1402. Aluminiy birikmasi rubindan nimalar tayyorlanadi?

A) lazer, elektrod;

B) lazer, kolba;

C) lazer, podshipnik.

1403. Giltuproq nima uchun ishlatiladi?

A) kaliy olish;

B) aluminiy olish;

C) natriy olish.

1404. Aluminiyning qaysi birikmasi katalizator sifatida ishlatiladi?

A) suvsiz  $\text{AlCl}_3$ ;

B) suvsiz  $\text{AlC}_3$ ;

C) suvsiz  $\text{AlBr}_3$ .

1405.  $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$  dan nima ishlab chiqariladi?

A) bo'yoq va qog'oz;

B) qalam va qog'oz;

C) yelim va qog'oz.

1406. Ip — gazlamalarini bo'yashda, tibbiyotda aluminiyning qaysi birikmasi ishlatiladi?

A) kaliy-aluminiy achchiqtosh  $\text{KAl}(\text{SO}_4)_3 \cdot 12\text{H}_2\text{O}$ ;

B) korund  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ;

C) kriolit ( $\text{Na}_3\text{AlF}_6$ ).

1407. Nemis olimi F. Vyoler 1827-yilda aluminiyni olishda qaysi metalldan foydalangan?

- A) natriy  $\text{AlCl}_3 + 3\text{Na} \rightarrow 3\text{NaCl} + \text{Al}$ ;  
 B) kaliy  $\text{AlCl}_3 + 3\text{K} \rightarrow 3\text{KCl} + \text{Al}$ ;  
 C) rubidiy  $\text{AlCl}_3 + 3\text{Rb} \rightarrow 3\text{RbCl} + \text{Al}$ .

1408. Temirning yer qobig'idagi miqdori qancha?

- A) aluminiyidan oldin turadigan eng ko'p tarqalgan metalldir (6,7 %);  
 B) aluminiyidan keyin turadigan eng ko'p tarqalgan metalldir (2,4 %);  
 C) aluminiyidan keyin turadigan eng ko'p tarqalgan metalldir (4,2 %).

1409. Temirning tabiatda uchrashini izohlang?

- A) tabiatda kristall holida, meteoritlarda uchramaydi, lekin erkin holda uchraydi;  
 B) tabiatda birikma holida, meteoritlarda esa erkin holda uchraydi;  
 C) tabiatda kukun holida, meteoritlarda esa erkin holda uchramaydi.

1410. Asosiy minerallari qaysilar?

- A)  $\text{Fe}_3\text{O}_4$  – magnetit;  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  – gematit-qizil temirtosh;  $2\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$  – limonit-ko'ng'ir temir tosh;  $\text{FeCO}_3$  – siderit,  $\text{FeS}_2$  – pirit;  
 B)  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  – magnetit;  $\text{Fe}_3\text{O}_4$  – gematit-qizil temirtosh;  $2\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$  – limonit-ko'ng'ir temirtosh;  $\text{FeSO}_4$  – siderit,  $\text{FeS}_2$  – pirit;  
 C)  $\text{Fe}_3\text{O}_4$  – magnetit;  $\text{FeO}$  – gematit-qizil temirtosh;  $2\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$  – limonit-ko'ng'ir temir tosh;  $\text{FeSO}_4$  – siderit,  $\text{FeS}_2$  – pirit.

1411. Temirning olinish usullarini aniqlang?

- A) 3 xil: 1) uning birikmalarini  $\text{H}_2$ , C yoki CO bilan qaytarib olinadi:  
 $\text{FeCl}_2 + \text{H}_2 \rightarrow \text{Fe} + 2\text{HCl}$ ;       $\text{FeCl}_2 + \text{CO} \rightarrow \text{Fe} + \text{COCl}_2$ ;  
 2) uning oksidlarini aluminotermiya usuli bilan qaytarib olinadi:  
 $3\text{Fe}_2\text{O}_3 + 8\text{Al} \rightarrow 9\text{Fe} + 4\text{Al}_2\text{O}_3$ ;  
 3) temirning II valentlik tuzlarini piroliz qilib olinadi:  
 B) 3 xil: 1) uning birikmalarini  $\text{H}_2$ , C yoki CO bilan qaytarib olinadi:  
 $\text{FeO} + \text{H}_2 \rightarrow \text{Fe} + \text{H}_2\text{O}$ ;       $\text{FeCl}_2 + \text{CO} \rightarrow \text{Fe} + \text{COCl}_2$ ;  
 2) uning tuzlariga aluminiy ta'sir ettirib olinadi:  
 $3\text{Fe}(\text{NO}_3)_2 + 2\text{Al} \rightarrow 6\text{Fe} + 2\text{Al}(\text{NO}_3)_3$ ;  
 3) temirning II valentlik tuzlarini elektroliz qilib olinadi:  
 C) 3 xil: 1) uning oksidlarini  $\text{H}_2$ , C yoki CO bilan qaytarib olinadi:  
 $\text{FeO} + \text{H}_2 \rightarrow \text{Fe} + \text{H}_2\text{O}$        $\text{Fe}_2\text{O}_3 + 3\text{CO} \rightarrow 2\text{Fe} + 3\text{CO}_2$ ;  
 2) uning oksidlarini aluminotermiya usuli bilan qaytarib olinadi:  
 $3\text{Fe}_2\text{O}_3 + 8\text{Al} \rightarrow 9\text{Fe} + 4\text{Al}_2\text{O}_3$ ;  
 3) temirning II valentli tuzlarini elektroliz qilib olinadi.




1412. Temirning fizik xossalari qanday?

- A) toza temir kumushsimon oq havoda tezda xiralashuvchi, yetarlicha yumshoq va bolg'analuvchan, kuchli magnit xossalariga ega metall, issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazadi,  $T_s = 1534,83^\circ\text{C}$ ;  $T_q = 2770^\circ\text{C}$ ;  $D = 7,874 \text{ gr/cm}^3$ ; izotopi 16 ta (49@63);  
 B) toza temir kumushsimon oq havoda tezda xiralashuvchi, yetarlicha yumshoq va bog'lanuvchan kuchli magnit xossalariga ega metall, issiqlikni


yaxshi o'tkazadi elektr tokini yomon o'tkazadi,  $T_s = 1524,83^\circ\text{C}$ ;  $T_q = 2770^\circ\text{C}$ ;  $D = 7,7 \text{ gr/sm}^3$ ; izotopi 18 ta (49→65);

C) toza temir qora rangli havoda tezda xiralashuvchi, qattiq va bog'lanuvchan kuchli magnit xossalariiga ega metall, issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazadi,  $T_s = 1524,83^\circ\text{C}$ ;  $T_q = 2770^\circ\text{C}$ ;  $D = 7,7 \text{ gr/sm}^3$ ; izotopi 18 ta (49→65).

1413. Temir havoda qizdirilganda qanday moddalar hosil bo'ladi?



1414. Cho'g'langan Fe suv bug'i bilan ta'sirlashib nima hosil qiladi?



1415. Zang nima va u qanday qatlardan iborat?

A)  $\text{Fe}_3\text{O}_4$  dan iborat qizil-ko'ng'ir rangli tuzilma bo'lib, qattiq qatlardan iborat. Shuning uchun gaz va bug'larni oson o'tkazib metallni yemirilishiga sabab bo'ladi:  $3\text{Fe} + 2\text{O}_2 \rightarrow \text{Fe}_3\text{O}_4$ :

B)  $\text{Fe}(\text{OH})_2$  dan iborat qizil rangli tuzilma bo'lib qattiq qatlardan iborat. Shuning uchun gaz va bug'larni oson o'tkazib metallni yemirilishiga sabab bo'ladi:  $2\text{Fe} + 2\text{H}_2\text{O} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{Fe}(\text{OH})_2$ ;

C)  $\text{Fe}(\text{OH})_2$  dan iborat sarg'ish -ko'ng'ir rangli tuzilma bo'lib, g'ovak qatlardan iborat. Shuning uchun gaz va bug'larni oson o'tkazib metallni yemirilishiga sabab bo'ladi:  $4\text{Fe} + 6\text{H}_2\text{O} + 3\text{O}_2 \rightarrow 4\text{Fe}(\text{OH})_2$ .


1416. Konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  va  $\text{HNO}_3$  nima uchun temir idishda saqlanadi?

A) odadagi haroratda konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  va  $\text{HNO}_3$  kislotalar temir idishda suyuq holatga o'tadi;


B) odadagi haroratda konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  va  $\text{HNO}_3$  kislotalari temirni passivlashtirilib Fe yuzasida shu kislotada erimaydigan birikmalar hosil qiladi;


C) odadagi haroratda konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  va  $\text{HNO}_3$  kislotalari temir idishda kristall holatga o'tadi.

1417. II valentli temir birikmalari qanday olinadi?



1418. Och — yashil rangli  $\text{Fe}(\text{OH})_2$  vaqt o'tishi bilan qanday o'zgaradi?





1419. Temir nima maqsadda ishlataladi?

A) amaliyotda toza temirdan ko'proq, lekin uning qotishmalari po'lat va cho'yan keng miqyosda ishlataladi, Fe va uning qotishmalari qora metall deyiladi;

B) amaliyotda toza temirdan ko'proq, lekin uning qotishmalari po'lat va cho'yan keng miqyosda ishlataladi, Fe va uning qotishmalari qo'ng'ir metall deyiladi;

C) amaliyotda toza temirdan kamroq, lekin uning qotishmalari po'lat va cho'yan keng miqyosda ishlataladi, Fe va uning qotishmalari qora metall deyiladi.

1420. Eritrotsit tarkibida temirning qaysi ioni uchraydi?

A) eritrotsit asosini  $\text{Fe}^{+3}$  va globin oqsil tashkil etadi. Gemoglobinning bir molekulasida 3 ta  $\text{Fe}^{+2}$  bo'ladi;

B) eritrotsit asosini  $\text{Fe}^{+2}$  va globin oqsil tashkil etadi. Gemoglobinning bir molekulasida 4 ta  $\text{Fe}^{+2}$  bo'ladi;

C) eritrotsit asosini  $\text{Fe}^{+3}$  va globin oqsil tashkil etadi. Gemoglobinning bir molekulasida 5 ta  $\text{Fe}^{+3}$  bo'ladi.

1421. Temir yetishmasligidan kelib chiqadigan kasalliklar?

A) o'simliklarda skleroz kasalligi, odamda kamqonlik kasalligi kelib chiqadi;

B) o'simliklarda ateroskleroz kasalligi, odamda kamqonlik kasalligi kelib chiqadi;

C) o'simliklarda xloroz kasalligi, odamda kamqonlik kasalligi kelib chiqadi.

1422. Qaysi mahsulotlarda temir ko'p bo'ladi?

A) olma, anjir, qovun, sabzavot, tuxum, hayvonlar jigari, buyragi, tili, talog'i;

B) olma, anor, behi, sabzavot, tuxum, hayvonlar jigari, buyragi, tili, talog'i;

C) olma, anor, behi, sabzavot, tuxum, hayvonlar yurak, buyragi, o'ti, talog'i.

1423. Temirning odam organizmidagi miqdori qanday?

A) muskul to'qimasida  $0,025\%$ , ilikda  $(0,06-5,8) \cdot 10^{-4}\%$ , qonda  $448\text{ mg/l}$ ;

B) muskul to'qimasida  $0,030\%$ , ilikda  $(0,012-3,8) \cdot 10^{-2}\%$ , qonda  $500\text{ mg/l}$ ;

C) muskul to'qimasida  $0,018\%$ , ilikda  $(0,03-3,8) \cdot 10^{-2}\%$ , qonda  $447\text{ mg/l}$ .

1424. Temirning tabiiy organik birikmasi gemoglobin prototip shakli nima va u qaysi usulda olinadi?

A) ferzotsen, u sintetik usulda olinadi. Uning asosida 100 dan ortiq kimyoviy birikmalar olingan;

B) ferritin, u termokimyoviy usulda olinadi. Uning asosida 200 dan ortiq kimyoviy birikmalar olingan;

C) ferrat, u elektroliz orqali olinadi. Uning asosida 50 dan ortiq kimyoviy birikmalar olingan.

1425. Xloroz va kamqonlik kasalliklarini davolashda ishlataladigan preparatni kimlar sintez qiladi?

A) Fe ning ferzotsen birikmlari asosida N. Sh. Nizomov, I. R. Astaurov, A.N Nuriddinov va uning shogirdlari tomonidan 25 dan ortiq biologik faol moddalar sintez qilishdi;

B) Fe ning ferzotsen birikmlari asosida A.G. Maxsumov, I. R. Asqarov, T. Yu. Nasriddinov va uning shogirdlari tomonidan 10 dan ortiq biologik faol moddalar sintez qilishdi;

C) Fe ning ferzotsen birikmlari asosida Sh. N. Mirzaolimov, I. R. Asqarov, T. Yu. Nasriddinov va uning shogirdlari tomonidan 5 dan ortiq biologik faol moddalar sintez qilishdi.

1426. Bekobod metallurgiya zavodida temirning qaysi qotishmasi ishlab chiqariladi?

A) aluminiy birikmlari va rux plitalari;

B) temir trubalar va qalay idishlar;

C) po'lat va cho'yan.

1427. Cho'yan va po'lat nima?

A) cho'yan – tarkibida 5,14 % dan ko'p uglerod tutgan temir va uglerod qotishmasi;

Po'lat – tarkibida 7,8 % dan kam uglerod tutgan temir va uglerod qotishmasi;

B) cho'yan – tarkibida 2,14 % dan ko'p uglerod tutgan temir va uglerod qotishmasi;

Po'lat – tarkibida 2,14 % dan kam uglerod tutgan temir va uglerod qotishmasi;

C) cho'yan – tarkibida 3,2 % dan ko'p uglerod tutgan temir va uglerod qotishmasi.

Po'lat – tarkibida 6,5 % dan kam uglerod tutgan temir va uglerod qotishmasi.

1428. Cho'yan qanday olinadi?


A) domna pechlarida olinadi. Domnaning yuqori qismidan Fe rudasi, koks-C, flyus-CaO va qum aralashmasi beriladi. Domnaning pastki qismidan furmalar maxsus teshiklar orqali 10000–12000°C gacha qizdirilgan suv purkaladi;

B) domna pechlarida olinadi. Domnaning yuqori qismidan qum zarralari, natriy karbonat va alebaster aralashmasi beriladi. Domnaning pastki qismidan furmalar maxsus teshiklar orqali 4500–5000°C gacha qizdirilgan havo purkaladi;

C) domna pechlarida olinadi. Domnaning yuqori qismidan Fe rudasi, koks-C, flyus-CaCO<sub>3</sub> va qum aralashmasi beriladi. Domnaning pastki qismidan furmalar – maxsus teshiklar orqali 6000–8000°C gacha qizdirilgan havo purkaladi.

1429. Domnada yuz beradigan kimyoviy jarayonlarni aniqlang?

A) C+O<sub>2</sub>→CO<sub>2</sub>; CO<sub>2</sub>+C→2CO; 3Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>+CO→2Fe<sub>3</sub>O<sub>4</sub>+CO<sub>2</sub>;



1430. Cho'yan temirdan nimasi bilan farq qiladi?

- A) qattiq, mo'rt bo'ladi, bolg'alanadi;
- B) qattiq, mo'rt bo'ladi, bolg'alanmaydi;
- C) qattiq, nishbatan yumshoq, bolg'alanmaydi.

1431. Domnada olingan cho'yan tarkibi?

- A) 2–5,5 % C; 3,5 % Si; 4,5 % Mn oz miqdorda Sn, P tutadi;
- B) 3–4,5 % C; 5,5 % Si; 2,5 % Cu oz miqdorda S, P tutadi;
- C) 2–4,5 % C; 4,5 % Si; 1,5 % Mn oz miqdorda S, P tutadi.

1432. Quyma cho'yandagi uglerod qanday holda bo'ladi?

- A) grafit holida quyma cho'yan kulrang bo'lib, buyumlar tayyorlanadi;
- B) ko'mir holida quyma cho'yan qo'ng'ir bo'lib, buyumlar tayyorlanadi;
- C) mayda olmos holida quyma cho'yan sariq bo'lib, buyumlar tayyorlanadi.

1433. To'yingan cho'yandagi uglerod qanday holda bo'ladi?

- A) oq rangli bo'lib, temir karborund holida bo'ladi. Undan po'lat olinadi;
- B) oq rangli bo'lib, temir karbid holida bo'ladi. Undan po'lat olinadi;
- C) kulrang rangli bo'lib, temir karbid holida bo'ladi. Undan po'lat olinadi.

1434. Legirlangan cho'yan tarkibida qaysi elementlar bo'ladi?


- A) Cu, Na, Sn, Mn;
- B) Ca, Ni, Si, Mg;
- C) Cu, Ni, Si, Mn.

1435. Bekobodda po'lat olishda qaysi pechdan foydalaniadi?


- A) domna pechi;
- B) marten pechi;
- C) elektr pechi.

1436. Po'lat olish jarayoni mohiyati nimadan iborat?


- A) cho'yan tarkibidagi C, Si, S, P va qo'shimchalarining miqdorini kamaytirish.



- B) cho'yan tarkibidagi N, C, Se, S, P va qo'shimchalarining miqdorini kamaytirish.  $2\text{Cu} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{CuO}$ ,  $\text{FeO} + \text{Mn} \rightarrow \text{MnO} + \text{Fe} + \text{Q}$



- C) cho'yan tarkibidagi Te, Cl, Si, S, P va qo'shimchalarining miqdorini kamaytirish.



1437. Po'lat qanday xususiyatga ega?

- A) mo'rtlik va egiluvchanlik;
- B) mustahkamlik va cho'ziluvchanlik;
- C) mustahkamlik va plastiklik.

1438. Po'lat tarkibiga ko'ra necha turga bo'linadi?

- A) 2 ga; uglerodli va legirlangan po'lat. Legirlangan po'lat tarkibida C, Ni, Ti, Mo, Al, V, W va boshqa qo'shimchalar bo'ladi;
- B) 2 ga; uglerodli va silliqlangan po'lat. Silliqlangan po'lat tarkibida C, Na, Ti, Mg, Al, V, W va boshqa qo'shimchalar bo'ladi;
- C) 2 ga; uglerodli va presslangan po'lat. Presslangan po'lat tarkibida S, Ni, Ti, Mo, Cu, Na, W va boshqa qo'shimchalar bo'ladi.

1439. Po'lat ishlatish sohasiga ko'ra nechta turga bo'linadi?

- A) 3 tur: konstruksion, tibbiyotbop, alohida xossal;
- B) 3 tur: konstruksion, asbob-uskunabop, alohida xossal;
- C) 3 tur: konstruksion, asbob-uskunabop, o'ziga xos rangli.

1440. Uglerodli po'latning tarkibi qanday?

- A) 4 % gacha C; 0,1–1,5 % gacha Mn; 0,8 % gacha Si, S va P;
- B) 4,5 % gacha C; 0,1–5 % gacha Mn; 1,2 % gacha Si, S va P;
- C) 2 % gacha C; 0,1–1 % gacha Mn; 0,4 % gacha Si, S va P.

1441. Po'latni toplash, qizdirish, sementlash, azotlash, bolg'alash yo'llari bilan xossalari o'zgarishini kimlar juda yaxshi bilgan?

- A) qadimda mahalliy hunarmandlar, temirchi, pichoqchilar;
- B) o'rta asr alximiklari, mahalliy hunarmandlar, temirchi, pichoqchilar;
- C) 18-asr temirchilar.

1442. Konstruksion po'lat qanday xususiyatga ega?

A) past darajada mustahkamlik va qattiqlik, ularga bosim ostida ishlov berish, kesish payvandlash qiyinchilik tug'dirmaydi, ularidan mashina qismlari, konstruksion buyum va bino qurilishida foydalaniladi;

B) yuqori darajada mustahkamlik va plastiklik ularga bosim ostida ishlov berish, kesish payvandlash qiyinchilik tug'dirmaydi, ularidan mashina qismlari, konstruksion buyum va bino qurilishida foydalaniladi;

C) yuqori darajada mustahkamlik va cho'ziluvchanlik ularga bosim ostida ishlov berish, kesish payvandlash qiyinchilik tug'dirmaydi, ularidan mashina qismlari, konstruksion buyum va bino qurilishida foydalaniladi.

1443. Asbob-uskunabop po'latlar qanday xususiyatga ega?

A) yuqori darajada mustahkam va egiluvchanlik, yemirilishga chidamli ularidan kesuvchi va tekshiruv asboblari va plitalar tayyorlanadi;

B) nisbatan mustahkamlik va qattiqlik, yemirilishga chidamli ulardan kavlovchi, o'Ichov asboblari, shtamplar tayyorlanadi;

C) yuqori darajada mustahkam va qattiqlik, yemirilishga chidamli ulardan kesuvchi va o'Ichov asboblari, shtamplar tayyorlanadi.

1444. Asbob-uskunabop po'latning alohida guruqlariga qaysi po'lat kiradi?

- A) tez kesuvchi po'lat;
- B) tez egiluvchan po'lat;
- C) tez qizuvchan po'lat.

1445. Alohida xossali po'latlar qanday xususiyati bilan boshqasidan farq qiladi?

A) zanglamaydigan, yuqori haroratga chidamli magnit xossasisiz, korroziyaga chidamli. Ulardan gaz trubinalari, reaktiv qurilmalari, antimagnit qurilmalari tayyorlanadi;

B) zanglamaydigan, yuqori haroratga chidamli magnit xossali, korroziyaga chidamli. Ulardan gaz trubinalari, reaktiv qurilmalari, magnit qurilmalari tayyorlanadi;

C) zanglamaydigan, yuqori haroratga chidamli magnit xossali, korroziyaga chidamli. Ular kema parraklari gaz trubinalari, reaktiv qurilmalari, magnit qurilmalari tayyorlanadi.

1446. Mor tuzini ko'rsating?

- A)  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4 \cdot \text{FeSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  qo'sh tuz, suvda yaxshi eriydi;
- B)  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4 \cdot \text{FeSO}_4 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  qo'sh tuz, suvda yaxshi eriydi;
- C)  $\text{NH}_4\text{Cl} \cdot \text{FeSO}_4 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  qo'sh tuz, suvda yomon eriydi.

1447.  $\text{Fe}^{+2}$  tuzlari qanday qilib  $\text{Fe}^{+3}$  tuzlariga aylantiriladi?

- A)  $2\text{FeCl}_2 + 2\text{HCl} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow 2\text{FeCl}_3 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- B)  $4\text{Fe}(\text{OH})_2 + \text{O}_2 + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow 4\text{Fe}(\text{OH})_3$ ;
- C)  $2\text{FeCl}_2 + \text{Cl}_2 \rightarrow 2\text{FeCl}_3$ .

1448. Qizil qon tuzi formulasini ko'rsating?

- A)  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ;
- B)  $\text{K}_2[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ;
- C)  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ .

1449. Sariq qon tuzi formulasini ko'rsating?

- A)  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ;
- B)  $\text{K}_2[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ ;
- C)  $\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]$ .

1450.  $\text{Fe}^{+2}$  tuzlariga sifat reaksiyasi o'tkazilganda hosil bo'lgan moddani nomlang va reaksiyasini ko'rsating?

- A) Trunbul koki.  $3\text{FeSO}_3 + 2\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6] \rightarrow \text{Fe}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]_2 + 3\text{K}_2\text{SO}_4$ ;
- B) Trunbul koki.  $3\text{FeSO}_4 + 2\text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6] \rightarrow \text{Fe}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]_2 + 3\text{K}_2\text{SO}_4$ ;
- C) Trunbul koki.  $3\text{FeSO}_4 + 2\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6] \rightarrow \text{Fe}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]_2 + 4\text{K}_2\text{SO}_4$ .

1451. Fe<sup>+3</sup> tuzlariga sifat reaksiyasi o'tkazilganda hosil bo'lgan moddani nomlang va reaksiyasini ko'rsating?

A) Berlin siri yoki Parij koki.



B) Berlin siri yoki Parij ko'ki.



C) Berlin siri yoki Parij ko'ki.



1452. Margantes qachon va kim tomonidan kashf qilingan?

A) 1774-yili shved olimlari K. Sheele va Yoxan Gan;

B) 1775-yili shved olimlari K. Shpeyr va Yoxan Gan;

C) 1776-yili shved olimlari K. Sheele va Yoxan Gan.

1453. Marganetsni elektron konfiguratsiyasi, oksidlanish darajasi va valentliklarini ko'rsating?

A) ... 4 s<sup>2</sup> 3d<sup>6</sup>; -1, 0, +2, +3, +4, +5, +6, +7. II, IV, VI, VII;

B) ... 4 s<sup>2</sup> 3d<sup>5</sup>; 0, +2, +3, +4, +5, +6, +7. II, III, IV, VI, VII, VII;

C) ... 4 s<sup>2</sup> 3d<sup>4</sup>; 0, +2, +3, +4, +5, +6, +7. II, III, IV, VI, VII, VII.

1454. Marganesni tabiiy birikmalari qaysilar?

A) piroluzit — MnO<sub>2</sub>, gausmanit — Mn<sub>3</sub>O<sub>4</sub>, braunit — Mn<sub>2</sub>O<sub>3</sub>;

B) piroluzit — Mn<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, gausmanit — Mn<sub>3</sub>O<sub>4</sub>, braunit — Mn<sub>2</sub>O<sub>3</sub>;

C) piroluzit — MnO<sub>2</sub>, gausmanit — Mn<sub>2</sub>O<sub>5</sub>, braunit — Mn<sub>2</sub>O<sub>3</sub>.

1455. Marganetsni fizik xossalari qanday?

A) oq pushti, kulrang tusli, qattiq metall. ρ = 7,4 gr/sm<sup>3</sup>, Ts = 1244°C, Tq = 2080°C, 4 ta allotropiyasi bor Ts = 1244°C, Tq = 2080°C;

B) oq qizg'ish, kulrang tusli, yumshoq metall. ρ = 7,2 gr/sm<sup>3</sup>, Ts = 1245°C, Tq = 2080°C, 4 ta allotropiyasi bor Ts = 1244°C, Tq = 2080°C;

C) oq qizg'ish, kulrang tusli, qattiq metall. ρ = 7,44 gr/sm<sup>3</sup>, Ts = 1244°C, Tq = 2080°C, 4 ta allotropiyasi bor Ts = 1244°C, Tq = 2080°C.

1456. Marganesni olinish usullarini ko'rsating?

A) MnO<sub>2</sub> + 2S → 2SO + Mn; Mn<sub>3</sub>O<sub>4</sub> + 8Al → 4Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> + 9Mn;

B) MnO<sub>2</sub> + 2C → 2CO + Mn; Mn<sub>3</sub>O<sub>4</sub> + 8Al → 4Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> + 9Mn;

C) MnO<sub>2</sub> + 2S → 2SO + Mn; Mn<sub>2</sub>O<sub>3</sub> + 2Al → Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> + 2Mn.

1457. Marganesni oksidlari ichida qaysi biri amfoter?

A) piroluzit — MnO;

B) piroluzit — MnO<sub>3</sub>;

C) piroluzit — MnO<sub>2</sub>.

1458. Marganesni asosli va kislotali oksidini ko'rsating.

A) MnO, Mn<sub>2</sub>O asosli; MnO<sub>2</sub>, Mn<sub>3</sub>O<sub>7</sub> — kislotali;

B) MnO<sub>2</sub>, Mn<sub>2</sub>O asosli; MnO<sub>3</sub>, Mn<sub>2</sub>O<sub>7</sub> — kislotali;

C) MnO, Mn<sub>3</sub>O<sub>4</sub> asosli; MnO<sub>2</sub>, Mn<sub>2</sub>O — kislotali.

1459.  $MnO_3$  va  $Mn_2O_3$  da muvofiq keluvchi kislotalarini ko'rsating?

- A)  $H_2MnO_4$  – manganat va  $HMnO_3$  – permanganat kislotalar;
- B)  $H_2MnO_4$  – manganat va  $HMnO_4$  – permanganat kislotalar;
- C)  $H_2MnO_3$  – manganat va  $HMnO_4$  – permanganat kislotalar.

*Bilib oling!!!  $MnO_2$  bargaror birikma bo'lishi bilan birga aktiv oksidlovchi hamdir. Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasini yodda tuting:*

- 1)  $3MnO_2 \xrightarrow{\text{r}} Mn_2O_4 + O_2$ ;
- 2)  $3MnO_2 + 4Al \rightarrow 2Al_2O_3 + 3Mn$ ;
- 3)  $MnO_2 + 2H_2S \rightarrow MnS_2 + 2H_2O$ ;
- 4)  $MnO_2 + 2C \rightarrow 2CO + Mn$ ;
- 5)  $MnO_2 + SO_3 \rightarrow MnSO_4 + H_2O$ ;
- 6)  $MnO_2 + 2H_2SO_4 + 2NaCl \rightarrow 2Na_2SO_4 + MnSO_4 + Cl_2 + 2H_2O$ ;
- 7)  $MnO_2 + 3H_2SO_4 + 2NaJ \rightarrow 2NaHSO_4 + MnSO_4 + J_2 + 2H_2O$ ;
- 8)  $MnO_2 + H_2C_2O_4 + H_2SO_4 \rightarrow MnSO_4 + 2CO_2 + 2H_2O$ ;
- 9)  $MnO_2 + 2H_2O + H_2SO_4 \rightarrow MnSO_4 + 2H_2O + O_2 \uparrow$ ;
- 10)  $MnO_2 + 4HCl \rightarrow Cl_2 + MnCl_2 + 2H_2O$ ;
- 11)  $2MnO_2 + 6HNO_3 + 3PbO \rightarrow 3Pb(NO_3)_2 + 2HMnO_4 + 2H_2O$ ;
- 12)  $2MnO_2 + 4KOH + O_2 \rightarrow 2K_2MnO_4 + 2H_2O$ ;
- 13)  $2MnO_2 + 3PbO_2 + 6HNO_3 \rightarrow 2HMnO_4 + 3Pb(NO_3)_2 + 2H_2O$ ;
- 14)  $3MnO_2 + NaClO_3 + 6NaOH \rightarrow 3Na_2MnO_4 + NaCl + 3H_2O$ ;
- 15)  $2MnO_2 + NaClO_3 \rightarrow 2NaCl + 2NaMnO_4 + 2H_2O$ ;
- 16)  $2MnO_2 + O_2 + 4KOH \rightarrow 2K_2MnO_4 + 2H_2O$ ;
- 17)  $MnO_2 + 2NaCl + 2H_2SO_4 \rightarrow Na_2SO_4 + MnSO_4 + Cl_2 + 2H_2O$ ;
- 18)  $2MnO_2 + 3NaBiO_3 + 6HNO_3 \rightarrow 2HMnO_4 + 3BiONO_4 + 3NaNO_3 + 2H_2O$ ;
- 19)  $MnO_2 + 2KMnO_4 + 4KOH \rightarrow 3K_2MnO_4 + 2H_2O$ ;
- 20)  $MnO_2 + 2Kgal + 2H_2SO_4 \rightarrow K_2SO_4 + MnSO_4 + Gal_2 + 2H_2O$ ;
- 21)  $MnO_2 + K_2CO_3 + KNO_3 \rightarrow K_2MnO_4 + KNO_2 + CO_2$ .

*Yodda tuting!!!  $KMnO_4$  laboratoriya da kuchli oksidlovchi sifatida qo'llaniladi. Unga doir reaksiyalarni eslab qoling!*

1460. Xrom elementini kim va qachon kashf etgan?

- A) 1797-yili fransuz kimyogari M.M.Voklen;
- B) 1798-yili ingliz kimyogari M.M.Voklen;
- C) 1797-yili ingliz kimyogari M.M.Voklen.

1461. Xromning elektron konfiguratsiyasi, oksidlanish darajasi va valentligini ko'rsating?

- A)  $4s^1, 3d^6; 0; +2; +3; +6; \text{II, III, VI}$ ;
- B)  $4s^2, 3d^5; 0; +2; +3; +6; \text{II, III, VI}$ ;
- C)  $4s^1, 3d^5; 0; +2; +3; +6; \text{II, III, VI}$ .

1462. Xromning tabiiy birikmasi?

- A) xromli temirtosh  $\text{FeO} \cdot 2\text{Cr}_2\text{O}_3$ ;

- B) xromli temirtosh ——  $\text{FeO}\cdot\text{Cr}_2\text{O}_3$ ;  
C) xromli temirtosh ——  $\text{FeO}\cdot3\text{Cr}_2\text{O}_3$ .

1463. Xromning fizik xossalari?

- A) qattiq, yaltiroq metall,  $1890^{\circ}\text{C}$  da eriydi,  $p=7,2 \text{ gr/sm}^3$ , 3 ta allotropiyasi bor;  
B) qattiq, yaltiroq metall,  $1890^{\circ}\text{C}$  da eriydi,  $p=7 \text{ gr/sm}^3$ , 3 ta allotropiyasi bor;  
C) qattiq, yaltiroq metall,  $1890^{\circ}\text{C}$  da eriydi,  $p=7,2 \text{ gr/sm}^3$ , 2 ta allotropiyasi bor.

1464. Xromning olinishi qanday?

- A)  $\text{Cr}_2\text{O}_3 + 2\text{Mn} \rightarrow \text{Mn}_2\text{O}_3 + 2\text{Cr}$ ;  
B)  $\text{Cr}_2\text{O}_3 + 2\text{Fe} \rightarrow \text{Fe}_2\text{O}_3 + 2\text{Cr}$ ;  
C)  $\text{Cr}_2\text{O}_3 + 2\text{Al} \rightarrow \text{Al}_2\text{O}_3 + 2\text{Cr}$ .

1465. Xrom qanday oksidlar hosil qiladi?

- A)  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  — asosli,  $\text{CrO}$  — amfoter,  $\text{CrO}_3$  — kislotali;  
B)  $\text{CrO}$  — asosli,  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  — amfoter,  $\text{CrO}_3$  — kislotali;  
C)  $\text{CrO}$  — asosli,  $\text{CrO}_3$  — amfoter,  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  — kislotali.

1466.  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  (yashil tusli) modda qanday usullar bilan olinadi?

- A)  $\text{K}_2\text{CrO}_4 + \text{S} \rightarrow \text{Cr}_2\text{O}_3 + \text{K}_2\text{SO}_4$ ;  
B)  $(\text{NH}_4)_2\text{Cr}_2\text{O}_7 \rightarrow \text{Cr}_2\text{O}_3 + \text{N}_2 + 4\text{H}_2\text{O}$ ;  
C) A va B.

1467.  $\text{Cr}_2\text{O}_3$  amfoterlik xususiyatini ifodalovchi reaksiyani ko'rsating?

- A)  $\text{Cr}_2\text{O}_3 + 6\text{HCl} \rightarrow 2\text{CrCl}_3 + 3\text{H}_2\text{O}$ ;  
B)  $\text{Cr}_2\text{O}_3 + 3\text{KOH} \rightarrow \text{K}_3[\text{Cr}(\text{OH})_6]$ ;  
C) A va B.

1468.  $\text{CrCl}_3$  tuzi suvli eritmada koordinatsion soni 6 bo'lgan, xossalari har xil 3 xil gidrat izomeriya hqsil qiladi. Ularning formulalari qanday?

- A) 1)  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_4\text{Cl}_2]\text{Cl}\cdot2\text{H}_2\text{O}$  — to'q ko'k rangli dixlortetraakvaxrom (III) xloridgidrati; 2)  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_5\text{Cl}]\text{Cl}_2\cdot\text{H}_2\text{O}$  — och yashil rangli xloropentakvaxrom (III) xloridgidrati; 3)  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_6]\text{Cl}_3$  — pushti tusli xlorogeksaakvaxrom (III) xlorid;

- B) 1)  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_4\text{Cl}_2]\text{Cl}\cdot2\text{H}_2\text{O}$  — to'q yashil rangli dixlortetraakvaxrom (III) xloridgidrati; 2)  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_5\text{Cl}]\text{Cl}_2\cdot\text{H}_2\text{O}$  — och yashil rangli xloropentakvaxrom (III) xloridgidrati; 3)  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_6]\text{Cl}_3$  — binafsha tusli xlorogeksaakvaxrom (III) xlorid;

- C) 1)  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_4\text{Cl}_2]\text{Cl}\cdot2\text{H}_2\text{O}$  — och yashil rangli dixlortetraakvaxrom (III) xloridgidrati; 2)  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_5\text{Cl}]\text{Cl}_2\cdot\text{H}_2\text{O}$  — to'q yashil rangli xloropentakvaxrom (III) xloridgidrati; 3)  $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_6]\text{Cl}_3$  — binafsha tusli xlorogeksaakvaxrom (III) xlorid.

1469.  $\text{Cr(OH)}_3$  ga to'g'ri keluvchi kislotaning formulasi va nomini ko'rsating.

- A)  $\text{HCrO}_2$  – ortoxromit kislota;
- B)  $\text{H}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  – dixromat kislota;
- C)  $\text{H}_2\text{CrO}_4$  – xromat kislota.

1470.  $\text{CrO}_3$  oksidga to'g'ri keluvchi kislota qaysi?

- A)  $\text{HCrO}_2$  – ortoxromit va  $\text{H}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ , dixromat kislota;
- B)  $\text{HCrO}_3$  – ortoxromat va  $\text{H}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ , dixromat kislota;
- C)  $\text{H}_2\text{CrO}_4$  – xromat va  $\text{H}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ , dixromat kislota.

1471. Xromat va dixromat kislota tuzlari qanday tusda?

- A) sariq rangli;
- B) sariq va qovoq rangli;
- C) sariq va ko'k rangli.

1472.  $\text{Cr(OH)}_3$  ni asosiy kimyoviy xossalarni ifodalovchi reaksiyalarini ko'rsating?

- A)  $\text{Cr(OH)}_3 + 3\text{HCl} \rightarrow \text{CrCl}_3 + 3\text{H}_2\text{O}$ .
- $\text{Cr(OH)}_3 + \text{NaOH} \rightarrow \text{NaCrO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- B)  $\text{Cr(OH)}_3 + 3\text{KBr} + 3\text{SO}_2 \rightarrow \text{CrBr}_3 + 3\text{KHSO}_3$ .
- C) A va B.

1473. Ruxning tabiatdagi eng muhim birikmalari?

- A)  $\text{ZnS}$  – rux aldamasi;  $\text{ZnCO}_3$  – galmey;
- B)  $\text{ZnS}$  – rux aldamasi;  $\text{ZnSO}_4$  – galmey;
- C)  $\text{Zn}_2\text{S}$  – rux aldamasi;  $\text{ZnCO}_3$  – galmey.

1474. Ruxning fizik xossalari?

- A) kumushsimon – kulrang tusli, mo'rt, yassilanuvchi, amfoter metall;
- B) kumushsimon – zangori tusli, mustahkam, yassilanuvchi, amfoter metall;
- C) kumushsimon – zangori tusli, mo'rt, yassilanuvchi, amfoter metall.

1475.  $\text{ZnO}$  ning fizik xossalari qanday?


- A) oq rangli kristall, suvda erimaydi, kislota va ishqorlarda oson eriydi;
- B) oq rangli kukun, suvda erimaydi, kislota va ishqorlarda oson eriydi;
- C) oq rangli kukun, suvda eriydi, kislota va ishqorlarda qiyin eriydi.

1476.  $\text{Zn(OH)}_2$  ni amfoterligini ko'rsatuvchi reaksiyalar qaysilar?

- A)  $\text{Zn(OH)}_2 + 2\text{KOH} \rightarrow \text{K}_2\text{ZnO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- $\text{Zn(OH)}_2 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{ZnSO}_4 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- B)  $\text{Zn(OH)}_2 + 2\text{KOH} \rightarrow \text{K}_2\text{ZnO}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- $\text{Zn(OH)}_2 + \text{H}_2\text{CO}_3 \rightarrow \text{ZnCO}_3 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- C)  $\text{Zn(OH)}_2 + 4\text{KOH} \rightarrow \text{K}_4\text{ZnO}_4 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- $\text{Zn(OH)}_2 + \text{H}_2\text{S} \rightarrow \text{ZnS} + 2\text{H}_2\text{O}$ .

1477. Ruxni suvda eruvchi kompleks tuzlarini ko'rsating?


- A)  $(\text{NH}_4)_2[\text{ZnCl}_4]$        $[\text{ZnCl}_2(\text{NH}_3)_2]$ ,       $[\text{Zn}(\text{NH}_4)_4]\text{Cl}_2$ ;



1478. Rux va uning birikmalarini ishlatalish sohalarini ko'rsating?

- A) temir va nikel buyumlarini korroziyadan saqlash, galvanik elementlar yasash, kosmetikada, tibbiyotda, bo'yoq tayyorlashda ishlataladi;  
 B) temir va po'lat buyumlarini korroziyadan saqlash, galvanik elementlar yasash, kosmetikada, tibbiyotda, bo'yoq tayyorlashda ishlataladi;  
 C) rux va po'lat buyumlarini korroziyadan saqlash, galvanik elementlar yasash, kosmetikada, tibbiyotda, bo'yoq tayyorlashda ishlataladi.

1479. Ruxning konsentrjangan sulfat kislota bilan ta'sirlanish reaksiyasini ko'rsating?




***Yodda tuting!!! Kadmiyning barcha birikmaları ayniqsa, suvli eritmaları hayot uchun xavfli.***

1480. Kadmiy elementi kim tomonidan kashf qilingan?

- A) ingliz olimi F. Shromeyer tomonidan;  
 B) fransuz olimi F. Shromeyer tomonidan;  
 C) nemis olimi F. Shromeyer tomonidan.

1481. Kadmiy qanday olinadi?



1482. Kadmiyning fizik xossalari qanday?


- A) kumushsimon – qora tusli, yumshoq, bolg'alanuvchan va cho'ziluvchan metall;  
 B) kumushsimon – oq tusli, yumshoq, bolg'alanuvchan va cho'ziluvchan metall;  
 C) kumushsimon – yashil tusli, yumshoq, bolg'alanuvchan va cho'ziluvchan metall.


***Yodda tuting!!! Simob birikmaları juda zaharli! Ular buyrak, yurak va ichak faoliyatiga ta'sir etsa, og'ir xastaliklar keltirib chiqaradi!***

1483. Simobni tabiatdagji birikmalarini ko'rsating.

- A) kinovar –  $\text{HgS}$  (qizil tusli), va tog' jinslari tarkibida;  
 B) kinovar –  $\text{HgS}$  (och pushti tusli), va botqoq jinslari tarkibida;  
 C) kinovar –  $\text{HgS}$  (qizil tusli), va botqoq jinslari tarkibida.

1484. Simobni sanoatda olinishini ko'rsating.





*Eslatma!!! Oddiy sharoitda simob suyuq metall.*

1485. Simobni kislotalarda ta'sirini ko'rsating.

A) HCl va konsentrangan  $H_2SO_4$  da erimaydi, suyultirilgan  $H_2SO_4$  qizdirilganda ta'sirlashadi;

B) HCl va suyultirilgan  $H_2SO_4$  da erimaydi, konsentrangan  $H_2SO_4$  qizdrilganda ta'sirlashadi;

C) HCl va suyultirilgan  $H_2SO_4$  da eriydi, konsentrangan  $H_2SO_4$  qizdirilganda ta'sirlashadi.

1486. Simobning quyi oksidi  $Hg_2O$  da simob valentligi va oksidlash darajasini ko'rsating.

A) 2, +1;

B) 2, -1;

C) 2, +2.

1487. Simob va uning birikmalarini ishlatilish sohalari qaysilar?

A) elektrod sifatida, sun'iy quyosh lampalari, lyuminessent lampalari, nanometr, termometr tayyorlashda qo'llaniladi;

B) elektrod sifatida, sun'iy quyosh lampalari, lyuminessent lampalari, manometr, termometr tayyorlashda qo'llaniladi;

C) elektrod sifatida, tabiiy quyosh lampalari, lyuminessent lampalari, manometr, termometr tayyorlashda qo'llaniladi.

1488. Amalgamalar nima?

A) simobni metallmaslarda eritilgandagi hosilalari;

B) simobni metallarda eritilgandagi hosilalari;

C) simobni metallar va metallmaslar bilan hosil bo'lgan hosilalari.


1489. Sulema –  $HgCl_2$  dan nima maqsadlarda foydalaniladi?

A) urug'larni ekish oldidan ishlov berishda;

B) urug'larni ekishdan keyin ishlov berishda, terini oshlashda;

C) urug'larni ekish oldidan ishlov berishda, terini oshlashda.

*Yodda tuting!!! Amfoter metallarning tuzlari ishqoriy muhit beruvchi tuz eritmalarini bilan ta'sirlashganda amfoter metall gidroksidi hosil bo'ladi*



1490. Aluminiy galogenidlarning turg'unligi  $Al_2F_6 - Al_2J_6$  qatorda qanday o'zgaradi?

A) kamayib boradi;

B) ortib boradi;

C) avval ortib, keyin kamayadi.

1491.  $\text{Al}_2\text{Gal}_3$  parchalanish jarayonini ko'rsating?

- A)  $\text{Al}_2\text{Gal}_3 \xrightarrow{1200^\circ\text{C}} \text{Al}_2\text{Ga} + \text{Gal}_3$ , so'ng:  $3\text{Al}_2\text{Ga} \xrightarrow{1000^\circ\text{C}} 2\text{Al} + \text{Al}_2\text{Ga}_3$ ;  
B)  $3\text{Al}_2\text{Ga} \xrightarrow{1000^\circ\text{C}} 2\text{Al} + \text{Al}_2\text{Ga}_3$ ;  
C)  $2\text{Al}_2\text{Ga} \xrightarrow{1200^\circ\text{C}} 2\text{Al}_2\text{Ga}_2 + \text{Gal}_3$ , so'ng:  $3\text{Al}_2\text{Ga} \xrightarrow{1000^\circ\text{C}} 2\text{Al} + \text{Al}_2\text{Ga}_3$ .

1492. Misning tabiatdagisi asosiy birikmalari qaysilar?

- A)  $\text{CuS}$  – xalkozin (mis yaltirog'i),  $\text{CuFeS}_2$  – xalkopirit (mis kolchedani),  $\text{Cu(OH)}_2 \cdot \text{CuCO}_3$  malaxit;  
B)  $\text{CuS}$  – xalkozin (mis yaltirog'i),  $\text{CuFeS}_2$  – xalkopirit (mis kolchedani),  $\text{Cu(OH)}_2 \cdot 2\text{CuCO}_3$  malaxit;  
C)  $\text{Cu}_2\text{S}$  – xalkozin (mis yaltirog'i),  $\text{CuFeS}_2$  – xalkopirit (mis kolchedani),  $\text{Cu(OH)}_2 \cdot \text{CuCO}_3$  malaxit.

1493. Misning fizik xossalari?

- A) och pushti rangli, cho'ziluvchan, oson yassilanuvchi issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazuvchi (Ag dan keyin turadi) passiv metall;  
B) qizil rangli, cho'ziluvchan, oson yassilanuvchi issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazuvchi (Ag dan keyin turadi) passiv metall;  
C) qizil-pushti rangli, cho'ziluvchan, oson yassilanuvchi issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazuvchi (Ag dan keyin turadi) passiv metall.

1494. Misning suyultirilgan  $\text{HCl}$  bilan  $\text{O}_2$  ishtirokidagi reaksiyasini ko'rsating?

- A)  $4\text{Cu} + 4\text{HCl} + 3\text{O}_2 \rightarrow 4\text{CuOCl} + 2\text{H}_2\text{O}$ ;  
B)  $\text{Cu} + 4\text{HCl} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{CuCl}_2 + 2\text{H}_2\text{O}$ ;  
C)  $2\text{Cu} + 4\text{HCl} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{Cu}(\text{OH})_2 + 2\text{Cl}_2$ .

1495.  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]\text{SO}_4$  tuzlari kompleks tuz qanday hosil bo'ladi?

- A)  $\text{Cu}_2\text{SO}_4$  ni ammoniy gidroksid eritmasida erishidan;  
B)  $\text{Cu}_2\text{SO}_4$  ni ammiak suvining eritmasida erishidan;  
C)  $\text{Cu}_2\text{O}$  ni ammiak suvining eritmasida erishidan.

1496.  $\text{Cu}(\text{OH})_2$  qanday modda?


- A) yashil rangli cho'kma, kislotali xossasi zaifroq bo'lgan amfoter gidroksid;  
B) ko'k rangli cho'kma, kislotali xossasi zaifroq bo'lgan amfoter gidroksid;  
C) ko'k rangli cho'kma, kislotali xossasi aktivroq bo'lgan amfoter gidroksid.

1497. Misni amfoter asos ekanligini isbotlovchi reaksiya tenglamasini ko'rsating?

- A)  $\text{Cu}(\text{OH})_2 + 2\text{NaOH} \rightarrow \text{Na}_2[\text{Cu}(\text{OH})_4]$  natriy kuprit;  
B)  $\text{CuO} + 2\text{NaOH} \rightarrow \text{Na}_2[\text{Cu}(\text{OH})_3]$  natriy kuprit;  
C)  $\text{CuO} + 2\text{NaOH} + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{Na}_2[\text{Cu}(\text{OH})_4]$  natriy kuprit.

1498. Sellulozani eritish xususiyatiga ega bo'lgan misni kompleks tuzi  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_4](\text{OH})_2$  ni olish reaksiyasini ko'rsating?

- A)  $\text{Cu}(\text{OH})_2 + 3\text{NH}_3 = [\text{Cu}(\text{NH}_3)_3](\text{OH})_2$ ;



1499. Cu (I) tuzlarini asetilenidlar hosil qilish reaksiyasini ko'rsating?

- A)  $\text{HC}\equiv\text{CH} + 2\text{CuCl}_2 \rightarrow \text{Cu-C}\equiv\text{C-Cu} + 2\text{HCl};$   
B)  $\text{HC}\equiv\text{CH} + 2\text{CuCl} \rightarrow \text{Cu-C}\equiv\text{C-Cu} + 2\text{HCl};$   
C)  $\text{HC}\equiv\text{CH} + 2\text{CuCl} \rightarrow \text{Cu-C=C-Cu} + 2\text{HCl}.$

1500.  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  (mis to'tiyosi) sanoatda qanday olinadi?

- A)  $2\text{Cu} + 2\text{H}_2\text{SO}_4$  (suy)  $+ \text{O}_2 = 2\text{CuSO}_4 + 2\text{H}_2\text{O};$   
B)  $2\text{Cu} + 2\text{H}_2\text{SO}_4$  (kons)  $+ \text{O}_2 = 2\text{CuSO}_4 + 2\text{H}_2\text{O};$   
C)  $2\text{Cu} + 2\text{H}_2\text{SO}_4$  (kons)  $+ \text{O}_2 =$  bu reaksiya sodir bo'lmaydi.

1501.  $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$  da  $\text{H}_2\text{O}$  molekulalari qanday bog'langan?

- A) 5 ta  $\text{H}_2\text{O}$  mis ioni bilan bevosita bog'langan, 1 tasi esa  $\text{SO}_4$  anioni bilan vodorod bog'lari orqali bog'langan;  
B) 3 ta  $\text{H}_2\text{O}$  mis ioni bilan bevosita bog'langan, 1 tasi esa  $\text{SO}_4$  anioni bilan vodorod bog'lari orqali bog'langan;  
C) 4 ta  $\text{H}_2\text{O}$  mis ioni bilan bevosita bog'langan, 1 tasi esa  $\text{SO}_4$  anioni bilan vodorod bog'lari orqali bog'langan.

1502. CuS qanday rangli cho'kma?

- A) qora cho'kma;  
B) oq cho'kma;  
C) yashil cho'kma.

1503. Misni +3 oksidlanish darajali birikmasini olish reaksiyasini ko'rsating?

- A)  $2\text{Cu}(\text{OH})_2 + \text{K}_2\text{S}_2\text{O}_8 \rightarrow \text{Cu}_2\text{O}_3 + \text{K}_2\text{SO}_4 + \text{H}_2\text{O};$   
B)  $2\text{CuOH} + \text{K}_2\text{S}_2\text{O}_8 \rightarrow \text{Cu}_2\text{O}_3 + 2\text{KHSO}_4 + \text{H}_2\text{O};$   
C)  $2\text{Cu}(\text{OH})_2 + \text{K}_2\text{S}_2\text{O}_8 \rightarrow \text{Cu}_2\text{O}_3 + 2\text{KHSO}_4 + \text{H}_2\text{O}.$

1504. Mis va uning birikmalarini xalq xo'jaligidagi ahamiyati?

- A) asosan elektrotexnikada elektr simlar va kabellar, suv qurilmalari va isitgichlar hamda qotishmalar tayyorlashda ishlatalidi;  
B) asosan aviatsiya sanoatida, suv qurilmalari va isitgichlar hamda qotishmalar tayyorlashda ishlatalidi;  
C) asosan radiotexnika, suv qurilmalari va isitgichlar hamda qotishmalar tayyorlashda ishlatalidi.

1505. Sanoatda mis qanday olinadi?

- A)  $2\text{Cu}_2\text{S} + 3\text{O}_2 \rightarrow 2\text{Cu}_2\text{O} + 2\text{SO}_2;$   
B)  $2\text{Cu}_2\text{O} + \text{Cu}_2\text{S} \rightarrow 6\text{Cu} + \text{SO}_2;$   
C) A va B.

1506. Kumushning asosiy birikmalari qaysilar?

- A)  $\text{Ag}_2\text{S}$  – argentit (kumush yaltirog'i);

B)  $\text{Ag}_2\text{O}$  – argentit (kumush yaltirog'i);

C)  $\text{Ag}_4\text{C}$  – argentit (kumush yaltirog'i).

1507. Kumushning fizik xossalari qanday?

A) qattiq, cho'ziluvchan, issiqlik va elektr tokini yaxshi otkazuvchi, kimyoviy jihatdan passiv metall;

B) yumshoq, cho'ziluvchan, issiqlik va elektr tokini yaxshi otkazuvchi, kimyoviy jihatdan passiv metall.

C) yumshoq, cho'ziluvchan, issiqlik va elektr tokini yaxshi otkazuvchi, kimyoviy jihatdan aktiv metall.

1508. Kumush qaysi kislotalarda eriydi?

A) faqat  $\text{HNO}_3$  da;

B) faqat  $\text{H}_2\text{SO}_4$  da;

C) faqat  $\text{HCl}$  da.

1509.  $\text{Ag}_2\text{O}$ (qo'ng'ir tusli kukun) qanday olinadi?

A)  $2\text{AgNO}_3 + \text{Ca}(\text{OH}) \rightarrow \text{Ag}_2\text{O} + \text{Ca}(\text{NO}_3)_2 + \text{H}_2\text{O}$ ;

B)  $2\text{AgNO}_3 + \text{Cu}(\text{OH}) \rightarrow \text{Ag}_2\text{O} + \text{Cu}(\text{NO}_3)_2 + \text{H}_2\text{O}$ ;

C)  $2\text{AgNO}_3 + 2\text{KOH} \rightarrow \text{Ag}_2\text{O} + 2\text{KNO}_3 + \text{H}_2\text{O}$ .

1510. Kumush galogenidlarini  $\text{NH}_3$  eritmasida erish jarayonini ko'rsating?

A)  $\text{AgCl} + \text{NH}_3\text{OH} = [\text{Ag}(\text{NH}_3)]\text{Cl} + 2\text{H}_2\text{O}$ ;

B)  $\text{AgCl} + 2\text{NH}_3\text{OH} = [\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{Cl} + 2\text{H}_2\text{O}$ ;

C)  $\text{AgCl} + 2\text{NH}_3\text{OH} = [\text{Ag}(\text{NH}_3)_2] + 2\text{H}_2\text{O} + 0,5\text{Cl}_2$ .

1511. Kumush tuzlari qayerda ishlataladi?

A) fotografiyada, –  $\text{Ag}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{AgCl}$ ,  $\text{AgBr}$  va  $\text{AgJ}$  dan foydalansila, galvonotexnika, tibbiyat va ko'zgu tayyorlashda  $\text{AgNO}_3$  dan foydalaniadi;

B) fotografiyada, –  $\text{AgOH}$ ,  $\text{AgCl}$ ,  $\text{AgBr}$  va  $\text{AgJ}$  dan foydalansila, galvonotexnika, tibbiyat va ko'zgu tayyorlashda  $\text{AgNO}_3$  dan foydalaniadi;

C) fotografiyada, –  $\text{AgNO}_3$ ,  $\text{AgCl}$ ,  $\text{AgBr}$  va  $\text{AgJ}$  dan foydalansila, galvonotexnika, tibbiyat va ko'zgu tayyorlashda  $\text{AgNO}_3$  dan foydalaniadi.

1512.  $\text{Ag}_2\text{O}$  ni qaysi xossasidan organik birikmalar (glukoza, aldegid) da «kumush ko'zgu» reaksiyasini sodir etishda foydalaniadi?

A) kuchli oksidlovchiligidan;

B) kuchli qaytaruvchiligidan;

C) A va B.

*Yodda tuting!!! AgF – suvda eriydi, AgCl oq cho'kma (ammiak va natriy tiosulfatda eriydi) AgBr – och sariq cho'kma, AgJ- sariq cho'kma.*

1513. Oltin tabiatda qanday holda uchraydi?

A) mayda zarrachalar, yirik bo'lakchalar, qumga aralashgan holatda;

B) yirik zarrachalar, yirik bo'lakchalar, qumga aralashgan holatda;

C) mayda zarrachalar, mayda bo'lakchalar, qumga aralashgan holatda.

1514. Oltinni gidrometallurgiya usuli yordamida qumdan ajratib olishni ko'rsating.

- A)  $\text{Au} + 8\text{NaCN} + \text{O}_2 + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow 4\text{Na}[\text{Au}(\text{CN})_2] + 4\text{NaOH}$ ;
- B)  $2\text{Na}[\text{Au}(\text{CN})_2] + \text{Zn} = \text{Na}_2[\text{Zn}(\text{CN})_4] + 2\text{Au}$ ;
- C) A va B.

1515. Oltinni fizik xossalari qanday?

A) yaltiroq, och pushti tusli, plastik, oson yassilanuvchi, issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazuvchi (Ag va Cu dan keyin) metall;

B) yaltiroq, sariq tusli, plastik, oson yassilanuvchi, issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazuvchi (Ag va Cu dan keyin) metall;

C) yaltiroq, sariq tusli, elastik, oson yassilanuvchi, issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazuvchi (Ag va Cu dan keyin) metall.

*Bilib oling!! 1 gr oltin bo'lkachasidan uzunligi 3,5 km ga yetadigan sim tayyorlash mumkin.*

1516. Oltinni «Shox arog'i» da erishini ko'rsating.

- A)  $\text{Au} + 3\text{HCl} + \text{HNO}_3 \rightarrow \text{AuCl}_3 + \text{NO} + 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- B)  $\text{Au} + \text{HNO}_3 \rightarrow \text{AuNO}_3 + 0,5\text{H}_2$ ;
- C)  $\text{Au} + 3\text{HCl} \rightarrow \text{AuCl}_3 + 1,5\text{H}_2$ .

1517. Oltinni birikmalardagi oksidlanish darajasi qanday?

- A) +1; +3;
- B) +1; +2;
- C) -1; +3.

1518.  $\text{Au}_2\text{O}$  (kulrang-binafsha tusli, suvda erimaydigan) ni qanday usul bilan olinadi?

- A)  $2\text{K}[\text{AuCl}_2] + 2\text{KOH} \rightarrow 4\text{HCl} + \text{Au}_2\text{O} + \text{H}_2\text{O}$ ;
- B)  $2\text{K}[\text{AuBr}_2] + 2\text{KOH} \rightarrow 4\text{HBr} + \text{Au}_2\text{O} + \text{H}_2\text{O}$ ;
- C)  $2\text{K}[\text{AuJ}_2] + 2\text{KOH} \rightarrow 4\text{HJ} + \text{Au}_2\text{O} + \text{H}_2\text{O}$ .

1519.  $\text{Au}(\text{OH})_3$  qanday asos?

A) kislotali, lekin asosligi ustunroq, chunki u suvini yo'qotib  $\text{AuO}(\text{OH})$  holatiga o'tadi;

B) ishqoriy, lekin kislotaligi ustunroq, chunki u suvini yo'qotib  $\text{AuO}(\text{OH})$  holatiga o'tadi;

C) amfoter, lekin kislotaligi ustunroq, chunki u suvini yo'qotib  $\text{AuO}(\text{OH})$  holatiga o'tadi.

1520. Ishqoriy metallardan qaysi biri yonganda oksid hosil qiladi?

- A) litiy.  $4\text{Li} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{Li}_2\text{O}$ ;
- B) rubidiy.  $4\text{Rb} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{Rb}_2\text{O}$ ;
- C) natriy.  $4\text{Na} + \text{O}_2 \rightarrow 2\text{Na}_2\text{O}$ .



1521. Berilliyni fizik xossalari qanday?

A) qora tusli, yengil, mo'rt, juda qattiq, korroziyaga chidamli, oksid pardasi zich;



B) oq tusli, yengil, mo'rt, juda qattiq, korroziyaga chidamli, oksid pardasi zich;

C) oq tusli, og'ir, mo'rt, juda qattiq, korroziyaga chidamli, oksid pardasi zich.

1522. Berilliyni kislotalar bilan reaksiyasini ko'rsating.




1523. Berilliyni ishqorlar bilan reaksiyasini ko'rsating.



1524. Berilliyni aktseptorlik funksiyasini ifodalovchi reaksiyani ko'rsating.



1525. Berilliyni amfoterlik xususiyatini ifodalovchi reaksiyasini ko'rsating.



1526. Berilliyni eruvchan tuzlarini ko'rsating.





1527. Berilliyni birikmalarini xalq xo'jaligidagi ahamiyati qanday?

A) korroziyaga chidamli qotishmalar tayyorlashda, temiryo'l sanoatida va aviasozlikda keng ko'lamda foydalaniladi;

B) korroziyaga chidamli qotishmalar tayyorlashda, jarrohlik asboblari va aviasozlikda keng ko'lamda foydalaniladi;

C) korroziyaga chidamli qotishmalar tayyorlashda, jarrohlik asboblari va temiryo'l sanoatida keng ko'lamda foydalaniladi.

1528. Tabiatda stronsiyning qanday minerallari uchraydi?



1529.  $\text{Sr}(\text{OH})_2$  ning eruvchanligi qanday?

A) uchuvchan, kalsiy birikmasi ( $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ) dan yuqori;

B) erimaydigan, kalsiy birikmasi ( $\text{Ca(OH)}_2$ ) dan yuqori;  
C) eruvchan, kalsiy birikmasi ( $\text{Ca(OH)}_2$ ) dan yuqori.

1530. Stronsiyi yomon eruvchi tuzlari qaysilar?

- A)  $\text{SrCO}_3$ ,  $\text{SrS}$ ;
- B)  $\text{SrCO}_3$ ,  $\text{SrSO}_4$ ;
- C)  $\text{SrSiO}_3$ ,  $\text{SrSO}_4$ .

1531. Alangani to‘q qizil rangga bo‘yovchi tuzi qaysi?

- A)  $\text{SrCl}_2$ ;
- B)  $\text{SrSO}_4$ ;
- C)  $\text{SrS}$ .

1532. Bariyni tabiatda tarqalgan asosiy birikmalari qaysilar?

- A)  $\text{BaCO}_3$  – buterit,  $\text{BaS}$  – barit;
- B)  $\text{BaSO}_4$  – buterit,  $\text{BaCO}_3$  – barit;
- C)  $\text{BaCO}_3$  – buterit,  $\text{BaSO}_4$  – barit.

1533. BaO qizdirilganda nima hosil bo‘ladi?

- A)  $\text{Ba}_2\text{O}_2$  – bariy peroksid;
- B)  $\text{BaO}_2$  – bariy peroksid;
- C)  $\text{Ba}_2\text{O}_4$  – bariy peroksid.

1534.  $\text{Ba(OH)}_2$  ning suvli eritmasi nima deyiladi?

- A) bariyli suv;
- B) ohakli suv;
- C) distillangan suv.

1535. Bariyni yomon eruvchi tuzlari?

- A)  $\text{BaSiO}_3$ ,  $\text{BaSO}_4$ ;
- B)  $\text{BaCO}_3$ ,  $\text{BaSO}_3$ ;
- C)  $\text{BaCO}_3$ ,  $\text{BaSO}_4$ .

1536. Alangani sarg‘ish yashil rangga bo‘yovchi tuzi qaysi?

- A)  $\text{BaCl}_2$ ;
- B)  $\text{BaBr}_2$ ;
- C)  $\text{BaF}_2$ .

### Metallar mavzusiga oid namunaviy masalalar va ularning yechilish usullari

**1-masala.** 2 valentli metall gidridi 134,1 g suvda eritilganda 896 ml (n.sh) gaz modda ajralib, 2,5 %li eritma hosil bo‘ldi. Qaysi metall gidridi ishlatalgan?

**Yechish:**



1) Dastlab reaksiyaga kirishgan suv massasi topib olinadi.

$$44800 \text{ ml} \quad 36 \text{ g}$$

$$896 \text{ ml} \quad x \quad x = 0,72 \text{ g};$$

2) Ortib qolgan suv massasi topiladi.

$$134,1 - 0,72 = 133,38 \text{ g}$$

3) Suv bo'yicha erigan ishqor massasi topiladi.

$$97,5 \% \quad 133,38 \text{ g}$$

$$2,5 \% \quad x \quad x = 3,42 \text{ g};$$

4) Reaksiya bo'yicha ishqor massasi topiladi.

$$896 \text{ ml} \quad 3,42 \text{ g}$$

$$44800 \text{ ml} \quad x \quad x = 171 \text{ g};$$

5) Me(OH)<sub>2</sub> = 171 ekanligidan foydalanib, metall topiladi.

$$171 - 34(2\text{OH}) = 137$$

**Javob:** Me = Ba Bariy

**2-masala.** Tarkibida 20% begona moddasi bo'lgan gematitning

200 kg miqdoridan 94% temirli cho'yandan necha kg tayyorlash mumkin?

**Yechish:**

1) Sof gematitning massasi topiladi:

$$200 \cdot 0,8 = 160$$

2) Gematit tarkibidagi temirning massasi topiladi:



$$160 \quad 112$$

$$160 \quad x \quad x = 112 \text{ kg}$$

3) 94% li temiri bo'lgan cho'yan massasi topiladi.



$$94\% \quad 112 \text{ kg}$$

$$100\% \quad x \quad x = 119,15 \text{ kg}$$

**Javob:** x = 119,15 kg

**3-masala.** Na va Ca dan iborat 0,3 mol aralashma suv bilan ta'sirlashganda 4,48 litr (n.sh) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashmadagi Ca ning massasini aniqlang?

**Yechish:**



1) Reaksiya tenglamasi bo'yicha proporsiya tuziladi.

$$1 \text{ mol Na} \quad 0,5 \text{ mol H}_2$$

$$x \quad y$$

$$y = 0,5 x$$



2) Belgilashlar asosida Na moli topiladi.

$$0,5x + 0,3 - x = 0,2$$

$$0,1 = 0,5 x$$

$$x = 0,2 \text{ mol Na}$$

3) Aralashmaning umumiy molidan Na molini ayirib Ca ning miqdori topiladi.

$$0,3-0,2=0,1 \text{ mol} \cdot 40 = 4 \text{ g}$$

**Javob:** 4 g Ca

**4-masala.** 9 g Al bilan xlorid kislota orasidagi reaksiyada hosil bo'ladigan hajmdagi vodorodni olish uchun Na va H<sub>2</sub>O orasidagi reaksiyada necha mol Na sarf bo'ladi?

**Yechish:**



1) 1-reaksiya tenglamasiga asoslanib ajralib chiqayotgan H<sub>2</sub> ni miqdori topiladi.




2) 2-reaksiya tenglamasiga asoslanib, Na ning miqdori topiladi.



**Javob:** 1 mol Na.

**5-masala.** Massasi 5,4 g bo'lgan Ag suyultirilgan nitrat kislota eritildi va eritmaga mol miqdordagi KOH eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan cho'kma massasini hisoblang?

**Yechish:**



3) Dastlab, Ag massasidan cho'kmaning massasi topib olinadi.



**Javob:** 5,8 g Ag<sub>2</sub>O.

**6-masala.** 6,4 g mis sterjen kumush nitrat eritmasiga solinib bir-ozdan keyin olinganda uning massasi 3,04 g ortgan. Ushbu sterjenni eritish uchun necha gramm 96% li sulfat kislota sarf bo'ladi?

**Yechish:**

1) Reaksiya tenglamasi bo'yicha massalar farqi topib olinadi;

$$216(\text{Ag}) - 64 (\text{Cu}) = 152(\text{reaksiya bo'yicha ortish});$$

2) Reaksiya bo'yicha hamda tajriba bo'yicha ortish miqdoriga asoslanib, eritmaga tushgan Cu massasini va plastinkaga o'tirgan Ag massasini topib olinadi.

$$\begin{array}{rcl} 152 & \ldots & 64 \\ 3,04 & \ldots & x \end{array}$$

$$x = 1,28 \text{ Cu}$$

$$\begin{array}{rcl} 152 & \ldots & 216 \\ 3,04 & \ldots & x \end{array}$$

$$x = 4,32 \text{ Ag}$$

3) Dastlabki plastinka massasidan eritmaga tushgan Cu miqdorini ayirib, plastinkada qolgan Cu massasi topib olinadi.

$$6,4 - 1,28 = 5,12 \text{ g Cu}$$

4) Cu va Ag massasiga asoslanib, ular bilan ta'sirlashgan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ni massasi aniqlanadi.



$$\begin{array}{rcl} 64 & \ldots & 196 \text{ H}_2\text{SO}_4 \\ 5,12 & \ldots & x \end{array}$$

$$x = 15,68 \text{ g H}_2\text{SO}_4$$

$$216 \ldots 196 \text{ H}_2\text{SO}_4$$

$$4,32 \ldots x \quad x = 3,92 \text{ g H}_2\text{SO}_4;$$

5) Topilgan kislota massalaridan eritmaning massasi aniqlanadi.


$$15,68 + 3,92 = 19,6 \text{ g}$$

$$96\% \ldots 19,6$$

$$100\% \ldots x \quad x = 20,4 \text{ g}$$

**Javob:** 20,4 g eritma

**7-masala.** 500 g suvda 60,4g natriy sulfat va mis(II) sulfat aralashmasi eritildi. Eritmadan misni to'liq ajratib olish uchun 2 amper tok 19300 sekund davomida o'tkazilgan bo'lsa aralashmadagi tuzlarning massasini toping.

**Yechish:**

1)  $n = \frac{Q}{F}$ ; formuladan ekvivalent miqdor topib olinadi.

$$n = \frac{2 \cdot 19300}{96500} = 0,4$$

4) n- miqdoriga asoslanib Cu massasi topiladi.  
 $m = 32 \cdot 0,4 = 12,8 \text{ g}$

5) Metallning massasidan mis (II) sulfat massasi topiladi.

$$64 \text{ } \underline{\hspace{2cm}} \quad 160$$

$$12,8 \text{ } \underline{\hspace{2cm}} \quad x$$

$$x = 32 \text{ g } \text{CuSO}_4$$

6) Mis (II) sulfat massasidan foydalanib, natriy sulfat massasi topib olinadi.

$$60,4 - 32 = 28,4 \text{ g}$$

Javob:  $\text{CuSO}_4 = 32 \text{ g}$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4 = 28,4 \text{ g}$

## XII BOB

### ORGANIK BIRIKMALAR. UGLEVODORODLAR

*Organik kimyo – kimyoning eng katta va asosiy bo‘limi hisoblanib, bu fan uglerod birikmalarini, ularning tuzilishi, izomeriyasi, xossalari, olinishi va ishlatalishini o‘rganadi. Organik moddalar miqdoran noorganik moddalarga nisbatan juda ko‘p bo‘lib, tirik organizmlarning asosini tashkil qiluvchi asosiy material ham hisoblanadi.*

*Organik moddalarni noorganik moddalardan farqli, bir necha xil xususiyatlari bo‘lib, ular nisbatan heqarorligi, qizdirilganda oson o‘zgarishi, yonuvchanligi, kimyoviy reaksiyalarga sekinroq kirishi va tarkibida uglerod hamda vodorod albatta bo‘lganligi sababli yonganida  $CO_2$  va  $H_2O$  hosil qilishi bilan ajralib turadi.*

*Ushbu bobda uglevodorodlarning ayrim sinflarining tuzilishi, izomeriyasi, xossalari, olinish usullari va ishlatalish sohalariga oid savollar, ularning javoblari hamda masalalar va ularning yechimlari keltirilgan.*

#### Uglevodorodlar mavzusiga oid savollar va ularning javoblari

1537. Qaysi moddalar insonga qadimdan ma’lum?

- A) qand, yog‘-moy, efir moylari;
- B) qand, yog‘-moy, efir moylari, bo‘yovchi va kayfiyatni o‘zgartiruvchi moddalar;
- C) bo‘yovchi va kayfiyatni o‘zgartiruvchi moddalar.

1538. Organik birikmalar tarkibiga qaysi elementlar kiradi?

- A) C, Fe, O, N, P, S;
- B) C, H, Cu, N, P, S;
- C) C, H, O, N, P, S.

1539. Vitalistlarning fikriga qarshi ishonchli dalillarni kimlar yaratdi?

- A) F. Vyoller 1824-yil  $H_2C_2O_4$ , 1828-yil  $CO(NH)_2$ , N. N. Zinin 1832-yil anilin sintezi, M. Bertlo 1854-yil sun’iy yog‘simon modda sintezi, A. M. Butlerov 1861-yil shakarsimon modda sintezi;
- B) F. Vyoller 1824-yil  $CO(NH)_2$ , 1824-yil  $H_2C_2O_4$ , N. N. Zinin 1832-yil anilin sintezi, M. Bertlo 1854-yil sun’iy yog‘simon modda sintezi, A. M. Butlerov 1861-yil shakarsimon modda sintezi;
- C) F. Vyoller 1824-yil  $H_2C_2O_4$ , 1828-yil  $CO(NH)_2$ , N. N. Zinin 1832-yil anilin sintezi, A. M. Butlerov 1854-yil sun’iy yog‘simon modda sintezi, M. Bertlo 1861-yil shakarsimon modda sintezi.

1540. O'simlik va hayvonlar organizmini tashkil qiluvchi asosiy material nima?

- A) uglevodolar;
- B) noorganik moddalar;
- C) organik moddalar.

1541. Organik va noorganik moddalarning farqini aniqlang?

A)

	<i>Organik moddalar</i>	<i>Noorganik moddalar</i>
Qizdirilganda	parchalanmaydi	parchalanadi yoki o'zgarmaydi
Yondirilganda	CO <sub>2</sub> va H <sub>2</sub> O hosil bo'ladi	yonmaydi, ayrimlari yanib turli moddalarni hosil qiladi
Tarkibiga	albatta C kiradi	turli atomlar kiradi
Reaksiya kirishishi	noorganik moddalarga nisbatan sekin	

B)

	<i>Organik moddalar</i>	<i>Noorganik moddalar</i>
Qizdirilganda	parchalanadi ko'mirga aylanadi	parchalanadi yoki o'zgarmaydi
Yondirilganda	CO <sub>2</sub> va H <sub>2</sub> O hosil bo'ladi	yonmaydi, ayrimlari yanib turli moddalarni hosil qiladi
Tarkibiga	albatta C kiradi	turli atomlar kiradi
Reaksiya kirishishi	noorganik moddalarga nisbatan sekin	

C)

	<i>Organik moddalar</i>	<i>Noorganik moddalar</i>
Qizdirilganda	Parchalanadi, ko'mirga aylanadi	parchalamaydi
Yondirilganda	CO <sub>2</sub> va H <sub>2</sub> O hosil bo'ladi	yonmaydi, ayrimlari yanib turli moddalarni hosil qiladi
Tarkibiga	albatta C kiradi	turli atomlar kiradi
Reaksiya kirishishi	noorganik moddalarga nisbatan sekin	

1542. Organik birikma va organik kimyo tushunchasini kim fanga kiritgan?

- A) 1827-yil I. Ya Berselius;
- B) 1828-yil Butlerov;
- C) 1835-yil I. Ya Berselius.

1543. Kimyoviy tuzilish nazariyasining asosini Butlerov qachon va qayerda ma'ruza qilgan?

- A) 1861- yil 1-sentabrda Parij va Shpeyer shahrida;
- B) 1861-yil 16-sentabrda Vena va Shpeyer shahrida;
- C) 1861-yil 16-sentabrda Parij va Shpeyer shahrida.

1544. Modda tarkibini o'rganishda sirka kislotaning 20 ta formulasidan foydalangan olim kim?

- A) Kekule;
- B) Butlerov;
- C) Zinin.

1545. 1823-yilda kimlar tomonidan izomeriya hodisasi ochildi?

- A) A. F. Vyoller va J. Dyuma;
- B) A. Y.Libix va F. Vyoller;
- C) A. Y.Libix va P. Buley.

1546. 1876-yilda kimlar tomonidan organik moddalarni radikallar asosida birinchi tuzilish nazariyasi taklif etildi.

- A) A. J.Dyuma va P. Buley;
- B) A. Y.Libix va F. Vyoller;
- C) A. Y.Libix va Zinin.

1547. Quyidagi jadval asosida izomeriyaga ta'rif bering.

Struktura formulasi	Empirik formulasi	Agregat holati	Tq °C	ishqoriy metallar bilan ta'sirlashishi
CH <sub>3</sub> -O-CH <sub>3</sub>	C <sub>2</sub> H <sub>6</sub> O	Gaz	-23,6 °C	-
CH <sub>3</sub> -CH <sub>2</sub> -OH	C <sub>2</sub> H <sub>6</sub> O	suyuqlik	78,6 °C	+

A) bir xil molyar massa, sifat va miqdoriy tarkibiga ega, lekin kimyoviy tuzilishi fizik va kimyoviy xossalari bilan farq qiluvchi moddalar;

B) har xil molyar massa, kimyoviy tuzilishi fizik va kimyoviy xossalari bilan farq qiluvchi moddalar;

C) bir xil molyar massa, sifat va miqdoriy tarkibiga ega, kimyoviy tuzilishi fizik va kimyoviy xossalari bilan farq qilmaydigan moddalar.

1548. Valentlik tushunchasi kim tomonidan va qachon aniqlandi?

- A) 1888- yil E.Franklend;
- B) 1858- yil E.Franklend;
- C) 1858- yil Semyonov.

1549. Organik birikmalarning kimyoviy tuzilish nazariyasi kimlar tomonidan rivojlantirildi?

- A) rus olimi V. V. Markovnikov, A.E. Arbuzov;
- B) rus olimi A. M. Zaysev, V. V. Markovnikov;
- C) rus olimi A. M. Zaytsev, V. V. Markovnikov, A.E. Arbuzov.

1550. Qaysi o'zbek olimi kimyoviy tuzilish nazariyasini elektron va fazoviy tuzilishga bog'lab takomillashgan hozirgi zamon qoidasini yaratdi?

- A) A.G. Maxsumov;
- B) I.R. Asqarov;
- C) K.S.Ahmedov.

1551. A.G. Maxsumov nazariyasining ta'rifini keltiring.

A) «murakkab zarrachaning tabiatini molekulalarining fazoviyl tuzilishiga bog'liq»;

B) «murakkab zarrachaning tabiatini uning tarkibi hamda kimyoviy, elektron va fazoviyl tuzilishiga bog'liq»;

C) «oddiy moddalarning tabiatini uning tarkibi hamda kimyoviy, elektron va fazoviyl tuzilishiga bog'liq».

1552. Eng sodda organik moddalar qaysi?

A) uglevodorodlar, chunki ular C va N dan tashkil topgan;

B) uglevodorodlar, chunki ular C va H<sub>2</sub>O dan tashkil topgan;

C) uglevodorodlar, chunki ular C va H dan tashkil topgan.


1553. Uglerodning 4 valentligigini kim va qachon aniqlagan?

A) Kekule 1857-yilda;

B) E. Franklend 1858-yilda;

C) Semyonov 1858-yilda.

1554. Keltirilgan sxemaga asoslanib, uglevodorod tarkibidagi uglerod bog'larining tavsifiga qarab, ularni sinflarga ajrating.



A) 2 ga to'yingan, to'yinmagan uglevodorodlar;

B) 3 ga to'yingan, to'yinmagan, aromatik uglevodorodlar;

C) 4 ga to'yingan, to'yinmagan, aromatik, geterosiklik uglevodorodlar.

1555. Gomologik qator nima?

A) tarkibi va kimyoviy xossalari o'xshash va bir-biridan CH<sub>2</sub> atomlar gruppachasiga farq qiluvchi moddalar qatori;

B) tarkibi va kimyoviy xossalari o'xshash bo'limgan va bir-biridan CH<sub>2</sub> atomlar gruppachasiga farq qiluvchi moddalar qatori;

C) tarkibi o'xshash, kimyoviy xossalari o'xshash bo'limgan va bir-biridan CH<sub>2</sub> atomlar gruppachasiga farq qiluvchi moddalar qatori.

1556. Gibridlanish hodisasini kim va qachon tushuntirib berdi?

A) 1934-yilda L.K. Poling;

B) 1931-yilda L.K. Poling;

C) 1931-yilda Nesmeyanov.

1557. Gibridlanish qanday tushuntiriladi?

A) kimyoviy element atomlari orbitallarining shakl bo'yicha tenglashib qolishi;

B) kimyoviy element atomlari orbitallarining shakl va energiya bo'yicha tenglashib qolishi;

C) kimyoviy element atomlari orbitallarining energiya bo'yicha tenglashib qolishi.

1558. Alkanlar qayerda uchraydi?

A) neft tarkibida uchraydi;

B) tabiiy va yo'ldosh gazlar tarkibida uchraydi;

C) neft, tabiiy va yo'ldosh gazlar tarkibida uchraydi.

1559. Alkan molekulalari nima uchun suvda erimaydi?

A) molekulalari qutbsiz bo'ladi;

B) molekulalari qutbli bo'ladi;

C) molekulalari qutbli va qutbsiz bo'ladi.

1560. Botqoq yoki ruda gazi deb ataladigan gaz qaysi?

A) metan;

B) propan;

C) etan.

1561. Tabiiy gazning necha foizini metan tashkil qiladi?

A) 96-98%;

B) 85-98%;

C) 90-98%.

1562. Metanning kimyoviy xossalari qanday?

A)  $\text{CH}_4$  ham boshqa alkanlarga o'xshab kimyoviy faolligi kichik bo'lib, birikish reaksiyalariga kirishadi,  $\text{KMnO}_4$  va ishqor eritmalari bilan ta'sirlashmaydi, bromli suv va konsentrangan sulfat kislotaning sovuq eritmasiga ta'sir etmaydi;

B)  $\text{CH}_4$  ham boshqa alkanlarga o'xshab kimyoviy faolligi kichik bo'lib, birikish reaksiyalariga kirishmaydi,  $\text{KMnO}_4$  va ishqor eritmalari bilan ta'sirlashmaydi, bromli suv va konsentrangan sulfat kislotaning sovuq eritmasiga ta'sir etmaydi;

C)  $\text{CH}_4$  ham boshqa alkanlarga o'xshab kimyoviy faolligi kichik bo'lib, birikish reaksiyalariga kirishmaydi,  $\text{KMnO}_4$  va ishqor eritmalari bilan ta'sirlashmaydi, bromli suv va konsentrangan sulfat kislotaning sovuq eritmasiga ta'sir etadi.

1563. Alkanlar qanday reaksiyalarga kirishadi?

A) biriktirib olish, galogenlash, suyultirilgan  $\text{HNO}_3$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bilan ta'sirlashish reaksiyasi. Bu reaksiyalar radikal mexanizmi asosida boradi;

B) parchalanish, o'rın olish, galogenlash, bromli suv va  $\text{KMnO}_4$  eritmasi bilan ta'sirlashish reaksiyasi. Bu reaksiyalar ionli mexanizm asosida boradi;

C) parchalanish, o'rın olish, galogenlash, suyultirilgan  $\text{HNO}_3$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bilan ta'sirlashish reaksiyasi. Bu reaksiyalar radikal mexanizmi asosida boradi.

1564. Metanning ultrabinafsha nur ta'sirida xlor bilan ta'sirlanish reaksiyasini ko'rsating.

A) reaksiya portlash bilan boradi:



B) reaksiya portlash bilan boradi:




C) reaksiya portlash bilan boradi.




1565. Metan qanday usullar yordamida olinadi?

A) 1)sanoatda (vodorod va grafit Ni katalizatori ishtirokida  $500^\circ\text{C}$  da tezlashtiriladi)  $\text{C} + 2\text{H}_2 \xrightarrow{\text{Ni}} \text{CH}_4$ ;

2) suv gazidan olinadi(boshqa alkanlar ham):



B) laboratoriya 1) alyuminiy karbidni suv bilan ta'siridan:



2)natriy atsetatni natriy gidroksid bilan aralashmasini qizdirib:



3)alkanlar Vyurs reaksiyasi bo'yicha ham olinadi.

C) A va B.

1566. Metandan nima maqsadlarda ishlatiladi?

A)  $\text{CH}_4$  dan asosan asetilen, metanol, formaldegid olinadi;

B)  $\text{CH}_4$  dan formaldegid,geterotsiklik birikmalar olinadi;

C)  $\text{CH}_4$  dan asetilen, metanol va oqsillar olinadi.

1567. Alkanlar nima maqsadlarda ishlatiladi?

A)  $\text{C}_{20-25}$  alkanlarni oksidlab sintetik yog' kislotalari ulardan esa sovun, turli yuvuvchi vositalar, surkov materiali, lak, emal olinadi. Faqat yuqori alkanlar yoqilg'i sifatida ishlatiladi;

B)  $\text{C}_{10-15}$  alkanlarni oksidlab sintetik yog' kislotalari ulardan esa sovun, turli yuvuvchi vositalar, surkov materiali, lak, emal olinadi. Alkanlar yoqilg'i sifatida ham ishlatiladi;

C)  $\text{C}_{20-25}$  alkanlarni oksidlab sintetik yog' kislotalari — ulardan esa sovun, turli yuvuvchi vositalar, surkov materiali, lak, emal olinadi. Alkanlar yoqilg'i sifatida ham ishlatiladi.

1568. Alkanlarning umumiyl formulasini toping.

A)  $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}$ ;

- B)  $C_n H_{2n-2}$ ;  
C)  $C_n H_{2n}$ .

1569. Geksan va dekanning nechta izomeri bor?

- A) 5 ta va 25 ta;  
B) 5 ta va 75 ta;  
C) 4 ta va 75 ta.

1570. Alkanlar qanday nomenklatura bo'yicha nomlanadi?

- A) IYUPAK;  
B) ratsional;  
C) ratsional va IYUPAK.

1571. Normal geptan qaysi daraxtdan ajratib olingan?

- A) qarag'aydan;  
B) qayrog'ochdan;  
C) archadan.

1572. Eykozan ( $C_{20}H_{42}$ ) qaysi o'simlikdan topilgan?

- A) sabzi bargidan;  
B) karam bargidan;  
C) petrushka bargidan.

1573. Nonakazan ( $C_{29}H_{60}$ ) qaysi o'simlikdan olingan?

- A) sabzi bargidan;  
B) karam bargidan;  
C) petrushka bargidan.

1574. Ba'zi gullarning mumida qanday qattiq uglevodorodlar borligi aniqlangan?

- A) geptokazan ( $C_{27}H_{56}$ ), triokontan ( $C_{30}H_{62}$ ), nonakazan ( $C_{29}H_{60}$ );  
B) geptokazan ( $C_{27}H_{56}$ ), oktakazan ( $C_{28}H_{58}$ ), triokontan ( $C_{30}H_{62}$ );  
C) geptokazan ( $C_{27}H_{56}$ ), oktakazan ( $C_{28}H_{58}$ ), eykozan ( $C_{20}H_{42}$ ).

1575. Olma po'sti, asalari mumida va g'o'za bargi, guli, chanog'ida qanday uglevodorod uchraydi?

- A) yuqori va quiy molekular uglevodorod;  
B) quiy molekular uglevodorod;  
C) yuqori molekular uglevodorod.

1576. Metanni 1-marta uglerod sulfid va vodorod sulfid aralashmasini mis sim ustidan qizdirib olgan olim kim?

- A) 1856-yil Bertole;  
B) 1876-yil Zinin;  
C) 1861-yil Kucherov.

1577. Laboratoriya da tozaligi yuqori bo'lgan metan qaysi moddadan olinadi?

- A) aluminiy karbidni gidroliz qilib;

B) natriy asetatdan;

C) suv gazidan.

1578. Vyurs reaksiyasi bo'yicha qaysi uglevodorodlar olinadi?

A) etenning gomologlari;

B) etinning gomologlari;

C) metanning gomologlari.

1579. Alkanlarga nitrat kislota ta'siri kim tomonidan va qachon kashf qilingan?

A) Kucherov 1888-yil;

B) Kanovalov 1888-yil;

C) Semyonov 1889-yil.

1580. Sintez gazining formulasini ko'rsating.

A)  $\text{CO}+2\text{H}_2$ ;

B)  $\text{CO}+\text{H}_2$ ;

C)  $\text{CO}+\text{H}_2\text{O}$ .

1581. Sintez gazni metandan olishda qanday sharoitlarga amal qilinadi?

A) 200 – 300° C (Ni, MgO yoki  $\text{Al}_2\text{O}_3$ );

B) 800 – 900° C (Ni, MgO yoki  $\text{Al}_2\text{O}_3$ );

C) 500 – 700° C (Ni, MgO yoki  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ).

1582. Xlor metan nima sababdan sovitgich inshootlarida qo'llanadi?

A) qizdirilganda oz miqdorda issiqlik yutadi;

B) qizdirilganda ko'p miqdorda issiqlik chiqaradi;

C) qizdirilganda ko'p miqdorda issiqlik yutadi.

1583. Dixlormetan, trixlormetan va tetraxlormetan nima maqsadda ishlataladi?

A) erituvchilar sifatida;

B) ham eruvchi, ham erituvchi sifatida;

C) eruvchilar sifatida.

1584. Etil bromid nima maqsadda ishlataladi?

A) asab sistemasini davolashda;

B) jarrohlikda milkni og'riqsizlantirishda;

C) narkoz sifatida.

1585. Qaysi mamlakatlarda efir moyining olinishi sanoatning asosiy tarmog'i hisoblanadi?

A) Fransiya, Italiya, Bolqon yarim orolidagi mamlakatlar, Turkiya va boshqa;

B) Amerika, Italiya, Bolqon yarim orolidagi mamlakatlar, Turkiya va boshqa;

C) Fransiya, Afrika, Bolqon yarim orolidagi mamlakatlar, Turkiya va boshqa.

1586. Qaysi mamlakatlarda efir moylari qo'lda siqib olinadi?

- A) Meksikada limon, apelsin va boshqalarning po'stlog'idan;
- B) Abu-Dabida limon, apelsin va boshqalarning po'stlog'idan;
- C) Sitsiliyada limon, apelsin va boshqalarning po'stlog'idan.

1587. Bolgariyada efir moyi qanday usulda olinadi?

- A) spirit bilan haydash;
- B) suv bug'i bilan haydash;
- C) havo bilan haydash.

1588. Bolgariyada 1 yilda qancha miqdorda gul moyi olinadi?

- A) 500 kg (2000–3000 kg gul toji bargidan 1 kg gacha gul moyi olinadi);
- B) 400 kg (2500–3000 kg gul toji bargidan 2 kg gacha gul moyi olinadi);
- C) 100 kg (2000–3000 kg gul toji bargidan 1 kg gacha gul moyi olinadi).

1589. Sikloalkanlarni birinchi marta kim aniqlagan?

- A) rus olimi Zinin tomonidan Boku nefti tarkibida aniqlangan va o'rgangan;
- B) rus olimi Butlerov tomonidan Boku nefti tarkibida aniqlangan va o'rgangan;
- C) rus olimi V.V. Markovnikov tomonidan Boku nefti tarkibida aniqlangan va o'rgangan.

1590. Sikloalkanlarning fizik va kimyoviy xossalari jihatidan qaysi uglevodorodlarga o'xshash?

- A) parafinlarga;
- B) aromatik uglevodorodlarga;
- C) alifatik uglevodorodlarga.

1591. Sikloalkanlarning umumiy formulasini toping?

- A)  $C_n H_{2n+2}$ ;
- B)  $C_n H_{2n}$ ;
- C)  $C_n H_{2n-2}$ .

1592. Sikloalkanlarni laboratoriya da olinishi qanday?

- A) alkanlarning digalogenli hosilalariga aktiv metall ta'sir ettirib;
- B) alkanlarning galogenli hosilalariga aktiv metall ta'sir ettirib;
- C) alkanlarning digalogenli hosilalariga passiv metall ta'sir ettirib.

1593. Sikloalkanlarning kichik siklli birikmalari uchun qaysi reaksiya xarakterli.

- A) almashinish reaksiyasi;
- B) o'rin olish reaksiyasi;
- C) birikish reaksiyasi.

1594. Sikloalkanlarning katta siklli birikmalari uchun qaysi reaksiya xarakterli.

- A) almashinish reaksiyasi;
- B) o'rin olish reaksiyasi;
- C) birikish reaksiyasi.

1595. Siklopropan yuqori temperatura ta'sirida qaysi moddaga o'tadi?

- A) propen;
- B) propin;
- C) propan.

1596. Sikloalkanlarning ishlatalishi qanday?

- A) siklopropan erituvchi sifatida, siklogeksan hosilasi siklogeksanol narko'z sifatida ishlatalidi;
- B) siklopropan narkoz sifatida, siklogeksan hosilasi siklogeksanol erituvchi sifatida ishlatalidi;
- C) siklopropan narkoz sifatida, siklogeksan hosilasi siklogeksanol eruvchi sifatida ishlatalidi.

1597. Alkenlarning yana qanday nomi bor?

- A) olefin, etilen qatori uglevodorodlar;
- B) siklan, etilen qatori uglevodorodlar;
- C) parafin, etilen qatori uglevodorodlar.

1598. Alkenlarda bog'lar orasidagi masofa va burchakni aniqlang?

- A)  $0,133 \text{ nm} = 120^\circ\text{C}$ ;
- B)  $0,133 \text{ nm} = 180^\circ\text{C}$ ;
- C)  $0,185 \text{ nm} = 120^\circ\text{C}$ .

1599. Geometrik stereoizomeriya nima?

- A) o'rinosarlarning qo'sh bog' atrofida fazoviy joylashuvining bir xilligi natijasida vujudga keladigan izomeriya;
- B) uglerod zanjirining tarmoqlanishi va qo'sh bog'ning joylashishi bilan bog'liq bo'lgan izomeriya;
- C) o'rinosarlarning qo'sh bog' atrofida fazoviy joylashuvining turlichaligi natijasida vujudga keladigan izomeriya.

1600. Strukturaviy izomeriya nima?

- A) uglerod zanjirining tarmoqlanishi va qo'sh bog'ning joylashishi bilan bog'liq bo'lgan izomeriya;
- B) o'rinosarlarning qo'sh bog' atrofida fazoviy joylashuvining bir xilligi natijasida vujudga keladigan izomeriya;
- C) uglerod zanjirining tarmoqlanishi va qo'sh bog'ning joylashishi bilan bog'liq bo'lgan izomeriya.

1601. Etinda uglerodlar orasidagi masofa nima uchun etendagidan ham qisqa bo'ladi?

- A) etenda 2 ta  $\pi$  bog' hosil qiladi;
- B) etinda 2 ta  $\pi$  bog' hosil qiladi;
- C) etinda 3 ta p bog' hosil qiladi;

1602. To'yinmagan uglevodorodlarda to'yinganga nisbatan izomeriya ko'p bo'lishining sababi?

- A) to'yinganda p bog' bor;
- B) to'yinmaganda bog' miqdorani ko'p;
- C) to'yinmaganda p bog' bor.

1603. Alkenlarning fizik xossasi qanday?

A) quiyi alkenlar gaz,  $C_5H_{10}$  – suyuqlik  $C_{15}H_{30}$  – qattiq alkenlar suvda deyarli erimaydi, spirtda qisman eriydi;

B) quiyi alkenlar suyuqlik,  $C_5H_{10}$  – gaz  $C_{15}H_{30}$  – qattiq alkenlar suvda deyarli erimaydi, spirtda qisman eriydi;

C) quiyi alkenlar gaz,  $C_5H_{10}$  – suyuqlik  $C_{15}H_{30}$  – qattiq alkenlar suvda yaxshi eriydi, spirtda qisman eriydi.

1604. Alkinlarning fizik xossasi qanday bo'ladi?

A) alkinlarning  $C_4H_6$  gacha suyuqlik,  $C_4$  dan  $C_8$  gaz, undan keyingisi qattiq;

B) alkinlarning  $C_4H_6$  gacha gaz,  $C_4$  dan  $C_8$  suyuqlik, undan keyingisi qattiq;

C) alkinlarning  $C_4H_6$  gacha gaz,  $C_4$  dan  $C_8$  qattiq, undan keyingisi suyuqlik.

1605. Alken va alkinlar alkanlardan ancha faolligining sababi nimaga bog'liq?

- A)  $\pi$  bog'i yo'qligi uchun;
- B)  $\delta$  bog'i borligi uchun;
- C) p bog'i borligi uchun.

1606. Alkinlarga galogenvodordning birikishi uchun qanday sharoit kerak bo'ladi?

A) 130-150°C da faol ko'mir yoki Hg tuzi ishtirokida boradi.



B) 120-180°C da faol ko'mir yoki Hg tuzi ishtirokida boradi.



C) 150-180°Cda faol ko'mir yoki Fe tuzi ishtirokida boradi.



1607. To'yinmagan uglevodorodlarda hidratlanish reaksiyasi qanday boradi?

- A) yuqori bosim, harorat va  $H_3PO_4$ ;

- B) quyi bosim, harorat va  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ;  
 C) yuqori bosim va  $\text{H}_3\text{PO}_4$ .

1608. Asetilenning hidratlanishini kim va qachon kashf etgan?

A)  $\text{C}_2\text{H}_2 + \text{HOH} \xrightarrow{\text{Co}^{+2}} \text{CH}_3\text{COH}$  bu reaksiyani 1881-yilda rus olimi Vyoller kashf etgan;

B)  $\text{C}_2\text{H}_2 + \text{HOH} \xrightarrow{\text{Co}^{+2}} \text{CH}_3\text{COH}$  bu reaksiyani 1881-yilda rus olimi Zaysev kashf etgan;

C)  $\text{C}_2\text{H}_2 + \text{HOH} \xrightarrow{\text{Co}^{+2}} \text{CH}_3\text{COH}$  bu reaksiyani 1881-yilda rus olimi M. Kucherov kashf etgan.

1609. Alken va alkinlarning oksidlanishini aniqlang.

A)  $\text{KMnO}_4$  eritmasi etilenni etilenglikolgacha, asetilenni oksalat kislotagacha oksidlaydi. Alken va alkinlar oson oksidlanadi;

B)  $\text{KMnO}_4$  eritmasi etilenni etilenglikolgacha, asetilenni oksalat kislotagacha oksidlaydi. Alken va alkinlar qiyin oksidlanadi;

C)  $\text{KMnO}_4$  eritmasi etilenni etilenglikolgacha, asetilenni sirkaga kislotagacha oksidlaydi. Alken va alkinlar oson oksidlanadi.

1610. Asetilenden qanday mahsulotlar olinadi?

- A) faqat plastmassa;  
 B) plastmassa, etanol, sirkaga kislota;  
 C) etanol, sirkaga kislota.

1611. Alken va asetilenni yonish reaksiyasini aniqlang?

A) alken sariq, asetilen ko'zni qamashtiruvchi alanga hosil qilib yonadi.



B) alken to'q-sariq, asetilen yorqin ko'zni qamashtiruvchi alanga hosil qilib yonadi.



C) alken oq-sariq, asetilen yorqin ko'zni qamashtiruvchi alanga hosil qilib yonadi.



1612. Monomer nima?

A) mikromolekulalarni hosil qilgan quyi molekular birikma — monomer deb ataladi;

B) makromolekulalarni hosil qilgan quyi molekular birikma — monomer deb ataladi;


C) makromolekulalarni hosil qilgan quyi molekular birikma — polimer deb ataladi.

1613. Polietilenning olinishi qanday?

- A)  $n\text{CH}_2=\text{CH}_2 \rightarrow (-\text{CH}_2-\text{CH}_2-)^n$ ; yuqori harorat va yuqori bosimda;


B)  $-\text{CH}_2-\text{CH}_2 \rightarrow (-\text{CH}_2-\text{CH}_2)_n$ ; yuqori harorat va yuqori bosimda;  
C)  $n\text{CH}_2=\text{CH}_2 \rightarrow (\text{CH}_2=\text{CH}_2)_n$ ; yuqori harorat va quyi bosimda.

1614. Asetilenden Cu (I) tuzlari ishtirokida qanday modda olinadi?



1615. Alkinlardagi kislotali xususiyatini qanday bilish mumkin?

A) qo'zg'aluvchan vodorodni metallga almashinishidan:



B) qo'zg'almas vodorodni metallga almashinishidan:



C) qo'zg'aluvchan vodorodni barcha metallarga almashinishidan:



1616. Asetilenidlar qanday xususiyatga ega?

A) Cu va Ag asetilenidlar zarba ta'sirida o'zgarmaydi;

B) Cu va Ag asetilenidlar zarba ta'sirida portlaydi;

C) Cu va Ag asetilenidlar zarba ta'sirida yonadi.

1617. Alkenlar qanday olinadi?

A) I) digalogenli hosiladan galogen ajralishi:



2) galogenli hosiladan galogenvodorod ajralishi (Zaysev qoidasi)




B) I) spiritlarda suvning ajralishi (Zaysev qonuni):



CH<sub>3</sub>-CH<sub>2</sub>-CH<sub>2</sub>-CH<sub>3</sub>

Zaysev qoidasiga binoan vodorod kam gidrogenlangan C dan ajraladi;

2) alkanlardan vodorod ajralishi.



yoki CH<sub>3</sub>-CH=CH-CH<sub>3</sub> buten-2;

C) A va B.

1618. Neft mahsulotlarining krekingi va pirolizidan necha foiz alken olinadi?

A) (700°C alkenlar 43 %);

B) (750°C alkenlar 43 %);

C) (800°C alkenlar 45%).

**1619. Etilenning olinishini aniqlang?**

A)  $C_2H_4$  ni sanoatda etanni gidrogenlab, asetilenni qisman gidrogenlab olinsa, laboratoriyada etanolni konsentrangan  $H_2SO_4$  ishtirokida degidratlab olinadi;

B)  $C_2H_4$  ni sanoatda etanni degidrogenlab, asetilenni qisman gidrogenlab olinsa, laboratoriyada etanolni konsentrangan  $H_2SO_4$  ishtirokida degidratlab olinadi;

C)  $C_2H_4$  ni sanoatda etanni degidrogenlab, asetilenni qisman degidrogenlab olinsa, laboratoriyada etanolni konsentrangan  $H_2SO_4$  ishtirokida degidratlab olinadi.

**1620. Asetilenni sanoat va laboratoriyada qaysi moddadan olinadi?**

A) metandan;  $2CH_4 \rightarrow C_2H_2 + 3H_2$ ;

B) metan va kalsiy karbiddan;  $2CH_4 \rightarrow C_2H_2 + 3H_2$ ;  $CaC_2 + 2H_2O \rightarrow Ca(OH)_2 + C_2H_2$ ;

C) kalsiy karbiddan;  $CaC_2 + 2H_2O \rightarrow Ca(OH)_2 + C_2H_2$ .

**1621. Alken va alkinlar nima maqsadda ishlatiladi?**

A) etilenning yarmidan ko'pi polietilen olish uchun, qolgan qismi etanol, xloretan, stirol olishga sarflanadi;

B) etilenning yarmidan ko'pi polietilen olish uchun, qolgan qismi etanol, xloretan, sterol olishga sarflanadi. Mevalarni chala pishgan holda uzoq masofada yetkazishda ham foydalilanadi.  $C_2H_2$  dan etanol, sirka kislota, sintetik kauchuk polivinil xlorid, polivinil ftorid plastmassalar olinadi;

C) mevalarni chala pishgan holda uzoq masofada yetkazishda ham foydalilanadi.  $C_2H_2$  dan etanol, sirka kislota, sintetik kauchuk polivinil xlorid, polivinil ftorid plastmassalar olinadi.

**1622. Poliyenga ta'rif bering.**

A) tarkibida 2 tadan ortiq bog' tutgan to'yinmagan uglevodorodlar 3 ta qo'shbog' bo'lsa alkatriyen, 4 ta bo'lsa alkatetrayen;

B) tarkibida 3 tadan ortiq qo'shbog' tutgan to'yinmagan uglevodorodlar 3 ta qo'shbog' bo'lsa alkatriyen, 4 ta bo'lsa alkatetrayen;

C) tarkibida 2 tadan ortiq qo'shbog' tutgan to'yinmagan uglevodorodlar 3 ta qo'shbog' bo'lsa alkatriyen, 4 ta bo'lsa alkatetrayen.

**1623. To'yinmagan uglevodorodlarda izomeriyaning qaysi turi uchraydi?**

A) strukturaviy va stereoizomeriya mavjud;

B) strukturaviy va metomeriya mavjud;

C) strukturaviy va holat izomeriya mavjud.

**1624. Diyen uglevodorodlarning fizik xossasi qanday?**

A) divinil rangsiz suyuqlik, izopren rangsiz gaz;

B) divinil rangsiz gaz, izopren rangsiz suyuqlik;

C) divinil rangsiz gaz, izopren rangsiz qattiq modda.

**1625. Diyenlarda qo'sh bog' migratsiyasi nima?**

A) birikish reaksiyasi qo'sh bog'ning siljimasligi bo'lib,

$\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2 + \text{Br}_2 \rightarrow \text{CH}_2-\text{CHBr}=\text{CHBr}-\text{CH}_2$ ;  
B) o'rin olish reaksiyasi qo'sh bog'ning siljishi bo'lib,  
 $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2 + \text{Br}_2 \rightarrow \text{CH}_2-\text{CHBr}=\text{CHBr}-\text{CH}_2$ ;  
C) birikish reaksiyasi qo'sh bog'ning siljishi bo'lib,  
 $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}=\text{CH}_2 + \text{Br}_2 \rightarrow \text{BrCH}_2-\text{CH}=\text{CH}-\text{CH}_2\text{Br}$ .

1626. Alkenlarning umumiy formulasini ko'rsating.

- A)  $\text{C}_n\text{H}_{2n-2}$ ;
- B)  $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}$ ;
- C)  $\text{C}_n\text{H}_{2n}$ .

1627. Alkadiyenlarning umumiy formulasini ko'rsating.

- A)  $\text{C}_n\text{H}_{2n-2}$ ;
- B)  $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}$ ;
- C)  $\text{C}_n\text{H}_{2n}$ .

1628. Alkinlarning umumiy formulasini ko'rsating.

- A)  $\text{C}_n\text{H}_{2n-2}$ ;
- B)  $\text{C}_n\text{H}_{2n+2}$ ;
- C)  $\text{C}_n\text{H}_{2n}$ .

1629. Alkenlar nima sababdan olefinlar deb nomlanadi?

- A) etilen vodorod bilan birikib, suyuq yog'simon gaz – olefinni hosil qiladi;
- B) etilen xlor bilan birikib, suyuq yog'simon gaz – olefinni hosil qiladi;
- C) etilen yod bilan birikib, suyuq yog'simon gaz – olefinni hosil qiladi.

1630. Etilendan hosil bo'lgan radikal nomini ayting.

- A) vinil;
- B) propargil;
- C) allil.

1631. Propilendan hosil bo'lgan radikal nomini ayting.

- A) vinil;
- B) propargil;
- C) allil.

1632. Olefinlarning miqdori qaysi neft tarkibida ko'p bo'ladi?

- A) Kanada nefti;
- B) Boku nefti;
- C) Kavkaz nefti.

1633. Olefinlarning fizik xossalari aniqlang?

- A)  $\text{C}_4$  gacha suyuq,  $\text{C}_5-\text{C}_{17}$  gacha gaz,  $\text{C}_{18}$  dan yuqorisi qattiq;
- B)  $\text{C}_4$  gacha gaz,  $\text{C}_5-\text{C}_{17}$  gacha suyuq,  $\text{C}_{18}$  dan yuqorisi qattiq;
- C)  $\text{C}_4$  gacha gaz,  $\text{C}_5-\text{C}_{17}$  gacha qattiq,  $\text{C}_{18}$  dan yuqorisi suyuq.

1634. Olefinlarga galogenlarning birikishi nimaga bog'liq?

- A) alkenning tuzilishiga;

- B) galogen tuzilishiga;  
C) alkenning tuzilishiga va galogen tuzilishiga.

1635. Alkenlarga quyidagi yo'nalish bo'yicha  $F \rightarrow Cl \rightarrow Br \rightarrow I$  galogenlarning birikishi qanday o'zgaradi?

- A) kamayadi;  
B) ortadi;  
C) o'zgarmaydi.

1636. Qo'shbog' bilan bog'langan uglerod atomida o'rinnbosarlar soni ortib borishi bilan galogenlarning birikishi qanday o'zgaradi?

- A) qiyinlashadi;  
B) osonlashadi;  
C) o'zgarmaydi.

1637. Alkenlarga galogenid kislotalarning birikish tezligi qanday o'zgaradi?

- A) HJ oson, HCl qiyinroq birikadi;  
B) HJ qiyin, HCl osonroq birikadi;  
C) HJ oson, HCl osonroq birikadi.

1638. Alkenlarga HF birikkandan keyin qanday hodisa ro'y beradi?

- A) polikondensatlanish;  
B) sopolimerlanish;  
C) polimerlanish.

1639. Alkenlarga suvning birikishida qanday oraliq mahsulot hosil bo'ladi?

- A) arilsulfo birikmasi;  
B) alkilsulfo birikmasi;  
C) alkil va arilsulfo birikmasi.

1640. Alkenlarning oksidlanish reaksiyasi alkanlarga nisbatan qanday tezlikda bo'ladi?

- A) oson oksidlanadi;  
B) qiyin oksidlanadi;  
C) oksidlanmaydi.

1641. Alkenlarning kaliy permanganatning suvdagi yoki ishqordagi eritmasida oksidlanganda qanday moddaga o'tadi?

- A) to'yinmagan spirtga o'tadi, E. E. Vagner reaksiyasi;  
B) 2 atomli spirtga o'tadi, E. E. Vagner reaksiyasi;  
C) 1 atomli spirtga o'tadi, E. E. Vagner reaksiyasi.

1642. Alkenlarda kuchli oksidlovchilar ( $K_2Cr_2O_7$ ,  $H_2CrO_4$ ,  $HNO_3$ ,  $CrO_3$ ) bilan oksidlanganda qanday modda hosil bo'ladi?

- A) aldegid hamda kislotalar;  
B) ketonlar;  
C) keton hamda kislotalar.

1643. Kuchli oksidlovchilarni alkenlarga ta'siridan nimani aniqlash mumkin?

- A) alkenlarning tuzilishini;
- B) alkenlarning tarkibini;
- C) alkenlarning xossalarini.

1644. Alkenlar havo kislorodida kumush katalizatorligida qanday moddani hosil qiladi?

- A) organik asos;
- B) organik oksid;
- C) organik kislota.

1645. Ko'pincha etilen qaysi moddadan olinadi?

- A) etil spirtni yondirib;
- B) etanni degidrogenlab;
- C) etil spirtni qizdirib.

1646. Etilenning fizik xossasini aniqlang.

- A) rangsiz, hidsiz, havodan biroz yengil, suvda yomon eriydi;
- B) rangsiz, hidsiz, havodan biroz yengil, suvda yaxshi eriydi;
- C) rangsiz, hidsiz, havodan biroz og'ir, suvda yomon eriydi.

1647. Alkinlarda izomeriya qaysi gomologidan boshlanadi?

- A) butindan;
- B) pentindan;
- C) geksindan.

1648. Alkenlarda izomeriya qaysi gomologidan boshlanadi?

- A) butendan;
- B) pentendan;
- C) geksendan.

1649. Alkinlarda qanday izomeriya turi uchraydi?

- A) zanjir izomeriyasi;
- B) uch bog' holati izomeriyasi;
- C) zanjir va uch bog' holati izomeriyasi.

1650. Asetilen sanoatda qaysi moddadan olinadi?

- A) kalsiy karbiddan;
- B) metanning pirolizidan;
- C) etilendan.

1651. Asetilen laboratoriyyada qaysi moddadan olinadi?

- A) kalsiy karbiddan;
- B) metanning pirolizidan;
- C) etilendan.

1652. Uchlamchi bog' holatini o'zgarishi qaynash temperaturasining o'zgarishiga qanday ta'sir qiladi?

A) ta'sir qilmaydi;

B) kuchli ta'sir qiladi. Masalan: butin  $-1 - 22,7^{\circ}\text{C}$  da; butin  $-2 - 18,5^{\circ}\text{C}$  da qaynaydi;

C) kuchli ta'sir qiladi. Masalan: butin  $-1 - 18,5^{\circ}\text{C}$  da; butin  $-2 - 22,7^{\circ}\text{C}$  da qaynaydi.

1653. Kucherov usuli bilan ko'p olinadigan modda nomini toping?

A) sirkal aldegid;

B) astetaldegid;

C) A va B.

1654. Asetilen va uning gomologlarining aktivlangan ko'mir ishtirokida aromatik uglevodorodga aylanishini kim topgan?

A) B. A. Kazanskiy;

B) N. D. Zelinskiy;

C) N. D. Zelinskiy va B. A. Kazanskiy.

1655. Diyenuglevodorodlar qo'shbog'larning joylashish o'rniqa qarab qaysi gunuhlarga bo'linadi?

A) kumulyatsiyalangan, konyugirlangan;

B) ajratilgan qo'shbog'li;

C) kumulyatsiyalangan, konyugirlangan, ajratilgan qo'shbog'li.

1656. Sanoatda divinil olish usuli kim tomonidan kashf qilingan?

A) Lebedev;

B) Kucherov;

C) Kazanskiy.

1657. Lebedov usuli bo'yicha divinil qaysi moddadan olingan?

A) metanoldan;

B) etanoldan;

C) etilendan.

1658. Dienuglevodorodlar asosan nima maqsadda ishlataladi?

A) rezina olishda;

B) kauchuklar sintez qilishda;

C) polimerlar olishda.

1659. Tabiiy kauchuk qaysi o'simlikni sutsimon shirasidan olinadi?

A) Janubiy Amerikadagi Geveya, Gvaula, O'rta Osiyodagi ko'k sag'iz, tog' sag'izdan;

B) Janubiy Amerikadagi Geveya daraxtidan;

C) O'rta osiyodagi ko'k sag'iz, tog' sag'izdan.

1660. Tabiiy kauchukning tuzilishini o'rganib, izopren molekulalaridan tashkil topganligini kim aniqlagan?

A) Garries;

- B) Gudir;  
C) Lebedev.

1661. Sintetik kauchukning olinish usulini kim kashf qilgan?

- A) Garries;  
B) Gudir;  
C) Lebedev.

1662. Hozirda butadiyen kauchuk qanday olinadi?

- A) butanni katalitik gidrogenlab olinadi;  
B) butanni katalitik degidrogenlab olinadi;  
C) butanni katalitik degidrogalogenlab olinadi.

1663. Kauchuk qaysi erituvchida eriydi?

- A)  $\text{CS}_2$ ;  
B) benzin, benzol;  
- C) teng.

1835. Ketonlarning tegishli spirtlarga nisbatan past haroratda qaynashiga sabab nima?

- A) ketonlarning molekulalari spirt molekulalariga nisbatan kamroq assotsialanganligida;
- B) ketonlarning molekulalarining tarkibida vodorod bog' bo'lmasligi hisobiga;
- C) ketonlarning molekulalari spirt molekulalariga nisbatan ko'proq assotsialanganligida.

1836. Ketonlarning karbonil gruppasi hisobiga boradigan reaksiyalarni aytинг?

- A) gidrogenlanish;
- B) oksidlanish;
- C) parchalanish.

1837. Ketonlarning radikal hisobiga boradigan reaksiyasini aytинг.

- A) Papov-Vagner reaksiyasi;
- B) Konnitsaro reaksiyasi;
- C) Tishchenko reaksiyasi.

1838. Karbon kislotalarning qoidasi, umumiy formulasi va funksional gruppasi qanday?

A) karbon kislota deb, molekulasida uglevodorod radikali bilan (chumoli kislota H bilan) tutashgan bir yoki bir nechta COH guruh tutgan murakkab organik birikmalarga aytildi. Umumiy formulasi R-COH bo'lib, R-uglevodorod radikalini bildiradi(chumoli kislota H-COH). Karbonil guruh  $>C=O$  va  $-OH$  gidroksil guruhlardan iborat;

B) karbon kislota deb, molekulasida uglevodorod radikali bilan (chumoli kislota H bilan) tutashgan bir yoki bir nechta OH guruh tutgan murakkab organik birikmalarga aytildi. Umumiy formulasi R-CH<sub>2</sub>OH bo'lib, R-uglevodorod radikalini bildiradi(chumoli kislota H-CH<sub>2</sub>OH). - OH gidroksil guruhdan iborat;

C) karbon kislota deb, molekulasida uglevodorod radikali bilan (chumoli kislota H bilan) tutashgan bir yoki bir nechta COOH guruh tutgan murakkab organik birikmalarga aytildi. Umumiy formulasi R-COOH bo'lib, R-uglevodorod radikalini bildiradi(chumoli kislota H-COOH). Karboksil guruh: karbonil guruh  $>C=O$  va  $-OH$  gidroksil guruhlardan iborat.

1839. Karbon kislotalar molekulasidagi karboksil gruppaning soniga ko'ra necha xil bo'ladi?

- A) bir asosli (monokarbon);
- B) ikki asosli (dikarbon) va ko'p asosli;
- C) A va B.

1840. Karbon kislotalar molekulasidagi radikalning tabiatiga ko'ra necha xil bo'ladi?

- A) to'yingan (alkan), to'yinmagan (alken, alkin);
- B) aromatik (aren), alifatik (yog' qatori);
- C) A va B.

1841. Chumoli kislota qayerlarda bo'ladi?

- A) qamishda, qichitqi o't (krapiva) da, igna bargli archada;
- B) hamma hasharotlarda, qichitqi o't (krapiva) da, igna bargli archada;
- C) chumolida, qichitqi o't (krapiva) da, igna bargli archada.

1842. Karbon kislotalar laboratoriyada olinishi qanday?

- A) tuziga kislota ta'sir ettirib;
- B) tuziga suv ta'sir ettirib;
- C) faqat ketonlarni oksidlab.

1843. Karbon kislotalarning sanoatda olinishi.

- A) spirtlarni kuchli oksidlovchi ta'sirida oksidlab;
- B) is gaziga NaOH ta'sir ettirib, so'ng sulfat kislota ta'sir ettirib;
- C) aldegid va ketonlarni oksidlab.

1844. Karbon kislotalarning molekular og'irligi ortishi bilan solishtirma og'irligi va qaynash temperaturasi qanday o'zgaradi?

- A) solishtirma og'irligi kamayadi, qaynash temperaturasi ortadi;  
B) solishtirma og'irligi ortadi, qaynash temperaturasi kamayadi;  
C) o'zgarmaydi.

1845. Karbon kislotalarda tarmoqlanishning ko'payishi bilan, qaynash temperaturasi qanday o'zgaradi?

- A) ortadi;  
B) pasayadi;  
C) o'zgarmaydi.

1846. Karbon kislotalar ichida eng kuchli kislota qaysi?

- A) karbonat kislota;  
B) sirka kislota;  
C) chumoli kislota ( $\text{H}-\text{COOH}$ ).

1847. Karbon kislotalarning kislota kuchi nimaga bog'liq?

- A) karboksil guruhga birikkan radikalga, chunki radikal kattalashsa kislota kuchi kamayadi;  
B) karbonil guruhga birikkan radikalga, chunki radikal kattalashsa kislota kuchi kamayadi;  
C) karboksil guruhga birikkan radikalga, chunki radikal kichiklashsa kislota kuchi kamayadi.

1848. Karboksil gruppadagi vodorod atomi hisobiga boradigan reaksiyalar?

- A)  $-2\text{R}-\text{COOH}+2\text{Na} \rightarrow 2\text{R}-\text{COONa}+\text{H}_2$ ,  
 $-2\text{R}-\text{COOH}+\text{Mg} \rightarrow (\text{R}-\text{COO})_2\text{Mg}+\text{H}_2\text{O}$ ;  
B)  $\text{R}-\text{COOH}+\text{NaOH} \rightarrow \text{R}-\text{COONa}+\text{H}_2\text{O}$ ,  
 $-2\text{CH}_3-\text{COOH}+\text{CaCO}_3 \rightarrow (\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}+\text{CO}_2+\text{H}_2\text{O}$ ;  
C) A va B.

1849. Karboksil gruppasidagi gidroksilga xos bo'lgan reaksiya

- A)  $\text{R}-\text{COOH}+\text{PCl}_5 \rightarrow \text{R}-\text{C}=\text{O}+\text{POCl}_3+\text{HCl}$ ;  
Cl  
B)  $\text{R}-\text{COOH}+\text{NaOH} \rightarrow \text{R}-\text{COONa}+\text{H}_2\text{O}$ ;  
C)  $2\text{CH}_3-\text{COOH}+\text{CaCO}_3 \rightarrow (\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}+\text{CO}_2+\text{H}_2\text{O}$ .


1850. Karbonil gruppasiga xos reaksiya.

- A) murakkab efir hosil qilish;  
B) polimerlanish;  
C) gidrogenlanish.

1851. Radikaldagi vodorod hisobiga boradigan reaksiya?

- A) galogenlanish;  
B) dissotsiatsiyalanish;  
C) efir hosil qilish.

1852.  $\text{HCOOH}$  ning laboratoriyyada olinishi.



- $\text{HCN} + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{HCOOH} + \text{NH}_3$ ;
- B)  $\text{KH} + \text{CO}_2 \rightarrow \text{HCOOK} \xrightarrow{=\text{HCl}} \text{HCOOH} + \text{KCl}$ ;
- C) A va B.

1853. HCOOH ning sanoatda olinishi.

- A)  $\text{CO} + \text{NaOH} \xrightarrow[10\text{ atm}]{125^\circ - 150^\circ \text{ C}} \text{HCOONa}$ ;
- B)  $2\text{HCOONa} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Na}_2\text{SO}_4 + 2\text{HCOOH}$ ;
- C) A va B.

1854. Uzum vinosi havoda ochiq qoldirilsa qanday reaksiya ketadi?

- A) oksidlanish;
- B) polimerlanish;
- C) qaytarilish.

1855. Aspirin dorisi tarkibida qaysi karbon kislota bo'ldi?

- A)  $\text{CH}_3\text{-CH}_2\text{-COOH}$  (propan kislota) —  $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{COOPb(OH)}$  tarzida;
- B)  $\text{CH}_3\text{-COOH}$  (sirka kislota) —  $\text{CH}_3\text{COOPb(OH)}$  tarzida;
- C) aspirin tarkibida karbon kislota bo'lmaydi.

1856. Cu(II) atsetat nima maqsadda ishlataladi?

- A) yovvoyi o'tlarga qarshi;
- B) oshlovchi modda sifatida;
- C) o'simlik zararkunandalariga qarshi kurashda.

1857. 3–9 % li  $\text{CH}_3\text{COOH}$  ning suvdagi eritmasi nima maqsadda ishlataladi?

- A) terini oshlovchi modda sifatida;
- B) ta'm beruvchi va konservalovchi vosita sifatida;
- C) antifrizlar tayyorlashda.

1858. Karbon kislotalarning fizik xossalari qanday?

A) quiy vakillari palmitin kislotagacha o'tkir hidli suvda yaxshi eruvchan suyuq moddalardir. Palmitindan yuqorisi qattiq hidsiz suvda erimaydigan moddalardir;

B) quiy vakillari palmitin kislotagacha o'tkir hidli, suvda yomon eruvchan suyuq moddalardir. Palmitindan yuqorisi qattiq hidsiz suvda erimaydigan moddalardir;

C) quiy vakillari palmitin kislotagacha hidsiz, suvda yaxshi eruvchan suyuq moddalardir. Palmitindan yuqorisi qattiq hidsiz suvda erimaydigan moddalardir.

1859. Karbon kislotalarning kislotali xossalari qanday?

A) karbon kislotalarining suvda eritmalarini shirin ta'mga ega, lakkus va metil zarg'aldog'ini qizil rangga bo'yaydi. Elektr tokini o'tkazadi.

Metallar bilan ta'sirlashadi bunda H ajralib chiqadi;


B) karbon kislotalarining suvda eritmalarini nordon ta'mga ega, lakkus va metil zarg'aldog'ini qizil rangga bo'yaydi. Elektr tokini o'tkazadi.

Metallar bilan ta'sirlashadi bunda H ajralib chiqadi;

C) karbon kislotalarining suvda eritmalarini nordon ta'mga ega, laksus va metil zarg'aldog'ini ko'k rangga bo'yaydi. Elektr tokini o'tkazadi.

Metallar bilan ta'sirlashadi, bunda H ajralib chiqadi.

1860. Karbon kislotalarning kimyoviy xossalari qanday?



C) A va B.

1861. Karbon kislotasida galogen qaysi uglevodorod atomiga birikadi?

A) alfa uglerod atomiga birikadi;

B) betta uglerod atomiga;

C) gamma uglerod atomiga.

1862. Karbon kislotalar qanday maqsadlarda ishlataladi?

A)  $\text{HCOOH}$  oziq-ovqat sanoatda dezinfeksiyalovchi va konservalovchi to'qimachilik sanoatida gazlamalami bo'yashda;

B) Palmitin va stearin kislotalari sham ishlab chiqarishda ularning natriyli tuzi xo'jalik sovuni kaliyli tuzi tibbiyot uchun sovun ishlab chiqaradi;

C) A va B.

1863. Oddiy efirlar deb nimaga aytildi?

A) spirit molekulasi dagi gidroksil gruppining C atom radikalga o'rIN almashinishida hosil bo'ladigan moddalar;

B) spirit molekulasi dagi gidroksil gruppining vodorod atom radikalga o'rIN almashinishida hosil bo'ladigan moddalar;

C) spirit molekulasi dagi radikal gruppining vodorod atom radikalga o'rIN almashinishida hosil bo'ladigan moddalar.

1864. Oddiy efirlar molekulasi dagi radikallarning tuzilishiqa qarab necha xil bo'ladi?

A) 2 xil: bir xil, har xil yoki aralash;

B) 2 xil: 1 va 2 atomli;

C) 2xil: to'yingan va to'yinmagan.


1865. Oddiy efirlarda necha xil izomeriya uchraydi?


A) 1 xil: optik izomeriya;

B) 2 xil: struktura va sis-trans;

C) 2 xil: radikal va metameriya.

1866. Oddiy efirlar qanday olinadi?





C) A va B.

1867. Murakkab efirlar qoidasi va umumiy formulasi?

A) murakkab efir deb ikki uglevodorod radikalini CHO — guruh orqali tutashtiruvchi murakkab organik birikmalarga aytildi, ularning umumiy formulasi R-COO-R;

B) murakkab efir deb ikki uglevodorod radikalini COO — guruh orqali tutashtiruvchi murakkab organik birikmalarga aytildi, ularning umumiy formulasi R-COO-R;

C) murakkab efir deb ikki uglevodorod radikalini COO — guruh orqali tutashtiruvchi murakkab organik birikmalarga aytildi, ularning umumiy formulasi R-COOH.

1868. Murakkab efirlardan xushbo'y meva hidi keladi. Ularga misollar keltiring.

A) sirka izoamil efiridan — nok hidi, moy etil efiridan — ananas hidi, chumoli fenil etil efiridan — xrizantema hidi, izovalerian izoamildan — olcha hidi, chumoli amil efiridan — olma hidi, sirkaamil efiridan — banan hidi keladi;

B) sirka izoamil efiridan — ananas hidi, moy etil efiridan — nok hidi, chumoli fenil etil efiridan — xrizantema hidi, izovalerian izoamildan — olma hidi, chumoli amil efiridan — olcha hidi, sirkaamil efiridan — banan hidi keladi;

C) sirka izoamil efiridan — nok hidi, moy etil efiridan — ananas hidi, chumoli fenil etil efiridan — xrizantema hidi, izovalerian izoamildan — olma hidi, chumoli amil efiridan — olcha hidi, sirkaamil efiridan — banan hidi keladi.

1869. Efirlarning tabiatda uchrashi?

A) uch atomli spirt glitserin va yuqori yog' kislotalari efiri yog' moylarining asosini tashkil qiladi;

B) yuqori bir atomli spirtlar va yuqori monokarbon kislotalar efirlari mum va spermatsit moyini tashkil etadi;

C) A va B.


1870. Ekstraksiya jarayonini izohlang.

A) tabiiy efirlarni o'simliklardan organik erituvchilar yordamida ajratib olinadi;

B) tabiiy efirlarni o'simliklardan noorganik erituvchilar yordamida ajratib olish;

C) havoni zararli organik moddalardan tozalash.

1871. Efirlarning kimyoviy xossalari?





C) A va B.

1872. Yog'lar nima?

A) yuqori ikki asosli karbon kislotalar, asosan palmitin, stearin (to'yingan kislotalar) va olein (to'yinmagan) kislotalar bilan 3 atomli spirt – glitserin hosil bo'lgan murakkab efir;

B) yuqori bir asosli karbon kislotalar, asosan palmitin, stearin (to'yingan kislotalar) va olein (to'yinmagan) kislotalar bilan 3 atomli spirt – glitserin hosil bo'lgan murakkab efir;

C) yuqori bir asosli karbon kislotalar, asosan palmitin, stearin (to'yinmagan kislotalar) va olein (to'yingan) kislotalar bilan 3 atomli spirt – glitserin hosil bo'lgan murakkab efir.

1873. Suyuq yog'larning yana bir nomi nima?

A) yog'lar;

B) quyuq yog'lar;

C) moylar.

1874. Yog'larda «*Yod soni*» deganda nimani tushunasiz.

A) qo'shbog'lar sonini aniqlash;

B) yakka bog'lar sonini aniqlash;

C) uglerodlar soni.

1875. Yog'larda «*gidrolizlanish soni*» deganda nimani tushunasiz?

A) 1 g yog'ning gidroliz uchun sarflangan KOH ning ml g dagi miqdori;

B) 10 g yog'ning gidroliz uchun sarflangan KOH ning ml g dagi miqdori;

C) 1 g yog'ning gidroliz uchun sarflangan KOH ning g dagi miqdori.

1876. Gidrogenlash mahsuloti nima deyiladi?

A) yumshoq yog';

B) qattiq yog' (sun'iy yog');

C) to'yinmagan yog'.

1877. Yog'larning girolizlanishi nima deyiladi?

A) sovunlanish;

B) sodalanish;

C) kislota va spirtga ajralish.

1878. Yog'larning taxirlanishi qachon kuzatiladi?

A) yog'larni uzoq muddat saqlaganda;

B) yog'larni oksidlaganda;

C) yog'larni gidrolizlaganda.

1879. Sikativlar nima?

A) moylarni qotishining tezlashtiruvchi katalizatorlar;

B) moylarni qotishining sekinlashtiruvchi katalizatorlar;

C) moylarni suyuqlantiruvchi apparat.

1880. Yugori molekular alifatik kislotalarning tuzlari nima deyiladi?

- A) sovunlar;
- B) alifatik efirlar;
- C) sodalar.

1881. Qanday sovunlar qattiq sovunlar bo'ladi?

- A) kaliyli sovunlar;
- B) natriyli sovunlar;
- C) kalsiyli sovunlar.

1882. Qanday sovunlar suyuq sovunlar bo'ladi?

- A) kaliyli sovunlar;
- B) natriyli sovunlar;
- C) kalsiyli sovunlar.

1883. Eterifikatsiya reaksiyasiga teskarı reaksiya qaysi?

- A) oksidlanish;
- B) nitrolanish;
- C) sovunlanish reaksiysi.

1884. Qattiq yog'lar nimalarda bo'ladi va ular qaysi?

- A) hayvon — qo'y, mol yog'larida;
- B) o'simlik — paxta, kungaboqar, so'ya, makkajo'xori, zaytun, kunjut, yong'oqlarda;
- C) faqat laboratoriyyada olinadi.

1885. Suyuq yog'lar nimalarda bo'ladi?

- A) hayvon — qo'y, mol yog'larida;
- B) o'simlik — paxta, kungaboqar, so'ya, makkajo'xori, zaytun, kunjut, yong'oqlarda;
- C) faqat laboratoriyyada olinadi.

1886. Yog'larni gidrolizlanishi qanday?

- A) oksidlanishi;
- B) polimerlanishi;
- C) NaOH ta'sir etish.

1887. Glitserin va yog' kislotalardan eterifikatsiya orqali yog' olishni kim kashf qilgan?

- A) M. Bertlo sintez qilgan, 1854-yil;
- B) A. M. Butlerov, 1854-yil;
- C) A. M. Bersellius, 1854-yil.

1888. Insonlar iste'mol qiladigan ozuqalarning qanchasi uglevod?

- A) 77 % i (non, kartoshka, guruch, qand);
- B) 75 % i (non, kartoshka, guruch, qand);
- C) 70 % i (non, kartoshka, guruch, qand).

1889. O'simlikning quruq moddasining qancha % ini uglevod tashkil qiladi?

- A) 70 % ini;
- B) 80 % ini;
- C) 90 % ini.

1890. Inson va hayvon organizmida qancha % uglevod bor?

- A) 2 % atrofida bo'ladi;
- B) 22 % atrofida bo'ladi;
- C) 12 % atrofida bo'ladi.

1891. Uglevodlarning empirik formulalari qanday?

- A)  $C_n(OH)_m$ ;
- B)  $C_n(H_2O_2)_m$ ;
- C)  $C_n(H_2O)_m$ .

1892. Uglevodlar nimalardan tashkil topgan?

- A) C, N, O tashkil topgan murakkab moddalar;
- B) C, H, O tashkil topgan murakkab moddalar;
- C) S, H, O tashkil topgan murakkab moddalar.

1893. Uglevodlar nechta guruhga bo'linadi va ularga qaysilar kiradi?

- A) monosaxaridlar – glukoza ... (gidrolizga to'liq uchramaydi)  
disaxaridlar – saxaroza, maltoza ... (gidrolizga uchramaydi, molekula monosaxarid hosil bo'ladi), polisaxaridlar – kraxmal, selluloza ... (gidrolizidan n ta molekula monosaxaridlar hosil bo'luvchi yuqori molekulalar birikmalar);  
B) monosaxaridlar – glukoza ... (gidroliza uchramaydi)  
disaxaridlar – kraxmal, maltoza ... (gidrolizga uchramaydi, molekula monosaxarid hosil bo'ladi), polisaxaridlar – saxaroza, selluloza ... (gidrolizidan n ta molekula monosaxaridlar hosil bo'luvchi yuqori molekulalar birikmalar);  
C) monosaxaridlar – glukoza ... (gidrolizga uchramaydi)  
disaxaridlar – saxaroza, maltoza ... (gidrolizga uchramaydi, molekula monosaxarid hosil bo'ladi), polisaxaridlar – kraxmal, selluloza ... (gidrolizidan n ta molekula monosaxaridlar hosil bo'luvchi yuqori molekulalar birikmalar).

1894. Inson qonida qancha %  $C_6H_{12}O_6$  bo'ladi?

- A) 0,6 % bo'ladi;
- B) 0,5 % bo'ladi;
- C) 0,1 % bo'ladi.

1895. Glukoza o'simliklarning qaysi organlarida uchraydi?

- A) mevasi, ildizi, bargi va danagida uchraydi;
- B) mevasi, ildizi, bargi, gullari poyasida uchraydi;
- C) mevasi, ildizi, bargi, gullari poyasida uchramaydi.

1896. Poliatsetal deb nimaga aytildi?

- A) spirit guruhi bilan birlgilikda aldegid yoki keton tutgan birikmalaridagi ichki o'zaro ta'sirlashuv mahsulotlariga aytildi;

B) spirit guruhi bilan birgalikda aldegid yoki karboksil guruhi tutgan birikmalaridagi ichki o'zaro ta'sirlashuv mahsulotlariga aytildi;

C) spirit guruhi bilan birgalikda karboksil guruhi yoki keton tutgan birikmalaridagi ichki o'zaro ta'sirlashuv mahsulotlariga aytildi.

1897. Birinchi bo'lib oddiy uglevodlarni kalsiy gidroksid ishtirokida formalindan kim sintez qilgan?

- A) 1861-yil A.M. Butlerov;
- B) 1862-yil A.M. Butlerov;
- C) 1863-yil A.M. Butlerov.

1898. Kraxmalni gidrolizlab glukoza olishni kim kashf qilgan?


- A) 1812-yilda rus kimyogari K. S Krixgof;
- B) 1811-yilda rus kimyogari K. S Krixgof;
- C) 1813-yilda rus kimyogari K. S Krixgof.

1899. Ishlab chiqarishda glukoza ko'pincha qanday olinadi?


- A)  $(C_6H_{10}O_5)_n + nH_2O \xrightarrow{H_2SO_4} nC_6H_{12}O_6$ ;
- B)  $6CO_2 + 6H_2O \rightarrow C_6H_{12}O_6 + 6O_2$ ;
- C) A va B.

1900. Xeuors formulasi bo'yicha glukozaning tuzilishini aniqlang.

A)



B)



C) A va B.

1901. Glukoza necha xil bijg'iydi?

A)  $C_6H_{12}O_6 \rightarrow CH_3-CH_2OH + 2CO_2$  spiritli bijg'ish;

-  $C_6H_{12}O_6 \rightarrow 2CH_3-CH(OH)-COOH$  sut kislotali bijg'ish

B)  $C_6H_{12}O_6 \rightarrow C_3H_7-COOH + 2H_2 + 2CO_2$  moy kislotali bijg'ish;

-  $C_6H_{12}O_6 + 3O \rightarrow HOOC-CH_2-C(OH)(COOH)-CH_2-COOH$  limon kislotali bijg'ish;

C) A va B.

1902. Glukozaning kimyoviy xossalari qanday?

- A)  $\text{CH}_2\text{OH}-(\text{CHOH})_4-\text{CHO} + \text{Ag}_2\text{O} \rightarrow \text{CH}_2\text{OH}-(\text{CHOH})_4-\text{COOH} + 2\text{Ag}$   
-  $\text{CH}_2\text{OH}-(\text{CHOH})_4-\text{CHO} + 2\text{Cu}(\text{OH})_2 \rightarrow \text{CH}_2\text{OH}-(\text{CHOH})_4-\text{COOH} + \text{Cu}_2\text{O} + 2\text{H}_2\text{O};$   
B)  $\text{CH}_2\text{OH}-(\text{CHOH})_4-\text{CHO} + \text{H}_2 \rightarrow \text{CH}_2\text{OH}-(\text{CHOH})_4-\text{CH}_2\text{OH}$   
-  $\text{CH}_2\text{OH}-(\text{CHOH})_4-\text{CH}_2\text{OH} \rightarrow$  sorbit (olti atomli spirit);  
C) A va B.

1903. Glukoza nimalarda ishlataladi?

- A) tibbiyotda, qandolat mahsulotlarida, oyna va yaltiroq o'ynichoqlarni ishlab chiqarishda, gazlama teri mahsulotlari olishda;  
B) rang olishda oyna va yaltiroq o'ynichoqlarda ishlab chiqarishda, gazlama teri mahsulotlari olishda;  
C) tibbiyotda qandolat mahsulotlarida oyna va yaltiroq o'ynichoqlarda ishlab chiqarishda, parfimeriya mahsulotlari olishda.

1904. O'pka, burun, me'da-ichakda, qon oqishida, qon to'xtatuvchi vosita sifatida nima ishlataladi?

- A) glukon kislotaning bariyli tuzi;  
B) glukon kislotaning kalsiyli tuzi (kalsiy glukonat);  
C) glukon kislota.

1905. Qandli diabet bilan kasallangan odam organizmini saxarozadan ko'ra nimani oson o'zlashtiradi?

- A) glukozani;  
B) maltozani;  
C) fruktozani.

1906. Saxarozadan 1,5 barobar, glukozadan 3 barobar shirin bo'lgan qimmatbaho oziq modda nima?

- A) fruktoza;  
B) laktoza;  
C) glukoza.

1907. Disaxarid vakillari?

- A) laktoza, galaktoza;  
B) saxaroza, maltoza;  
C) fruktoza, glukoza.

1908. Saxaroza va maltoza nimalardan tashkil topgan?

- A) saxaroza  $\rightarrow \text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6 + \text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$  ya'ni, glukoza+fruktozadan, maltoza $\rightarrow$ glukoza + glukozadan;  
B) saxaroza  $\rightarrow \text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6 + \text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$  ya'ni, galaktoza+fruktozadan, maltoza $\rightarrow$ glukoza +sellulozadan;  
C) saxaroza  $\rightarrow \text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6 + \text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$  ya'ni, glukoza+fruktozadan, maltoza $\rightarrow$ fruktoza +sellulozadan.




1909. Saxaroza va maltoza nimasi bilan monosaxaridlardan farq qiladi?

- A) ularda aldegid, karbonil guruh poliatsetal gidroksid guruh ham yo'q;
- B) fosfat spirit gidroza guruh mavjud bo'ladi;
- C) A va B.

1910. Qand lavlagi va shakarqamishda necha % saxaroza bor?


- A) 6-20%; 14-26%;
- B) 16-20%; 14-26%;
- C) 16-20%; 4-26%.

1911. Saxaroza gidrolizga uchrasa nima hosil bo'ladi?




1912. Saxarozaning kimyoviy xossalari qanday?


- A) maltoza glukoza fruktoza



- B) maltoza glukoza glukoza



- C) Saxaroza glukoza fruktoza



1913. Disaxaridlarning olinishi va ishlatalishi qanday?

- A) saxaroza maxsus zavodlarga qand lavlagi va shakarqamishdan olinadi;
- B) maltoza hayvon sutida polisaxaridlar gidrolizi oraliq mahsulotlardan ajratib olinadi, ulardan oziq-ovqat sanoatida foydalaniadi;
- C) A va B.

1914. Kartoshka tugunaklarida necha % kraxmal bo'ladi?

- A) 20%;
- B) 30%;
- C) 40%.

1915. Bug'doy va makkajo'xori donlarida qancha % kraxmal bo'ladi?

- A) 50%;
- B) 60%;
- C) 70%.

1916. Guruchda qancha % kraxmal bo'ladi?

- A) 70%;
- B) 80%;
- C) 90%.

1917. Eng ko'p tarqalgan o'simlik uglevodi nima hisoblanadi?

- A) kraxmal;
- B) selluloza;
- C) dekstrin.

1918. Fotosintez jarayonida ro'y beradigan reaksiyani ko'rsating.

- A)  $6nCO_2 + 6nH_2O + h\nu \rightarrow (C_6H_{10}O_5)_n + 6nO_2 + ATP$ ;
- B)  $6nCO_2 + 6nH_2O + h\nu \rightarrow (C_6H_{10}O_5)_n + 6nO_2 + ATP$ ;
- C)  $(C_6H_{10}O_5)_n + H_2O \rightarrow C_6H_{12}O_6$ .

1919. Kraxmalni umumiy gidrolizlanish reaksiyasini ko'rsating.

- A)  $(C_6H_{10}O_5)_n \rightarrow (C_6H_{10}O_5)_n \rightarrow C_{12}H_{22}O_{11} \rightarrow nC_6H_{12}O_6$   
kraxmal dekstrin glukoza maltoza



- B)  $(C_6H_{10}O_5)_n \rightarrow (C_6H_{10}O_5)_n \rightarrow C_{12}H_{22}O_{11} \rightarrow nC_6H_{12}O_6$   
dekstrin kraxmal maltoza glukoza



- C)  $(C_6H_{10}O_5)_n \rightarrow (C_6H_{10}O_5)_n \rightarrow C_{12}H_{22}O_{11} \rightarrow nC_6H_{12}O_6$   
kraxmal dekstrin maltoza glukoza



1920. Kraxmal yod bilan ta'sirlashganda qanday rangga kiradi?

- A) qizil rangga kiradi va sifat reaksiyasi hisoblanadi;

- B) ko'k rangga kiradi va sifat reaksiyasi hisoblanadi;

- C) havo rangga kiradi va sifat reaksiyasi hisoblanadi.

1921. Kraxmal nimalarda ishlatalidi?

- A) antibiotiklar, vitaminlar, kolbasalar, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda, tibbiyotda gazlamalarni ohorlashda va ularga ishlov berishda ishlatalidi;

- B) antibiotiklar, vitaminlar, kolbasalar, dizenfeksiyalovchi mahsulotlari ishlab chiqarishda tibbiyotda gazlamalarni ohorlashda va ularga ishlov berishda ishlatalidi;

- C) antibiotiklar, vitaminlar, kolbasalar, parfyumeriya mahsulotlari ishlab chiqarishda, tibbiyotda gazlamalarni ohorlashda va ularga ishlov berishda ishlatalidi.

1922. Yog'ochda selluloza qancha %ni tashkil qiladi?

- A) 40 %;
- B) 50 %;
- C) 60 %.

1923. Paxta tolasida selluloza qancha %ni tashkil qiladi?

- A) 96 %;
- B) 94 %;
- C) 98%.

1924. Selluloza olishning eng ko'p tarqalgan usuli qaysi?

- A) nitrat usuli;
- B) ammiakli usul;
- C) sulfat usuli.

1925. Selluloza qanday erituvchida eriydi?

- A) uning erituvchisi Shveyser reaktivi – Cu(OH)<sub>2</sub>, ning NH<sub>3</sub> li eritmasi;
- B) uning erituvchisi Shveyser reaktivi – Ca(OH)<sub>2</sub>, ning NH<sub>3</sub> li eritmasi;
- C) uning erituvchisi Shveyser reaktivi – Zn(OH)<sub>2</sub>, ning NH<sub>3</sub> li eritmasi.

1926. Kraxmal va sellulozaning asosiy farqi nimada?

- A) glukoza ham chiziqli ham tarmoqlangan strukturaga ega, selluloza esa chiziqli strukturaga ega;
- B) kraxmal ham chiziqli ham tarmoqlangan strukturaga ega, selluloza esa chiziqli strukturaga ega;
- C) kraxmal ham tetraedr ham tarmoqlangan strukturaga ega, selluloza esa chiziqli strukturaga ega.

1927. Kraxmal va sellulozaning tuzilishida qanday farq bor?

- A)kraxmal  $\alpha$  – glukozadan, selluloza  $\beta$  –glukozadan hosil bo'lgan;
- B)kraxmal  $\beta$  – glukozadan, selluloza  $\alpha$  – glukozadan hosil bo'lgan;
- C) tuzilishida farqi yo'q.

1928. Shakarlanish nima?

- A) sellulozaning ohaklanishi;
- B) sellulozaning pirolizi;
- C) sellulozaning gidrolizlanishi.

1929. 1 tonna yog'ochdan qancha spirit olinadi?

- A) 2000 l gacha;
- B) 200 l gacha;
- C) 20 l gacha.

1930. Sellulozaning kimyoviy xossasi?

- A)  $[C_6H_{10}O_5(OH)_3]_n + 3nH_2CO_3 \rightarrow [C_6H_{10}O_2(OCO_2)_3]_n + 3nH_2O$  trikarbo selluloza (priksolin);  
-  $[C_6H_{10}O_2(OH)_3]_n + 2nCH_3COOH \rightarrow [C_6H_{10}O_2(OCOOH)_3]_n + 2nH_2O$  diasetat selluloza;  
-  $[C_6H_{10}O_2(OH)_3]_n + 3nHC_3COOH \rightarrow [C_6H_{10}O_2(OCOCH_3)_3]_n$  triasetat selluloza
- B)  $[C_6H_{10}O_2(OH)_3]_n + 3nHCl \rightarrow [C_6H_{10}O_2(Cl)_3]_n + 3nH_2O$  trikloro selluloza (priksolin);

-  $[C_6H_{10}O_2(OH_3)_n] + 2nCH_3COOH \rightarrow [C_6H_{10}O_2(OCOOH_3)_n] + 2nH_2O$   
diasetat selluloza;

-  $[C_6H_{10}O_2(OH_3)_n] + 3nHC_3COOH \rightarrow [C_6H_{10}O_2(OCOCH_3)_3]_n$  triasetat selluloza.

C)  $[C_6H_{10}O_2(OH)_3]_n + 3nHNO_3 \rightarrow [C_6H_{10}O_2(ONO_2)_3]_n + 3nH_2O$  trinitro selluloza (prikoslin);

-  $[C_6H_{10}O_2(OH_3)_n] + 2nCH_3COOH \rightarrow [C_6H_{10}O_2(OCOOH_3)_n] + 2nH_2O$   
diasetat selluloza.

-  $[C_6H_{10}O_2(OH_3)_n] + 3nHC_3COOH \rightarrow [C_6H_{10}O_2(OCOCH_3)_3]_n$  triasetat selluloza.

1931. Sun'iy tola deb nimaga aytildi?

A) sintetik materiallardan olinadigan tolalarga aytildi;

B) tabiiy tolalarni kimyoviy qayta ishlab olinadigan tolalarga aytildi;

C) sun'iy materiallardan olinadigan tolalarga aytildi.

1932. Sintetik tola deb nimaga aytildi?

A) sun'iy materiallardan olinadigan tolalarga aytildi;

B) tabiiy materiallardan olinadigan tolalarga aytildi;

C) sintetik materiallardan olinadigan tolalarga aytildi.

1933. Termik parchalanganda qanday mahsulot hosil bo'ladi?

A) yog'och ko'miri, suv, uchuvchan organik moddalar: metanol, sirka kislota, aseton va boshqalar;

B) yog'och ko'miri, suv, uchuvchan organik moddalar: metanol, chumoli kislota, aseton va boshqalar;

C) yog'och ko'miri, suv, uchuvchan organik moddalar: metanol, sirka, kislota, aseton va boshqalar.

1934. Selluloza nimalarda ishlataladi?

A) qog'oz, etanol, paxta momig'i tayyorlashda sun'iy tolalar, (asetilen, viskoza) olishda asosiy xomashyo bo'lgan oddiy va murakkab efirlar olishda;

B) sun'iy charm plastmassalar (selluloid, sellofan) laklar, elektron izolatsion qoplamlar, yonmaydigan kinoplyonka ionlar, tabiiy kollodiyasida ishlataladi;

C) A va B.

## Kislordanligi organik birikmalar mavzusiga oid namunaviy masalalar va ularning yechilish usullari

**1-masala:** Organik kislordaning kumushli tuzidan 0,195g miqdorini termik parchalanishi natijasida 0,108g kumush hosil bo'lgan. Boshlang'ich kislordan NaOH bilan reaksiyasi natijasida faqat ita vodorod atomi Na ga almashinishi mumkin ekanligi ma'lum bo'lsa, boshlang'ich kislordaning struktura formulasini aniqlang.

### Yechish:

1) Nejtrallanish reaksiyasi natijasida faqat bir atom vodorodning natriy atomiga almashinishi kislota bir asosli ekanligini ko'rsatadi. Uning formulasi R—COOH bo'lsa:



2) Demak, kumushli tuz R—COOAg bo'ladi. Lekin kislota tarkibidagi radikal noma'lum bo'lgani uchun tuz formulasini quyidagicha belgilanadi:  $C_xH_yCOOAg$ :

3) Tuzning molekular massasi topiladi:

$$M_r = 12x+y+44+108 = 12x+y+152;$$

4)  $C_xH_yCOOAg$  tuzni bir molini parchalab bir mol kumush olish mumkin. Shunga asoslanib hosil bo'lgan kumush moli:

$$n = \frac{0,108}{108} = 0,001 \text{ mol Ag};$$

5) Tuzning molyar massasi:

$$M_r = \frac{0,195}{0,001} = 195;$$


6) Radikal aniqlanadi:  $195 - 108(\text{Ag}) - 44(\text{COO}) = 43(C_3H_7)$ .

**Javob:** Demak kislota formulasi  $C_3H_7COOH$  bo'ladi.

**2-masala:** 3-pentanol +  $\text{CrO}_3 + \text{CH}_3\text{COOH} \rightarrow \dots$  Ushbu oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari tenglamasini oxirigacha yozing va koeffistiyentlarini tenglang.


### Yechish:

1) Dastlab, ikkilamchi spirtlar oksidlanganda keton hosil bo'lishiga asoslanib quyidagicha mahsulot hosil qilinadi:



II  $\begin{array}{c} \rightarrow \text{CH}_3 - \text{CH}_2 - \text{C} - \text{CH}_2 - \text{CH}_3 + \text{Cr}(\text{CH}_3\text{COO})_3 + \text{H}_2\text{O} \\ \text{C}^{\circ} - 2e \quad \text{C}^{+2} \quad \left| \begin{array}{c} 2 \\ 3 \end{array} \right| \quad \begin{array}{c} \text{qaytaruvchi} \\ 3 \end{array} \\ \text{Cr}^{+6} + 3e \rightarrow \text{Cr}^{+3} \quad \left| \begin{array}{c} 3 \\ 2 \end{array} \right| \quad \begin{array}{c} \text{oksidlovchi} \\ 2 \end{array} \end{array}$

2) Oksidlovchi va qaytaruvchining miqdoriga asoslanib reaksiya tenglanadi:



**3-masala:** Metil spirit, etil spirit, 2 propanol, 2 metil - 2 propanolni nisbiy kislotaliligini ortib borish tartibida joylashtiring.

**Yechish:** 2metil-2propanol 2propanol etil spirit metil spirit.

**4-masala:** Molekular massasi 130g bo'lgan efir gidroliz qilinganda A kislota bilan B spirit hosil bo'ldi. A kislotaning kumushli tuzi tarkibida 59,66% Ag bortligi ma'lum bo'lsa, efrining tuzilishini aniqlang. B spirit natriy dixromat ta'sirida oksidlanmaydi va HCl kislota bilan reaksiyaga kirishib, alkil xlorid hosil qiladi.

**Yechish:**

1) Kislotaning kumushli tuzini molekular massasi topiladi:

$$\text{C}_n\text{H}_{2n+1}\text{COOAg} \quad \text{Mr} (108+100) : 59,66 \approx 181;$$

$$2) \text{ Yuqoridagiga binoan } 14n+1+12+32+108=181;$$

Bundan  $n=2$ . Demak bu propion kislota;

3) Efir hosil bo'lishida suv parchalanganligi sababli kislota va spiritni molar massasi:  $130+18=148$ ;

4) Spiritning molar massasi  $\text{C}_m\text{H}_{2m+1}\text{OH}$ ;  $\text{Mr}=74(148-74)$ ;

5) 74 molar massali spirit  $\text{C}_4\text{H}_9\text{OH}$ (butanol);

6) Spirit masala shartiga ko'ra OH gruppasini xlorga oson almashinadi va natriy dixromatda oksidlanmaydi. Demak, spirit uchlamchi-  $(\text{CH}_3)_3\text{COH}$ .

**Javob:** A= $\text{C}_2\text{H}_5\text{COOH}$ , B= $(\text{CH}_3)_3\text{COH}$ .

**5-masala:** 55,5ml aseton bilan 44,5 ml suv aralashmasi (0,99g/ml) dagi asetonning molar konsentratsiyasini aniqlang. Asetonning zichligi 0,786g/ml. Eritma hosil bo'lishida hajm o'zgarishini hisobga olinmasin.

**Yechish: I-usul**

$$\text{Mr} (\text{CH}_3\text{-CO-CH}_3)=58$$

1) Asetonnig massasi aniqlaniladi:  $m=p \cdot v = 55,5 \cdot 0,786 = 43,623$ ;

2) Umumi eritma massasi 88,123g ( $43,623+44,5$ );

3) Eritmani massa ulushi:

$$88,123 \quad 100\%$$

$$43,623 \quad x \quad x=49,5\%;$$

4) Asetonni molar konsentratsiyasi topiladi:

$$C_m = \frac{C\% \cdot p \cdot 10}{Mr} = \frac{49,5 \cdot 0,99 \cdot 10}{58} = 8,45 \text{ mol/l.}$$

**II-usul**

1) Asetonnig massasi aniqlaniladi:  $m=p \cdot v = 55,5 \cdot 0,786 = 43,623$ ;

2) Umumi eritma massasi 88,123g ( $43,623+44,5$ );


3) Eritma hajmi aniqlaniladi:  $V = \frac{m}{p} = \frac{88,123}{0,99} = 89,015$ ;

4) Molyar konsentratsiya formulasida asetonning molyarligi aniqlaniladi:

**Javob:** 8,45 mol/l.

**6-masala:** Massasi 9,65g bo'lgan sirkva propion aldegidlar aralashmasi katalitik gidrogenlanganda 4,03 litr (n.sh.) vodorod sarf bo'lди. Dastlabki aralashmadagi sirkva aldegidni massa ulushini (%) toping.

**Yechish:**



1) Ikki noma'lumli aralashmalarni yechish qoidasiga asoslanib, sirkva aldegidning massasini -x, propion aldegidnikini esa-(9,65-x), sirkva aldegidga ketgan vodorod hajmi-y, propion aldegidga ketgan vodorod hajmini (4,03-y) bilan belgilanadi va quyidagi tenglamalar sistemasi tuziladi:

$$44 \quad \quad \quad 22,4$$

$$x \quad \quad \quad y = 0,59x$$

$$58 \quad \quad \quad 22,41$$

$$(9,65-x) \quad \quad \quad (4,03-0,59x)$$

$$22,4x-216,16 \quad 29,527x-233,74$$

$$7,127x \quad 17,58 \quad \quad \quad x=2,46 \text{ sirkva aldegid};$$

2) Propanalning massasi :  $9,65-2,46=7,19$ ;

3) Sirkva aldegidni % i aniqlanadi:  $C\% = \frac{2,46}{9,65} \cdot 100\% = 25,5\%$

**Javob:** 25,5 %.

**7-masala:** Metanni katalitik oksidlash bilan 64,4 kg chumoli kislota olish uchun qancha litr (n.sh.) tabiiy gaz sarf bo'ladi? Tabiiy gaz tarkibida 98% (hajmiy) metan bo'ladi.

**Yechish:**



1) 64,4 kg HCOOH kislota olish uchun qancha metan zarurligi topiladi.  
 $92 \quad \quad \quad 32$

$$64,4 \quad \quad \quad x \quad \quad \quad x=22,4 \text{ CH}_4;$$

2) Metanning massasidan uning miqdori topib olinadi:

$$n = \frac{22400}{16} = 1400 \text{ mol} \text{ yoki } 22,4 \cdot 1400 = 31360 \text{ litr};$$

3) Tabiiy gazda 98% metan bo'lganligi uchun:

$$98\% \quad \quad \quad 31360$$

$$100\% \quad \quad \quad x \quad \quad \quad x=32000 \text{ litr};$$

**Javob:** 32000 litr tabiiy gaz.

---

## XIV BOB

### AZOTLI ORGANIK BIRIKMALAR

*Molekulasida azot atomi tutgan organik moddalar—azotli organik birikmalar deb ataladi. Azotli organik moddalarni nitrobirikmalar, aminlar (alifatik va aromatik), aminokislotalar, azotli geterotsiklik birikmalar, nuklein kislotalar kabi sinflari mavjud.*

*Azot tutuvchi organik moddalarni tabiatdag'i roli beqiyos bo'lib, ayniqsa barcha tirik organizmlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblangan oqsillar ham aminokislotalardan tashkil topganligi buning yaqqol ifodasidir.*

*Ushbu hohda azotli organik birikmalarning tarkibi, tuzilishi, xossalari va tabiatdag'i ahamiyatiga oid savol-javoblar, masalalar va ularning yechimlari keltirilgan.*

#### Azotli organik birikmalar mavzusiga oid savollar va ularning javoblari

1935. Nitrobirikmalar deb nimaga aytildi?

A) molekula tarkibidagi uglerod atomi nitrogruppa (-NO<sub>2</sub>) bilan bevosita bog'langan birikmalarga;

B) molekula tarkibidagi nitro guruh vodorod vositasida bog'langan birikmalar;

C) molekula tarkibidagi uglerod atomi NH<sub>2</sub> guruh bilan bog'langan birikmalar.

1936. Nitrobirikmalarning nomlanishi qanday?

A) tegishli uglevodorod nomiga «imino» so'zi qo'shib aytildi;

B) tegishli uglevodorod nomiga «nitro» so'zi qo'shib aytildi;

C) tegishli uglevodorod nomiga «amino» so'zi qo'shib aytildi.


1937. Nitrolash nima?

A) organik birikmalarga NO<sub>2</sub> guruh kiritish;

B) organik birikmalarga amino gruppera kiritish;

C) organik moddalarga nitrogruppa kiritish.

1938. Nitrobirikmalarning olinishi.



1939. Nitrobirikma nimada eriydi?

- A) efirda, suvda;
- B) spirtda, yog'da;
- C) efirda eriydi, spirt bilan yaxshi aralashadi.

1940. Nitrobirikmalarning kimyoviy xossalari.

- A)  $\text{CH}_3\text{-NO}_2 + 3\text{H}_2 \rightarrow \text{CH}_3\text{-NH}_2 + \text{H}_2\text{O}$ ;
- B)  $\text{CH}_3\text{Cl} + \text{NH}_3 \rightarrow \text{CH}_3\text{NH}_2 + \text{HCl}$ ;
- C)  $\text{CH}_4 + \text{HNO}_3 \rightarrow \text{CH}_3\text{NO}_2 + \text{H}_2\text{O}$ .

1941. Aminlar deb qanday moddalarga aytildi va birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi aminlarga ta'rif?

A) aminlar deb  $\text{NH}_3$  dagi N atomining uglevodorod radikaliga almashinishidan hosil bo'lgan murakkab moddalarga aytildi;

- $\text{NH}_3$  dagi bitta H al mashgan bo'lsa, birlamchi aminlar deb ataladi  $\text{R}_1\text{-NH}_2$ ;

- $\text{NH}_3$  dagi ikkita H al mashgan bo'lsa ikkilamchi aminlar deb ataladi.

$\text{R}_1\text{-NH-R}_2$  [ $\text{R}_1=\text{R}_2$ ].

- $\text{NH}_3$  dagi barcha H al mashgan bo'lsa uchlamchi amin deb ataladi;

B) aminlar deb  $\text{NH}_3$  dagi bitta, ikkita barcha H atomlarning uglevodorod radikaliga almashinishidan hosil bo'lgan murakkab moddalarga aytildi;

- $\text{NH}_3$  dagi bitta H al mashgan bo'lsa, birlamchi aminlar deb ataladi  $\text{R}_1\text{-NH}_2$ ;

- $\text{NH}_3$  dagi ikkita H al mashgan bo'lsa, ikkilamchi aminlar deb ataladi.

$\text{R}_1\text{-NH-R}_2$  [ $\text{R}_1=\text{R}_2$ ].

- $\text{NH}_3$  dagi barcha H al mashgan bo'lsa, uchlamchi amin deb ataladi;

C) aminlar deb  $\text{NH}_3$  dagi bitta, ikkita barcha H atomlarning uglevodorod radikaliga almashinishidan hosil bo'lgan murakkab moddalarga aytildi.

- $\text{NH}_3$  dagi bitta H al mashgan bo'lsa, birlamchi aminlar deb ataladi  $\text{R}_1\text{-NH}_2$ ;

- $\text{NH}_3$  dagi ikkita H al mashgan bo'lsa, ikkilamchi aminlar deb ataladi.

$\text{R}_1\text{-NH-R}_2$  [ $\text{R}_1=\text{R}_2$ ].

- uchlamchi aminlar mavjud emas.

1942. Uglevodorodlar radikaliga qarab amino birikmalari nechaga bo'linadi?

- A) alifatik aminlar, alitsiklik aminlar;
- B) aromatik aminlar, geterosiklik aminlarga bo'linadi;
- C) A va B.

1943. Qanday izomerlar kuzatiladi?

- A) zanjir va holat izomeriyasi kuzatiladi;
- B) funksional guruh holatiga;
- C) zanjir va qo'shbog' holatiga.

1944. Nima uchun aminlar asoslik xossasini namoyon qiladi?

A) juft elektronlar hisobiga azot atomi o'ziga suvning ( $\text{OH}^-$ ) guruhini biriktirishi hisobiga;

B) juft elektronlar hisobiga azot atomi o'ziga suvning yoki kislotaning protonini ( $\text{H}^+$ ) biriktirishi mumkin. Shuning uchun asos xossasini namoyon qiladi va molekulasi qutbli bo'ladi;

C) aminlar asosli xossasini namoyon qila olmaydi.

1945. Aromatik va alifatik aminlarda uglevodorod radikal ortib borishi bilan asoslik xossasi qanday o'zgaradi?

A) aromatik aminlarda — kamayadi, alifatik aminlarda — ortadi;

B) aromatik aminlarda — kamayadi, alifatik aminlarda — o'zgarmaydi;

C) aromatik aminlarda — ortadi, alifatik aminlarda — kamayadi.

1946. Birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi aminlarning asoslik xossasi qaytarzda ortib boradi?

A)  $(\text{C}_6\text{H}_5)_3\text{N} \rightarrow (\text{C}_6\text{H}_5)_2\text{NH} \rightarrow \text{C}_6\text{H}_5\text{NH}_2 \rightarrow \text{R}_3\text{N} \rightarrow \text{RNH}_2 \rightarrow \text{R}_2\text{NH NH}_3$ ;

B)  $(\text{C}_6\text{H}_5)_3\text{N} \rightarrow (\text{C}_6\text{H}_5)_2\text{NH} \rightarrow \text{C}_6\text{H}_5\text{NH}_2 \rightarrow \text{NH}_3 \rightarrow \text{R}_2\text{NH} \rightarrow \text{RNH}_2 \rightarrow \text{R}_3\text{N}$ ;

C)  $(\text{C}_6\text{H}_5)_3\text{N} \rightarrow (\text{C}_6\text{H}_5)_2\text{NH} \rightarrow \text{C}_6\text{H}_5\text{NH}_2 \rightarrow \text{NH}_3 \rightarrow \text{RNH}_2 \rightarrow \text{R}_2\text{NH} \rightarrow \text{R}_3\text{N}$ .

1947. Anilinga xos xususiyat?

A) och-pushti rangli, moysimon, o'ziga xos hidli, suvda yomon eruvchi zaharli modda;

B) rangsiz, suyuq, hidsiz, suvda erimaydi, kuchli zaharli;

C) rangsiz, moysimon, o'ziga xos hidli, suvda eruvchan modda, kuchli zahar.

1948. Anilinning olinishi va ishlatalishi.

A) bo'yoqlar, dorilar, (sulfanil aminlar) portlovchi moddalar, yuqori molekular birikmalar olinadi;

B) bo'yoq, porox, begona o'tlarga qarshi dorilar tayyorlanadi;

C) portlovchi moddalar, yuqori molekulali birikmalar, hashorotlarga qarshi kurashuvchi dorilar tayyorlanadi.

1949. Anilinning olinishini nitrobenzolni qaytarishga asoslagan olim kim?

A) A.M. Butlerov 1842-yil;

B) N. N. Zinin 1842-yil;

C) M.G. Kucherov 1842-yil.

1950. Aminlarning olinishi?

A) tabiiy sharoitda aminlar azotli moddalarning parchalanishidan hosil bo'ladi;

B) Goffman reaksiyasi asosida;

C) A va B.

1951. Nitrit kislota bilan aminlar qanday ta'sirlashadi?

A) a) birlamchi aminlar  $\text{R}-\text{NH}_2 + \text{HONO} \rightarrow \text{R}-\text{OH} + \text{N}_2 + \text{H}_2\text{O}$ ;

- b) ikkilamchi aminlar  $R-NH-R+HONO \rightarrow R_2N-N=O + H_2O$   
 c) uchlamchi aminlar ta'sirlashmaydi;  
 B) a) birlamchi aminlar  $R-NH_2+HONO \rightarrow R-OH+N_2+H_2O$   
 b) ikkilamchi aminlar  $R-NH-R+HONO \rightarrow R_2N-NO_2 + H_2O$   
 c) uchlamchi aminlar ta'sirlashmaydi;  
 C) a) birlamchi aminlar  $R-NH_2+HONO \rightarrow R-OH+N_2+H_2O$ ;  
 b) ikkilamchi aminlar va uchlamchi aminlar ta'sirlashmaydi.

1952. Aminokislarning qoidasi va umumiy formulasi?

A) aminokislalar – uglevodorod radikalida aminoguruh ( $-NH_2$ ) va karboksil guruh ( $-COOH$ ) tutgan organik birikma. Umumiy formulasi  $NH_2-R-COOH$  birikma;

B) aminokislalar – uglevodorod radikalida aminoguruh ( $-NH_2$ ) va karbanil guruh ( $-COH$ ) tutgan organik birikmalar. Umumiy formulasi  $NH_2-R-COH$  birikma;

C) aminokislalar – ammiak radikalida uglevodorod radikali va karboksil guruh ( $-COOH$ ) tutgan organik birikmalar. Umumiy formulasi  $NH_2-R-COOH$  birikma.

1953. Aminoguruh joylashuviga qarab aminokislalar qanday tabaqalashtiriladi?

- A) birlamchi, ikkilamchi, to'rtlamchi;  
 B) orto, meta, para;  
 C)  $\alpha$  (alfa),  $\beta$  (beta),  $\gamma$  (gamma),  $\Delta$  (delta),  $\varepsilon$  (epsilon) aminokislatalarga bo'linadi.

1954. Bipolyar xossasini namoyon qilishning sababi nimada?

- A)  $NH_2$  va  $COOH$  funksional guruh borligi uchun;  
 B)  $NH_2$  va  $COH$  funksional guruh borligi uchun;  
 C)  $NO_2$  va  $COOH$  funksional guruh borligi uchun.

1955. Bipolyarlik aminokislatalarni qanday xususiyatini ta'minlaydi?

- A) suvda eruvchanligini, suvli eritmalarining neytralligini, qattiq tuzlarni kristall tuzilishiga egaligini, past  $t^\circ$  da qaynashini ta'minlaydi;  
 B) suvda eruvchanligini, ishqoriy muhitga ega bo'lismeni, yuqori  $t^\circ$  da qaynashini ta'minlaydi;  
 C) suvda eruvchanligini, suvli eritmalarining neytralliligini, qattiq tuzlarni kristall tuzilishiga egaligini, yuqori  $t^\circ$  da qaynashini ta'minlaydi.

1956. Aminokislalar uchun qanday izomeriya kuzatiladi?

- A)  $COOH$  guruhini joylashgan o'rni;  
 B) strukturaviy va steroioizomeriya xos;  
 C) funksional guruhni joylashgan o'rni va fazoviy izomeriya kuzatiladi.

1957. Qanday tuzilishga ega bo'lgan aminokislota indikator rangini o'zgartirmaydi?

- A) monoamino monokarbon va diaminodikarbon aminokislota;

- B) diamino manokarbon va monoaminodikarbon;  
C) monoamino monokarbon va monoaminodikarbon.

1958. Qanday tuzilishga ega bo'lgan aminokislolar indikator rangini o'zgartiradi?

- A) diamino manokarbon va monoaminodikarbon;  
B) monoamino monokarbon va diaminodikarbon aminokislota;  
C) monoamino monokarbon va monoaminodikarbon.

1959. Aminokislolarning olinishi?

- A) galogen ta'siri:  $\text{CH}_3\text{COOH} + \text{Cl}_2 \rightarrow \text{Cl}-\text{CH}_2-\text{COOH} + \text{HCl}$ ;  
B)  $\text{NH}_3$  ta'siri:  $\text{Cl}-\text{CH}_2-\text{COOH} + \text{NH}_3 \rightarrow \text{H}_2\text{N}-\text{CH}_2-\text{COOH} + \text{HCl}$ ;  
C) A va B.

1960. Aminokislolar nimalarda ishlataladi?

A) tibbiyotda hayvonlar ozuqasini boyitish uchun, rezina va sun'iy tolalar olish uchun ishlataladi;

B) hasharotlarga qarshi kurashishda, tabobatda sun'iy rezina va plastmassalar olishda ishlataladi;

C) tibbiyotda hayvonlar ozuqasini boyitish uchun chorvachilikda, plastmassalar va sun'iy tolalar olish uchun ishlataladi.

1961. Almashinmaydigan aminokislolar faqat nimalarda sintezlanadi?

- A) yashil o'simliklarda;  
B) hayvon va o'simliklarda;  
C) mikroorganizmlarda.

1962. Oqsillar birlamchi strukturasi deb nimaga aytildi?

A) kimyoviy bog'lar ishtirokida fazoda spiral holidagi joylashuviga aytildi;  
B) aminokislolarning ma'lum izchilligi joylashuviga aytildi;  
C) valent burchaklarga va aminokislota qoldiqlarining o'zaro ketma-ketligiga mos ravishda polipeptid zanjirning spiralsimon buralgan holatda fazoda joylashuviga aytildi.

1963. Oqsillar kimyoviy tarkibiga ko'ra necha turga bo'linadi?

- A) 2 ga: oddiy va murakkab;  
B) 2 ga: almashinadigan va almashinmaydigan;  
C) 2 ga: bir va ko'p komponentli.

1964. Oddiy va murakkab oqsil deyilishiga sabab nima?

A) – oddiy oqsillar gidrolizida faqat aminokislota hosil bo'ladi;  
– murakkab oqsillarda esa aminokislotadan tashqari boshqa moddalar ham hosil qiladi;  
B) – oddiy oqsillar gidrolizga uchramaydi;  
– murakkab oqsillarda esa aminokislotadan tashqari boshqa moddalar ham hosil qiladi;  
C) – oddiy oqsillar gidrolizida faqat aminokislota hosil bo'ladi.  
– murakkab oqsillar esa gidrolizga uchramaydi.

1965. Oqsillarning amfoterlik xossasining sababi nimada?

- A) COOH borligi uchun;
- B) NH<sub>2</sub> borligi uchun;
- C) A va B.

1966. Protaminlar nima?

- A) tarkibida S bo'lgan oqsillar;
- B) tarkibida S bo'lmasagan oqsillar;
- C) tarkibida proteinsulfid bo'lgan oqsillar.

1967. Odam qon zardobida albumin va globulinning og'irligi qancha?

- A) 6150 va 1530;
- B) 6150 va 15300;
- C) 61500 va 153000.

1968. Oqsillar qanday erituvchilarda erimaydi?

- A) organik erituvchilarda;
- B) qutbli erituvchilarda;
- C) barcha erituvchilarda eriydi.

1969. Denaturatsiya nima?

- A) aminokislota strukturasining o'zgarishi;
- B) oqsillarning oksidlanishi;
- C) oqsillar strukturasining o'zgarishi.

1970. Oqsillarning rangli reaksiyalariga misollar?

A) Ksantoprotein reaksiyasi — oqsilga ishqor va bir necha tomchi mis kuperosi eritmasidan ta'sir ettirilganda binafsha rang hosil bo'ladi.

— Biuret reaksiyasi — benzol halqasi tutgan oqsillarga konsentrangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda sariq rang hosil bo'ladi. Ishqor qo'shilsa sariq rang zargaldoqqa o'tadi.

— Millon reaksiyasi — oqsillarga simob nitratning nitrit kislota eritmasi ta'sir ettirilsa qizil rang paydo bo'ladi (bu fenol gruppasi mavjudligidan dalolat).

— Sulfogidril reaksiyasi — oqsillarga plyumbit eritmasi qo'shib qizdirilsa, qora cho'kma (PbS) hosil bo'ladi. (bu — SH gruppasi borligini bildiradi);

B) Biuret reaksiyasi — oqsilga ishqor va bir necha tomchi mis kuperosi eritmasidan ta'sir ettirilganda binafsha rang hosil bo'ladi.

— Ksantoprotein reaksiyasi — benzol xalqasi tutgan oqsillarga konsentrangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda sariq rang hosil bo'ladi. Ishqor qo'shilsa sariq rang zargaldoqqa o'tadi.

— Millon reaksiyasi — oqsillarga simob nitratning nitrit kislota eritmasi ta'sir ettirilsa qizil rang paydo bo'ladi (bu fenol gruppasi mavjudligidan dalolat).

— Sulfogidril reaksiyasi — oqsillarga plyumbit eritmasi qo'shib qizdirilsa, qora cho'kma (PbS) hosil bo'ladi. (bu — SH gruppasi borligini bildiradi);

C) Millon reaksiyasi — oqsilga ishqor va bir necha tomchi mis kuperosi eritmasidan ta'sir ettirilganda binafsha rang hosil bo'ladi.

— Ksantoprotein reaksiyasi — benzol xalqası tutgan oqsillarga konsentrlangan nitrat kislota ta'sir ettirilganda sariq rang hosil bo'ladi. Ishqor qo'shilsa sariq rang zarg'aldoqqa o'tadi.

— Biuret reaksiyasi — oqsillarga simob nitratning nitrit kislota eritmasi ta'sir ettirilsa qizil rang paydo bo'ladi (bu fenol gruppasi mavjudligidan dalolat).

— Sulfogidril reaksiyasi — oqsillarga plyumbit eritmasi qo'shib qizdirilsa, qora cho'kma (PbS) hosil bo'ladi. (bu — SH gruppasi borligini bildiradi).

### 1971. Oqsillarning ishlatalishi?

A) tabiiy tolalar (ipak, jun) teri-charm, jelatin, kazein, plastmassalar olishda ishlataladi;

